Psixologiya voqelikning alohida bir sohasi bo'lgan, psixik (yoki ruhiy) hayot sohasini o'rGANADI. Har kimga ma'lum hodisalar – sezgilarimiz, idrok, tasavvurlarimiz, fikr, his, intilishlarimiz va shunga o'xshashlar psixika hodisalari jumlasidandir. Shaxsning psixik yoki individual hususiyatlari deb ataladigan hususiyatlar: odamning temperamenti (mijozi), xarakteri (fe'l-atvori), qobiliyat, chtiyoj, mayl va havaslari ham psixika sohasiga kiradi.

Psixik hodisalarning butun majmui odatda psixika degan bir so'z bilan ataladi.

Psixika o'ziga alohida bir olam emas: u organik hayotning yuksak shakllaridan bo'lib, faqat hayvonlar bilan odamlarga xosdir. Hayvonlar bilan odam, o'simliklardan farq qilib, yolg'iz organik hayotga ega bo'libgina qolmay, balki, shu bilan birga, psixik hayotga ham egadir. Lekin, ma'lumki, hayvonlarning psixik hayoti odamning psixik hayotiga qaraganda soddaroqdir. Odam psixikasi hayvonlar psixikasidan sifat jihatidan farq qiladi. Odama psixik hayotning yuksak formasi – ong bor. Odam ongli zotdir.

Psixik hayot hodisalari juda hilma-hil, ammo bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Psixologiyaning vazifasi ana shu bog'lanish va munosabatlarning qonuniyatlarini ochib berishdir. Psixik hodisalar va butun psixika rivojlanib kelgan va rivojlanmoqda. Shu sababli, psixologiya psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berishi kerak.

Psixologiya fanining ma'lumotlaridan amaliy maqsadda va avvalo ta'llimtarbiya ishida, shuningdek, ishlab chiqarishda mehnatni tashkil etish va ixchamlashtirishda meditsinada, san'at va shunga o'xshash sohalarda foydalanmoq uchun psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini bilish kerak.

Shunday qilib psixologiya psixik hayot sohalari yoki, qisqacha qilib aytganda, psixikadan bahs etadi.

## **2. Psixika haqida ta'limot.**

Psixologiya eng qadimiy fanlardan bo'lib, bundan 2,5 ming yilga ilgari jon haqidagi ta'limot sifatida vujudga kelgan. VII-V asrlarda o'tgan qadimgi grek filosoflarining asarlaridayoq kishining jonli va ruhiy hayoti to'g'risida juda ko'p hilma-hil fikrlar bayon qilinganligini ko'ramiz. Bu masalalar qadimgi Xitoy va qadimgi Xind mutafakkirlarining muhokamalarida ham katta o'rinn tutadi.

Kishining psixikasi haqidagi muntazam ta'limotni birinchi marta Aristotel (eramizdan oldingi 384-322 yillar) «Jon haqida» degan kitobida bayon qilgan. Shu sababli Aristotel alohida fan bo'lган psixologiyani vujudga keltirgan kishi yoki psixologiya fanining «otasi» deb hisoblanadi.

Uzoq vaqtgacha psixologiya mustaqil fan bo'lmay, filosofiya tarkibiga kirib kelgan. Alohida ilmiy fan ma'nosidagi «psixologiya» termini ham yo'q edi. Bu termin XVI asr oxirida paydo bo'lib, XVIII asr o'rtalaridan boshlab hamma ishlataligida bo'lib qoldi. Psixologiya XVIII asrning oxirida va XIX asrning boshlaridagina mustaqil fan bo'lib shakllanadi.

Qadimgi zamonalardan to bizning zamonimizgacha psixologiya sohasida idealizm bilan materializm o'rtasida kurash bo'lib keldi. Psixologiyadagi bu kurash hamisha sinfiy kurashning in'ikosi bo'lib keldi. Psixika, ong nima degan masala, shu bilan birga, odam organizmida psixik jarayonlar bilan fiziologik jarayonlar o'rtasidagi munosabat masalasi ham shu kurashda markaziy o'rinni egallab keldi.

Psixika va ong haqidagi ta'limot idealistik va vulgar materialistik qarashlar hamda nazariyalarga qarshi kurashda chiniqa bordi.

Idealistlar, odamning psixik hayotini odam tanasi bilan qandaydir noma'lum yo'l bilan qo'shib, odamda gavdalangan, jismi yo'q moddiy bo'Imagan alohida bir narsaning ya'ni ruh yoki jonning zohir bo'lishi deb hisoblaydilar. (So'zlashganimizda va adabiyotda ham «odamning joni» va «odamning ruhi» degan termin ishlatalimiz. Ammo bu terminlarni biz moddiy bo'Imagan alohida bir narsani ifodalash uchun emas, balki «psixika» so'zini qay ma'noda ishlatsak, o'sha ma'noda ishlatalimiz). Idealistik psixologiya namoyondalari psixik jarayonlar bilan fiziologik jarayonlarning o'zaro munosabati haqidagi masalani talqin qilishda yo psixofizik parallelizm yoki psixofizik o'zaro ta'sir nuqtai nazarida turadilar.

Psixofizik parallelizm tarafдорлари fiziologik va psixik hodisalar bir-biriga bog'liq bo'Imagan holda yonma-yon (parallel ravishda) voqe' bo'ladi, deb hisoblaganlar. Bu qarashga ko'ra, odamning hayot faoliyati qo'shib ketmaydigan ikki oqim – organik hayot bilan psixik hayotning harakatlanishidan iborat emish.

Psixofizik o'zaro ta'sir tarafдорлари ta'limotiga ko'ra, psixik hodisalar bilan fiziologik hodisalar o'z tabiat e'tibori bilan har hil bo'lsada, bir-biriga o'zaro ta'sir

ctadi: fiziologik hodisalar psixik hodisalarini vujudga keltiradi, psixik hodisalar esa fiziologik hodisalarga sabab bo'la oladi. Bu qarashga ko'ra, odamning hayot faoliyati go'yo harakatdagi zanjir bo'lib, unda fizik zveno bilan psixik zveno ketma-ket kelaveradi.

Fanga xilof idealistik muhokamalarga qarama-qarshi o'laroq, dalektik materializm psixik hayot qandaydir alohida, moddiy bo'lmannan bir narsani zohir bo'lishi emas, balki materianing yuksak darajasidagi mahsuli, ya'ni bosh miyaning hossasidir deb ko'rsatadi. Demak, psixika yuksak darajada tashkil topgan materianing alohida hossasi bo'lib, bu hossa ob'ektiv voqelikni alohida bir yo'sinda aks ettirish qobiliyatidan iboratdir.

Psixik jarayonlar miyaning alohida hossasi bo'lib, faqat miyaning faoliyatiga bog'liq holda ro'y beradi.

Lekin psixikani materianing mahsuli deb bilish tushunchasini vulgar materializm namoyondalari targ'ib qilgan soxta (u ham mexanistik) tushunchadan farq qilish kerak. Mexanist va vulgar materialistlar tabiatdagi barcha hodisalarini – kimyoviy, biologik, fiziologik hodisalarini, shuningdek, psixologik hodisalarini ham materiya zarrachalarining fazoda faqat mexanik suratda siljishdan iborat deb bilar edilar. Ular psixik jarayonlarni fiziologik jarayonlardan iborat bir narsa deb tushunar, psixik jarayonlar bilan fiziologik protsessning ikkovi bor narsa deb hisoblar edilar. Masalan: vulgar materializmning namoyondalari (Byuxner, Moleshott, Faxz) jigardan o't chiqib turgani singari miyadan ham fikr chiqib turadi, deb bilar edilar.

Mexanistlar nazarida, psixik hodisa fiziologik hodisaning o'zi-yu, uni odam faqat ichki, sub'ektiv tomonidan idrok etar emish.

Dialektik materializm nuqtai nazaridan psixika, materianing mexanik harakati emas, balki harakatdagi materianing alohida hossasidir.

Shuningdek, psixik protsess moddiy protsessga bog'liq, degan so'zdan psixika, ong-fiziologik jarayonlardan boshqa bir narsa emas, degan ma'no aslo chiqmaydi. Fikr, ong – voqelikning sifat jihatidan boshqacha, o'ziga xos bir hodisaside.

Psixika, ong – faqat yuksak darajada tashkil topgan materianing hossasidir.

Hayvonlar bilan odamlar organizmiga xos bo'lgan nerv sistemasi ana shunday yuksak darajada tashkil topgan materiyadir. Psixikaning bevosita moddiy substrati (asosi) – odamning bosh miyasidir. Odamning psixikasi, ongi – bosh miya funktsiyasidir.

Psixika, ong materiya taraqqiyotining faqat yuksak bosqichlarida paydo bo'ladi. Materiya taraqqiy qilib borgan sari turli qonuniyatlar va hossalar – mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik va boshqa qonuniyat va hossalar paydo bo'ladi va taraqqiy qiladi, organik olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichidagina

materiyaning psixika, sezgi, ong, tafakkur, deb ataladigan alohida hossalari vujudga keladi.

Olam taraqqiyoti tarixida psixika, ong, bo'lmanan davr o'tgan. Psixika olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichlaridagina paydo bo'ldi.

Psixika materiyaning alohida hossasi bo'lib, bu hossa ob'ektiv voqe'likni alohida bir ravishda aks ettirish qobiliyatidan iboratdir. Aks ettirish degan so'zning ma'nosi har hil tushuniladi. Tevarak-atrofdagi voqe'likni aks ettiradigan ko'pgina narsalar ma'lum, masalan, suv aks ettiradi, ko'zgu aks ettiradi va hokazo. Bu misollarda biz fizik hodisa sifatidagi aks etish (in'ikos)ni ko'ramiz. Psixik hodisalar haqida so'zlashganimizda esa sifat jihatdan boshqacha, o'ziga xos ravishda aks etishini nazarda tutmog'imiz kerak. Bu aks ettirish sezgilarda, xotirada, tafakkurda va boshqa shu kabilarda o'z ifodasini topadi.

Insonning aks ettirish jarayoni o'z mohiyati va xarakteri jihatidan 2-bosqichdan iboratdir. 1) Hissiy (aks ettirish) bilish bo'lib, u sezish, hissiy qabul qilish, xotira va tasavvurlardan iboratdir. 2) Aqliy bilish bosqichi bo'lib, u tafakkurdan iboratdir. Hissiy bilishning boshlang'ich shakli - sezgidir. Chunki hissiy bilishning boshqa shakllari – hissiy qabul qilish sezgiga nisbatan ancha murakkab bo'lib, u sezish asosida vujudga keladi. Hissiy qabul qilishning sezishdan farqi shundaki, unda predmetlarning ayrim hossalarni emas, balki predmet bir butun holda aks etadi.

Hissiy bilishning yana bir shakli tasavvurdir.

Tashqi ta'sir natijasida vujudga kelgan nerv va miya qobig'inining ma'lum qismidagi qo'zg'alish – sezish, qabul qilish – ma'lum davrgacha o'z izini qoldiradi, ya'ni tashqi ta'sir to'xtagandan so'ng qo'zg'alishning, sezishning izi saqlanib qoladi. O'sha ta'sir etgan predmetga aloqador bo'lган, unga qandaydir munosabatda bo'lган hodisa ta'siri natijasida izlar yana qayta tiklanishi mumkin.

Miya qobig'ida saqlanib qolgan shu fiziologik izlarning tiklanishi, qaytadan qo'zg'alishi tasavvur, xotirani vujudga keltiradi.

Insonning bilish jarayoni hissiy bilish bilangina cheklanmaydi. Hissiy bilish yoki jonli kuzatish inson bilishining pastki bosqichida vujudga keladi, bu bosqich asosida ijtimoiy mehnat jarayonida ikkinchi yuqori bosqich – aqliy bilish, tafakkur paydo bo'ladi. Hissiy bilish orqali ob'ektiv reallikdan olingan «materiallar»ni qayta ishlash, ularni munosabatlari, ichki hususiyatlarini aniqlash, muhim va asosiy tomonlarini nomuhimlaridan ajratib olish, ularning qonuniyatlarini ochish aqliy bilish va tafakkurda amalga oshiriladi.

Odam bilan uning tevarak-atrofidagi olam o'rtasida doimo o'zaro bir-biriga ta'sir qilish jarayoni bo'lib turadi. Odam bu protsessda dunyoni o'z psixikasi bilan aks ettiradi. Shu bilan birga, voqe'lik odam ongida ko'zgudagi kabi passiv ravishda aks etmay, balki aktiv ravishda aks etadi: odam tevarak-atrofdagi olam bilan o'zaro

bir-biriga ta'sir ko'rsatar ekan, shu jarayonda olamga ta'sir etadi, uni o'zgartiradi va uni o'z ehtiyojlariga moslashtiradi.

Psixologiya fani psixikani o'rganar ekan, uni yuksak darajada tashkil topgan materianing ob'ektiv voqe'likni aks ettirishdan iborat bo'lган alohida hossasi deb biladi. Materianing bu hossasi materianing boshqa hossalaridan sifat jihatdan farq qiladi va materiya taraqqiyotining faqat muayyan bosqichida vujudga keladi.

Psixik hodisani, idealistlar ta'lim bergani singari, fiziologik hodisadan ajratib qo'yish yaramaganidek, psixik hodisani, vulgar materialistlari ta'lim bergani singari, fizik hodisaga tenglashtirish ham yaramaydi. Psixik hodisa bilan fiziologik hodisa bir butun bo'lib bog'langandir. Buning ma'nosi shuki, psixologik va fiziologik hodisa sifat jihatidan boshqa-boshqa hodisalardir, ammo fiziologik hodisa bo'lmasa, ya'ni nerv sistemasi ishlamasda, psixologik hodisa bo'lishi mumkin emas; shunday qilib, psixologik hodisa ikkilamchi hodisa hisoblanadi.

Psixik hodisalar nechog'lik murakkab bo'lmasin, ularni moddiy nerv-fiziologik negizidan ayirib o'rganish yaramaydi. Bunday ayirish idealizmga olib borishi mumkin, xolos. Shu sababli psixikani o'rganishda psixik hayotdagi hodisa va faktlarni ilmiy asosda tushunib olish uchun psixikaning moddiy negizini, ya'ni bosh miya va uning faoliyatini, psixik jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini bilib olish kerak.

I.P.Pavlov yuksak nerv faoliyati fiziologiyasiga doir genial asarlarida psixik hodisalar moddiy substratining faoliyatidagi asosiy qonuniyatlarini va ayrim psixik jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini ochib berdi.

### **3. PSIXIK HODISALARING KLASSIFIKATSIYASI**

Psixik hayot turli-tuman hodisalarda namoyon bo'ladi. Psixik hayot hodisalarida psixik jarayonlar, psixik mahsullar va psixik holatlар ajratiladi.

Psixik protsess – psixik hodisaning qonuniy, ketma-ket o'zgarishi, uning bir stadiya yoki fazodan ikkinchi stadiya yoki fazoga o'tishdir.

Psixik mahsullar – psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idroklarning obrazlari, tasavvurlar, muhokamalar, tushunchalar shaklidagi sub'ektiv psixik masullar kiradi.

Yoqimli va yoqimsiz tuyg'ular, tinchlik-farosat, hayajonlanish va ma'yuslanish, uyg'oqlik va uyqu holatlari, dadillik va taraddudlanib qolish holatlarini boshdan kechirish holatlarga kiradi.

Xilma-xil psixik hodisalarni: bilish, emotsiyal soha (hissiyot sohasi) va iroda sohasi deb uchga bo'lish qadimdan bor. Odam ongi faoliyatida zohir bo'ladigan ana shu turlar psixik funktsiyalar deb ataladi.

Bilish hodisalari boshqacha aqliy, intellektual jarayonlar deb ataladi. Sezgilar, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq – bilish jarayonlaridir.

S e z g i l a r – muayyan paytda sezgi organlarimizga: ko’ruv, eshituv, tuyish, hid bilish va boshqa shu kabi organlarimizga ta’sir etib turgan narsalardagi ayrim hossalarning aks etishidir. Masalan, qizil, oqni, shirin, achchiqni, og’ir, engilni sezamiz.

I d r o k - Tevarak-atrofimizdagи narsalarning yaxlit holda aks etishidir. Masalan, uy, gul, nutq, muzika va boshqa shu kabilarni idrok etamiz. Narsalar sezgilar asosida idrok etiladi. Sezgi va idrok – tevarak-atrofimizdagи narsa va hodisalar hamda ulardagi xilma-xil hossalarning miyamizdagи obrazlaridir.

X o t i r a. Narsa va hodisalar hamda ulardagi hossalarning sezgi va idrok orqali hosil bo’lgan obrazlari nom - nishonsiz yo’qolib ketmaydi - ular miyamizda o’rnashib, saqlanib qoladi va qulay sharoitda yana esimizga tushadi. Ilgari idrok etilgan narsalarning esimizga tushirilgan obrazlari tasavvurlar deb ataladi. Sezgi va idrok kabi, ko’nglimizdan kechgan fikr, hislarimiz va qilgan ishlarimiz ham miyaga o’rnashib, saqlanib qoladi va yana esimizga tushadi. Idrok etilgan va ko’ngildan kechgan narsalarning miyamizga o’rnashib (esimizda qolib), saqlanishi va yana esimizga tushishidan iborat bo’lgan ana shu psixik faoliyat xotira deb ataladi.

H a y o l. Narsa va hodisalarning idrok orqali miyamizda hosil bo’ladigan obrazlardan tashqari, o’zimiz bevosita idrok etmagan narsalar haqidagi tasavvurlar ham miyamizdan katta joy oladi. Masalan, ibtidoiy odamning hayot sharoiti haqidagi tasavvurlarimiz, Marsdagi hayot haqidagi tasavvurimiz va shunga o’xshashlar ana shundaydir. Bu tasavvurlar xotiramizda bor tasavvurlar asosida xayolda (fantaziyada) hosil bo’ladi.

T a f a k k u r . Idrok va tasavvurlarimizda aks etadigan narsa tafakkurda taqqoslanadi, tahlil qilinadi va umumiylashtiriladi. Tafakkur - voqe’likning umumiylashtirilgan bevosita va eng to’liq hamda eng aniq intiqosidir. Tafakkur jarayonlaridagi fikrlar – muhokama va tushunchalar tushuniladi va vujudga keladi. Odam fikrlash faoliyati tufayli voqe’likning idrok va tasavvurlaridagiga qaraganda aniqroq, to’laroq va chuqurroq bilib oladi.

N u t q. Tafakkur nutqqa chambarchas bog’liq. Fikrlarimiz – nutq yordami bilan shakllanadi va ifodalanadi. Kishilar nutq vositasida aloqa qilar ekanlar, fikrlarini bir-birlari bilan o’rtoqlashadilar; odamning hissiyoti va intilishlari ham nutqda o’z ifodasini topadi. Nutq – kishilarning til vositasi bilan aloqa qilish usulidir.

D i q q a t. Yuqorida ko’rsatilgan psixik jarayonlarning hammasi odamda diqqat mavjud bo’lgandagina yuzaga chiqadi. Diqqat – ongimizning o’zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritilayotgan va aytayotgan narsamizga qaratish, bir nuqtaga to’plash demakdir. Diqqat o’ziga alohida bilish jarayoni emas, balki bilish jarayonlarning aktiv borishi va sifatlari bo’lishi uchun zarur shartdir, xolos.

Ba'zi psixologlar (masalan G.A.Fortunatov) diqqatni psixik holatlarga qo'shadilar. Ammo, diqqat ong faolligining o'ziga alohida bir ko'rinishi ekanligini keyinroq yaqqol anglashiladi. Shu sababli diqqatni iroda sohasiga ham qo'shish mumkin. Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan, fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga nisbatan ko'nglidan kechayotgan har xil yoqimli va yoqimsiz, xush yoki noxush tuyg'ular emotsiyonal sohaga (yoki hissiyot sohaga) kiradi.

Biz dilimizda xush yoki noxush tuyg'u xis qilamiz, do'stlik, vatanga muhabbat his qilamiz, urush olovini yoquvchilarga qarshi g'azab xis qilamiz. Odamning emotsiyonal tuyg'ulari doimo uning ehtiyoj va manfaatlari bilan bog'liq bo'ladi. Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan va fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga ijobjiy yoki salbiy munosabati hissiyotda o'z ifodasini topadi.

Emotsiyalar ham jarayon, ham holat bo'ladi.

Psixik faoliyatning yuksak ko'rinishi, ya'ni niyatimizga (oldindan o'ylagan maqsadimizga) etmoq uchun shu maqsadga erishish yo'llari va vositalarini qamrab olib, shuningdek, uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda g'ayrat ko'rsatib qilinadigan faoliyat iroda sohasiga kiradi.

Ixtiyoriy (iroda bilan bo'ladigan) faoliyatni ixtiyorsiz (irodadan tashqari bo'ladigan) faoliyatdan ajratish kerak. Ixtiyorsiz faoliyat hayotimizdan tashqari va anglab, bilib g'ayrat ko'rsatmasdan turib yuzaga chiqadi. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz faoliyat diqqat e'tiborda va ish-harakatda ko'rindi. Shu sababli ixtiyorsiz diqqat bilan ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz harakatlar bilan ixtiyoriy (iroda bilan bo'ladigan) harakatlar farq qilinadi.

Psixologik hodisalar sub'ektiv kechinmalar aks etiladigan narsa va hodisalarning miyamizdag'i obrazlari shaklida ro'y beradi. Ammo, barcha sub'ektiv psixik hodisalar sirtda, organizmizning xilma-xil o'zgarish va harakatida: mimika, imoshora, nutq pantomimikada o'z ifodasini topadi.

Odamning psixik hayoti organizm harakatlarida o'z ifodasini topadi, shu harakatlar yig'indisi esa xulq-atvor deb ataladi.

Odam psixikasining barcha tomonlari, inson xulq-atvorining turli-tuman hamma hususiyatlari asosan faoliyatida namoyon bo'ladi. Odam faoliyatining asosiy turlari: o'zin (bolalik davrida), ta'lim va mehnatdir. Faoliyatning barcha turlarida odam o'z atrofidagi voqe'likning idrok etadi, bir nimani eslab qoladi yoki esiga tushiradi, fikrlaydi, har-xil hislarni ko'nglidan kechiradi, o'z faolligini namoyon qiladi.

Bu erda ko'rsatilgan xilma-xil psixik hodisalar bir-biridan ajralgan holda sodir bo'lmaydi.

Shu tariqa, psixik holatlar va psixik mahsullar psixik jarayonlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, odatda shu jarayonlar tarkibiga kiradi.

Psixik holatlar ro'y beradigan psixik jarayonlarning o'ziga xos foni hisoblanadi. Bu holatlar psixik jarayonlarga ta'sir etadi, ularni tezlatadi, kuchaytiradi yoki tormozlaydi, susaytiradi.

Mustahkamlangan psixik mahsullar murakkabroq jarayonlarning ro'y berishi uchun asos - material hisoblanadi. Masalan, xayol, tafakkur jarayonlari tasavvur va xotira asosida voqe' bo'ladi va hokazo.

Xuddi shuningdek, ayrim aqliy, emotsiyal va irodaviy jarayonlar bir-biri bilan bog'lanmagan holda ro'y bermaydi. Odamning psixik hayotini qandaydir birlamchi elementlarining yoki ayrim psixik jarayonlarning, ya'ni sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va shu kabilarning anchayin yig'indisi deb o'ylash yaramaydi. Har bir psixik protsess boshqa jarayonlar bilan chambarchas bog'langan holda sodir bo'ladi. Masalan, sezgisiz idrok etib bo'lmaydi, idrok esa xotira, tafakkur jarayonlariga, nutq, diqqat, hissiyot va irodaga bog'liq bo'ladi. Xotira va xayol jarayonlari tafakkur, nutq, hissiyot va iroda jarayonlariga bog'liq. Tafakkur idrok bilan xotira asosida ro'y beradi va nutq bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Nutqning o'zi ham tafakkursiz bo'la olmaydi.

Psixik hayotni o'rganishda ayrim psixik jarayonlarni boshqa psixik jarayonlardan ajratib tekshirishga to'g'ri keladi. O'rganishni osonlashtirmoq uchun sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqa shu kabi jarayonlarni alohida-alohida tekshiramiz. Ammo har bir psixik protsessni o'rganganda shu protsessning, masalan, xotira, xayol, tafakkurning boshqa jarayonlar bilan bog'langan holda ro'y berishini ko'rsatib o'tamiz.

Psixika bir butun yaxlit bir narsadir. Psixikaning bu birligi va yaxlitligiga sabab avvalo shuki, bosh miya faoliyati bir butun va yaxlidir.

Psixik hayotning hamma tomonlari: aql, his va iroda shaxsning faoliyatda namoyon bo'ladi. Shaxs olamni biladi, shaxs turli hislarni dildan kechiradi va shu shaxs ish-harakat qiladi.

Psixik faoliyatning barcha ayrim turlari yagona ong funktsiyasi-shaxsning funktsiyasidir.

Psixologlar ko'pchiligi psixik funktsiyalar terminini o'rniga psixik jarayonlar terminini ishlataladi.

Ammo psixik funktsiyalar terminidan foydalangan ma'qulroq. Funktsiya tushunchasining mazmuni kengroq. Bu tushuncha psixik protsessni ham, psixik holatni ham, faollikni ham, ish-harakatini ham o'z ichiga oladi. Funktsiya qanday bo'lmasin yaxlit bir narsaning qismi emas, balki namoyon bo'lishi, amal qilishi demakdir. Shuning uchun sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, diqqat, hislar, iroda – psixika qismlari emas, o'zaro yonma-yon ro'y beruvchi jarayonlar emas, balki bir butun ongning funktsiyaları – bir butun shaxsning funktsiyalaridir.

#### **4.ODAM ONGINING YOSHGA OARAB O'SISHI**

Ma'lumki, har bir odamning ongi tug'ilish paytidan boshlab, butun umr bo'yli o'sib boradi.

Odam ongingin yoshga qarab o'zgarish sababi nimada, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Turmushdagi kuzatishlar va biologlar, jamiyatshunoslar, psixologlar va pedagoglarning ko'pgina ilmiy tadqiqotlari bu savolga quyidagicha javob qaytarishimizga asos beradi: har bir kishi, ongingin yoshga qarab taraqqiy etishi shu kishi organizmining o'sishiga, ijtimoiy muhit ta'siriga, ta'lim va tarbiyaga, shuningdek, odamning o'z faoliyatiga bog'liq.

Organizmning o'sishi

Bola organizmi o'sib, kamolga etib boradi. Organizmning ayrim a'zolari o'sadi va takomil etadi, shu a'zolarning sifati o'zgaradi. Nerv sistemasi taraqqiy etib va chiniqib boradi. Masalan, bola bir yoshga to'lguncha bosh miyasining og'irligi ikki marta oshadi, to'rt-besh yoshlarga borganda bosh miya og'irligi uch marta oshadi. Miyaning o'sishi 20 yoshgacha, ba'zan undan keyin ham davom etadi.

Bola shartsiz reflekslar bilan tug'iladi, ammo hayotining birinchi oyidayoq, shartsiz reflekslar asosida, tashqi ta'sirlar tufayli shartli reflekslar ham vujudga kela boshlaydi.

Bola bir yoshga to'lib, ikkinchi yoshga qadam qo'yganda bosh miya po'stining faqat odamga xos bo'lgan yuksak funktsiyasi tarkib topadi, I.P.Pavlov bu funktsiyani ikkinchi signal sistemasi deb atagan edi. Yuqorida aytganimizdek, I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, ikkinchi signal sistemasining mexanizmlari tafakkur hamda og'zaki va yozma nutqning nerv-fiziologik negizi hisoblanadi.

Takomil etuvchi nerv sistemasi, jumladan, bosh miya - taraqqiy etayotgan odam psixikasining moddiy substrati (asosi)dir. Ammo organizm o'sishining o'zi xali odam shaxsini, undagi psixik hayot mazmuni va formalarini belgilab bermaydi. Bola tayyor bilim va mahorat, tasavvur va qobiliyat, tayyor havas va xarakter bilan tug'ilmaydi.

Organizmning o'sishiga bog'liq bo'lgan psixik hayot imkoniyatlari xaqiqatan yuzaga chiqishi uchun bola anchayin o'sish bilangina qolmay, ijtimoiy muhitda, odamlar orasida yashashi va kamolga etishi kerak.

Bolalarni go'dakligida yovvoyi hayvonlar (maymunlar, bo'rilar) o'g'irlab ketishi, bu bolalarning tirik qolib, odamlarga aralashmasdan o'sish hodisalari anchagina ma'lum. Ammo, bunday bolalarda odamga xos bo'lgan psixik qobiliyatlar ularning yoshiga yarasha taraqqiy etgan emas.

Bu faktlar shuni ko'rsatadiki, organizmning inson jamiyatidan tashqarida o'sishining o'zi shaxsnинг psixik taraqqiyotini ta'minlay olmaydi.

Organizm o'sishi bilan, jumladan, nerv sistemasi o'sishi bilan psixik hayot mazmuni va formalarining taraqqiysi uchun imkoniyat vujudga keladi, xolos. Bu imkoniyatlarning yuzaga chiqish boisi shuki, odam ijtimoiy muhitda yashaydi va kamol topadi. Odam biologik zot sifatida emas, balki ijtimoiy zot sifatida kamolga etadi.

### Ijtimoiy muhit.

Umuman odam ongi ijtimoiy tarixiy hayot sharoitida vujudga kelib, kamolga etgani kabi, har bir odam ongi ham faqat muayyan ijtimoiy muhitda kamol topadi. Bola tug'ilgan paytidanoq, muayyan ijtimoiy hayot sharoitida tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar sharoitida, ijtimoiy ong formalari qaror topgan bir sharoitda bo'ladi, bola mehnat sharoitining ta'sirida bo'ladi, tevarak-atrofdagi kishilar bilan so'zlashib, aloqa qilib turadi.

Go'dak bolaning o'zi mehnat qilmaydi albatta. Ammo u mehnat sharoitida yashaydi va o'sadi. Bolaning atrofida ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli bo'lgan narsalar turadi; u mehnat samaralaridan foydalanadi; katta yoshli kishilar bola uchun mehnat qiladilar, so'ngra bola voyaga etib, mehnatning biron turiga kirishadi, mehnatga biron munosabatda bo'ladi.

Xuddi shuningdek, bola tug'ilgan kuniyoq tilga kirmaydi. Ammo boshqa kishilar bolaning oldida unga murojaat qilib so'zlaydilar. Bola so'zlashuvchilar orasida o'sadi, so'ngra bola ma'lum yoshga etgach tilga kirib, so'zlashadigan bo'lib qoladi. O'sayotgan bola tilni bilib oladi, tilning yordami bilan esa avvalgi nasllarning to'plagan moddiy va ma'naviy tajribasini bilib oladi, ayni vaqtda o'zining psixik kuchlarini ham kamolga etkazadi.

Odam kamolga etadigan muhit qandaydir o'zgarmas bir narsa emas. Har bir odamning, har bir bolaning ongi o'zgaruvchi muhit ta'sirida kamol topadi. Sinfiy jamiyatda bu muhit sinfiy bo'ladi. Shu sababli, konkret muhitga qarab, o'sayotgan odam ongi ham har xil tarkib topadi va kamolga etadi.

Hamma sharoitda bola bolaligicha, yigit-yigitligicha qoladi, albatta. Ammo ijtimoiy hayot, turmush va madaniyat sharoitiga qarab, tarbiyaga qarab, o'smirlar va yigit-qizlarning hususiyatlari tarkib topadi.

### Ta'lim va tarbiya

Tevarak-atrofdagi ijtimoiy muhit odamning o'sayotgan ongiga, asosan, uyushgan tartibda ta'sir etadi. Ijtimoiy formatsiya qancha yuqori bo'lsa, ijtimoiy muhitning o'smir avlod ongiga uyushgan tartibdagi ta'siri shuncha katta bo'ladi.

Inson jamiyatni bolalar ongiga asosan tarbiya va ta'lim yo'li bilan uyushgan ta'sir ko'rsatadi.

Bola tevarak-atrofdagi kishilar bilan xilma-xil o'zaro munosabatlarga kirishar ekan, go'dakligidanoq bilim, mahorat va malaka orttira boshlaydi. U avval oila

sharoitida yoki maktabgacha tarbiya muassasasida, so'ngra mактабда о'qиydi, ta'lіm olади.

Tevarak-atrofdagi muhit (tabiat va jamiyat), mehnat va til odam shaxsini kamolga etkazadigan sharoit bo'lish bilan birga, bola o'sgan sayin mактабда о'рганади, shuningdek tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi.

Ta'lіm va tarbiya odamni kamolga etkazadigan asosiy etakchi faktordir. Buning sababi shular:

1. Organizm o'sishining o'zi va muhitning stixiyali ta'siri berolmaydigan narsani odam ta'lіm va tarbiya jarayonida oladi. Masalan, bola ona tilini tevarak-atrofdagi muhitning «stixiyali» ta'sirida ham bilib olishi mumkin. Ammo, o'qish-yozishni faqat mahsus ta'lіm olish yo'li bilan o'ргanishi mumkin.

Odam qo'l-oyog'inining xilma-xil harakatlari organizmning o'sishi bilan birga va shu organizm yashaydigan sharoitga qarab takomil etadi. Ammo, mahsus mehnat va texnik ko'nikma hamda malakalarini odam faqat o'qib-o'ргanish yo'li bilan egallab oladi.

2. Odamning noqulay organik takomil natijasi bo'lган nuqson ham ta'lіm va tarbiya yo'li bilan zarur tomonga qarab o'zgartiriladi. Masalan, ba'zi bolalarning ayrim nuqsonlar bilan - ko'r, kar (kar-soqov, ko'r-kar-soqov) bo'lib tug'ilishi ma'lum. Ammo, mahsus tashkil etilgan ta'lіm va tarbiya yordami bilan bunday bolalar aqli to'la-to'kis o'sadi. Bunga ko'r-kar-soqov Olga Skoroxodova yorqin misol bo'la oladi. Olga o'qib, oliy ma'lumot oldi, bir qancha ilmiy asarlar va she'r to'plamlari yozdi.

3. Muhitning stixiyali salbiy ta'sir etish natijasi bo'lган kamchiliklar ham ta'lіm va tarbiya yo'li bilan zarur tomonga o'zgartiriladi. Masalan, 9-10 yashar bolalarda ba'zan muhit ta'siri bilan ba'zi yomon odat va mayllar - tamaki chekish, karta o'ynash, so'kinish va shunga o'xhash yaramas odatlar paydo bo'lishi mumkin.

Mahsus pedagogik usullar bilan ta'sir etib, bu yaramas odat va mayllarni bartaraf qilish va o'miga boshqa yaxshi odatlarni singdirish mumkin.

4. Ta'lіm va tarbiya shaxs taraqqiyotida progressiv ahamiyatga egadir. Muhitnnng stixiyali ta'siri odamning taraqqiyotini shu muhit darajasiga etkaza oladi. Ta'lіm va tarbiyada shu progressiv jamiyat darajasidan tashqariga chiqadigan maqsadlar (ideyalar) qo'yiladi. Masalan, pedagogik sistemamizda kelajak kishilarini, yanada mukammal kamol topgan shaxsni etishtirishni maqsad qilib qo'yamiz. Bunday maqsad yosh avlodda psixikaning kamolga etish hususiyatlarini ham belgilab beradi, yoshlarda xaqiqiy, maqsadga intilish, yashash va ishlashga intilishning taraqqiy etishini ta'minlaydi. Shunday maqsad qo'yilar ekan, tarbiya va ta'lіm shaxs taraqqiyotida yoshda progressiv ahamiyatga ega bo'ladi.

5. Ta'lim jarayonida bolalar o'z aqfini ilm bilan boyitib, bir qancha mahorat va malaka olib, shu bilan birga o'zлari ham kamol topadilar.

Bolalarning kamolga etish darajasi biror bilim va malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga bog'liq. Bilim va malakalarni o'zlashtirish jarayoni esa o'z navbatida bolalarning jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol topishiga imkon beradi.

Ta'lim jarayonida bolalarning iroda va ma'naviy sifatlari takomillashadi, ularning dunyoqarashi tarkib topadi.

Ta'lim - odamning tabiiy qobiliyatlarini uyg'otish va rivojlantirish uchun muhim shartlardan biridir.

### Odamning o'z faoliyati

Har bir shaxsning kamolga etishi faqat organizmning o'sishiga, muhit hamda ta'lim va tarbiya vositalarining ta'sir etishiga bog'liq bo'lish bilangina qolmaydi; har bir shaxsning kamol topishi shu kamolga etayotgan kishining aktiv ishtiroki bilan bo'ladi. Bu faoliyat avvalo shunda ko'rindiki, bola muhitning, tarbiyachilar va o'qituvchilarning o'ziga ko'rsatayotgan ta'siriga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'ladi.

Bolaning tashqaridan bo'ladigan ta'sirlarga biror munosabatda bo'lishi avval organizmning tuzilish va faoliyat hususiyatlariga, shuningdek unda kelib chiqqan ehtiyojlarga bog'liq. O'sayotgan organizmning hususiyatlariga va paydo bo'layotgan ehtiyojlariga qarab, bolaning ba'zi psixik hususiyatlari yoshlik davridan tarkib topa boshlaydi. Shunga qarab, takomil etayotgan odam o'ziga ko'rsatiladigan ta'sirlarni bolalik davridanoq, turlicha va turli darajada o'zlashtiradi. Bola hayotining dastlabki kunlaridanoq ko'rindigan aktiv munosabat keyinchalik faoliyatga aylanadi. Bu faoliyat esa odamning tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga, ijtimoiy muhitga va ayrim kishilarga ta'sir etishi demakdir. Agar bola mutlaqo qimirlamay turaversa (amalda bunday bo'lishi mumkin emas, albatta), psixikasi taraqqiy etmagan bulur edi.

Har bir zotning o'z taraqqiyoti uning kamolga etishida katta rol o'ynaydi. Odamning o'z taraqqiyoti faoliyatda yuzaga chiqadi. Odamning o'z taraqqiyoti yosh sayin ongli protsessga aylanib, faoliyatning o'z-o'zini tarbiyalash degan mahsus turiga aylanadi. Odam boshqalarni tarbiyalash bilangina qolmay, o'z-o'zini ham tarbiyalaydi.

Shuning uchun har bir odam umrining qandaydir yoshidan boshlab qandaydir darajada, maktab yoshidan boshlab esa o'zining hatti-harakatiga tegishli tarzda javobgar bo'ladi.

Yosh psixologiyasi degan mahsus fan odam psixikasining yosh sayin taraqqiy etishini tekshiradi.

Bu fan odam yoshining turli bosqichlarida psixikaning ketma-ket taraqqiy etish hususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganadi. Odam umri davomida (ontogenetika)

ong va shaxs ketma-ket qanday tarkib topishini tekshirish, odam yoshining har bir bosqichida go'daklik davridan tortib to keksayguncha bu psixika stgukturasining qanday spetsifik hususiyatlari borligini bilish, odam psixikasining yoshga qarab taraqqiy etishi qanday faktorlarga bog'liq ekanligini aniqlash yosh psixologiyasining vazifasidir.

Yosh psixologiyasi sistemasida bolalar psixologiyasi alohida muhim o'rinni egallaydi. Bu fan chaqaloqlik, go'daklik, mактабгача tarbiya yoshi, mактаб yoshida psixika qanday taraqqiy etishini o'рганади. Bu o'sish davrlari odam shaxsi va ongingin tarkib topish davri hamdir.

Psixologiyaning mahsus sohalari «Yoshlar psixologiyasi», «Kattalar psixologiyasi», «Keksalar psixologiyasi» ham yosh psixologiyasi sistemasida o'ziga munosib o'rinni egallaydi.

### Internet saytlari

1. <http://textshare.tsx.org>
2. <http://www.mgimo.ru/fileserver/>
3. [http://www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/)
4. [http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch\\_14.htm](http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm)
5. <http://www.voppsv.ru>
6. <http://flogiston.ru/arch>
7. <http://psychol.ras.ru>
8. <http://psyberia.ru>

### Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Inson psixikasini umumiy qonuniyatları va funksiyalari bo'yicha test va krossvord tayyorlash.
2. Inson psixikasini tizimini klassifikatsiya qilish.
3. Evolyusiyada tabiiy tanlanishning o'mi bo'yicha esse yozish.
4. Ulyvam Dievms va instinktlar psixologiyasi tahlil qilish.

### Glossari

**Shartsiz reflekslar** – organizmning muhim hayotiy ta'sirlovchi omillar (ozuqa, xavf va shunga o'xshashlar)ga nisbatan tug'ma reaksiysi.

**Shartli reflekslar** – bu organizmning shunday reksiyalaridirki, ular tug'ma bo'lmasdan, hayotiy sharoitlarda orttiriladi.

**Retseptorlar** – hissiy yoki sensor hujayralar bo'lib, ular, ya'ni, bu ta'sirlanish, ichki yoki tashqi ta'sirlanish bo'lishidan qat'iy nazar, u haqidagi axborotni qabul qilgandan so'ng, o'zgartirib, asab tizimiga etkazib beruvchi maxsus tuzilmalardir.

**Rivojlanish** – jism va tafakkurning qaytmas, oldinga yo‘naltirilgan, qonuniyat asosida o‘zgarishi bo‘lib, ularning umumiy xossasi hisoblanadi.

**Psixikaning rivojlanishi** - tirik mavjudotlar psixikasining ketma-ketlik bilan taraqqiy etuvchi (garchi tanazzulning ayrim holatlarini namoyon qilsada) qaytmas miqdoriy va sifat o‘zgarishlari.

**Seskanuvchanlik** – bu tirik organizmlar (o‘simlik va hayvonlar)ning biologik foydali yoki zararli ta’sirlarga nisbatan o‘z holatlarini o‘zgartirish bilan javob qaytarish xossasi.

**Ongsizlik** – bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig‘indisiki, unda inson o‘z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi.

### Keyslar banki

**Keys 1.** SHarq olimi Ibn Sino ikkita qo‘zichoqni olib keladi. Bir qo‘zichoq ning oldiga qafasda bo‘rini keltirib qo‘yadi. Ikkinci qo‘zichoq erkin bo‘ladi. Tajriba oxirida nima sodir bo‘ladi.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Qo‘rquv bilan bog‘liq bo‘lgan xodisalarni aniqlash. (individual holda).

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Determinizm tamoyili nimani anglatadi?
2. Ong va birlik tamoyilini vujudga kelishiga sabablarni ko‘rsating?
3. Inson psixikasini tizimi nimalardan iborat
4. Tabiiy tanlanishda nimalar sabab bo‘ladi
5. Inson psixikasini rivojlanishi nimalarga bog‘liqi

## TEST SAVOLLARI

1. Organizmning yaxlit tizim sifatida faoliyat ko‘rsatishini ta’minlab beruvchi organ:

- a) bosh miya;
- b) asab tizimi;
- v) nerv hosilalarining to‘plamlari;
- g) reflekslar.

2. Asab tizimining strukturaviy birligi:

- a) sinaps;
- b) neyron;
- v) akson;
- g) dendrit.

3. Reflekslar:

- a) doimo tug‘ma;

- b) faqat tuban hayvonlarda uchraydi;
- v) yashash uchun kurashga aloqador emas;
- g) barcha javoblar noto‘g‘ri.

4. «Analizator» tushunchasini fanga kiritgan olim:

- a) R. Dekart;
- b) I.M. Sechenov;
- v) I.P. Pavlov;
- g) A.A. Uxtomskiy.

5. Neyropsixologiyaning hozirgi zamon qarashlariga ko‘ra inson miyasining tuzilishi nechta asosiy bo‘limdan iborat:

- a) uch asosiy bo‘limdan;
- b) ikki asosiy bo‘limdan;
- v) to‘rt asosiy bo‘limdan;
- g) ko‘p bo‘limlardan.

6. Organizmning gomogen muhitdan moddiy shakllantirilgan diskret jismlar muhitiga o‘tishi ...ning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq:

- a) ta’sirchanlik;
- b) sezgilar;
- v) hissiyotlilik;
- g) his-tuyg‘ular.

7. Refleksning amalga oshirilishida ishtirok etuvchi nerv tuzilmalarining yig‘indisi – bu:

- a) refleks yoyi;
- b) refleks halqasi;
- v) sharsiz refleks;
- g) shartli refleks.

8. Evolyusiya nazariyasi keng ma’noda:

- a) hozirda ko‘pchilik olimlar tomonidan e’tirof etiladi;
- b) oddiy farazdan emas, balki haqiqatda isbotlangan voqelikdan iborat;
- v) genetika ma’lumotlari va irsiyat qonunlarining kashf etilishi bilan boyitildi;
- g) barcha javoblar to‘g‘ri.

9. Instinktiv xulq-atvor, asosan, ...da ustunlik qiladi:

- a) hasharotlarda;
- b) baliqlarda;
- v) sudralib yuruvchilarda;
- g) sut emizuvchilarda.

10. Insonning oliy psixik vazifalariga ... kiradi:

- a) mantiqiy xotira;
- b) so‘zlashuv-mantiqiy tafakkur;
- v) tasavvur etish;
- g) barcha javoblar to‘g‘ri.

### **3- Mavzu**

#### **I. Psixologiyada shaxs muammosi.**

**1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati:** leksiya psixologiya fanining asosiy kategoriyalardan sanalgan "shaxs" tushunchasi mazmunini ochishga qaratilgan.

**1.2 Mavzuga doir bibliografiya:**

#### **Asosiy manbaalar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.:Ma`naviyat,2008.-174 b.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб / Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртинчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Узбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул- абров: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ: масъул мұхаррір В.Раҳмонов/.-Т.:Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Ғозиев Э.Ф. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### **Qo'shimcha manbaalar:**

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

#### **II. Leksiyani uyushtirish shakllari:**

- 2.1 Auditoriya.** 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'nilishi 1 kurs talabalari. Tayyorlik darajasi - umumta'limiy.
- 2.2 Leksiya maqsadi.** Talabalarda shaxsni o'rganishga doir asosiy yondashuvlar, psixologik hosila sifatida shaxsni tahlil qilish va o'rganish darajalari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish.
- 2.3 Leksiya vazifalari.** Shaxs nazariyalari yaratilishining tarixi va mazkur nazariyalarning asosiy mezonlari mohiyatini talabalarga yetkazish.
- 2.4 Leksiyani uyushtirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

#### **III. Leksiya mazmuni**

1. Reja va leksiya mazmunining konsepti.

2. Tizimlilik, izchillik, tushunarilik, ko'rgazmalilikni ta'minlaydigan o'quv vositalari va didaktik usullar (konseptda ko'rsatib o'tiladi).

#### **IV. Leksiya o'qish jarayonidagi o'qituvchining umumiyy siyomosi**

### **3-mavzu. Psixologiyada shaxs muammozi**

Shaxsni evolyusion jihatdan rivojlanishi. Shaxs nazariyalariga zamonaviy qarashlar. Evolyusion nazariyalar va shaxs. Shaxs filogenezi va ontogenezi. Ijtimoiy ishlab chiqarish inson hayotining usuli sifatida. Mehnat faoliyat xususiyati: jamoviylari, va boshqalar. Ehtiyojlarning vujudga kelishi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida. Individ, subyekt, shaxs, individuallik tushunchasi.

#### **REJA:**

1. Shaxsni tarixiy jihatdan rivojlanishi
2. Shaxs nazariyalariga zamonaviy qarashlar.
3. Evolyusion nazariyalar va shaxs.
4. Shaxs filogenezi va ontogenezi.
5. Individ, subyekt, shaxs, individuallik tushunchasi.

#### **Shaxsni tarixiy jihatdan rivojlanishi**

XIX asrning birinchi o‘n yilliklarida shaxs psixologiyasi muammolari bilan faylasuflar bilan bir qatorda shifokor-psixiatrlar ham shug‘ullana boshladi. Ular birinchilar qatorida klinika sharoitlarida bemor shaxsi ustidan muntazam ravishda kuzatuvlar olib bordilar, uning hulq-atvorini yaxshiroq tushunish maqsadida bemor hayoti tarixini o‘rgandilar. Psixiatrlarning diqqat markazida bemor odamda odatda aniqlanadigan shaxs xususiyatlari bo‘ldi. Keyinchalik ular tomonidan aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlari sog‘lom odamlarning deyarli barchasida mavjudligi, lekin ularda kuchsiz holatda, bemorlarda esa o‘ta kuchli tarzda ifodalanishi aniqlandi. Bu, masalan, xavotirlik va rigidlik, zatormojennosti va qo‘zg‘aluvchanlik holatlariga tegishlidir.

Shaxsni aniqlash qirralari shifokor-psixiatrlar tomonidan shunday atamalar bilan belgilangan ediki, ular yordamida ham normal, ham patologik, ham aksentuirovannuyu shaxsga ta’rif berish mumkin edi. Shunga qaramasdan, ushbu yondoshuv psixologiya nuqtai nazaridan mukammal deb hisoblanmaydi. Bunday yondoshuvlar normal shaxsni yaxlit holda ta’riflash uchun juda qisqa va etarli emas. Bunday aniqlash turiga turli sharoitlarda aniq ifodalanuvchi, doimo ijobiy, «mutanosib» bo‘lgan shaxs xususiyatlari kiritilmagan edi. Bularga misol qilib, layoqatlar, ahloqiy sifatlar va boshqa shaxs xususiyatlarini keltirish mumkin.

XX asrning dastlabki o‘n yilliklariga kelibgina, shaxs, ungacha inson holatlari va bilish jarayonlarini tadqiq etish bilan shug‘ullanayotgan psixologlar tomonidan o‘rganila boshladi. XX asrda psixologiyada tajriba tadqiqotlari jadal olib borilgani uchun, ularga farazlarni aniq tekshirish va asoslangan faktlarga ega bo‘lish maqsadida ma’lumotlarni matematik-statistikka usulida hisoblash qo‘llanildi. Shu asosda, psixologlar uchun uzoq yillar davomida mutanosib shaxsni tadqiq etishning ishonchli va valid test metodlarini ishlab chiqish birinchi navbatdagi vazifa bo‘lib qoldi. Shaxsga tegishli bo‘lgan nazariyalar va konsepsiyalarni tasniflashga nisbatan yondoshuvlarning turli xillari mavjud.

Masalan, R.S. Nemov shaxsga doir nazariyalarning 48 tasini keltiradi, ularning har biri tasniflashga asos bo‘ladigan besh ko‘rsatkich bo‘yicha baholanishi mumkin. Bularga hulq-atvorni tushuntirib berish usuli; shaxs haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish usuli; shaxsga burchak ostidan qarash; yosh darajalari; shaxsni tasvirlab beruvechi tushunehalar kabi ko‘rsatkichlar kiradi.

Mavjud bo‘lgan shaxs nazariyalarning barchasini hulq-atvorni tushuntirib berish usuli bo‘yicha *psixodinamik*, *ijtimoiydinamik* va *interaksion* nazariyalarga bo‘lish mumkin. Psixodinamik nazariyalarga shaxsning ruhiy yoki ichki xususiyatlaridan kelib chiqib, uni ta’riflovchi va hulq-atvorini tushuntirib beruvchi nazariyalar kiradi. Ijtimoiydinamik nazariyalarning nuqtai nazariga ko‘ra, hulq-atvor determinatsiyasida asosiy o‘rinni tashqi vaziyatlar egallaydi. Interaksion nazariyalar insonning dolzarb faoliyatini boshqarishdagi ichki va tashqi omillarning o‘zaro harakati tamoyiliga asoslangan.

Shaxs haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish usuliga ko‘ra barcha nazariyalarni *eksperimental* va *noeksperimental*larga bo‘lish mumkin. Eksperimental shaxs nazariyalariga tajriba o‘tkazish yo‘li bilan to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan nazariyalar, noeksperimentalarga esa – mualliflari tajribaga murojaat qilmasdan turib, hayotiy taassurotlarga, kuzatishlar va tajribaga tayangan holda nazariy bilimlarni umumlashtiradigan nazariyalar kiradi.

Navbatdagi nazariyalarni tasniflashga asos bo‘lib xizmat qiladigan nuqtai nazar mualliflarning shaxsni *tuzilishga ega bo‘lgan* yoki *dinamik* hosila sifatida tasvirlovchi qarashdir. *Tuzilishga ega bo‘lgan* nazariyalar qatoriga tushunchalar tizimi yordamida tasvirlanuvchi shaxs tuzilishini aniqlash asosiy muammo bo‘lib hisoblanadigan nazariyalar kiritiladi. *Dinamik* nazariyalar deb, asosiy mavzusi shaxs taraqqiyotida qayta tuzish, o‘zgartirish, ya’ni, uning dinamikasiga taalluqli bo‘lgan nazariyalariga aytiladi. Shuningdek, yosh va pedagogik psixologiyada yuzaga kelgan bir qator shaxs nazariyalari mavjud. Bunday nazariyalar shaxs taraqqiyotining inson tug‘ilganidan boshlab maktabni bitirishigacha bo‘lgan, chegaralangan yosh davrini ko‘rib chiqishga asoslangan. Bunday tashqari, mualliflari o‘z oldilariga shaxs taraqqiyotini insonning butun umri davomida kuzatish vazifasini quygan nazariyalar ham mavjud.

Shaxs nazariyalarini tasniflash uchun asos bo‘ladigan yana bir holat, bu nazariyalardagi shaxsning ichki xossalari, qirralari va sifatlari yoki uning tashqi ifodalanishi, masalan, hulq-atvori va harakatlariga qaratilgan e’tibordir. Shu asosda qirralar nazariyalarini ajratish mumkin. Nazariyalar ushbu guruhining holatlarga ko‘ra, barcha odamlar bir-biridan alohida, mustaqil qirralarning rivojlanganligining to‘plami va darajasi bilan farqlanadi, shaxs haqidagi ma’lumotlarni esa, test yoki shaxs qirralarini aniqlash va tasvirlashning boshqa usuli yordamida, masalan, ma’lum insonni kuzatgan turli odamlarning hayotiy kuzatishlarini umumlashtirish asosida olish mumkin. Shaxs qirralariga baho berishning ikkinchi usuli barcha odamlarni tipologik guruhlarga birlashtirishdan iborat. Bunda bir xil tipologik guruhga tegishli bo‘lgan odamlar yaqin psixologik xususiyatlarga ega bo‘ladilar, va ular o‘zlarining hulq-atvori bilan bir-birlariga juda o‘xshash bo‘ladilar.

R.S. Nemov tomonidan ko‘rib chiqilgan shaxs nazariyalarining tasniflaridan tashqari, boshqa tasniflar ham mavjud. Shulardan biri B.V. Zeygarnik tomonidan

ko'rib chiqilgan mavjud bo'lgan shaxs nazariyalarini mazmun-mohiyat va tarixiy tamoyillarda, ularning yuzaga kelishi va taraqqiyoti sharoitlariga bog'liq holda o'rganishdir. Bunda nazariyalarning quyidagi guruhlari ajratiladi: freydizm va neofreydizmning shaxs nazariyalari, shaxsning umuminsoniy nazariyalari, ekzistensial psixologiyaning shaxs nazariyalari, fransuz ijtimoiy maktabining shaxs nazariyalari va boshqalar. Qisqacha asosiy psixologik shaxs nazariyalarini ko'rib chiqamiz. Amerikalik ruhshunos G. Ollport va ingliz ruhshunosi R. Kettel tomonidan ishlab chiqilgan *shaxs qirralari nazariyasi* shular jumlasidandir.

Shaxs *qirrasi* deganda inson tomonidan hayoti davomida uning tajribasi, irlsiyati va organizmining fiziologik xususiyatlari asosida egallanadigan barqaror xossa tushuniladi. Shaxs qirralariga xarakter qirralari kiradi.

G. Ollport tan olgan shaxs qirralarini aniqlash va baholashning usullaridan biri chet tilini o'rganishga, shaxsni har tomonlama ta'riflash mumkin bo'lgan so'z-tushunchani tanlab olishga asoslangan. Tanlab olingan so'zlarning etarli tarzda qisqartirish yo'li bilan bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsiy qirralarning ma'lum odamda ularni keyinchalik baholash maqsadida to'la ro'yxati tuziladi. G. Ollport shaxsiy qirralarni o'rganish metodikasini tuzishga xuddi mana shu yo'l bilan crishdi.

Shaxs qirralarini baholashning R. Kettel tomonidan qo'llanilgan boshqa usulida hozirgi zamon statistikasining murakkab metodi – *omil tahlili* ishlatiladi, bu metod o'zini tahlil qilish, so'rov o'tkazish, odamlarning hayotiy kuzatishlari natijasida olingan ko'plab turli ko'rsatkichlar va shaxsga baho berishni etarlicha kamaytirish imkonini yaratadi. Natijada statistik jihatdan mustaqil holatdagi inson shaxsining alohida qirralari bo'lib hisoblanadigan omillar to'plami hosil bo'ladi. Ushbu metod yordamida R. Kettel 16 xil turdag'i shaxs qirralarini namoyon qilishga muvaffaq bo'ldi. Ularning har biri kuchli va kuchsiz rivojlanganlik darajasini anglatuvchi ikkita nomga ega bo'ldi. Tajribada aniqlangan qirralar to'plami asosida R. Kettel 16-omilli shaxs so'rovnomasini tuzib chiqdi. Bu so'rovnomasi haqida to'liqroq ma'lumot bilan laboratoriya mashg'ulotlarida tanishamiz.

*Shaxsning psixoanalitik nazariyasi* (Z. Freyd, A. Adler, K. Yung<sup>12</sup>, e. Fromm, K. Xorni). Bu nazariyaga ko'ra, shaxs uch qism: Id, ego va Superegodan iborat insonning ichki, psixologik hosilasidir. Id – bu anglanmaganlik, bunga biologik ichki sezgilar va insonning hayvonlar bilan umumiyligini bo'lgan organik ehtiyojlari kiradi. Z. Freyd jinsiy ehtiyojlari va tahdidlilikni, A. Adler – hokimiyatga intilishni, K. Xorni – turli-tuman komplekslarni, e. Fromm – odamning ozodlikka yoki uni cheklashga intilishini ajratib ko'rsatadilar. Bu – shaxsning o'zini anglashi. Superegoga inson qadriyatları, uning hayotiy maqsadlari, ideallari kiradi. Shaxsning bu uch tarkibiy qismlari, odatda, uyg'unlik holatida bo'lmaydi, ular o'rtasida nevrozlariga, inson ruhiyati va hulq-atvoridagi nuqsonlarga sabab bo'luvchi nizolar yuzaga keladi.

<sup>12</sup> Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p407

K. Yung Freydning undan ajralib chiqqan bиринчи о‘кувчилардан бирі bo‘lib hisobланади. Улар о‘rtasidagi turli fikrlilikning paydo bo‘lishiga Z. Freydning panseksualizm g‘oyasi sabab bo‘ldi.

Yung bo‘yicha, inson psixikasi uch daraja: ong, shaxsiy anglanmaganlik va jamoaviy anglanmaganlikdan iborat. Inson shaxsi tuzilishida qadimgi o‘tgan insoniyatdan qolgan xotiralardan hosil bo‘lgan jamoaviy anglanmaganlik asosiy o‘rinni egallaydi. Jamoaviy anglanmaganlik umumiylig xususiyatiga ega. U ham o‘z navbatida turli darajalardan iborat. Bu milliy, irqiy va umuminsoniy meros bilan belgilanadi. Eng chuqur daraja odamgacha bo‘lgan davrdan, ya’ni, odamning avlodи bo‘lgan hayvonlarning tajribasidan boshlanadi. Shunday qilib, Yung ta‘rifiga ko‘ra, jamoaviy anglanmaganlik – bu qadimgi ajdodlarimizning ongi bo‘lib, ular o‘ylagan va his etgan, hayot va dunyo, xudolar va inson mavjudotlarini o‘rganish vositalaridan iborat.

Jamoaviy anglanmaganlik ba’zi odamlarda faqat tushlarida emas, balki, real ijodkorlikda arxetipler ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Masalan, ona arxetipi – bu hissiyot va obraz mazmuniga ega bo‘lgan o‘z onasidan kelib chiqqan umumiyl ona g‘oyasi. Bola bu arxetipni tayyor ko‘rinishda irsiyat orqali oladi va shu asosda o‘z onasining aniq obrazini yaratadi.

Yung fikriga ko‘ra, jamoaviy anglanmaganlikdan tashqari shaxsiy anglanmaganlik ham mavjuddir, lekin u ongdan ajralmagan holatdadır. Shaxsiy anglanmaganlik qachondir anglangan bo‘lib, keyinchalik yoddan chiqarilgan yoki ongdan siqib chiqarilgan kechinmalardan iborat. Shaxsiy anglanmaganlikning tuzilish birligini mulohazalar va xotiralar, tuyg‘ular qorishmasi, yig‘indisi tashkil etadi.

Shuningdek, Yung «Men» tushunchasini kiritdi. Bu tushuncha orqasiga insonning yaxlitlikka va bir butunlikka intilishi yashiringan. Bu orqali onglilik va anglanmaganlik o‘rtasidagi mutanosiblikka erishiladi. «Men» turlicha ifodalanishi mumkin. Uning ifodalanishiga bog‘liq ravishda odamlarni ma’lum tiplarga ajratish mumkin. Yung insonning o‘ziga yoki obyektga yo‘nalganligi asosida shaxs tiplarining tasniflanishini keltiradi. Bunga muvofiq ravishda u barcha odamlarni ekstravertlar va introvertlarga bo‘ladi.

Freydning yana bir ustozidan uzoqlashgan mashhur o‘кувчилардан бирі, individual psixologiyaning asoschisi – Alfred Adler<sup>13</sup> hisobланади. U Freydning biologiyalashtirish nazariyasini keskin qoraladi. Adler, insonda asosiysi – uning tabiiy ichki sezgilar emas, balki, o‘zi «umumiylig tuyg‘usi» deb nomlagan ijtimoiy tuyg‘ulari ekanligini ta’kidladi. Bu tuyg‘u tug‘ma bo‘lsada, ijtimoiy jihatdan rivojlantirilgan bo‘lishi zarur.

Bundan tashqari, Adler Freydning shaxsni uch bo‘lakka bo‘linishi haqidagi fikriga qarshi chiqdi. Uning fikricha, shaxs tuzilishi bir butun bo‘lib, shaxs taraqqiyotidagi bo‘linadigan qism bo‘lib, insonning ustunlikka intilishi hisoblanadi. Lekin bu intilish har doim ham amalga oshavermaydi. Masalan, inson tanasidagi organlarning nuqsonlari tufayli o‘zining mukammal emasligi tuyg‘usini boshidan kechiradi, shuningdek, bu tuyg‘u bolalikdagи noqulay ijtimoiy sharoitlar

<sup>13</sup> Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p407

tufayli paydo bo'lishi mumkin. Inson mukammal emaslik tuyg'usini engish uchun turli ko'rinishdagi to'ldiruvchilarni izlay boshlaydi. Masalan, Adler yuqori to'ldiruvchini ishlab chiqish imkoniyati haqida fikr yuritadi. Bu o'zining mukammal emasligiga qarshi reaksiyaning o'ziga xos ko'rinishidir. Yuqori to'ldiruvchanlikni ishlab chiqish malakasi, jismonan zaif va irodasiz odamlarning matonat bilan faoliyat yuritishlariga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, yuqori to'ldiruvchanlikda Adler ijodkorlik mexanizmi, faollikni ko'radi. Misol tariqasida, u Napoleon shaxsiga izoh berishni yoqtirardi, va Napoleonning sarkarda sifatidagi alohida layoqatlarini, xususan, undagi kichik bo'y o'Ichami tufayli yuzaga kelgan mukammal emaslik tuyg'usi bilan tushuntirib berar edi. Shunday qilib, ko'rganimizdek, mukammal emaslik tuyg'usi o'z tabiatiga ko'ra tug'ma bo'lgani uchun, Adler Freydning nazariy qarashlarini ijtimoiylashtirishga harakat qilib ko'rgan bo'lsada, biologiyalashtirishdan to'liq voz kecha olmadi.

Z. Freydning izdoshlaridan biri Karen Xornining fikriga ko'ra, inson mohiyatining asosini, bolada tug'ma bo'lgan, xavotirlanish tuyg'usida ko'rish mumkin ekan. Bu tuyg'u, Xorni fikricha, inson muntazam ravishda boshidan kechiradigan dunyodagi qarama-qarshiliklar tuyg'usi, va uni bartaraf etish istagi inson harakatlari motivatsiyasining asosi bo'lgan xavotirlanishni yuzaga keltirishidan hosil bo'ladi.

Xornining ta'kidlashi bo'yicha, inson ikki tendensiya: xavfsizlikka intilish va o'z xohishlarini qondirishga intilish orqali boshqariladi. Bu ikkala intilish ko'p hollarda bir-birini inkor etadi, shunda inson hulq-atvorning ma'lum usullarini ishlab chiqqan holda, o'zi so'ndirishga harakat qiladigan asabiy lashish holati yuzaga keladi. Xorni hulq-atvorni to'rt turga ajratdi: birinchi turida «muhabbatga asabiy holatda intilish» hayotda xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida ifodalanadi; ikkinchisi qandaydir obyektiv sabablar bilan emas, balki, odamlarga nisbatan qo'rqinch va dushmanlik bilan tushuntiriladigan «hokimiyatga asabiy holatda intilish» da ifodalanadi; uchinchi turida hulq-atvor odamlardan yakkalanishga intilishda ifodalanadi; to'rtinchi turi o'zning yordamga muhtojligini («asabiy tobeklik») tan olishda ifodalanadi.

Xorni yo'nalishlar sonini ko'paytirishga harakat qildi, lekin, umumiy hisobda uch turida to'xtaldi: a) odamlarga intilish; b) odamlardan uzoqlashishga intilish, mustaqillikka intilish; v) odamlarga qarshi harakat qilishga (tahdid) intilish. Munosabatlarning bunday uch xil turiga mos ravishda Xorni shaxs asab tizimining uch turini ajratadi: barqaror, bartaraf etilgan va tahdid soluvchi. Hulq-atvorning bunday turlari sog'lom insonlarga xosdir. Sog'lom va nevrozga chalingan odamlar o'rtasidagi farq shundan iboratki, nizoli tendensiyalari o'rtasidagi qarama-qarshilik sog'lom odamda kasallikka chalingan odamga nisbatan ancha kam darajada bo'ladi.

Shunday qilib, Xorni<sup>14</sup> Freyd ta'limotining biologiyalashtirish mohiyatini keskin tanqid ostiga olgan bo'lsada, o'zining assosiy holatidagi «dastlabki xavotirlik» va «negizli xavotirlanish» haqidagi fikrlari bilan Freydni takrorlaydi.

<sup>14</sup> Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p 411

*Shaxs ijtimoiy rollari nazariyasi* (amerikalik ruhshunos e. Bern va nemis ruhshunosi K. Levin). Ushbu psixologik nazariya insonning hayotda ma'lum, o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy rollarni ijro etishidan kelib chiqadi. Aynan, mana shu rollar ushbu odam shaxsining asosiy xususiyati bo'lib hisoblanadi.

Bunday nazariyaning ma'lum bo'lgan turlaridan biri amerikalik ruhshunos erik Bern tomonidan taklif etilgan. Uning nuqtai nazariga ko'ra, odam boshqa rollardan ko'proq quyidagi ijtimoiy rollarni ijro etadi: bola roli, ota-onal roli va katta odam roli.

Bola roli katta odamning o'zini boladek his etishda davom etishida va bola sifatida tutishida namoyon bo'ladi (mas'uliyasiz, xarxasha qiladi, arazlaydi, e'tibor va g'amho'rlik talab etadi va h.k.). Ota-onal roli odamning boshqalar uchun mas'uliyatni, ularga g'amho'rlikni o'z elkasiga olishida, boshqalarga o'rgatishi, jazolashi, talab qilishida va h.k.larda namoyon bo'ladi.

Ota-onal roli odam o'zini, haqiqatdan ham, katta odamlar o'zlarini bir-birlariga nisbatan qanday tutishlari lozim bo'lsa, shunday tutishlaridan iborat. Har kimning shaxsiy erkinligi va mustaqilligini hurmat qiladilar, huquqini tan oladilar, ishonadilar, qo'llaydilar va sh.o'.

Fizikaviy «maydon» tushunchasi va topologiyada qabul qilingan tasvirlash tamoyillarini qo'llagan holda, K. Levin<sup>15</sup> individ va muhit o'rtasidagi mutanosiblik buzilgan holatdagi hulq-atvorning dinamik tizimi konsepsiyasini ishlab chiqdi.

K. Levin konsepsiyasida boshlang'ich holat sifatida individning «hayotiy bo'shlig'i» ichida ma'lum yo'naliш, kattalik va tayanch nuqtasiga ega bo'lgan, uning psixologik kuchlari (intilishlar, istaklar va sh.o'.) hosil bo'ladiigan va o'zgaradigan yaxlit maydon sifatida qabul qilinadi. «Maydon»ning bir xil hududlari individni tortadi, boshqalari itaradi. Obyektlarning bu sifati hulq-atvor «maydon» kuchlari bilan harakatlanadigan hulq-atvorning motivatsiyali tuzilishini xarakterlovchi valentlik (musbat yoki manfiy) deb ataladi. Valentlik shaxs va uning maqsadlari, yo'ldagi to'siqlar va h.k.lar jamlangan psixologik «bo'shlig'ini» o'z ichiga oluvchi yaxlit vaziyatning vazifasi bo'lib hisoblanadi.

YUqorida sanab o'tilgan nazariyalardan tashqari, turli ilmiy-psixologik yo'naliшlar ham mavjud. Bunday yo'naliшlardan biri bo'lib, umuminsoniy psixologiya hisoblanadi. Umuminsoniy yo'naliш psixologlari uchun shaxs faqat atrofdagi voqelikka emas, balki, shaxsan o'ziga tegishli bo'lgan psixologik hosiladir. Umuminsoniy psixologiyaning vakillari K. Rodjers va A. Masloudirlar.

Terapiyadagi o'zining metodini K. Rodjers nodirektiv, ya'ni, bemorda jamlangan metod deb nomladi. Bu metodga asosan, shifokor bemorga bosim o'tkazishi kerak emas. SHifokor va bemor o'rtasidagi aloqa bir-biriga nisbatan hurmatga asoslangan bo'lishi kerak, bunda ularning ikkisi ham suhbat yoki aloqaning teng huquqli ishtirokchisi bo'lib hisoblanadilar. Terapevtning vazifasi shifokorning bemor uchun ikkinchi «Men»i sifatida namoyon bo'lishi va uning ichki olamiga e'tiborli bo'lgan vaziyatni yaratishdan iborat. Bunday vaziyatda mijoz barcha kechinmalari, hissiyotlari qiziqish va mammuniyat bilan idrok

<sup>15</sup> Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p410

ctilishini his etadi, bu tajribasida yangi qirralarni ochishga, ba'zida esa u yoki bu kechinmalar ma'nosini birinchi marta anglab etishga yordam beradi.

Keyinchalik Rodjersning nodirektiv terapiya g'oyasi nodirektiv hulq-atvor psixologiya nazariyasigacha rivojlandi. Bu nazariyaga asosan, sog'lom odamlarning o'zaro muloqoti ham xuddi shunday nodirektiv bo'lishi kerak.

Rodjers<sup>16</sup> shaxs nazariyasining markaziy halqasi bo'lib, *o'zini baholash* darajasi hisoblanadi. Bolaning kattalar va boshqa odamlar, bolalar bilan o'zaro imunosabatlarga kirishishi natijasida unda o'zi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Lekin o'zini baholashning shakllanishi nizolilarsiz o'tmaydi. Ko'p hollarda atrofdagilarning baho berishi o'zini baholash bilan mos kelmaydi. Inson ko'pda atrofdagilar bahosini qabul qilish yoki o'z fikrida qolishdan birini tanlay olmay, qiyin ahvolda qoladi. Murakkab «solishtirish» jarayoni sodir bo'ladi, buni Rodjers «jonli baholash jarayoni» deb ataydi, chunki dastlab baholash manbai bola organizmida bo'lib o'tadi, ya'ni, bu erda biz yana bir bora tug'ma sifatlar tushunchasi bilan to'qnashamiz.

Psixologiyadagi umuminsoniy yo'nalishning boshqa vakili amerikalik ruhshunos Abraxam Xarald Maslou<sup>17</sup> bo'ladi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, insonning asosiy ehtiyoji – bu o'zini dolzarblashtirish, o'zini mukammallashtirish va o'zini namoyon etish. A. Maslouning yozishicha: «O'zini dolzarblashtiruvchi odamlarning barchasi qandaydir faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi ... Ular bunga berilgan bo'lib, ular uchun bu ish juda qadrli – bu o'ziga xos layoqat»<sup>11</sup>. Bunday turga mansub odamlar yuksak qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar (ular ichida – yaxshilik, haqiqat, insofilik, go'zallik, haqqoniylik, etuklik va boshqalar), bunday odamlar uchun bular hayotiy muhim ehtiyoj bo'lib xizmat qiladi. Shaxs tuzilishi Maslou bo'yicha tartibli tizimdan yoki ehtiyojlar darajasidan iborat. Bu ehtiyojlarni tubandan yuqoriga sanab o'tamiz: fiziologik (organik) ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlar, mansublilik va muhabbatga bo'lgan ehtiyojlar, hurmat qilish ehtiyojları, bılısh ehtiyoji, estetik ehtiyoj va o'zini dolzarblashtirish ehtiyojları.

YUksak taraqqiy etgan shaxs insonda mavjud bo'lgan o'zining barcha qobiliyatlarini to'la rivojlantirish, ma'nan o'sish va ahloqiy yuksalishga intilish kabi dolzarblashtirish ehtiyojları bildiradigan xususiyatga ega bo'ladi.

Inson ehtiyojlar darajasi va u yoki bu ehtiyojning shaxs tuzilishida egallagan o'mining o'zgarishini belgilovchi quyidagi qonunlar mavjud: yuqoriqdarajadagi ehtiyojlar insonning quyiroq darajadagi ehtiyojları oz darajada bo'lsa, ham qondirilgan holatdagina yuzaga kelib, muhim va dolzarb ehtiyojga aylanadi; agar insonda yangi ehtiyoj yuzaga kelib, dolzarblashganida, uning yaxlit ehtiyojlar darajasi ham qaytadan tuziladi. Maslou fikricha, o'zini dolzarblashtirish – bu doimiy taraqqiyot va o'z imkoniyatlarini amaliyotga joriy etish jarayoni. Maslou o'zini dolzarblashtirish – tug'ma hodisa bo'lib, inson tabiatiga kiradi deb hisoblaydi. Inson yaxshilik, ahloqiylik, samimiylilikka bo'lgan ehtiyojlar bilan

<sup>16</sup> Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p410

<sup>17</sup> Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p407

tug‘iladi. Ular insonning assosini tashkil etadi, va odam bu ehtiyojlarni joriy qilishni bilishi kerak bo‘ladi.

Rossiya psixologiyasida shaxs sohasida ma’lum bo‘lgan tadqiqotlar L.S. Vigotskiy maktabi vakillarining nazariy ishlari bilan bog‘liq. Shaxs muammosini hal etishga A.N. Leontev va L.I. Bojovich katta hissa qo‘shganlar.

L.S. Vigotskiy, L.I. Bojovich tomonidan kiritilgan etakchi faoliyat va taraqqiyotning ijtimoiy vaziyati tushunchalariga tayanib ish ko‘rish bola hayotining turli davrlarida faoliyatning o‘zaro ta’siri va shaxslararo muloqotning murakkab dinamikasida ichki nuqtai nazar deb ataladigan dunyoga ma’lum nigoh bilan qarash shakllanishini ko‘rsatdi. Bu nuqtai nazar shaxsning muhim xususiyatlaridan biri, faoliyat etakchi motivlari yig‘indisi sifatida tushuniladigan taraqqiyotning sharti bo‘lib hisoblanadi.

A.N. Leontev o‘zining markaziy o‘rinni faoliyat tushunchasi egallagan shaxs tuzilishi va taraqqiyoti konsepsiyasini taklif etdi. L.I. Bojovichning konsepsiyasiga o‘xhash, bu konsepsiada ham, shaxsning asosiy ichki xususiyati shaxsning motivatsiya sohasi bo‘lib hisoblanadi. Uning nazariyasidagi muhim tushuncha inson faoliyati maqsadlarining uning motivlariga, ya’ni, ayni damda bevosita qo‘zg‘atuvchiga yo‘nalganlikka bo‘lgan munosabatini ifodalovchi shaxsiy mohiyatdir. Shaxsga tegishli bo‘lgan faoliyat turlari qanchalik keng, turli-tuman bo‘lsa, ular shunchalik taraqqiy etgan va tartibli, shaxsning o‘zi esa shunchalik ma’naboy bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida, shaxs bo‘yicha tadqiqotlar hozirda ham faollik bilan olib borilayotganini ta’kidlab o‘tish joiz. Hozirgi zamон tadqiqotlarining muhim xususiyati nazariy qarashlar eksperimental tadqiqotlar asosida shakllanishidan iborat.

Shaxs tushunchasi «yuz», «soxta qiyofa» so‘zlaridan kelib chiqadi. Qadimgi rus tilida «soxta qiyofa» so‘zi «rol», ya’ni, odam boshqalar bilan muloqotda bo‘lganida kiyib oladigan biror-bir ijtimoiy niqob ma’nosini anglatuvchi «rol»ni bildirar edi. Lotincha persone so‘zi ham shu ma’noni anglatadi. Per sonare – niqob ortidan so‘zlashish. Qadimgi yunon, keyinchalik esa qadimgi rim teatrlarida akter sahnaga u yoki bu – yovuz, laganbardor, payg‘ambar, qahramon xarakterlari chizilgan niqobda chiqardi. Niqobning bo‘yoqlari ijtimoiy vazifani bajaruvchi, u yoki bu rolni ijro etayotgan insonning ahloqiy belgilariiga ishorat edi.

Qadimgi Yunonistonda «shaxs» tushunchasiga mos keluvchi atama ishlab chiqilmagan edi. O‘zining betakror taqdiriga ega bo‘lgan shaxs haqida Aflatun bilmas edi, bilishni ham xohlamasdi. Uning o‘rnini ruh egallagan edi. Arastuning «Jon haqida» asari hozirgi zamон psixologiyasiga yo‘l ochib berdi.

Qadimgi Rim oldinga qadam tashladi. Rim huquq ilmida yunoncha boshning yuz qismini, tashqi ko‘rinish, bundan tashqari, tragediyada ishtirok etuvchi ijrochini belgilovchi prosopon o‘rniga, lotincha persona so‘zi qo‘llanildi, bu so‘z avvaliga, yunoncha so‘zga o‘xshab, tragediyadagi akterning roli va niqobini anglatar edi. Lekin keyinchalik alohida individning nomi sifatida saqlanib qoldi. Rim fuqarosi huquqiy va diniy zot, avlodlar ismi-sharifi va mulk egasi sifatida ta’riflanadi.

SHarqda umuman boshqacha holat edi. Induizm va buddizmda shaxs inkor etilib, faqatgina «o'zlik» e'tirozsiz tan olinadi.

K. Yungning<sup>18</sup> psixoanaliz nazariyasiga asosan «shaxs» tushunchasi odamning jamiyatdagi ijtimoiy roli bilan bog'liq. Hayoti jarayonida u ijtimoiy talablarga mos ravishda o'zini tutishni o'rganadi. Har bir kasb uchun, masalan, jamiyat a'zosi taqib yuradigan ma'lum niqob xosdir. Shaxs xarakterni tashkil etuvchi bo'lib hisoblanmaydi, lekin u bilan uzbek bog'liq bo'lib, ichki «Men»ning himoyasi sifatida faoliyat yuritadi.

Ko'pgina tillarda mavjud bo'lgan «o'zlikni yo'qotish» iborasi o'zining egallab turgan o'rmini va darajasini yo'qotishni bildiradi.

Sharq tillarida (xitoy, yapon) shaxs tushunchasi odamning yuzi bilan emas, balki butun tanasi bilan bog'lanadi. Evropa an'analarida yuz tana bilan birgalikda o'rganiladi, chunki inson chehrasi ruhining timsolidir, xitoyliklar tafakkurida esa «hayotchanlik» tushunchasiga individning ham ma'naviy, ham vujudiy sifatlari kiradi.

Shu asosda, avval boshidan «shaxs» tushunchasiga ma'lum hayotiy rollarni ijob etganda o'ziga xoslikka ega bo'ladigan tashqi, yuzaki ijtimoiy obraz – qandaydir «shaxs», atrofdagilarga qaratilgan ijtimoiy yuz ifodasi kiritilgan edi.

Pedagogika, psixologiya va falsafada shaxsga o'xhash ko'plab qaramaqarshi ta'riflari keltirilgan ilmiy tushunchani uchratish amri mahol. Mashhur ruhshunos V.P. Zinchenko fikriga ko'ra: ««Inson» tushunchasi bilan faqat «shaxs» tushunchasi raqobatlashishi mumkin». Olim D.B. Elkonin adabiyotlarda shaxsning yigirmaga yaqin ta'rifni ko'rib chiqqandan so'ng uning o'zi shaxs emasligini xulosa qildi.

Narx tushunchasini tilla tanga yoki qimmatli qog'ozning fizik-kimyoviy tarkibini tadqiq qilish bilan tushuntirish qiyinchilik tug'dirgani kabi, faylasuf e.V. Ilenkovning yozishi bo'yicha, shaxs sir-cinoatini inson miyasi xususiyatlariga tenglashtirib bo'lmaydi. Shaxs miya tuzilishi bilan emas, balki, insonning insonga bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan belgilanadi.

Voqeiy shaxs o'zini «umumiyl natijalar» nomini olgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarni yaratishda anglaydi. Aflatun va Spinoza, Betxoven va Napoleon, Tolstoy va Mikelandjelo – bunday, odatiy holatlarni sindiradigan ijtimoiy ahamiyatga molik ishlar mujassam bo'lgan shaxslarni boshqalar bilan adashtirib yuborish mumkin emas. Shaxslar ko'lami, e.A. Ilenkovning odilona fikriga ko'ra, faqat ularnigina emas, boshqalarni ham qiziqtiradigan o'zlarining faoliyatları ko'lami bilan o'chanadi.

Yana bir mashhur faylasuf M.K. Mamardashvili tasdiqlashicha: «Shaxs – bu turmush tarzi, uning shakli, hayotning alohida holati, evolyusiyasining noyob topilmasi. Shaxs – bu «tabiatning yirik mushohadasi». Shunday ta'rif bergen bo'lardim. Uning ifodalanihlarga moyilligi barcha narsalarni bilishga yoki boshqa yuksak belgilarga bog'liq emas. Tushunsangizchi, axir insonning eng muhim ehtirosi – bu ro'yobga chiqmoq, amalga oshmoq, sodir bo'lmoq»

<sup>18</sup> Buss, David M. Evolutionary psychology: the new science of the mind / David M. Buss. - 3rd ed p410

Ruhshunoslar individning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini shaxsning asosiy belgilari, deb hisoblaydilar. B.G. Ananev «shaxs»ga «jamiyatning insonga uning ma'lum tarixiy rivojlanishi davrida ko'rsatadigan ko'plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy va boshqa ta'sirlari obyekti» sifatida ta'rif beradi. A.N. Leontev fikriga ko'ra, «shaxs insonning ijtimoiy-tarixiy va ontogenezdagi taraqqiyotining nisbatan kechki mahsulotidir. Shaxs o'zlashtirib olingan rollar tizimidir («rol» – bu biror-bir ijtimoiy guruh tuzilishida ma'lum o'rinni egallagan insonning kutilgan hulq-atvoriga javob beradigan dastur; bu insonning jamiyat hayotidagi ishtirokining tuzilishga ega bo'lgan usulidir)». Shaxs taraqqiyoti individning ijtimoiylashuvি va tarbiya topishi sharoitlarida amalga oshiriladi. Umumiyo psixologiyada ko'pchilik hollarda shaxs sifatida qandaydir yadro, mag'iz, individning turli ruhiy jarayonlarini birlashtiruvchi va uning faoliyatiga zaruriy ketma-ketlik va barqarorlik bag'ishlovchi yig'indi va amodal boshlang'ich modda tushuniladi.

L.S. Vigotskiy ijtimoiy tajribasiz, uning ichki ishlanmasiz, so'ngra uni yana qayta ishlangan shaklda ichkaridan ishlab chiqarmasdan turib, shaxsning taraqqiy etishi mumkin emasligi (interiorizatsiya va eksteriorizatsiya qonunlari) haqida yozgan edi.

Bu xususda psixologlarga tarix fanining ba'zi bir namoyondalari ham qo'shiladilar. G.S. Knabenning ta'kidlashiga ko'ra, ««shaxs» insonning jamiyat hayotidagi ishtirok i va hayotda tutgan o'rni nuqtai nazaridan insonga xos xususiyatdir». V.A. SHkuratov quyidagi definitsiyani keltiradi: «Shaxs jamiyat a'zosi va faoliyatdagi mavjudotning ifodalanishini ijtimoiy turlarga ajratish... Shaxsni uning ijtimoiy va madaniy doirasi, kelib chiqishi, kasbi, o'z tipi va h.k.larning xususiyatlaridan yig'ib olish mumkin ». Hozirgi kunda psixologiya shaxsni insonning jamiyatdagi hayotida shakllanadigan ijtimoiy-psixologik hosila sifatida tushuntiradi. Odam ijtimoiy mavjudot sifatida boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishganida va bu munosabatlar uning shaxsini shakllantiruvchi hal qiluvchi omilga aylanganida, u yangi sifatlarga ega bo'ladi.

Chet el psixologiyasida inson shaxsi sifatida barqaror belgilar majmuasini tashkil etuvchi temperament, sezgirlik, motivlar, layoqatlar, mayllar, turli hayotiy vaziyatlarga moslashayotganida aynan shu insonga xos bo'lgan fikrlar oqimi va hulq-atvorini belgilab beradigan ma'naviyat tushuniladi. J. Godfruaning fikricha, shaxs umumiyo holda ham irsiy, ham ijtimoiy-madaniy ta'sirlar bilan belgilanadi. «Shaxs» tushunchasi o'z ichiga tabiiy xossalari (jins, temperament va h.k.) asosida ijtimoiy muhit (oila, maktab, «boshqa ahamiyatlilar») va faoliyat (o'yin, bilish, mehnat) bilan faol o'zaro ta'sirlar jarayonida hosil bo'lgan individga xos bo'lgan ijtimoiy sifatlar yig'indisini birlashtiradi.

Inson shaxsi, keng tarqalgan tasavvurlarga qarshi o'laroq, 30-yoshga etgunicha o'zgarmasdan qolmaydi. Misol keltiradigan bo'lsak, Kaliforniya Universitetining bir guruh olimlari 130 mingdan ortiq odamlarning «Katta Beshlik» (vijdoniylik, murosaga kelish layoqati, nevrotizm va ekstravertlik) nomi bilan ma'lum shaxsiy sifatlarini tahlil qilganlar. Bu sifatlar kayfiyatga bog'liq emas, shuning uchun etarlicha ishonchli tarzda namoyon bo'ladi. Odamlar yosh o'tishi bilan hayotiy ixtiloflarni tezda bartaraf etishga o'rganadilar, xususan, shafqatliroq va mehribonroq bo'lishga intiladilar.

Aniqlanishicha, ayollarda, erkaklardan farqli o'laroq, yosh o'tishi bilan nevroz holatlari kamayadi. Ikki jins vakillarida samimiylik bir oz kamayadi. Olimlarning fikriga ko'ra, 20–30 yoshlilarда murakkab vazifalarni bajarishda va tashkilotlar tuzishda ko'mak beradigan vijdoniylikning kuchayishi kuzatiladi. Murosaga kelishga moyillik, aksincha, ko'pehilik holatlarda 30 yoshdan so'ng yorqin namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, faylasuflar, tarixchilar, pedagoglar va psixologlarda «shaxs» tushunchasining turlicha talqinlari mavjud. Bizlar esa, yuqorida ko'rsatganimizdek, R.S. Nemov tomonidan berilgan shaxsning, fikrimizcha, yanada aniq va to'liq psixologik ta'rifidan foydalanamiz.

Shaxs asosini uning tuzilishi tashkil etadi, bu esa shaxsning yaxlit hosila sifatida har taraflama nisbiy barqaror aloqa va o'zaro ta'sirga ega bo'lishidan iborat. Psixologlar shaxs tuzilishida turli tarkibiy qismlarni ajratadilar. S.L. Rubinshteyn temperament, xarakter, layoqatlarda; bilimlar, malakalar va ko'nikmalarda; yo'nalghanlikda namoyon bo'ladigan individual-tipologik xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi. A.G. Kovalev yo'nalghanlik, xarakter, imkoniyatlar va mashqlar tizimini ajratadi. M.I. Enikeev temperament, yo'nalghanlik, layoqatlar va xarakterni sanab o'tadi. Mashhur psixolog K.K. Aflatunov yo'nalghanlik tarkibini, ijtimoiy tajriba tarkibini, psixologik tarkibni va biologik asoslangan tarkibni ajratib ko'rsatadi.

### Shaxs filogenezi va ontogenezi

«Shaxs shakllanishi» tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) shaxs shakllanishi uning rivojlanishi, jarayoni va natijasi sifatida. Shaxs shakllanishi tushunchasining xuddi shu ma'noda qo'llanilishi psixologik o'rghanish predmeti bo'lib hisoblanadi, uning vazifasiga esa *mavjud bo'lganlarni* (mavjud, tajribada ma'lum bo'ladigan) va rivojlanayotgan shaxsda maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirlar sharoitida *mavjud bo'lishi mumkinlarni* aniqlash kiradi. Bu shaxs shakllanishini o'rghanishga *psixologik yondoshuvdir*; 2) shaxs shakllanishi maqsadga yo'naltirilgan tarbiya sifatida. Bu shaxs shakllanishiga doir masalalarni va usullarni hal etishga bo'lgan *pedagogik yondoshuv*. Pedagogik yondoshuv jamiyatning ijtimoiy talablariga mos kelishi uchun shaxsda *shakllanishi kerak bo'lganlarni aniqlashtirish zarurligini* belgilaydi.

Inson shaxs bo'lib tug'ilmaydi, unga aylanadi. Shaxs taraqqiyoti bo'ysunadigan qonunlarga doir turli nuqtai nazarlar mavjud. Turli xil shaxs nazariyalari ko'pehilikni tashkil etadi, ularning har birida shaxs taraqqiyoti muammosi o'ziga xos holatda ko'rib chiqiladi. Psixologik tahlil nazariyasi rivojlanishni insonning biologik tabiatini jamiyatdag'i hayotga moslashuvi, insonda ehtiyojlarni qondirishning ma'lum himoya mexanizmlari va usullarining ishlanmasi sifatida tushuntiradi. Xususiyatlarni nazariyasiga ko'ra, shaxs xususiyatlari hayoti davomida shakllanadi, ularning hosil bo'lish, o'zgarish va barqarorlashtirish jarayonlari nobiologik qonunlarga bo'ysunadi. Ijtimoiy ta'limot nazariyasiga ko'ra, shaxs taraqqiyoti jarayoni odamlar o'zaro ta'sirlashuvi ma'lum usullarining shakllanishi sifatida o'rganiladi. Umuminsoniy va boshqa noyob hodisalar bilan bog'liq nazariyalar «Men»ning vujudga kelish jarayoni sifatida tushuntiradilar. Shaxs taraqqiyoti uning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi jarayonida

sodir bo‘ladi. Mavjudligining birinchi kunlaridan boshlaboq, inson o‘ziga o‘xshaganlar qurshovida bo‘ladi, turli xil ijtimoiy munosabatlar va o‘zaro harakatlarda qatnashadi. Birinchi ijtimoiy tajribani oilasi sharoitida orttiradi, so‘ngra turli jamoalar sharoitida shaxsining ajralmas qismiga aylangan subyektiv tajribani to‘plab boradi. Bu jarayon, shuningdek, individ tomonidan ijtimoiy tajribaning faol tarzda ishlab chiqarilishi *ijtimoiylashuv* jarayoni deb ataladi.

B.G. Ananev konsepsiyasiga ko‘ra, ijtimoiylashuv jarayoni insonning shaxs sifatida va faoliyat subyekti sifatida bunyodga kelishini ikki yo‘nalishli jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunday ijtimoiylashuvning yakuniy maqsadi individuallikning shakllanishidan iborat bo‘ladi. Individuallashtirish deganda aniq shaxsning rivojlanish jarayoni tushuniladi.

Ijtimoiylashuv bilan birgalikda yana bir jarayon – *madaniylashtirish* xam amalga oshiriladi. Agar ijtimoiylashuv – bu ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish bo‘lsa, madaniylashtirish – bu individning umuminsoniy madaniyat va turli davrlardagi inson faoliyatining moddiy va ma’naviy qadriyatlari jamlangan tarixiy tarkib topgan faoliyat usullarini o‘zlashtirishdan iborat.

Shaxs taraqqiyoti muammosining u yoki bu nazariya nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishdan tashqari, shaxsni turli yondoshuvlar nuqtai nazaridan integratsiyalashtirilgan holda, yaxlitligicha ko‘rib chiqish g‘oyasi ham mavjud. Shu asosda, shaxs barcha qirralarining kelishilgan holda, tizimli shakllanishi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarini e’tiboriga qabul qiluvchi bir qancha konsepsiyalar shakllandi. Ushbu taraqqiyot konsepsiyalari integratsiya konsepsiyalariga kiradi.

Shunday konsepsiyalardan biri amerikalik ruhshunos olim e. Erikson tomonidan ishlab chiqilgan nazariya hisoblanadi, u taraqqiyotga nisbatan o‘z qarashlarida *epigenetik tamoyil*: inson o‘z shaxsiy taraqqiyotida tug‘ilishidan boshlab, to so‘nggi kunlarigacha majburiy ravishda bosib o‘tadigan bosqichlarning irlsiy belgilanganligiga rioya qiladi. E. Erikson hар bir odamda muqarrar ravishda ro‘y beradigan sakkiz xildagi hayotiy ruhiy inqirozlarni ajratib, ta’riflab berdi:

1. Ishonch inqirozi – ishonchsizlik (hayotining birinchi yili davomida).
2. Gumsirash va uyatchanlikka qarshi o‘laroq, o‘zini idora qilish (2-3 yoshlar atrofida).
3. Aybdorlik hissiga qarshi o‘laroq, tashabbuskorlikning paydo bo‘lishi (taxminan uchdan olti yoshgacha).
4. Mukammal emaslik kompleksiga qarshi o‘laroq, mehnatsevarlik (7 dan 12 yoshgacha).
5. Individual g‘o‘rlik va konformizmga qarshi o‘laroq, shaxsiy yo‘nalishga ega bo‘lish (12 dan 18 yoshgacha).
6. Shaxsiy ruhiy yakkalanishga qarshi o‘laroq, samimiylilik va muloqotchanlik (20 yoshlar atrofida).
7. «O‘ziga g‘arq bo‘lish»ga qarshi o‘laroq, yangi avlod tarbiyasi haqida qayg‘urish (30-60 yoshlar orasida).
8. Umidsizlanishga qarshi o‘laroq, bosib o‘tilgan hayot yo‘lidan mammunlik (60 yoshdan katta) (7.2 jadval).

Erikson konsepsiyasida shaxsning vujudga kelishi har bir bosqichda sodir bo‘ladigan inson ichki olami va atrofdagi odamlar bilan munosabatlarining sifat o‘zgarishlari almashinuvi tarzida tushuniladi. Buning natijasida u shaxs sifatida rivojlanishning, aynan, hozirgi bosqichiga tegishli bo‘lgan va butun umri davomida saqlanib qoladigan yangi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda yangi shaxsiy qirralar, erikson fikricha, faqat avvalgi rivojlanish asosida yuzaga keladi.

Inson shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida ijobiy sifatlar bilan birga kamchiliklarga ham ega bo‘ladi. Turli xildagi ijobiy va salbiy yangi hosilalarni birgalikda yagona nazariyada izchil tarzda umuman tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun erikson o‘z konsepsiyasida shaxs rivojlanishining faqat ikki keskin: normal va anormal yo‘nalishlarni aks ettirdi. Hayotda ular sof ko‘rinishda deyarli uchramaydi, lekin aniq chegaralangan qutblar yordamida inson shaxsiyati taraqqiyotining barcha oraliq turlarini tasavvur qilish mumkin.

Shaxs taraqqiyoti muammosini o‘rganishda mualliflar inson rivojlanishini belgilab beruvchi sabablarni aniqlashga harakat qiladilar. Tadqiqotchilarining ko‘pchiligi shaxs taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida turli ko‘rinishdagi ehtiyojlar majmuasini tan oladilar. Bunday ehtiyojlar orasida o‘zo‘zini o‘stirishga bo‘lgan ehtiyoj asosiy o‘rinni egallaydi. O‘z-o‘zini o‘stirishga bo‘lgan intilish qandaydir erishib bo‘lmaydigan etuklikka intilishni bildirmaydi. Shaxsning aniq maqsad yoki ijtimoiy darajaga erishishga bo‘lgan intilishi o‘ta muhimdir.

Shaxs taraqqiyotining umumiy muammolari qatorida o‘ganiladigan masalalardan yana biri shaxsiy xossalarning barqarorlik darajasi haqidagi masala hisoblanadi. Ko‘pchilik shaxs nazariyalarining asosida shaxs ijtimoiy-psixologik noyob hodisa sifatida o‘zining asosiy ifodalanishida hayotiy barqaror tuzilma bo‘lib hisoblanishi haqidagi faraziy tushuncha yotadi. Aynan shaxs xususiyatlarining barqarorlik darajasi harakatlarining ketma-ketligini va ma’lum hulq-atvorni belgilaydi, uning harakatlariga qonuniylik xususiyatini beradi. Lekin qator tadqiqotlar natijasida inson hulq-atvori anchayin o‘zgaruvchanligi aniqlandi. Shuning uchun qonuniy ravishda inson shaxsi va hulq-atvorining barqarorligi haqiqatdan ham nimada va qanchalik ifodalanishi haqidagi savol tug‘iladi.

Tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, tug‘ma anatomik va fiziologik xususiyatlar, asab tizimi xossalari bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning dinamik xususiyatlari yuqori darajadagi barqarorlikka ega bo‘ladi. Ularga temperament, emotSIONAL reaktivlik, ekstraversiya – introversiya va boshqa ba’zi bir sifatlar kiradi. Shuningdek, aniqlanishicha, shaxsning ham barqaror, ham o‘zgaruvchan real hulq-atvori doimiy ijtimoiy vaziyatlarga bog‘liqdir.

«Umumiyl psixologiya» (2002 y.) darsligining muallifi A.G. Maklakovning fikriga ko‘ra, inson barcha odamlarga xos bo‘lganligidan o‘ta barqaror hosilani tashkil etuvchi shaxsning qator xususiyatlariga egadir. Bular integrativ xususiyatlardir, ularga shaxsning **moslashuvchanlik potensiali** kiradi. Maklakovning nuqtai nazari bilan qaraganda, har bir odam shaxsiy moslashuvchanlik potensialiga, ya’ni, ijtimoiy muhit sharoitlariga samarali moslashish imkonini beruvchi ma’lum psixologik xususiyatlar to‘plamiga ega. Shaxsiy moslashuvchanlik potensialining rivojlanish darajasiga ko‘ra inson turli

vaziyatlarda o‘z hulq-atvorini u yoki bu darajada samarali shakllanadir. Shunday ko‘ra, hulq-atvorning muntazamliligi haqida emas, balki turli sharoitlarda mutanosib hulq-atvorni belgilovchi qirralar doimiyligi haqida so‘z yuritish lozim.

### **Individ, subyekt, shaxs, individuallik tushunchasi**

Shaxs – psixologiya fanining asosiy ilmiy tushunchalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shaxsning nimaligini tushunish va uning ruhiy tuzilishini ta’riflash imkonini beruvchi asosiy xossalari ajratib olish uchun ushbu tushunchani «inson individ shaxs individuallik» qatorida ko‘rib chiqamiz.

inson o‘ta murakkab mavjudot sifatida cheksiz murakkab dunyoda, aniqrog‘i, ko‘plab dunyolarda yashaydi, ularning ichidan zamonimizning mashhur faylasuflaridan biri YUrgen Xabermas asosiyлari sifatida uch dunyoni: tashqi dunyo, ijtimoiy dunyo («bizning olam»), ichki dunyo («mening olamim», individuallik va betakrorlilik «mening mavjudligimning» betakrorligi) ajratishni taklif etdi.

Tashqi dunyo – bu insonning tabiat qonunlarini bilishda va ularni o‘z maqsadlarida tabiatni qayta tuzish uchun qo‘llashda egallaydigan tabiat olami. Bu fan, texnika, amaliyot olamidir. Bu barcha narsa isbot talab etuvchi maqsadga muvofiq faoliyat olamidir.

Ijtimoiy dunyo – bu insonni dunyoga kiritishning asosiy vositasi *jismli faoliyat* bo‘lgan olam. Insonni atrofdagi olamga va o‘ziga nisbatan munosabatlarining rang-barangligida tushunish, faolligining manbalarini topish va yo‘nalishini anglash uchun insonning olamda tutgan o‘rnini aniqlab olish zarur. Insonga shaxs sifatida yondoshish, avvalambor, insonga jamiyat tuzilishida tutgan o‘rni bilan aniqlanuvchi jamiyatning birligi sifatida qarash bilan bog‘liqdır. Insonni biologik organizm, tur birligi sifatida hayvondan farq qiluvchi tub negizli belgisi jamiyatga tegishlilik, ijtimoiylik hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, shaxsni o‘rganishda dastlabki holat bo‘lib uning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritilganligi xizmat qiladi .

Agar biz shaxs munosabatlari haqida insonning dunyoga shaxsiy tegishliligi va bu bilan bog‘liq kechinmalar ma’nosida so‘z yuritadigan bo‘lsak, u holda inson mavjud bo‘la oladigan keyingi – bu «mening» ichki olamim dunyosiga murojaat qilamiz. Bu dunyo kechinmalar, shaxsiy mohiyatlar, shaxsiy dahldorlikni his etish, u yoki bunga shaxsiy tegishlilik, boshqa odamlar bilan mavjudlikning «hodisaviyligi» bilan to‘la. Bu dunyoga jismli faoliyat o‘z shaklini o‘zgartirgan holda oddiy holatdagi foydali faoliyat, shaklini yo‘qotgan jismli harakat bo‘lib emas, balki, «shaxsiy» faoliyat, ijodiyot sifatida kiradi, ijtimoiy hulq-atvor esa «mening» dunyosiga shaxslararo munosabat, boshqa odamlarning ichki dunyosiga yaqinlashish, boshqalarga o‘zini ochishning vositasi, o‘zini namoyon etish sifatida kirib keladi. «Mening» dunyosida unga xos bo‘lgan maxsus faoliyat turlari: o‘yin, san’at, din, ichki dunyolar yaqinlashuvi sifatidagi muloqot paydo bo‘ladi.

«Individ» tushunchasini turlichal talqin qilish mumkin. Avvalambor, individ – bu yagona tabiat mavjudoti sifatidagi odam, Homo sapiens turiga mansub vakil. Ushbu holatda individ biologik turning umumiy irsiy xossalari tashuvchi biologik organizm (har bir odam individ bo‘lib tug‘iladi) sifatida tushuniladi, ya’ni, insonning biologik mohiyati ta’kidlanadi. Lekin ba’zida «individ»

tushunchasi odamni insoniy umumiylikning alohida vakili, mehnat quollaridan foydalanuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida belgilash uchun qo'llaniladi.

Agar «inson» tushunchasi o'z ichiga odamlarga xos bo'lgan barcha insoniy sifatlarning yig'indisini, ularning ma'lum insonda mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar, jamlagan bo'lsa, u holda «individ» tushunchasi aynan uni xarakterlaydi va qo'shimcha sifatida shaxsiy xislatlar qatori psixologik va biologik xossalarni ham kiritadi. Bundan tashqari, ushbu tushunchaga ma'lum odamni boshqalardan ajratib turuvchi sifatlar bilan birga, aynan shu odamga va ko'plab boshqa odamlarga tegishli bo'lgan umumiy xossalarni ham kiradi.

Shaxs tushunchasining mohiyatli tomonlarini belgilab beruvchi turli xil ta'riflar mavjud. A.N. Leontev ta'rifiiga ko'ra: «Shaxs – faoliyat subyekti», A.G. Kovalevning – «shaxs ijtimoiy munosabatlar subyekti va obyekti sifatida», K.K. Aflatunovning – «shaxs – o'z o'rnini anglovchi layoqatli jamiyat a'zosi», S.L. Rubinshteynning – «shaxs – tashqi ta'sirlarning oldini oluvchi ichki sharoitlar yig'indisi», A.V. Petrovskiyning – «shaxs – individ tomonidan jismli faoliyat va muloqotda orttirilgan, unga ijtimoiy munosabatlarga kirishganlik nuqtai nazaridan ta'rif beruvchi tizimli sifat», G. Ollportning – «shaxs hayoti davomida shakllanib boruvchi o'ziga xos psixofisiologik tizimlar – ushbu insonga xos bo'lgan tafakkur va hulq-atvorni belgilab beruvchi shaxs qirralari yig'indisi» va boshqalarning ta'riflari shulardan iborat.

Bizlar esa R.S. Nemov tomonidan shaxsga berilgan ta'rifni qo'llaymiz: «Shaxs – bu ijtimoiy asoslangan, ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan aloqalar va munosabatlarda namoyon bo'ladigan, barqaror, odamning o'zi va atrofidagilar uchun ahamiyatli bo'lgan ahloqiy harakatlarni belgilab beruvchi o'zining psixologik xususiyatlari tizimidagi inson»<sup>8</sup>.

Shunday qilib, inson, birinchidan, tirik tabiat vakili, biologik obyekt sifatida, ikkinchidan, ongli faoliyat subyekti sifatida va, uchinchidan, ijtimoiy mavjudot sifatida o'rganilishi mumkin, bu uch darajaning yaxlit uyushmagaga birlashishi insonning yig'indi xususiyatlarini – uning individualligini shakllantiradi.

**Individuallik** – bu ma'lum insonning, uning noyobligi, betakrorligi nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lgan ruhiy, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig'indisi.

Individuallik – bu ko'rib chiqilgan tushunchalar ichida mazmuniga ko'ra eng tor tushuncha hisoblanadi. U o'zida insonning boshqa odamlardan farq qiluvchi o'ziga xos va shaxsiy xossalarni jamlaydi. Individuallik turli xildagi tajriba, bilimlar, fikrlardagi tafovutlar, xarakter va temperamentlardagi farqlar, o'zimiz isbotlaydigan, tasdiqlaydigan o'ziga xos xususiyatlarimizda namoyon bo'ladi. Motivlar, temperament, xarakter, layoqatlar – individuallikning asosiy ko'rsatkichlari. «Individuallik» tushunchasi individning faqat o'ziga xos ruhiy xususiyatlarini emas, balki morfobiologik (bo'y o'lchami, tana tuzilishi, yuz tuzilishi va h.k.) xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Individuallik – o'z mohiyatiga ko'ra, boshqalar tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan, tashqarida joylashgan narsa. Faqat boshqalar bir odamning boshqasidan farqini, ya'ni, uning individualligini aytib berishi mumkin.

Shunday qilib, bizlar ko'rib chiqqan «odam, individ, shaxs va individuallik» tushunchalari hajmiga ko'ra turlichadir. Bular orasida keng ma'no kasb etib,

boshqa tushunchalarni ham o‘zida jo etadigan tushuncha «inson» atamasidir, eng tor atama esa – «individuallik» tushunchasi.

## Internet saytlari

1. <http://textshare.tsx.org>
2. <http://www.mgimo.ru/filesserver/>
3. [http://www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/)
4. [http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch\\_14.htm](http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm)
5. <http://www.voppsv.ru>
6. <http://flogiston.ru/arch>
7. <http://psychol.ras.ru>
8. <http://psvberia.ru>

## Mustaqil ta’lim savollari

1. Mehnat faoliyat xususiyati: jamoviy, va boshqalar.
2. Ehtiyojlarning vujudga kelishi.
3. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida.
4. Individ, subyekt, shaxs, individuallik tushunchasi.
5. Birlamchi adabiyotlar bilan ishlash:
6. Leontev A. N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. M: Izd-vo polit, literatury. 2005. 304 s.
7. Luriya A.R. Leksii po obshchey psixologii. – SPb.: Piter, 2006. – 320 s.

## Glossariy

1. **Inkor etish.** Inson unga og‘riq beruvchi voqelikka e’tiborsizlik bilan, o‘zini xuddi muammo mavjud emasdek tutadi.
2. **Ko‘chirish** – hissiyot obyektini xavfsizrog‘iga almashtirish. Aslida hissiyotlarning paydo bo‘lishiga umuman boshqa odam sabab bo‘lsada, inson muhabbat, nafrat, raqobatchilik haqida mulohaza yuritadi.
3. **Sublimatsiya** – jinsiy mayllar bilan bog‘liq harakatlarni yuksak maqsadlarga, masalan, ijodkorlikka safarbar qilish.
4. **Proektsiya** – inson o‘zining shaxsiy ong uchun maqbul bo‘limgan ichki sezgi va istaklarini boshqa odamlarga o‘tkazishidan iborat bo‘lgan himoya mexanizmi. Boshqalarni, aynan, shuning uchun ayblaydi.
5. **Xayollarga berilish** – shaxsiy «Men»ning ahamiyatliligini ko‘rsatish maqsadida tasavvur, zeb berish, o‘z imkoniyatlariga ortiqcha baho berish sohasida frustratsiyalangan ehtiyojlarni qondirish.
6. **Kasallikka berilish** – muammolarni hal etishda ma’suliyatlilik va mustaqillikdan bosh tortishga intilish; bu mexanizm «ikkilamchi foyda» noyob hodisasi bilan bog‘liq. Bemorlik roli odamni harakat qilish zaruriyatidan ozod qiladi, tobe va hamdardilikka muhtoj bo‘lishga imkon yaratadi.
7. **Repressiya** (sinqib chiqarish, so‘ndirish) – xotiradan ruhiyatga jarohat etkazuvchi noxush uchrashuvlar, voqealar, hodisalarni o‘chirib tashlaydigan tub

negizli himoya mexanizmi. O‘zimiz ham bajarolmagan va’da, xunuk xattiharakatimiz haqida juda tez unutamiz. Lekin bu munofiqlik emas. Inson haqiqatdan ham ko‘rmay, bilmay turib, unutib yuboradi.

8. *Regressiya* – voyaga etgan insonga o‘zini yosh boladek tutish imkonini beruvchi rivojlanishning dastlabki boqichlariga qaytish. Oilali ayol turmush o‘rtog‘i bilan kelisholmay qolsa, xuddi, avvalgidek, ota-onasi uyida kichkina qizcha davridagidek, himoya va yupanch ilinjida yig‘lay boshlaydi. Ba’zida kattalar qandaydir vaziyatda «bolalarcha ifodalar» bilan gapirishlari mumkin. Bu o‘ziga xos ravishda xavotirga sabab bo‘luvchi voqelikdan, muammolardan o‘ziga xos ravishda chekinishdir.

9. *Qarama-qarshi reaktsiyaning shakllanishi* – ong uchun maqbul bo‘lmagan reaktsiyaning qarama-qarshisiga almashtirish, masalan, muhabbatni – nafratga, nafratni – muhabbatga. Jinsiy etilish davrida qizlarga nisbatan havasning uyg‘ongani anglanmagan holda o‘g‘il bolalar qizlarning sochlardan tortishi, janjallahishi, yomon laqab qo‘yishi, ularga toqat qilolmasliklarini alohida ta’kidlashlarida namoyon bo‘ladi.

10. *Qasd olish* – impuls yoki hissiyotni bir obyektdan qulayroq boshqa obyektga qayta yo‘naltirish. Oila boshlig‘i ishxonadagi noxushliklarning alamini hevosita aybdor - boshlig‘idan emas, balki, ayolidan, bolalaridan yoki itidan oladi.

11. *Maqsadga muvofiqlashtirish* – muvofiq kelmaydigan harakatlar va fikrlar uchun ishontiradigan sabablarni o‘ylab topish, o‘zini aldash. Masalan, omadsizlikka uchragan odam, o‘zi intilgan obyekt qadrini pasaytirgan holda, haqoratlangan izzat-nafsi tinchlantiradi. Rad javobini olgan yigit qizning «didiga mos kelmasligini» yoki avval o‘ylaganchalik go‘zal emasligini e’lon qilishi mumkin.

12. *Intellektuallashtirish* – uning yordamida subyekt diskursiv ko‘rinishda o‘zining nizolilari va hissiyotlarini ularni egallab olish maqsadida ifodalashga harakat qiladigan jarayon. Boshqacha aytganda, o‘z havaslarini, mantiqiy hosil qilingan mulohaza tuzilmalariga o‘ragan holda, ifodalashga intilishdir. Kechinma mulohaza yuritish bilan almashtiriladi.

13. *Yakkalanish* – intellektuallashtirishga o‘xhash mexanizm bo‘lib, mulohaza yoki harakatning subyektning boshqa fikrlari yoki hayotining boshqa tomonlari bilan uzilishini bildiradi. Yakkalanish tafakkur jaraniyodagi to‘xtalishda, formula va ritualda ifodalanishi mumkin. Bu mexanizm u yoki bu mavzu yuzasidan suhbatlashish istagini mavjud emasligi, muhokama etilmasligi sifatida ko‘rinadi.

14. *Tenglashtirish* – o‘ziga boshqa odamga xos bo‘lgan hislar, mulohazalar, kayfiyatlarni o‘zlashtirib olish. Turlaridan biri tahdid soluvchiga o‘xshatish. Bu dushman uyg‘otayotgan qo‘rqinch hissidan qutilish uchun subyekt, yoki rolni qabul qilgan holda, yoki obyektning o‘zini parchalagan holda u bilan aloqa o‘rnatishini bildiradi.

### Keyslar banki

**Keys 4.** Shaxsning evolyusion jihatdan rivojlanish nazariyalari mavjud. Qaysi nazariya eng mukammli xisoblanadi (biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik).

## **Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Barcha nazariyalarni tahlil qilgan holatda uning asosiylarini aniqlash (individual holda).

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Shaxsni evolyusion jihatdan rivojlanishi.
2. Shaxs nazariyalariga zamonaviy qarashlar.
3. Evolyusion nazariyalar va shaxs.
4. Shaxs filogenezi va ontogenezi.
5. Ijtimoiy ishlab chiqarish inson hayotining usuli sifatida.

### **Test savollari**

1. Quyidagi tushunchalardan qaysi biri mazmunan uncha keng bo‘lmagan tushuncha hisoblanadi «individ», «shaxs», «faoliyat subyekti», «individuallik»:
  - a) individ;
  - b) shaxs;
  - v) faoliyat subyekti;
  - g) individuallik.
2. «Individ», «shaxs», «faoliyat subyekti», «individuallik» tushunchalari ichida mazmunining hajmiga ko‘ra quyidagi munosabatni hosil qiladi:
  - a) kiritmalar;
  - b) o‘zaro tobeliklar;
  - v) avlod – tur;
  - g) qator tuzilishiga ko‘ra.
3. Inson jamiyatidagi ontogenetik taraqqiyotining yuksak bosqichi – bu:
  - a) individ;
  - b) shaxs;
  - v) faoliyat subyekti;
  - g) individuallik.
4. Shaxs taraqqiyoti dinamikasiga yo‘naltirilgan, xulq-atvorining asosiy xususiyatlarini belgilab beruvchi barqaror istaklari va motivlari tizimi,- bu:
  - a) temperament;
  - b) xarakter;
  - v) layoqat;
  - g) yo‘nalganlik.
5. Inson intiladigan va unga erishish o‘ziga tortuvchi va muqarrar bo‘lib tuyuladigan maqsadlarning qiyinlik darajasi quyidagicha xarakterlanadi:
  - a) da’vogarlik darajasi;
  - b) nazorat lokusi;
  - v) o‘zini baholash;
  - g) o‘ziga munosabat

## **4- Mavzu**

### **I. Shaxsnинг psixodinamik va psixoanalitik nazariyaları.**

**1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati:** leksiya psixologiya fanining asosiy kategoriyalardan sanalgan "shaxs" tushunchasining psixodinamik va psixoanalitik nazariyalar mazmunini ochishga qaratilgan.

### **1.2 Mavzuga doir bibliografiya:**

#### **Asosiy manbaalar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma`naviyat, 2008.-174 b.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб / Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртинчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул- абров: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ: масъул мухаррир В.Раҳмонов/.-Т.:Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Фозиев Э.Ғ. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### **Qo'shimcha manbaalar:**

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

### **II. Leksiyani uyushtirish shakllari:**

- 2.1 Auditoriya.** 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'niliishi 1 kurs talabalari. Tayyorlik darajasi - umumta'limiyl.
- 2.2 Leksiya maqsadi.** Talabalarda shaxsga bo'lgan psixodinamik va psixoanalitik qarashlar to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish.
- 2.3 Leksiya vazifalari.** Z.Freydning shaxs konsepsiysi va K.Yungning shaxsga doir arxetipik nazariya mohiyatini talabalarga yetkazish.
- 2.4 Leksiyani uyushtirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

### **III. Leksiya mazmuni**

1. Reja va leksiya mazmunining konspekti.
2. Tizimlilik, izchillik, tushunarilik, ko'rgazmalilikni ta'minlaydigan o'quv vositalari va didaktik usullar (konspektda ko'rsatib o'tiladi).

## **4-mavzu. Shaxsning psixodinamik va psixoanalitik nazariyaları**

Z.Freydning shaxs tuzilmasi haqidagi qarashi. Instinktlar. O'lim va hayot mohiyati. Shaxvoniylig nazariyasi; psixika strukturasi: id, ego, super-ego. Psixoseksual taraqqiyot nazariyasi: oral bosqich, anal bosqich, fallik bosqich, latent davr, genital bosqich.

K.G.Yungning arxetiplar haqidagi nazariyasi: asosiy kontseptsiyalar va printsiplar, shaxs strukturasi, arhetiplarr. Ego-yo`nalganlik. Psixologik funktsiyalar. Shaxs taraqqiyoti.

### **Reja:**

1. Shaxsning psixodinamik nazariyasi
2. Shaxsning psixoanalitik kontseptsiyasi

### **1. Shaxsning psixodinamik nazariyasi**

#### **Psixoanaliz**

«Psixoanaliz» uch xil mazmunda qo'llaniladi: 1) shaxs va psixopatologiya nazariyasi, 2) shaxsga doir buzilishlarni davolash metodi sifatida va 3) individuumning anglanmagan o'y-fikrlari va tuyg'ularini o'rganish metodi sifatida.

#### **Ong darajalari: topografik model.**

Freydning topografik modeliga ko'ra psixik hayotning uch qatlamini farqlash mumkin: ong, ongoldi va ongsizlik (g'ayrishuuriy).

Freyd ong darajasida insonning ayni damda ro'y berayotgan sezgilarini va kechinmalari qatlamini nazarda tutgan. Uning Fikriga ko'ra psixik hayotning (o'y-fikrlar, idrok, tuyg'ular, xotira) arzimas qismigina anglanishi mumkin. Ayni pallada inson ongida kechayotgan barcha narsalar maxsus saralanishning pirovard natijasidir. Ong miyada saqlanayotgan axborotning kichik foizini tashkil etadi.

Ong oldi sohasi ayni damda anglanilmayotgan biroq inson ozgina harakat qilsa anglanishi mumkin bo'lgan hayotiy tajribani qamrab oladi. Ong oldi sohasi psixik olamning anglangan va g'ayrishuuriy sohalari uzra ko'prik vazifasini o'taydi.

Inson psixik olaming eng tub va muhim qismi – g'ayrishuuriylikdir. G'ayrishuuriylik inson ongiga tahdid solishi mumkin sanalgan eng sodda instinktiv mayllar, emotsiya va xotiralardan tashkil topgan.

Freyd inson xulq-atvorining muhim jihatlari ongdan tashqarida bo'lgan impulslar va mayllar tomonidan boshqarilishiga qat'iy ishongan. Mazkur ta'sirlar nainki anglanmaydi, balki anglanlish pallasida yoki xulq-atvorda oshkora namoyon bo'la

boshlashi bilan individuumning shiddatli ichqi qarshiligiga duch keladi. G‘ayrishuuriy kechinmalar, ongoldi kechinmalaridan farqli ravishda, umuman anglanilmaydi, lekin insonlar xatti-harakatini to‘liq belgilaydi. Shunga qaramasdan, g‘ayrishuuriylik sohasiga taalluqli kechinmalar niqoblashtirilgan holda yoki ramziy shakllarda (tushlarda, hayollarda, o‘yin va mehnat faoliyatida) o‘zini namoyon qilishi mumkin.

### **Mavllar psixologivasi / libido (shaxvat) nazarivasi** **(Freyd bo‘vicha)**

#### **TUSHUNCHA —**

**Libido:** ham ongli, ham (birinchi navbatda) g‘ayrishuuriy tarzda ruhiy hayotga ta’sir o‘tkazuvchi, birlamchi mayl:

- Narsissik libido; autoerotik, faqatgina o‘ziga qaratilgan;
- Obyektlarga doir libido: tashqi olam obyektlariga qaratilgan.

**Instinkt:** reflekslarga asoslangan reaksiyalarning irsiy yoki hayot davomida mustahkamlangan ko‘rinishlari.

**Psixoseksuallik:** «muhabbat va xohish», hissiy intilishlar bilan bog‘liq barcha narsa, qondirilishni taqozo etuvchi har bir motiv, har qanday ishtiyoq:

**Jinsiy mayl:** shaxvoniylikning bir ko‘rinishi.

**Freyd qarashlarining o‘zgarishi:**

1. Dualistik yondashuv: o‘zini o‘ylash, himoya qilish (=Ego-instinktlarni) (ochlik, hokimiyat) va shaxvoniy instinktlarni farqlash.

2. Monistik yondashuv (1914): o‘ziga maftun bo‘lish (narsissizm) shaxvoniy mayllar guruhiiga kiritiladi;


U (ID), Men (EGO), Oliy-Men (SUPER-EGO) modelini yaratilishi.

3. Dualistik yondashuv (Birinchi Jahon Urushi ta’siri natijasida); xayotga va o‘limga intilish.

Barcha mayllarning umumiylarini alomatlari:

- maqsadning mavjudligi,
- obyektning mavjudligi,
- somatik (vujudga doir) manbaa,
- impulsiv (o‘z-o‘zidan, birdaniga namoyon bo‘luvchi) tusga ega bo‘lishi,
- qondirilishi davomida yuqori darajadagi lazzatlanish hissini berishi,
- vujud bilan bog‘liq bo‘lishi.

## Psixik apparatning tuzilmaviv modeli



### **U (ID):**

- quyi, tug‘ma soha,
- lazzatlanish-yoqimsizlik tamoyiliga binoan harakat qiladi,
- o‘z impulslarini zudlik bilan va to‘la qondirilishini talab qiladi,
- mantiq, axloq, toqatni tushunmaydi,
- vaqt degan chegarani bilmaydi, ta’limga va nazoratga bo‘yinsunmaydi,
- vujud jihatlari bilan uzviy bog‘liq.

### **MEN (EGO):**

- o‘z funksiyalaridan kelib chiqib aniqlanadi (**EGO** funksiyalaridan):
  - idrok (farqlay olish)
  - xotira,
  - motorika (ixtiyoriy);
- reallik tamoyiliga muvofiq harakat qiladi.
- o‘ylaydigan, rejalashtiruvchi tizim.
- ong sohibi (qisman g‘ayrishiuriy bo‘lsada):
- **EGO** ning sintetik (uyg‘unlashtiruvchi) funksiyasi namoyon bo‘ladi, qachonki:

### **U (ID):**


- **Super-Ego** ta’qiqlariga duch kelganda,
- tashqi olam undovlariga uchraganda,
- tashqi olam bilan o‘zaro munosabatlarga kirisha olishi uchun, **ID** tajriba orttirishi lozim,
- «chavandozlik» qiladi,

- qo‘rquvni hosil qilish orqali muhofaza qiladi (pirovardida: IDga qarshi yo‘naltirilgan zo‘riqishlarni ma’lum darajada engillatuvchi himoya mexanizmlari vujudga keladi),
- o‘zning himoyasini ta’minlovchi psixika a’zosidir,
- «qo‘rquvlar hosil bo‘ladigan joy» (Freyd)

### **OLIY MEN (Super-Ego):**

- oila yoki jamiyatdan kelib chiqadigan barcha motivlar tizimi,
- vijdon (muayyan darajadagi mustaqil o‘lcham),
- chegaralaydi va ta’qib qiladi,
- qo‘rquv uyg‘otuvchi ota-onalarining biri bilan bog‘liq.

Uchchala instansiyalarning markaziy mazmuni o‘zlikdir



## **2. Shaxsning psixoanalitik kontseptsiysi**

### **Analitik psixologiya: asosiy konsepsiya va prinsiplar.**

K.G.Yung psixoanalizni qayta ishlab chiqishi natijasida psixologiya, falsafa, astrologiya, arxeologiya, mifologiya, teologiya va adabiyot kabi bilimlar sohasiga doir murakkab g‘oyalari kompleksi vujudga keldi. Shu bois Yung nazariyasi anglanilishi eng murakkab bo‘lgan psixologik nazariya hisoblanadi.

## **Shaxs tuzilmasi.**

Yung qarashiga binoan “ruh” (Yung nazariyasida mazkur termin shaxs tushunchasiga monand) uch alohida, biroq o‘zaro ta’sirga kiruvchi tuzilmalardan tashkil topgan. Bular: ego, shaxsiy g‘ayrishuuriy va jamoaviy g‘ayrishuuriy (Jung, 1931/1969).

*Ego* ong doirasi markazi hisoblanadi. U o‘zimizning bir butunligimiz, barqarorligimiz, o‘zimizni insonday idrok etishimizni ta’minlaydigan o‘y-fikrlar, xotiralar, kechinma va sezgilarimizni qamrab oladigan “psyche”dir. Ego o‘zligimizni anglash asosidir, u tufayli kundalik ongli faoliyatimiz natijalarini ko‘ra olamiz.

Shaxsiy g‘ayrishuuriylik qachonlardir anglangan, hozirda bosilgan yoki unutilgan xotira va ziddiyatlardan tashkil topgan. Ularga ongda namoyon bo‘lish uchun zaruriy yorqinlik etmaydigan hissiy ta’sirotlar taalluqli. Ushbu jihatdan Yung konsepsiysi Freyd konsepsiyasiga monand. Biroq Yung shaxsiy g‘ayrishuuriylik sirasiga individuum o‘zining o‘tmish shaxsiy tajribasi, urug‘-aymog‘i yoki nasliy tajribasidan kelib chiqqan emotsiyonal shiddatga ega o‘y-fikrlar, tuyg‘ular va xotiralarni qamrab olgan komplekslarga ega ekanligini alohida ta’kidlaydi (Jung, 1921/1973).

Yung tasavvurlariga binoan, oddiy mavzular atrofida yig‘ilgan mazkur komplekslar individuum xulq-atvoriga etarlicha kuchli ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Masalan, hokimiyat kompleksiga ega odam hokimiyat mavzusi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ramziy ma’noda bog‘liq faoliyatga o‘zining psixik energiyasini ko‘p sarflashi mumkin. Qachonlardir shakllangan komplekslar inson xulq va dunyonи anglashiga ta’sir ko‘rsata boshlaydi.

Shaxsiy g‘ayrishuuriylik har birimizda o‘ziga xos, anglash imkoniyati mavjud deb ta’kidlar edi Yung. Pirovardda kompleksning barcha unsurlari yoki uning o‘zi to‘la anglanilishi va individuum hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Va, nihoyat, Yung jamoaviy g‘ayrishuuriylik deb nomlagan, shaxs tuzilmasidagi tub qatlam mavjudligi to‘g‘risidagi fikrni ilgari surgan (Jung, 1936/1969). Jamoa ongsizligi butun odamzot xotirasining yashirin izlarini qamrab oladi. Unda bizning umumiy emotsiyonal o‘tmishimizning natijasi bo‘lgan, odamzotning barchasiga umum o‘y-fikrlar, tuyg‘ular o‘z ifodasini topgan. Yungning o‘zi ta’kidlaganidek, “jamoaviy g‘ayrishuuriylikda har bir individuum miya tuzilmasida qayta jonlangan insoniyat evolyusiyasining barcha ma’naviy merosi mavjud” (Campbell, 1971). Demakki, jamoaviy g‘ayrishuuriylik mazmuni irsiylik sabab barcha odamzot

uchun birdir. Jamoaviylik g‘ayrishuuriylik konsepsiyasi Yung va Freyd o‘rtasidagi usosiy ziddiyat negizi bo‘lganligini alohida ta’kidlash joiz.

**Arxetiplar.** Yung jamoaviy g‘ayrishuuriy shiddatli kuchga ega dastlabki psixik obrazlardan iborat ekanligi to‘g‘risidagi farazni ilgari surgan (Jung, 1968).<sup>19</sup> Arxetiplar — odamlarni voqeа va hodisalarni muayyan tarzda idrok etish, his qilish va javob qaytarishga majbur qiladigan tug‘ma tabiatga ega g‘oyalar yoki xotiralardir. Aslida mazkur arxetiplar bizning nazdimizdagi xotira yoki obrazlar emas, balki ular ta’siri ostida odamlar o‘z xulq-atvor modellarida biror obyekt yoki hodisaga nisbatan idrok, tafakkurning universal shakllarini namoyon qilishga undovchi omillar desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Tug‘malik konkret vaziyatlarda ham emotsional, ham kognitiv, ham xulqiy jihatdan ma’lum tarzda reaksiya ko‘rsatishga moyillikka xos. Masalan, ota-ona, sevikli kishi, notanishlar bilan kutilmaganda to‘qnash kelgandagi reaksiya.

Yung ta’rifini bergen ko‘plab arxetiplar qatorida ona, bola, qahramon, donishmand, Quyosh ma’budi, makkor, Tangri va o‘lim arxetiplari turadi.

#### Jadval 1. Yung tavsif etgan arxetiplarga misollar

Arxetip	Ta’rif	Ramz
Anima	Erkak shaxsining anglanmagan ayollik jihatи	Ayol, bibi Maryam, Mona Liza
Animus	Ayol shaxsining anglanmagan erkaklik jihatи	Erkak, Iso alayhissalom, Don Juan
Persona	Ilk bolalik daridagi ta’lim-tarbiya natijasida hosil bo‘ladigan va ijtimoiy orziqishlardan kelib chiqadigan odamning ijtimoiy roli	Niqob
Ko‘lanka	Individ ongli tarzda qat’iy namoyon qilayotgan jihatning teskari tarafi	SHayton, Gitler, Stalin va h.
O‘zlik	Shaxs markazini idora qiladigan butunlik va uyg‘unlik ifodasi	Mandala
Donishmand	Hayotiy zakovat va etuklikning shaxslantirilgan shakli	Nabiy
Tangri	Tashqi olamga ko‘chirilgan psixik voqelikning yakuniy ifodasi	Quyosh ko‘zi, nigohi

<sup>19</sup> *Архетип* (грек. αρχετυπον «архη» — «ибтидо» и «тυπος» — «сиймо»)

Yung har bir arxetip obyekt yoki vaziyatga muvofiq muayyan tuyg‘u va fikr ifodasi bilan bog‘liq deb bilgan. Masalan, bola o‘z onasini idrok etar ekan uning tasavvurlari tarbiya, hosildorlik va tobelik kabi arxetipik onalik sifatlari bilan ongsiz ravishda jilolanadi. Yung arxetipik obrazlar va g‘oyalar tushlarda va tasviriy san’at, adabiyot, dinda keng qo‘llaniladigan ramzlarda o‘z ifodasini topadi deb hisoblagan.

### Ayrim eng muhim arxetipler.

**Persona** (lotincha «persona», «niqob» so‘zidan olingan) — biz o‘zimizni boshqa odamlarga namoyon qiladigan, “ommaviy” yuzimiz. Persona biz ijtimoiy talablarga muvofiq o‘ynaydigan turfa rollarni ifodalaydi. Yungning tushuntirishicha, persona o‘zgalarda taassurot qoldirish yoki o‘zgalardan o‘z mohiyatini yashirishga xizmat qiladi.

Persona kundalik turmushimizda boshqa odamlar bilan murosa qilib yashash uchun zarur. Biroq Yung agar mazkur arxetip haddan ortiq ahamiyat kasb etadigan bo‘lsa unda odam sayozlashib, yuzaki bo‘lib qolishi, hayoti bitta rolni bajarishgagina qaratilgan, haqiqiy emotsiyonal tajribadan begonalashishi mumkinligidan ogohlantirib o‘tgan.

Persona bizni tevarak olamga moslashtirishda qanchalar katta ahamiyat kasb etsa, ko‘lanka arxetipi shaxsning siqib chiqarilgan hayvoniy jihatlarini ifodalaydi. **Ko‘lanka** bizning ijtimoiy noma’qul shaxvoniy va aggressiv impulslarini, aksilaxloqiy o‘y-fikrlar va ehtiroslarni o‘zida jo etadi.

Biroq ko‘lankaning ham ijobiylarini mavjud. Yung ko‘lankani hayotiy quvvat manbai sifatida ko‘zdan kechiradi, samimiylilik, individuumning ijodiy ibtidosi deb biladi. Yungga binoan egoning funksiyasi ko‘lanka energiyasini uni jilovlash orqali kerakli yo‘singa solishdan iborat. O‘z impulslarimizni oshkora ifoda eta olish va sog‘lom hamda ijodiy hayotdan zavq olish.

Anima va animus arxetiplerida K.Yung tomonidan inson androgin tabiatga ega ekanligini e’tirof etish yotadi. **Anima** erkaklardagi ayol obrazi, uning anglanmagan ayollik jihatlari o‘z ifodasini topsa, **animusda** – ayollardagi erkaklik obrazi, uning anglanmagan erkaklik jihatlari o‘z ifodasini topgan. Mazkur arxetipler mavjudligi, qisman bo‘lsa-da, erkak va ayol organizmida ham testosterone, ham estrogen gormonlari ishlab chiqilishi kabi bologik faktga tayanadi. Mazkur arxetip asrlar mobaynida qarama-qarshi jins vakillari bilan o‘zaro ta’sirga kirish tajribasi hosilasi sifatida jamoaviy g‘ayrishuuriyda taraqqiy etgan. Ko‘plab erkaklar, muayyan

darajada, ayollar bilan birgalikdagi turmush tarzi natijasida “femininlashgan” bo‘lsa, ayollar “maskulinlashgan” dirlar. Yung anima va animus shaxs taraqqiyotini to‘xtatmaslik uchun, umumiy balansni buzmagan xolda, uyg‘un ifodasini topishi lozim deb hisoblagan. Boshqachasiga aytsak, erkak o‘z maskulin sifatlari bilan birga ma’lum darajada femininlik jihatlarini ham namoyon etishi lozim bo‘lsa, ayollar ham, o‘z navbatida, o‘z feminine sifatlari bilan birga maskulin jihatlarini ham kerak bo‘lganda namoyon etishlari kerak. Mabodo ushbu zaruriy sifatlar rivojlanmay qolsa shaxsda funksional buzilishlar vujudga kelishi mumkin.

**O‘zlik** — Yung nazariyasidagi eng muhim arxetipdir. O‘zlik shaxs tuzilmasining markaziy qismi – yuragini – tashkil etadi. Qalbning barcha jihatlari qovishuvi (integratsiyasi) amalga oshganda, inson o‘zining bir-butunligini, uyg‘unlik va xotirjamlikni his etadi. Yung fikriga ko‘ra o‘zlikning taraqqiyoti inson hayotining asosiy maqsadi bo‘lishi shart.

Arxetipning asosiy ramzi bo‘lib mandala va uning turfa ko‘rinishlaridir (abstrak doira, valiylar boshi uzra nur taralishi va h.). mandala kabi shakllar yakunlanganligida o‘z ifodasini topadigan “Men” yahlitligi, Yungga ko‘ra, tushlarda, fantaziyalarda, afsonalarda, diniy va mistik tajribalarda namoyon bo‘ladi. Yung din insonni to‘kislik va butunlik hissini beradigan beqiyos kuch deb hisoblagan. Shu bilan birga, qalb uyg‘unligiga erishish – murakkab jarayondir. Shaxs tuzilmalarining asl uyg‘unligi, to‘kisligiga erishish mushkul. O‘zlik arxetipi qalbning barcha unsurlari, ongli va ongsiz jihatlari integratsiyasi ro‘y bermaguncha faolligini namoyon qilmaydi. Shuning uchun, etuk “Men”ga erishuv barqarorlik, intellekt va katta hayotiy tajriba lozim.

### Ego-yo‘nalganlik.

Psixologiya faniga Yung qo‘sghan eng salmoqli hissa uning tomonidan tavsif etilgan ikki yo‘nalganlik yoki hayotiy ustanovka: ekstraversiya va introversiya tushunchalaridir (Jung, 1921/1971). Yung nazariyasi binoan mazkur ikki yo‘nalganlik insonda bir paytda mavjud, faqatgina ulardan bittasi o‘z ustivorligini namoyon qiladi. Ekstravert ustanovkada boshqa odamlar va predmetlarga – kuchli qiziqish namoyon bo‘ladi. Ekstravert harakatchan, sergap, odamlar bilan tez munosabatlar o‘rnatadi va bog‘lanadi, tashqi omillar uni harakatga keltiruvchi kuchlardan sanaladi. Introvert, aksincha, o‘z ichki olami: hayollar, o‘ylar, tajribasiga yo‘nalgan. U kuzatishni yoqtiradi, og‘ir-bosiq, yolg‘izlikni sevadi, obyektlardan uzoqlashishga intiladi, qiziqishi o‘ziga qaratilgan. Mazkur ikki ustanovka o‘zaro oppozitsiyada bo‘ladi: agar biri etakchi va ratsional bo‘lsa, ikkinchisi yordamchi va irratsional bo‘ladi. Ularning o‘zar kombinatsiyasi

(birikuvi) natijasida xulq-atvor modellari aniq va prognozlash imkoniyati mavjud shaxslar shakllanadi.

## Psixologik funksiyalar.

Yung o‘zining ekstraversiya va introversiya konsepsiyasini ifoda etgandan keyin u ushbu ikki qarama-qarshi yo‘nalganlik yordamida odamlarni olamga bo‘lgan munosabatlaridagi tafovutlarni to‘kis tushuntirish imkoniyati mavjud emas degan xulosaga keladi. Shu bois u o‘z tipologiyasini psixologik funksiyalarni kiritish yo‘li bilan kengaytirishga qaror qilgan. Yung farqlagan asosiy psixologik funksiyalarga – tafakkur, sezgi, tuyg‘u va intuitsiya taalluqlidir (Jung, 1921/1971).

Tafakkur va tuyg‘uni Yung ratsional funksiyalar sirasiga kiritgan. Ular hayotiy tajriba xususida mulohaza yuritish imkoniyatini beradi deb hisoblaydi Yung. Mutafakkir toifadagi shaxs u yoki bu narsalar qiymati to‘g‘risida mantiq va dalillar yordamida fikr yuritadi. Tafakkurning ziddi bo‘lgan tuyg‘u bizni reallik to‘g‘risida ijobiy yoki salbiy emotsiyalar tili yordamida ogohlantiradi. Tuyg‘uga tayanuvchi toifadagi shaxs o‘z diqqatini hayotiy tajribaning emotsiyonal jihatlariga qaratadi va ashyolar qimmati xususida “yaxshi yoki yomon”, “yoqimli yoki yoqimsiz”, “harakatga undovchi yoki zerikarli” kabi kategoriyalarga ko‘ra mulohaza yuritadi. Yung fikriga ko‘ra, tafakkur etakchi vazifani bajarganda shaxs maqsadi baholanayotgan tajriba haqiqiy yoki yolg‘on ekanini aniqlash bo‘lgan, tafakkuriy mulohazalar yuritishga moyil bo‘ladi. Tuyg‘u etakchi vazifani bajaradigan bo‘lsa shaxs tajriba yoqimli yoki yoqimsiz ekani xususidagi xulosalarni berishga yo‘nalgan bo‘ladi.

Ikkinchi o‘zaro ixtilofda bo‘lgan juftlik – sezgi va intuitsiya – funksiyalaridir. Mazkur juftlik funksiyalarini Yung irratsional (anglanmagan) deydi. Zotan ular tashqi (sezgi) yoki ichki (intuitsiya) olamda ro‘y berayotgan hodisalarini passiv tarzda aks ettirishadi, qayd qilishadi, ularni baholamaydi va mazmunini tushuntirmaydi. Sezgi tashqi olamning bevosita, hech qanday baholashlarsiz idrok etilishidir. Sezgilarga tayanuvchi shaxs ta’m, xid va h., tashqi olamdan keluvchi stimullarga nisbatan ziyrak bo‘ladi. Intuitiv shaxs, aksincha, joriy hayotiy tajribani ongsiz idrok etadi. U botiniy sezimlarga tayangan xolda hodisalar mohiyatini tushunib etadi. Yung fikriga binoan, agar odamda sezgi etakchilik qilsa u voqelikni go‘yoki uni sur’atga olayotganday, hodisalar tili yordamida anglaydi. Boshqa tomonidan, intuitsiya etakchilik qilsa, odam anglanmagan obrazlarga, ramzlar va kechinmalarning yashirin ma’nolariga urg‘u beradi.

Ushbu to‘rt psixologik funksiya har bir odamda mavjud. Biroq faqat bitta shaxsga doir yo‘nalganlik (ekstraversiya yoki introversiya) odatda ustivor, anglangan

bo‘lsa, huddi shunday tarzda ratsional yoki irratsional juftlikdagi funksiyalarning faqatgina bittasi ustivorlik qiladi va anglanadi. Boshqa funksiyalar ongsizlikda mavjud bo‘lgani bois inson xulqi regulyasiyasida yordamchi vazifani o‘taydi. To‘rt funksiyalardan har biri etakchi bo‘lishi mumkin. Demakki, individuumlarning likrga ergashuvchi, tuyg‘uga ergashuvchi, sezgiga tayanuvchi va intuitiv toifalari kuzatiladi. Yung nazariyasiga ko‘ra faqatgina ushbu to‘rt funksiyani uyg‘unlashtira olgan odamgina hayotiy vaziyatlardan chiqishda ularning har biridan samarali foydalanishi mumkin.

### **Shaxs taraqqiyoti**

Shaxs xulq-atvori shakllanishida bolalik tajriba katta ahamiyatga ega deb hisoblaydigan Freyddan farqli o‘laroq, Yung shaxs taraqqiyotini dinamik, inson hayoti davomida evolyusiya qiladigan jarayon sifatida ko‘zdan kechiradi. Yung bolalikdagi ijtimoiylashuv to‘g‘risida umuman so‘z yuritmagan va Freydning odam xulqini belgilashda o‘tmish hodisalar (ayniqsa, psixoseksual nizolar) katta ahamiyat kasb etishi to‘g‘risidagi qarashlariga qo‘shilmagan. Yung fikriga ko‘ra inson muttasil ravishda yangi malakalarga ega bo‘ladi, yangi maqsadlarga erishadi va o‘zini to‘kis namoyon qiladi. U individuning “o‘zlikka egalik qilish” kabi hayotiy maqsadiga katta e’tibor qaratgan. “O‘zlikka egalik qilish” shaxsning turli komponentlarini uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilishi natijasidir.

Yung fikriga ko‘ra, pirovard hayotiy maqsad – bu “Men”ni to‘kis namoyon etish, ya’ni betakror va uyg‘un bo‘lgan, butunlikka erishgan individuning shakllanishi. Mazkur yo‘nalishdagi shaxs taraqqiyoti o‘ziga xos bo‘lib butun hayot davomida amalga oshadi. Ushbu tiklanish jarayoni individuatsiya nomini olgan. Soddaroq qilib aytadigan bo‘lsak, individuatsiya – o‘zaro ixtilofda bo‘lgan shaxs botinidagi kuchlar integratsiyasining dinamik va tadrijiy o‘sishga ega jarayondir. Individuatsiyaning yakuniy ifodasi insonning o‘z imkoniyatlarini ongli xolda amalga oshirilishini bildiradi. O‘zlik arxetipi shaxs markazini tashkil etadi va shaxs tuzilmasi tarkibiga kiradigan ko‘plab qarama-qarshi sifatlarni barqarorlashtiradi. Buning sharofati tufayli davom etayotgan shaxsiy taraqqiyot uchun zarur quvvat vujudga keladi. Individuatsiyani yakunlash osonlik bilan amalga oshmaydi. Individuatsiya kuni o‘zlikni namoyon qilish deb nomlanadi.

### **Internet saytlari**

9. <http://textshare.tsx.org>
10. <http://www.mgimo.ru/fileserver/>
11. [http://www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/)
12. [http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch\\_14.htm](http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm)
13. <http://www.voppsy.ru>

14. <http://flogiston.ru/arch>

15. <http://psvchol.ras.ru>

16. <http://psvberia.ru>

### Mustaqil ta'lim savollari

1. Mayllar to`g`risida
2. Ehtiyojlarning vujudga kelishi.
3. Impulslar
4. Individ, subyekt, shaxs, individuallik tushunchasi.
5. Birlamchi adabiyotlar bilan ishlash:
6. Leontev A. N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. M: Izd-vo polit, literatury. 2005. 304 s.
7. Luriya A.R. Leksii po obshchey psixologii. – SPb.: Piter, 2006. – 320 s.

### Glossariy

1. **Arxetiplar** — odamlarni voqeа va hodisalarни muayyan tarzda idrok etish, his qilish va javob qaytarishga majbur qiladigan tug‘ma tabiatga ega g‘oyalar yoki xotiralardir.
2. Anima - erkak shaxsining anglanmagan ayollik jihatи
3. Animus - ayol shaxsining anglanmagan erkaklik jihatи
4. Persona - Ilk bolalik daridagi ta’lim-tarbiya natijasida hosil bo‘ladigan va ijtimoiy orziqishlardan kelib chiqadigan odamning ijtimoiy roli
5. Ko‘lanka - Individ ongli tarzda qat’iy namoyon qilayotgan jihatning teskari tarafi
6. O‘zlik - Shaxs markazini idora qiladigan butunlik va uyg‘unlik ifodasi
7. Donishmand - Hayotiy zakovat va etuklikning shaxslantirilgan shakli
8. Tangri - Tashqi olamga ko‘chirilgan psixik voqelikning yakuniy ifodasi

### Keyslar banki

**Keys 4.** Shaxsning evolyusion jihatdan rivojlanish nazariyalari mavjud. Qaysi nazariya eng mukammlı xisoblanadi (biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik).

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagи muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Barcha nazariyalarni tahlil qilgan holatda uning asosiylarini aniqlash (individual holda).

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Freyd qarashlarining mohiyati nimada
2. Yung va shax taraqqiyoti.
3. Freyd va Yung: uzviylik va tafovut.
4. Arxetip nima?
5. Mayllar va xulq.

## Test savollari

**1. K.Yung nazariyasiga binoan ekstraversiya va introversiya:**

- A) xarakter xususiyatlari
- B) hayotiy yo'nalganlik, muayyan turmush tarzini namoyon qilishga hozirlik
- V) odamda birday mavjud ego-orientatsiyalar, biri yetakchi va ratsional, ikkinchisi – yordamchi va irratsional**
- G) sikloid va shizoidlikning normal ko'rinishlari

**2. O'zining ekstraversiya va introversiya kontseptsiyasini Yung o'zi farqlagan funktsiyalar bilan to'ldirgan. Mazkur funktsiyalarga quyida berilganlardan qaysi biri taalluqli emas:**

- A) tafakkur
- B) sezgi
- V) tuyg'u**
- G) iroda**
- D) intuitsiya (botiniy sezim)

**3. Quyidagi ta'riflardan qaysi biri Yung farqlagan psixik funktsiyalarni to'g'ri talqin etadi:**

- A) anglanganlik sohasiga taalluqli
- B) ongsizlik sohasiga taalluqli
- V) funktsiyalardan biri ustivor bo'ladi va anglanadi**
- G) faqatgina ratsional (tafakkur va tuyg'u) funktsiyalar anglanadi

**4) Yung farqlagan shaxsning sakkiz toifasi bu:**

- A) ego-orientatsiya bilan yetakchi, anglangan psixik funktsiya uyg'unligi**
- B) arxetipik allegoriyalar
- V) intuitiv tasavvurlar**
- G) assotsiativ eksperiment natijalari

**5) Yungga binoan, ruh:**

- A) Ego, shaxsiy g'ayrishuuriylik, jamoaviy g'ayrishuuriylik**
- B) ongosti, ong, ong usti
- V) ong, jamoaviy ongsizlik, ongoldi**
- G) Persona, Ko'lanki, O'zlik

**6) Yung Freyddan farqli o'laroq:**

- A) ong psixik ongsizlikdan shakllanadi**
- B) ongsizlik ong hosilasidir
- V) ongsizlik mazmuni ong tomonidan belgilanadi**
- G) ong va ongsizlik psixik funktsiyalarga doir o'zaro bog'liq bo'limgan o'lchamlardir  
- deb hisoblagan.

14. <http://flogiston.ru/arch>

15. <http://psychol.ras.ru>

16. <http://psvberia.ru>

### Mustaqil ta'lim savollari

1. Mayllar to`g`risida
2. Ehtiyojlarning vujudga kelishi.
3. Impulslar
4. Individ, subyekt, shaxs, individuallik tushunchasi.
5. Birlamchi adabiyotlar bilan ishlash:
6. Leontev A. N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. M: Izd-vo polit, literatury. 2005. 304 s.
7. Luriya A.R. Leksii po obshchey psixologii. – SPb.: Piter, 2006. – 320 s.

### Glossariy

1. **Arxetiplar** — odamlarni voqeа va hodisalarni muayyan tarzda idrok etish, his qilish va javob qaytarishga majbur qiladigan tug‘ma tabiatga ega g‘oyalar yoki xotiralardir.
2. Anima - erkak shaxsining anglanmagan ayollik jihatи
3. Animus - ayol shaxsining anglanmagan erkaklik jihatи
4. Persona - Ilk bolalik daridagi ta’lim-tarbiya natijasida hosil bo‘ladigan va ijtimoiy orziqishlardan kelib chiqadigan odamning ijtimoiy roli
5. Ko‘lanka - Individ ongli tarzda qat’iy namoyon qilayotgan jihatning teskari tarafi
6. O‘zlik - Shaxs markazini idora qiladigan butunlik va uyg‘unlik ifodasi
7. Donishmand - Hayotiy zakovat va etuklikning shaxslantirilgan shakli
8. Tangri - Tashqi olamga ko‘chirilgan psixik vogelikning yakuniy ifodasi

### Keyslar banki

**Keys 4.** Shaxsning evolyusion jihatdan rivojlanish nazariyalari mavjud. Qaysi nazariya eng mukammli xisoblanadi (biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik).

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagи muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Barcha nazariyalarni tahlil qilgan holatda uning asosiylarini aniqlash (individual holda).

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Freyd qarashlarining mohiyati nimada
2. Yung va shax taraqqiyoti.
3. Freyd va Yung: uzviylik va tafovut.
4. Arxetip nima?
5. Mayllar va xulq.

## Test savollari

### 1. K.Yung nazariyasiga binoan ekstraversiya va introversiya:

- A) xarakter xususiyatlari
- B) hayotiy yo'nalganlik, muayyan turmush tarzini namoyon qilishga hozirlik
- V) odamda birday mavjud ego-orientatsiyalar, biri yetakchi va ratsional, ikkinchisi – yordamchi va irratsional**
- G) sikloid va shizoidlikning normal ko'rinishlari

### 2. O'zining ekstraversiya va introversiya kontseptsiyasini Yung o'zi farqlagan funktsiyalar bilan to'ldirgan. Mazkur funktsiyalarga quyida berilganlardan qaysi biri taalluqli emas:

- A) tafakkur
- B) sezgi
- V) tuyg'u**
- G) iroda**
- D) intuitsiya (botiniy sezim)

### 3. Quyidagi ta'riflardan qaysi biri Yung farqlagan psixik funktsiyalarni to'g'ri talqin etadi:

- A) anglanganlik sohasiga taalluqli
- B) ongsizlik sohasiga taalluqli
- V) funktsiyalardan biri ustivor bo'ladi va anglanadi**
- G) faqatgina ratsional (tafakkur va tuyg'u) funktsiyalar anglanadi

### 4) Yung farqlagan shaxsning sakkiz toifasi bu:

- A) ego-orientatsiya bilan yetakchi, anglangan psixik funktsiya uyg'unligi**
- B) arxetipik allegoriyalar
- V) intuitiv tasavvurlar**
- G) assotsiativ eksperiment natijalari

### 5) Yungga binoan, ruh:

- A) Ego, shaxsiy g'ayrishuuriylik, jamoaviy g'ayrishuuriylik**
- B) ongosti, ong, ong ubti
- V) ong, jamoaviy ongsizlik, ongoldi**
- G) Persona, Ko'lanki, O'zlik

### 6) Yung Freyddan farqli o'laroq:

- A) ong psixik ongsizlikdan shakllanadi**
- B) ongsizlik ong hosilasidir
- V) ongsizlik mazmuni ong tomonidan belgilanadi**
- G) ong va ongsizlik psixik funktsiyalarga doir o'zaro bog'liq bo'lмаган о'лчамларидир  
- deb hisoblagan.

**7) Yung ongning quyidagi jihatlarini farqlagan:**

- A) gomonom va geteronom o'lchamlar
- B) ekstrapunitiv va intrapunitiv mazmunlar
- V) ekzopsisik va endopsixik funktsiyalar**
- G) topik va atopik funktsiyalar

**8) quyidagi ta'riflardan qaysi biri ongning ekzopsisik funktsiyalarini to'g'ri tavsiflaydi:**

- A) reaktiv xulq-atvor tizimini belgilovchi
- B) g'ayrishuuriy funktsiyalarning ma'lum qismini ong sohasiga ko'chishi
- V) g'ayrishuuriy funktsiyalarni ong sohasiga to'liq ko'chishi
- G) axborotlarni sezgi a'zolari yordamida olib tashqi omillar bilan ish yurituvchi tizim**
- D) tajribaning subyektiv jihatlari bilan ish yurituvchi tizim

**9) ekzopsisik funktsiyalarga taalluqli emas:**

- A) sezgi
- B) tafakkur
- V) xotira**
- G) tuyg'u
- D) intuitsiya

**10) intuitsyaning ekzopsisik funktsiyasi quyidagilarning qaysi biriga tayanib amalga oshiriladi:**

- A) subyektiv mazmunga
- B) ijtimoiy andozalarga (standartlar)
- V) vaqtga**
- G) makonga

**11) individual psixologik tiplar quyidagilarning qay biri bilan belgilanadi:**

- A) arxetipik mazmunlar bilan
- B) ong va ongsizlikning o'zaro munosabatlari bilan
- V) yetakchi ekzopsisik funktsiya bilan**
- G) intuitiv tarzda prognozlash bilan

**12) ongning endopsixik funktsiyasiga nima taalluqli emas:**

- A) xotira**
- B) ongning subyektiv komponentlari
- V) affektlar
- G) kognitiv andozalar (matriksalar)**
- D) invaziylar

**13) xotiraning endopsixik funktsiyasi nimaning imkoniyatini beradi?**

- A) ob'ektiv tajribadan kelib chiqadigan qadriyatlarga doir tasavvurlarni qayta ishlab chiqish

B) botiniy sezimlarni o'tmish tajriba bilan qiyoslash

V) tajribani ob'ektiv taqsimlash

**G) g'ayrishuuriyni qayta ishlab chiqish, tiklash**

**14) affektlar, ongning subyektiv tarkibiy qismlari, invaziyalar bu - :**

A) "Men"ning istiqbolli loyihasi asosi

B) ongning endo – va ekzopsixik tuzilmalari o'rtasidagi aloqa bo'g'ini

**V) g'ayrishuuriy mazmunni ong sarhadlariga chiqarish vositasi**

G) psixik himoya mexanizmlari

**15) ong markazi bo'lgan – EGO – shakllanishiga quyidagilarning qaybirini ta'siri yo'q:**

A) o'z vujudi to'g'risidagi axborot

B) mavjudlik to'g'risidagi axborot

**V) ob'ektivlash (ro'yobga chiqarish) patternlari (xatti-harakatlar turkumi)**

G) xotira patternlari (seriyalari)

**16. Yung nazariyasiga quyida keltirilgan tushunchalardan bittasi taalluqli emas:**

A) animus va anima

**B) shahvoniy energiya sifatidagi libido**

V) jamoaviy g'ayrishuuriylik

G) arxetiplar

D) ko'lanka

**17. g'ayrishuuriylikning tub qatlagini tashkil etuvchi, barcha odamlar uchun umumiy bo'lgan obrazlar (masalan, qahramon yoki zolim), Yung fikriga ko'ra, qanday nomlanadi:**

A) ramzlar

B) ma'budlar

**V) arxetiplar**

G) ko'lankalar

**18. Yung tomonidan kiritilgan "imago" tushunchasi:**

A) "Ego-ideal"ning obrazli idrokidir

B) Muayyan xulqning arxetipik obrazidir

V) ob'ekt tanlanishini ta'minlovchi unng noaniq (yaqqolligi yo'q) obrazidir

**G) bir odamni boshqa odam tomonidan idrok etilishini ta'minlaydigan, idrok etilishini yo'naltiradigan dastlabki obrazlar (proobraz)**

**19. Yung fikriga ko'ra, biron narsa anglanishi uchun:**

A) u Ego bilan aloqaga kirishi lozim

B) intuitsiyada o'z ifodasini topgan bo'lishi lozim

V) himoya to'siqlarini bartaraf etish kerak

**G) hayotda namoyon qilinishi mumkin (ob'ektivlashtirilishi)**

**20. ego nimalarni idora etadi?**

- A) ongning barcha funktsiyalarini
- B) faqat ekzopsisik funktsiyalarini
- V) faqat endopsisik funktsiyalarini
- G) ekzopsisik funktsiyalarini va – qisman – xotirani**

**21. g'ayrishuuriyga yaqinlashuv mumkin qachonki:**

- A) ekzopsisik funktsiyalarning irodaviy nazorati bo'lsa
- B) endopsisik funktsiyalarning irodaviy nazorat etib bo'lmas xossalari tufayli**
- V) senzura ta'qiqlari qo'yilsa
- G) kognitiv dissonans mexanizmlari yordami bo'lsa

**22. Yung g'ayrishuuriylikning quyidagi jabhalarini farqlagan:**

- A) ong osti va ong oldi
- B) shaxsga doir va jamoaviy g'ayrishuuriylik**
- V) jamoaviy va fiziologik g'ayrishuuriylik
- G) anglanmaydigan va anglanmas

**23. shaxsga doir g'ayrishuuriylik boshqachasiga:**

- A) arxetip deb nomlanadi
- B) prototip (dastlabki obraz) deb nomlanadi
- V) ongosti tafakkur deb nomlanadi**
- G) persona

**24. jamoaviylik g'ayrishuuriylik ta'rifi to'g'ri keltirilgan javobni toping:**

- A) odamlarning etnomadaniy yoki ijtimoiy guruhlarini anglanmas xulqiy ustanovkalari (xulqni namoyon qilishga anglanmas hozirliklari)
- B) ijtimoiy o'rganish natijasida shakllanadigan xulq-atvor ko'nikmalari
- V) umumbashariy xossalarni ifoda etuvchi, jamoaviy tabiatga ega xulq ko'nikmalari**
- G) o'zlashtirilgan disfunktional xulqning interiorizatsiyalashgan andozalari

**25. Yung fikriga ko'ra, jamoaviy g'ayrishuuriylik patternlari (namoyon qilinadigan xulq andozalari):**

- A) introektlar
- B) e'tiqodlar
- V) intuitsiyalar (botiniy sezimlar)
- G) arxetiplier**

**26. quydagilarning qay biri "arxetip" tushunchasi mazmunini to'laqonli ifodalaydi:**

- A) ibtidoiy tafakkurning shaklan va mazmunan mifologik bo'lgan hosilalarini qamrab oladi**

- B) ajdodlardan avlodlarga yetkazilib beriladigan oilaviy afsonalar
- V) olam tuzilishi to'g'risidagi sodda endo – va ekzopsisik tasavvurlar
- G) ongga chuqur singib ketgan aqidalar va e'tiqodlar tizimi
- D) individual tajriba natijasida yig'ilgan axborot birligi

**27. quyida sanab o'tilganlarning qay biri Yung tomonidan tavsif etilgan arxetipler sirasiga taalluqli emas:**

- A) anima va animus
- B) persona
- V) ko'lanka
- G) o'zlik
- D) mo'ysafid
- Ye) shizofrenik (asab kasal)**
- J) tangri

**28. "Anima" va "Animus"ning o'zaro nisbati:**

- A) o'lik va tirik kabi
- B) erkakning anglanmas ayollik jihatni va ayolning anglanmas erkaklik jihatni**
- V) femininlik va maskulinlik
- G) qalbning anglangan va anglanmagan jihatlari kabi

**29. Yung fikriga ko'ra "Ko'lanka" bu -:**

- A) individ o'z ongida tasdiqlayotganning ongsiz tarafi
- B) shaxsnинг salbiy jihatni
- V) ongdagi xotira ustiga intuitsiya tushirilishi hududi
- G) botiniy sezimlarga zid kelayotgan tajriba qismi

**30. "Persona" tushunchasi quyidagi ta'rifda to'liq ifodasini topgan:**

- A) shaxsni idora etuvchi markaz
- B) yetuklik ifodasi
- V) ilk bolalik davrda o'rgatilgan ijtimoiy rollar va ijtimoiy andozalar tomonidan belgilanadigan xulq**
- G) inson o'ziga-o'zi murojaat etadigan shaxs jihatni

**31) "O'zlik" tushunchasi nimani nazarda tutadi?**

- A) shaxs individualligini aks ettiruvchi xatti-harakatlarga undovchi tasavvurlar
- B) shaxsning qolgan qismlarini uyuştiruvchi va idora etuvchi markaz**
- V) individning o'z individualligi to'g'risidagi intuitiv (botiniy) bilimlar
- G) taraqqiyoti davomida o'zgarmas bo'lib qoladigan shaxs jihatni

**32) quyida keltirilganlarning qay biri jamoaviy g'ayrishuuriylik mazmuniga muvofiq:**

- A) uning mazmuni irodaviy nazoratga bo'y sunmaydi
- B) mazmunlar universalligi**

V) mazmunlar avtonomligi (alohidaligi)

**G) barchasi to'g'ri**

**33) individual ongsizlik, Yung fikriga ko'ra, quyidagilardan tashkil topgan:**

- A) arxetiplardan
- B) instinktiv kuchlardan

**V) personifikatsiyasi (shaxsga aylanishi) patologiyalarga olib keluvchi omilga aylanishi mumkin bo'lgan, komplekslardan**

**G) ong ostiga siqib chiqarilgan Superego mazmunlardan**

**34) "O'zlik"ning eng to'g'ri ta'rifini toping:**

- A) integratsiyalashgan (o'zaro uyg'unlashtirilgan) ongli tajriba
- B) analitik psixologiyadagi markaziy arxetip**
- V) xulq atvor muhtoriyligi o'lchami
- G) ijtimoiy tajribaning ongdagi ifodasi

**35. quyidagilarning qay biri Yung ta'rifini bergen individuatsiya tushunchasining sinonimi emas:**

- A) o'zi tomon yo'l
- B) alohidalanish (avtonomizatsiya)**
- V) o'zlikni namoyon qilish

**36. tushlarda arxetipik obrazlarning paydo bo'lishi nimaga ishora qiladi?**

- A) nevroz kuchayishi
- B) yashirin psixoz
- V) nevroz bilan ongsizlik impulslari o'rtasidagi aloqalar
- G) individning komillik sari intilishiga, "o'zlik" bilan identifikatsiyalashuv**

## Mavzu

### 5- Shaxsning gumanistik nazariyasi.

1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati: leksiya shaxsni o'rganishning "klinik" va "motivatsion" yo'nalishlar mazmunini ochishga qaratilgan.

### 1.2 Mavzuga doir bibliografiya:

#### Asosiy manbaalar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.:Ma`naviyat,2008.-174 b.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб / Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртингчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул- абров: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ: масъул мухаррир В.Рахмонов/.-Т.:Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Гозиев Э.Ф. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### Qo'shimcha manbaalar:

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

### II. Leksiyani uyushtirish shakllari:

- 2.1 Auditoriya. 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'nilishi 1 kurs talabalari. Tayyorlik darajasi - umumta'limiy.
- 2.2 Leksiya maqsadi. Talabalarda shaxsga bo'lgan gumanistik psixologlar qarashlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish.
- 2.3 Leksiya vazifalari. K.Rogersning shaxs konsepsiysi va A.Maslouning shaxsga doir arxetipik nazariya mohiyatini talabalarga yetkazish.
- 2.4 Leksiyani uyushtirish shakli. Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

### III. Leksiya mazmuni

3. Reja va leksiya mazmunining konspekti.
4. Tizimlilik, izchillik, tushunarilik, ko'rgazmalilikni ta'minlaydigan o'quv vositalari va didaktik usullar (konspektda ko'rsatib o'tiladi).

### IV. Leksiya o'qish jarayonidagi o'qituvchining umumiyl siyomosi

## **5-mavzu. Shaxsning gumanistik nazariyasi**

Gumanistik psixologiyaning asosiy printsiplari. Ehtiyojlar shajarasi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlik va himoya ehtiyoji, muhabbat va mansublik ehtiyoji, o'zini o'zi hurmat qilish ehtiyoji, autoaktualizatsiya ehtiyoji. Defitsitar ehtiyojlar. Metapatologiya. Yuksak kechinmalar. "Men"-konsepsiya, sog'lom shaxs alomatlari.

### **REJA:**

1. Shaxsga doir gumanistik nazariya yo'nalishlari
2. K.Rodjersning shaxsga doir qarashlari
3. A.Maslou va uning ehtiyojlar shajarasiga doir nazariyasi

Shaxsga doir gumanistik nazariyada ikki asosiy yo'nalishlar farqlanadi. Birinchisi, "klinik" (klinikaga yo'naltirilgan) amerikalik psixolog K.Rodjers qarashlarida o'z ifodasini topgan yo'nalish.

Ikkinchisi "motivatsion" yo'nalish. Uning asoschisi amerikalik psixolog A.Masloudir. mazkur ikki yo'nalish o'rtaida muayyan tafovutlar bo'lsa-da, ularni bog'lab turgan jihatlar ko'p uchraydi.

Gumanistik psixologiya yo'ndashuvi vakillari shaxs taraqqiyotining asosiy manbai deb avtoaktualizatsiyaga bo'lган tug'ma moyilliklarni nazarda tutadilar. Shaxs taraqqiyoti deb ushbu tug'ma moyilliklarning namoyon bo'lishiga aytishadi.

K.Rodjersga fikriga ko'ra, inson psixikasida ikki tug'ma moyillik mavjud. Birinchisi, muallif tomonidan "avtoaktualizatsiya tendensiyasi" deb nomlangan moyillik inson shaxsining bo'lajak xususiyatlari negizini o'zida jo etgan. Ikkinchisi tug'ma moyillik – "organizmik nazorat jarayoni" – shaxs taraqqiyotini idora etuvchi mexanizmdir.

Mazkur moyilliklar asosida odam taraqqiyoti davomida "Men"ning alohida shaxsga doir tuzilmasi paydo bo'ladi. U o'z ichida "ideal Men" va "real Men"ni qamrab oladi. "Men" tuzilmasining ushbu osttuzilmalari murakkab munosabatda bo'ladi: to'kis uyg'unlik holatidan (kongruentlik) to'liq nomuvofiqlik (disgarmonik) darajasigacha (Rodjers K., 1994).

K.Rodjersga binoan, hayot maqsadi – tug'ma salohiyatni to'kis namoyon etishdir, "o'z vazifalarini to'liq ro'yobga chiqarish", ya'ni o'z qobiliyatları va talantidan foydalanadigan, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish davomida o'zini, o'z kechinmalarini anglash sari harakat qiluvchi, o'zining asl tabiatini ifodalashga intiluvchi odam bo'lishdir.

A.Maslou shaxs taraqqiyoti negizida yotadigan ehtiyojlarning ikki ko'rinishini ajratib bergen: ularni qondirish mobaynida o'z-o'zidan yo'qolib ketadigan «defitsitar» ehtiyojlar hamda qondirilishi ularni kuchaytiruvchi "o'sishga doir" ehtiyojlar. Maslou fikriga ko'ra, motivatsiyaning besh darjasini mavjud:

- 1) fiziologik (oziqlanish, uqlash ehtiylari);
- 2) himoyalanganlik ehtiyoji (uy-joyga ega bo'lish, ish joyiga ehtiyoj);
- 3) bir insonning boshqa bir insonga nisbatan ehtiyojini ifodalovchi mansublik

ehtiyoji, masalan, oila qurishga;

- 4) o‘zini-o‘zi baholash ehtiyoji (o‘zini hurmat qilish, o‘z g‘ururini saqlash);
- 5) avtoaktualizatsiya ehtiyoji (ijod qilish, go‘zallikka intilish, to‘kis bo‘lish kabi metaehtiyojlar).

Ro‘yxat boshidagi ikki ehtiyoj defitsitar, uchinchisi – oraliq ehtiyoj, to‘rtinchi va beshinchi ehtiyojlar o‘sishni ta’minlaydigan ehtiyojlar sirasiga kiritilgan.

Maslou motivatsiyaning mantiqiy ketma-ketlikda rivojlanish qonunini ifoda etgan. Unga ko‘ra odam motivatsiyasi quyidan yuqoriga qarab rivojlanadi, agarki quyi darajadagi ehtiyojlar qondirilmas ekan shaxsning yuqori darajadagi ehtiyojlarining shakllanishi amri mahol bo‘ladi. Boshqachasiga aytadigan bo‘lsak, odamning bosh suqadigan uy-joyi bo‘lmas, qorni to‘ymas ekan u oila qurish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi, oilasi yo‘q ekan o‘zini-o‘zi hurmat qilolmaydi yoki ijod bilan shug‘ullanishiga monelik qiladigan omillar ko‘payadi.

Inson uchun eng muhim ehtiyojlar sirasiga avtoaktualizatsiya taalluqlidir. Avtoaktualizatsiya – odam kamolotining pirovard holati emas. Hech bir inson barcha motivlarni inkor etish darajasida avtoaktuallashgan bo‘la olmaydi. Har bir odamda hamisha taraqqiyotni davom ettirish imkoniyatini beradigan qobiliyatlar va iqtidori bo‘ladi. Beshinchi darajaga etgan odam “psixologik jihatdan sog‘lom” sanaladi (Maslou A., 1999).

Mazkur yondashuv vakillari inson taraqqiyotida hal etuvchi yosh davrlari mavjud emas, shaxs butun hayoti davomida shakllanadi va taraqqiy etadi. Biroq hayotning ilk davri (bolalik, o‘mirlik, o‘spirlilik) shaxs taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. Shaxsda ratsional jarayonlar ustivorlik qiladi, ongsizlik vaqt vaqt avtoaktualizatsiya jarayoniga to‘sinqilik qilib u yoki bu sabablarga ko‘ra vujudga kelib turadi. Gumanistlar shaxs iroda erkinligiga to‘liq egadir deb hisoblaydilar. Inson o‘zini, o‘z xatti-harakatlarni anglaydi, rejalar tuzadi, hayot mazmunini qidiradi. Inson – o‘z shaxsi va o‘z baxtini ni o‘zi yaratuvchisidir.

Insonning ichki olami, uning o‘y-fikrlari, tuyg‘ulari va emotsiyalari voqelikning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etishi emas. Har bir odam reallikni o‘zining subyektiv idrokiga muvofiq talqin etadi. Botiniy olam uning o‘zigagina to‘liq kashf bo‘lishi mumkin. Odam hatti-harakatlari negizini subyektiv idrok va subyektiv kechinmalar tashkil etadi. Faqatgina subyektiv tajriba konkret shaxs xulq-atvorini tushunish imkoniyatini beradi.

Shaxsning gumanistik modelini konseptual “birliklari” sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

- 1) «real Men» — “ayni dam va shu erda”gi o‘y-fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar yig‘indisi (Rodgers K., 1994);
- 2) «ideal Men» — inson o‘zining shaxsiy salohiyatini namoyon qilishi uchun zaruriy sanagan o‘y-fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar yig‘indisi.
- 3) avtoaktualizatsiyaga bo‘lgan ehtiyoj — shaxs taraqqiyoti va kamolotini belgilaydigan tug‘ma ehtiyojlar (Maslou A., 1997).

“Real Men” va “ideal Men” amorf (mavhum, noaniq) tushunchalar sirasiga taalluqli bo‘lsada, ularning kongruentligini (o‘zaro muvofiqligini) o‘lchash imkoniyatlari mavjud. Kongruentlikning yuqoriligi “real Men” va “ideal Men” o‘rtasidagi nisbiy uyg‘unlik belgisidir (o‘ziga berilgan yuqori baho).

Kongruentlikning quyi darjası (o‘ziga berilgan past baho) xavotirlilik, depressiya alomatlari belgisidir.

Tug‘ilish paytida “Men”ning ikkala osttuzilmalari to‘kis kongruent bo‘lgani bois, odam fitratida ezungulik mavjud. Keyinchalar, tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirga kirish natijasida “real Men” va “ideal Men” o‘rtasida nomuvofiqlik vujudga kelgani sabab reallikni yanglish idrok etish – subsepsiya – hosil bo‘ladi. “Real Men” va “ideal Men” o‘rtasidagi davomiy va kuchli nomuvofiqlikda psixologik muammolar paydo bo‘la boshlaydi.

Shaxs taraqqiyotiga to‘sinqilik qiluvchi bloklar sifatida A.Maslouning ehtiyojlar shajarasи ilgari suriladi.

Shaxs to‘kisligini “real Men” va “ideal Men” o‘rtasidagi kongruentlik ta’minlaydi. Ular o‘rtasidagi nisbat birga yaqin bo‘lishi lozim. Shaxs to‘kisligi – o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarayotgan shaxsning asosiy sifatidir. Tarbiya mazmuni va shaxs korreksiyasi uning to‘kisligini ta’minlashdan iborat.

To‘kis shaxs, birinchidan, o‘z yaqinlari va do‘stlari bilan qoniqarli psixologik aloqa o‘rnatishga harakat qiladi, o‘z his-tuyg‘ularini oshkor qilishdan qo‘rqlaydi, sir-sinoatlari hisobda mavjud emasligi bilan ajralib turadi; ikkinchidan, aslida kim ekanini (real Men) va kim bo‘lishini (ideal Men) aniq biladi; uchinchidan, yangi tajribani o‘zlashtirishga maksimal darajada ochiq va hayotni “ayni damda va shu erda” qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qiladi; to‘rtinchidan, barcha odamzotga shartsiz ijobjiy munosabatni namoyon qiladi; beshinchidan boshqa odamlarni tushunishga, o‘zida empatiyani rivojlantirishga, olamga o‘zga odam nigohi bilan qarashga intiladi.

To‘kis shaxs sifatlari:

- 1) reallikni samarali idrok etadi;
- 2) xulqi tabiiy va sodda;
- 3) muammoni va vazifani hal etishga yo‘nalgan;
- 4) olamni “bolalarcha”idrok etadi (hayrat);
- 5) oliy kechinmalarni boshdan o‘tkazadi, shavq tuyadi;
- 6) odamzotga samimiy yordam berishga intilish;
- 7) chuqr shaxslararo munosabatlarni o‘rnata olish;
- 8) yuqori darajadagi axloqiy mezonlar.

Demakki, gumanistik yondashuvga binoan, shaxs – odamiy Menning botiniy olamidir, u esa – avtoaktualizatsiya natijasidir. Shaxs tuzilmasi - “real Men” va “ideal Men” o‘rtasidagi nisbatning individual ko‘rinishidir; shuningdek, ehtiyojlar va avtoaktualizatsiya taraqqiyotining individual darajasidir.

## Internet saytlari

17. <http://textshare.tsx.org>
18. <http://www.mgimo.ru/filesserver/>
19. [http://www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/)
20. [http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch\\_14.htm](http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm)
21. <http://www.vopnsv.ru>
22. <http://flogiston.ru/arch>

23. <http://psychol.ras.ru>

24. <http://psvberia.ru>

## Mustaqil ta'lim savollari

1. Mayllar to`g`risida
2. Ehtiyojlarning vujudga kelishi.
3. Impulslar
4. Individ, subyekt, shaxs, individuallik tushunchasi.

## Glossariy

1. Arxetipler — odamlarni voqeа va hodisalarni muayyan tarzda idrok etish, his qilish va javob qaytarishga majbur qiladigan tug‘ma tabiatga ega g‘oyalar yoki xotiralardir.
2. Anima - erkak shaxsining anglanmagan ayollik jihatи
3. Animus - ayol shaxsining anglanmagan erkaklik jihatи
4. Persona - Ilk bolalik daridagi ta’lim-tarbiya natijasida hosil bo‘ladigan va ijtimoiy orziqishlardan kelib chiqadigan odamning ijtimoiy roli
5. Ko‘lanka - Individ ongli tarzda qat’iy namoyon qilayotgan jihatning teskari tarafi
6. O‘zlik - Shaxs markazini idora qiladigan butunlik va uyg‘unlik ifodasi
7. Donishmand - Hayotiy zakovat va etuklikning shaxslantirilgan shakli
8. Tangri - Tashqi olamga ko‘chirilgan psixik voqelikning yakuniy ifodasi

## Keyslar banki

**Keys 4.** Shaxsning evolyusion jihatdan rivojlanish nazariyalari mavjud. Qaysi nazariya eng mukammli xisoblanadi (biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik).

### Keysni bajarish bosqchilarini va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Barcha nazariyalarni tahlil qilgan holatda uning asosiylarini aniqlash (individual holda).

## NAZORAT SAVOLLARI

6. Freyd qarashlarining mohiyati nimada
7. Yung va shax taraqqiyoti.
8. Freyd va Yung: uzviylik va tafovut.
9. Arxetip nima?
10. Mayllar va xulq.

## Test savollari

**1. Quyidagi ta'kidlardan qaysi biri K.Rojers shaxs nazariyasining asosiy nuqtai nazarlari sirasiga kirmaydi:**

A) har bir individ, markazida uning o'zi bo'lgan, muttasil o'zgarayotgan olamda mavjuddir

**B) organizm reaktsiyalari reallikning ob'ektiv jihatlari bilan shartlangan**

V) organizm muayyan fenomenologik maydonga uyushgan yaxlitlik sifatida javob qaytaradi

G) organizmning asosiy xususiyati – tajriba markazi sifatida o'zini aktuallashtirish (namoyon etish), saqlash va mustahkamlashdir

D) xulqni tushunishning optimal tayanch nuqtasi individning o'z kompetentsiyasidir (bilishidir)

**2) tajriba va kechinmalarni qayta ishlash doirasiga taalluqli emas:**

A) ularni ramzlashtirish, idrok etish va o'zlikka nisbatan uyuştiruv

B) agar ular o'zlikka taalluqli emasday idrok etilsa, inkor etish

**V) o'zlikka nisbatan mustaqil bo'lib keyinchalar unga interiorizatsiya sifatida ta'sir ko'rsatuvchi**

G) o'zlik tuzilmasiga nomuvofiq sifatida inkor etilish yoki yanglish ramzlashtirilish

**3) K.Rojersga ko'ra, agar nokongruentlik – bu nosog'lom holat bo'lsa, odamga samarali ta'sir ko'rsatilganda:**

A) autoaktualizatsiya darajasi ortishi lozim

**B) real va ideal "Men" o'rtaсидаги тағовутлар пасайishi lozim**

V) psixologik himoya mexanizmlari samaradorligini oshirishi lozim

G) to'kislik hissini orttirishi shart

**4) odamni o'z-o'zini anglashda gumanistik maktab vakillari qaysi omilni yetakchi hisoblaydilar?**

**A) empatiya**

B) simpatiya

V) qo'llash

G) kognitsiyalar

**5) K.Rojers tomonidan kiritilgan qaysi atama boshqa psixologik ta'sir ko'rsatish bilan shug'ullanadigan maktablar vakillari tomonidan keng qo'llaniladi?**

1) samimiylilik

**2) Empatiya**

3) qabul qilish

4) kongruentlik

**6) K.Rojers fikriga ko'ra, odam yaxshi adaptivlikka ega bo'lishi uchun unga nima zarur?**

A) ehtiyojlarining adekvat (muvofig tarzda) qondirilishi

B) o'zgalardan ustunligini yetarlicha his etishi

V) muhit uzra hukmronligini his etishi

G) "Men obrazi" va tajriba o'rtasidagi kongruentlik

7) agar biron kimsa aslida o'z kasbining ustasi bo'la turib, atrofdagilar tomonidan hurmat va e'tirofga sazovor bo'lgan bo'lsa-da – o'z vazifasini yaxshi bajara olmayotgan odamday his etayotgan bo'lsa, K.Rojers fikriga ko'ra:

A) o'zini o'z kansitayapti

B) nokongruent

V) ichki ziddiyat mavjud

G) nomukammallik kompleksi mavjud

8) ob'ektiv jihatlar bilan o'zini-o'zi idrok etish o'rtasidagi nomuvofiqlikni K.Rojers:

A) dissotsiatsiya deb nomlaydi

B) kontrast (qarama-qarshi) o'ylar deb nomlaydi

V) nokongruentlik deb nomlaydi

G) antinomiya deb nomlaydi

9) K.Rojers fikriga ko'ra, psixik buzilishlar shakllanishi negizi, bu:

A) negativ mustahkamlanish orqalidir

B) shaxs biologik ehtiyojlarini idora etolmasligidir

V) odamning o'tmish va kelajak o'rtasidagi aloqalarni yo'qotganligidir

G) boshqalar uning shaxs sifatidagi qadr-qiyomatini belgilashlaridir

10) K.Rojers fikriga ko'ra, kattalarning muayyan talablarini qondirish evaziga muhabbat va e'tiborga sazovor bo'layotgan bola tajribasi nima bilan bog'liq?

A) uning shaxs sifatidagi qadr-qiymati shartlari bilan

B) nokongruentlik bilan

V) ekzistentsial (hayotiy) inqiroz bilan

G) notabiyylik bilan

11) K.Rojers fikriga ko'ra, odam tomonidan bolalikda his etilgan shaxs sifatidagi bahosining shartlanganligiga qarshilik ko'rsatish uchun unga yordam bermoqchi bo'lgan shaxsdan nima talab etiladi:

A) simpatiya

B) shartsiz ijobiy munosabat

V) iltifotli munosabat

Bolalik xotiralari va tushlarining tahlili

12) "Men ishxonadagi ishlarimning ma'lum qismini tugallash uchun uyga ko'tarib keladigan bo'lsam xotnim tergayverib jinni qiladi". K.Rojers fikriga ko'ra, odamning bunday so'zlariga psixologning adekvat javobi qanday bo'lishi lozim?

A) aslida siz buni nazarda tutmayapsiz. Zotan uning bilan yashayapsiz ekan jahli qilish kerak emas.

**B) sizni ishda chalg'itishsa jahlingizning chiqishi tabiiy**

V) onangizga nisbatan anglanmagan nafratingiz bo'lsa kerak

G) ishda charchab ketayapsiz shekilli

**13) "Har qanday arzimas narsa meni ezib yuboradi". Quyidagi iboralarning qaysi biri odamning ushbu so'zlarini oydinlashtirishga xizmat qiladi (K.Rojers fikriga ko'ra):**

**A) ro'y berayotgan barcha narsalar sizga bosim ko'rsatadi**

B) siz oral bosqichida qolib ketgansiz

V) aslida sizga jinday e'tiborga muhojsiz

G) odamlar sizni bunday shiddatli yumushlardan muhofaza etishlari kerak

**14) aniq empatik tushunish odamning qaysi jihatni bilan bog'liq:**

A) odamlarga muhabbat va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lisch

**B) odamning ichki, subyektiv olamini his qilish**

V) odamni ob'ektiv tahlil qilish

G) odam muammosini aniq kashf etish bilan

**15) odamlarga shartsiz munosabat bildira olish:**

A) ular tomonidan har qanday tuyg'ularni namoyon qilish imkonini berish

B) individual qadr-qiyomatga ega shaxs sifatida qabul qilish

V) odamlar tomonidan har qanday xulqni namoyon qilishga imkon yaratish

**G) 1 va 2 javoblar to'g'ri**

**16) Autoaktualizatsiyaga diqqat qaratadigan nazariya muallifi kim?**

A) M.Maler

B) K.Rojers

V) R.Mey

**G) A.Maslou**

**17. insoniy ehtiyojlarni qondirish tartibini tavsiflash uchun A.Maslou nimaga murojaat etadi:**

A. Autoaktualizatsiya nazariyasiga

B) motivlar piramidasiga

**V) ehtiyojlar ierarxiyasiga**

G) ekzistentsial bosqichlarga

**18. A.Maslou nazariyasida quyi darajadagi ehtiyojlar boshqachasiga qanday nomlanadi?**

A) moddiy

B) yashab ketish

**V) defitsitar**

G) shahvoniy

**19. A.Maslou fikriga ko'ra, inson autoaktualizatsiyaga erisholmaydi qachonki:**

- A) reallikka tik qaramas ekan
- B) irratsional e'tiqodlari bilan tanishmas ekan
- V) bolalik muammolarini hal etmas ekan

**G) o'z ehtiyojlarini yetarlicha qondirmas ekan**

**20. A.Maslou fikriga ko'ra, autoaktuallashgan odamlar:**

- A) o'zlarini aniq idrok etishadi**
- B) ular to'g'risidaga odamlar fikriga qo'shilishadi
- V) faqatgina o'z ehtiyojlarini qondirish bilan band bo'lishadi

**G) ustivor Ego ta'siri ostida bo'lishadi**

**21. shaxsga doir imkoniyatlarni maksimal darajada ro'yobga chiqarish qanday nomlanadi?**

- A) to'kislik
- B) o'zidan qoniqish
- V) o'zni e'tirof ettirish
- G) o'zni namoyon qilish

**D) autoaktualizatsiya**

**22. o'qituvchi quyidagilardan qaysi biri ta'minlash lozim (K.Rojers fikriga binoan):**

- A) ekzistentsial (hayotiy mazmun) inqiroz orqali o'quvchining shaxs sifatida taraqqiy etish imkoniyatini
- B) individuatsiya imkoniyatlarini berish
- V) samimiylilik andozasini ko'rsatish va o'z shaxsiga doir axborotni ochishga tayyorlik
- G) aniq savollar berish

**23. K.Rojers fikriga ko'ra, quyidagi ta'kidlardan qaysi biri odamni qabul qilish jihatini ifodalaydi:**

- A) tushunishga qarama-qarshi munosabat
- B) boshqa odamni u yoki bu tarzda idrok etish erkinligi
- V) odamlarning psixik mexanizmlari, individual moyilliklari va axloqiy standartlarini qat'iy ilmiy tarzda tushunishga tayanadigan munosabat
- G) odam holati, tuyg'ulari va xulqidan kelib chiqmaydigan, unga nisbatan shaksiz va shartsiz qadr-qiyomatga ega shaxs sifatida munosabatda bo'lish

**24. gumanistik maktab vakillari o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari to'g'risida nima deydilar:**

- A) o'qituvchi sog'lom tafakkur egasi bo'lishi lozim
- B) o'quvchi sustlikni namoyon qilayotganda o'qituvchi uning faoliyatini yo'naltirishi lozim

*V) o'qituvchi va o'quvchi o'rta sidagi munosabatlar yetakchi ahamiyatga ega*  
G) o'qituvchining ta'lif metodlari va texnikalariga ega ekanligi yetakchi ahamiyatga ega

**25. A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi kontseptsiyasining negizida qaysi ta'kid yotadi:**

- A) psixologik ehtiyojlar jismoniy ehtiyojlardan ko'ra kattaroq e'tiborga sazovor  
*B) quyi darajadagi ehtiyojlar olyi ehtiyojlardan avval qondirilishi lozim*  
V) quyi darajadagi ehtiyojlar shaxs kongruent holatda bo'lsagina qondirilishi lozim  
G) ehtiyojlar qondirilishida yetishmovchilik kuzatilsa ham autoaktualizatsiya ro'y berishi mumkin

## **6-mavzu. Shaxsga doir bixevoiral-kognitiv nazariyalar**

**6.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati:** leksiya shaxsni o'rganishning "klinik" va "motivatsion" yo'nalishlar mazmunini ochishga qaratilgan.

### **6.2 Mavzuga doir bibliografiya:**

#### **Asosiy manbaalar:**

2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma`naviyat, 2008.-174 б.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб / Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртингчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ: масъул мухаррир В.Рахмонов/.-Т.:Нашиён матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### **Qo'shimcha manbaalar:**

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

#### **Leksiyani uyuştirish shakllari:**

- 6.3 Auditoriya.** 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'niliishi 1 kurs talabalari. Tayyorlik darajasi - umumta'limiylar.
- 6.4 Leksiya maqsadi.** Talabalarda shaxsga doir bixevoiral-kognitiv nazariyalar to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish.
- 6.5 Leksiya vazifalari.** J.Uotsonning shaxs konsepsiysi va Skinner va Torndaykning nazariy qarashlari möhiyatini talabalarga yetkazish.
- 6.6 Leksiyani uyuştirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

### **7 Leksiya mazmuni**

1 Reja va leksiya mazmunining konspekti.

2 Tizimlilik, izchillik, tushunarilik, ko'rgazmalilikni ta'minlaydigan o'quv vositalari va didaktik usullar (konspektda ko'rsatib o'tiladi).

## **6- Mavzu: Shaxsga doir bixevoiral-kognitiv nazariyalar**

Reja:

- 1. Shaxsga doir bixevoiral nazariyalar**
- 2. Shaxsga doir kognitiv nazariyalar**

### **1. Shaxsga doir bixevoiral nazariyalar**

Bixevoirizm Britan empirizmi nomi ostida mashhur bo'lgan 16 asrda vujudga kelgan falsafiy maktab g'oyalariga tayanadi. Empiristlar barcha g'oya va bilimlar empirik yo'l – sezgi a'zolaridan keladigan tajriba orqali paydo bo'ldi deb hisoblaganlar. Djon Lokk (1632-1704) inson tafakkuri azaldan tabula rasa, "oq qog'oz"day bo'ladi, bizning tajribamiz unda o'z izlarini qoldirish natijasidir deya e'tirof etgan. Demakki, odamlar tevarak muhit bosimiga binoan o'zini tutadilar. Empiristlar bilimlar asosini tafakkurdan ko'ra mustahkamroq kuzatuv orqali olingen tajriba tashkil etadi degan aqidagi ishonganlar. Mazkur g'oya tadqiqiy metodlari empirik kuzatuvga tayanadigan fan sifatida ma'lum bixevoirizm taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Bixevoirizm – xulq-atvor to'g'risidagi fandir. Bixevoirizm shaxs nazariyasi sifatida dastlab AQShda paydo bo'lgan.

Bixevoirizm asosiy formulasi S – R bo'lgan stimul-reakтив nazariyalar sirasiga taalluqli. Mazkur nazariyalar muayyan darajada o'xshash bo'lsalarda, ularning har birini o'ziga xos jihatlari mavjud.

Psixologiyada bixevoiral yo'naliш assoschisi deb Djon Uotson (1978-1958) tan olingen. Uning g'oyalari Ivan Pavlov tomonidan o'rganishning mumtoz shartlanishi sifatida ma'lum ilmiy g'oyalariga tayanadi.

Dj.Uotson o'zini-o'zi kuzatish asosida ong tuzilmalarini kashf etuvchi fan sifatidagi psixologiyani keskin tanqid ostiga olgan. U psixologiya xulqni o'rganishi lozim deb hisoblagan. 1913 yilda u "Psixologiya bixevoirist nuqtai nazaridan" nomli maqolani chop etgan. Ushbu maqolada xulq psixologiya fanining predmeti bo'lishi lozimligiga alohida urg'u bergen. Mazkur maqola shaxsni o'rganishga doir psixologiyadagi bixevoiristik yo'naliшga asos soldi.

Uotson psixologiya fanining predmetini kuzatish imkoniyati mavjud bo'lмаган ong emas, "tug'ilishdan o'limgacha" bo'lgan odam xulqi bo'lishi lozim deb ishongan. Xulq-atvor boshqa tabiiy fanlari ob'ektlari kabi ob'ektiv metodlar (tashqi kuzatuv va eksperiment) yordamida tadqiq etilishi kerak. Ong – biz ob'ektiv metodlar yordamida nazar tashlashimiz imkoniyati mavjud bo'lмаган "qora quti" bo'lgani bois psixologlar mazkur hodisalar bilan shug'ullanmasligi kerak.

Uotson fikriga ko'ra odamlar – tajriba hosilasi bo'lgani sabab ular xulqi tevarak muhitni idora etish orqali to'liq boshqarilishi mumkin.

Mumtoz bixevoirizmning asosiy qarashlari.

Bixevoiriz predmeti – odam xulqi: xoh o'zlashtirilgan, xoh tug'ma bo'lgan xatti-harakatlar, so'zlar, amallardir.

Xulq, bixevoiristlar qarashiga ko'ra – uning yordamida tashqi muhitga moslashish amalga oshirilayotgan, tashqi stimulga javoban har qanday reaksiya.

Bunga har qanday reaktsiya taalluqli: shu jumladan, vegetativ va gormanal o'zgarishlar.

Bixevoiristlar fikriga ko'ra *shaxs* – odam o'z hayoti davomida o'zlashtirayotgan tajriba – *o'rganilayotgan xulq modellari turkumidir*.

Ular odam xulqini odam organizmida kechayotgan ichki tuzilmalar va jarayonlar emas. uning tevarak-atrofi (iitimoiv muhit) shakllantiradi deb hisoblaydilar.

Ivan Pavlov g'oyalariiga tavangan holda Uotson kuzatilavotgan xula stimullar (S) va reaktsiyalar (R) shaklida tavsif etilishi mumkin deya ta'kidlagan. Uotson oddiy sxema S - R kuzatilayotgan xulq tavsifi uchun yetarli deb hisoblagan. Psixologiya fanining vazifasi – stimullarga qarab reaktsiyani prognozlash, reaktsiyalarni kuzatish orqali ular qanday stimullar ta'siri natijasida paydo bo'lganini aniqlashdir.

Bixevoirizmning asosiy vazifasi Uotson nuqtai nazariga ko'ra – odam xulqini quyidagi maqsadlarda kuzatishdir:

A) ayni holatdagi ayni stimulga (vaziyat) qanday reaktsiya bo'lishini kuzatish;

B) berilgan ayni xolatdagi reaktsiyada, u qanday vaziyat tomonidan paydo bo'lganini aniqlash.

Bixevoiristlarning asosiy formulasi -  $R = f(S)$ .

Uotson xulqdagi quyidagi reaktsiyalarni farqlagan:

- 1) tashqi yoki oshkora o'zlashtirilgan – harakatlari ko'nikmalar – pol yuvish, futbol o'ynash va h.
- 2) Botiniy yoki yashirin o'zlashtirilgan (mushaklarga doir yoki tashqi nutq);
- 3) Tashqi (ko'zga tashlanadigan) irsiy reaktsiyalar (ko'z pirpirashi, aksa urish);
- 4) Botiniy (yashirin) irsiy reaktsiyalar (ichki sekretsiya bezlari faoliyati, yurak-qon tomir tizimidagi o'zgarishlar);

Uotson organizmnинг tashqi muhitga moslashuvi uchun zarur tug'ma reaktsiyalar unchalar ko'p bo'limganligi bois odam xulq-atvori ta'lim-tarbiya hosilasi deb hisoblagan.

Ko'nikma – individual o'zlashtirilgan yoki yod olingen harakatdir. Ko'nikmalarga ega bo'lish jarayoni bixevoirizmda mexanik talqin etiladi.

B.F. Skinnerning operant o'rganish nazariyasi.

### ***Skinner nazariyasining asosiy g'oyalari***

Uotson g'oyalarini taraqqiy va davom ettirgan olim Berres F. Skinnerdir (1904-1990). U neobixevoirizm yetakchisi sanaladi.

Skinner psixoanalitik nazariyalarni o'ta mavhum, ya'ni taxminlarga asoslangan deb hisoblaydi. Psixoanalitiklar empirik tekshirish imkoniyati bo'limgan intrapsixik (mayllar, ongsizlik) omillar mavjudligini taxmin etishadi. Skinner odam xulqini uni shakllantiruvchi muhit nuqtai-nazaridan tadqiq etilishi lozim deb hisoblagan. Insonning barcha xatti-harakatlari va uning xulqi muhit ta'siri bilan tushuntiriladi.

Inson organizmi Skinner tomonidan "qora tuynuk" deya e'tirof etiladi. Uning mazmunini (emotsiyalar, motivlar, intrapsixik ziddiyatlar, mayllar) ob'ektiv

tekshirish imkoniyati mavjud bo'limganligi sabab empirik kuzatuv doirasidan chiqarib tashlanishi lozim deydi.

Inson xulqini ob'ektiv va ishonchli tarzda o'rghanish mumkin. Shu tarzda nazariya empirik (ilmiy asoslangan) nazariyaga aylanadi.

U xulq-atvor to'g'risidagi fanni tabiiy (maqsadi o'rghanilayotgan hodisani nazorat qilish va oldindan aytib berish bo'lgan faktlarga tayangan) fanlar qatoriga qo'shgan.

Xulqning funktsional tahlilini Skinner xulq-atvorni tadqiq etish metodi sifatida taklif qilgan. U xulqni o'rghanishning eng maqbul yo'li bu uning o'tmish hodisalar bilan qanday munosabatda ekanini aniqlash deb hisoblagan.

*Funktsional tahlil* xulqni idora etadigan oshkora xulq (reaktsiya) bilan tashqi muhit shart-sharoitlari (stimullar) o'rtasidagi shartlangan o'zaro aloqalarni aniqlash imkoniyatini beradi. Funktsional tahlil xulq-atvor bilan tevarak muhit o'rtasidagi sababiy-oqibatli bog'lanishlarni kashf etadi. Tashqi muhit o'zgaruvchilarini boshqarish yordamida (mustaqil o'zgaruvchi) odam xulqini (tobe o'zgaruvchi) prognozlash va o'lchash mumkin.

Skinner odam xulqini yo'naltiradigan yoki stimullaydigan o'zlik yoki shaxs to'g'risidagi g'oyani qabul qilmagan. U xulq-atvor individ ichidagi (chizgilar, ehtiyojlar, o'y-fikrlar, tuyg'ular) kuchlar tomonidan vujudga keladi degan fikrdan odamzotdan tashqarida bo'lgan kuchlar to'g'risidagi g'oya foydasiga voz kechishimiz lozim deb hisoblaydi.

### ***Respondent va operant xulq tushunchalari.***

Respondent xulq – stimul taqozo qilayotgan reaktsiya. Stimul reaktsiyadan avval keladi.

*Respondent xulqning ikki ko'rinishi farqlanadi:*

1. shartli reflektor
2. shartsiz reflektor.

Qo'llab-quvvatlanish respondent xulq shakllanishiga, respondent xulq saqlanishiga mas'uldir.

*Operant xulq* – bu turli vaziyatlar o'rtasidagi aloqalarni kashf etishga qaratilgan tevarak olam bilan faol eksperimentlar o'tkazish jarayonida organizm tomonidan ishlab chiqilgan xatti-harakatlardir.

*Operantlar* – bu ular paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan dastlabki stimullar bo'limgan ixtiyoriy xatti-harakatlar.

Agar operant xulq oqibatlari organizmga yoqadigan bo'lsa, unda ushbu xulqni namoyon qilish ehtimoli ortib boradi. Masalan, tushlikka biron-bir xali yo'lingiz tushmagan kafega borgan bo'lsangiz va ular tomonidan tayyorlangan taom ta'bingizga o'tirgan bo'lsa o'sha joyga yana bir bor kelishingiz ehtimoli kuchayadi.

Skinner o'zining ko'plab tajribalari asosida quyidagi xulosalarni chiqargan:

1. Operant xulq o'rghanish davomida shakllanadi
2. Operant xulq:
  - Sinovlar va xatolar yo'li bilan;
  - Reaktsiyalarni hosil qilish yo'li bilan;
  - Kuzatuv yo'li bilan – shakllanadi.

3. Operant xulq paydo bo'lishiga qo'llab-quvvatlash mas'uldir.

*Qo'llab-quvvatlash* — xulqdan keyin keladigan va reaktsiyani keyinchalar paydo bo'lish ehtimolini oshiradigan harakatlar.

*Qo'llab-quvvatlanish ko'rinishlari:*

1. birlamehi - ob'ekt yoki hodisaning o'zi qo'llab-quvvatlovchi xususiyatlarga ega bo'ladi (taom, jinsiy aloqa).
2. ikkilamchi - ob'ekt yoki hodisalar qo'llab-quvvatlovchi xususiyatlarga ega bo'lishi uchun ular birlamchi qo'llab-quvvatlash kuchiga ega ob'ekt yoki hodisalar bilan mushtaraklashuvi zarur.

Masalan: a) pul – uning yordamida turli ehtiyojlarni qondirish mumkin;

b) ijtimoiy tabiatga ega qo'llab-quvvatlovchilar - maqtov, lagabardorlik, tobelik, e'tibor;

v) ijtimoiy ma'qullanish

- moda – ma'qullanish predmeti sifatida
- Yaxshi o'qish – ma'qullanish predmeti sifatida

Skinner qo'llab-quvvatlovchilarni quyidagilarga bo'ladi:

1. *pozitiv qo'llab-quvvatlash* – ular mavjudligi zaruriy xulq-atvorni mustahkamlovchi har qanday stimul. Pozitiv qo'llab-quvvatlash bu ijobiy stimulni taqdim etish.

2. *Negativ qo'llab-quvvatlash* – ularni bartaraf etish zaruriy xulq-atvorni mustahkamlovchi har qanday stimul. Negativ qo'llab-quvvatlash – bu aversiv stimulni olib tashlash.

## 2. Shaxsga doir kognitiv nazariyalar

### Shaxsga doir kognitiv nazariyalar

Shaxsga doir kognitiv nazariya gumanistik maktab vakillari qarashlariga yaqin bo'lsada, muhim tafovutlarga ham ega. Kognitiv nazariya asoschisi deb amerikalik psixolog Dj.Kelli (1905—1967) tilga olinadi. Uning fikriga ko'ra odam faqat bir narsani - hayotda nima ro'y bergenini va ro'y berishi mumkinligini bilishni istaydi.

Shaxs taraqqiyotining asosiy manbai, Kelli fikriga ko'ra, ijtimoiy muhit. Kognitiv nazariya inson xulqiga intellektual jarayonlar ta'siriga alohida urg'u qo'yadi. Mazkur nazariyada har bir odam bo'lajak hodisalarni oldindan bilish imkoniyatini beradigan ashyolar tabiatini to'g'risidagi farazlarini tekshiruvchi olimga qiyoslanadi. Har qanday hodisa ko'pkarra talqin etilish imkoniyatiga ega. Ushbu yo'nalihsidagi asosiy tushuncha "konstrukt" tushunchasidir (ing. *construct* — qurmoq). Bu tushuncha ma'lum bilish jarayonlar xususiyatlarini (idrok, xotira, tafakkur, nutq) qamrab oladi. Konstruktlar sharofati tufayli odam nafaqat olamni anglaydi, balki shaxslararo munosabatlarni ham o'rnatadi. Mazkur munosabatlar negizida yotgan konstruktlar shaxsga doir konstruktlar deb nomlanadi (Fransella F., Bannister D.,

1987). *Konstrukt* — bu odam o'zini va o'zgalarni idrok etish usulini belgilaydigan o'ziga xos klassifikator-qolipdir.

Kelli nuqtai nazariga binoan, har birimiz faraz qilamiz va uni tekshirib yashaymiz, bir so'z bilan aytganda, xos konstruktlar (klassifikator) yordamida ko'rib turgan odamimiz aqli yo aqli emasligi, qobiliyatli yo qobiliyatsiz ekanligi va h., ni aniqlash muammosini hal qilish bilan shug'ullanadi. Har bir konstrukt «dixotomiya» (ikki qutbga)ga ega; «aqli/aqli emas», «qobiliyatli/qobiliyatsiz» va h. Odam hodisa tavsif etadigan ehtimolli yakunni aniqroq ifodalaydigan dixotomik konstrukt qutbini ixtiyoriy ravishda tanlaydi, ya'ni bashorat qilish imkonini beradigan konstruktdan foydalanadi. Ayrim konstruktlar tor doiradagi hodisalar tavsifini berish uchun yaroqli bo'lsa, boshqalari keng qo'llanilish ko'lamiga ega. Masalan, “aqli/ahmoq” konstrukti ob-havo tavsifini berishga yaroqsiz bo'lsa, “yaxshi/yomon” konstrukti turmushimizning barcha hodisalarini tavsif etish imkonini beradi.

Odamlar bir-biridan nafaqat konstruktlar miqdori bilan, balki ularning joylashuvi bilan ham farq qilishadi. Ongda tezkor o'zini namoyon qiladigan konstruktlar *dinat*, sekinroq namoyon bo'ladigan konstruktlar — *subordinat* deb nomlanadi. Masalan, kimgadir duch kelganda uni aqli yoki ahmoq nuqtai nazaridan baholayotgan bo'lsangizda, birozdan so'ng mehribon yo jahldor deb baholayotgan bo'lsangiz sizning “aqli/ahmoq” konstruktingiz dinat, “ezgu/yovuz” konstruktingiz subordinat sanaladi.

Odamlar o'rtasidagi do'stlik, muhabbat va h., kabi normal munosabatlar odamlar konstruktlari monand bo'lsagina vujudga kelishi mumkin. Tasavvur qilib ko'ring, ikki kishi muvaffaqiyatli munosabatga kirishmoqchi bo'lganda birida “axloqli/axloqsiz” konstrukti ustivor bo'lsa-yu, boshqasida bunday konstruktning o'zi bo'lmasa nima ro'y berishi mumkin.

Konstruktlarga doir tizim statik (o'zgarmas) hosila emas, u hayotiy tajriba ta'siri ostida muttasil o'zgarib turadi, ya'ni shaxs butun hayoti davomida shakllanadi va taraqqiy etadi. Shaxsda “ong” ustivorlik qiladi. Ongsizlik olis (subordinat) konstruktlarga taalluqlidir. Mazkur konstruktlardan odam olamning idrok etilayotgan hodisalarini talqin etishda kamdan-kam foydalanadi.

Kelli shaxs erkinligi cheklangan deb hisoblaydi. Inson hayotida davomida shakllangan konstruktlar tizimi cheklov larga aylanadi. Biroq u odam hayoti butkul determinatsiyalashgan (belgilangan) deb hisoblamagan. Har qanday vaziyatda odam muqobil bashoratlarni yaratish imkoniyatiga ega. Tashqi olam – ezgu ham, yovuz ham emas – u biz miyamizda qanday tasavvur qilsak – shunday.

Kognitivistlar fikriga ko'ra odam taqdiri o'z qo'lidadir. Insonning ichki olami subyektiv bo'lib, uning ichki olami uning tasavvuri hosilasidir va odam tashqi olamni o'z ichki olami voqeligi orqali talqin qiladi. Mazkur kontseptsiyaning ustivor unsuri shaxsga doir konstruktlardir. U, o'z navbatida, ikki darajalidir:

- 1) ustivor konstruktlar bloki — konstrukt tizimi yuqorisida joylashgan 50 yaqin asosiy konstruktlar. Odam ushbu konstruktlardan boshqa odamlar bilan o'zarot ta'sirga kirish maqsadida ko'p foydalanadi, ya'ni ong markazida turadi.
- 2) periferik konstruktlar bloki — qolgan barcha konstruktlar. Ushbu konstruktlar individual hosilalar bo'lgani bois bir necha yuzlabdan bir necha minggacha bo'lishi mumkin.

Shaxs xususiyatlari mazkur ikki blok konstruktarning birgalikdagi ishlash natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shaxslarning ikki toifasi farqlanadi: *kognitiv murakkab shaxs* (ko'plab konstruktarga ega shaxs) va *kognitiv sodda shaxs* (oz miqdordagi konstruktarga ega shaxs).

Kognitiv jihatdan murakkab shaxs kognitiv sodda shaxslardan quyidagi sifatlari bilan ajralib turadi:

- 1) psixik salomatligi ancha durust;
- 2) stresslarni samarali bartaraf etadi;
- 3) o'ziga bergen bahosi yetarli darajada baland;
- 4) yangi vaziyatlarga tez moslashadi.

Shaxsga doir konstruktarni baholashning (ularning sifati va miqdorini) maxsus metodlari mavjud.

### **Kognitiv dissonans**

Kognitiv psixologiya doirasida Festingerning kognitiv dissonans nazariyasi vujudga kelgan (1957). Kognitiv dissonans deganda Festinger ikki yoki undan ortiq kognitsiyalar o'rtasidagi ziddiyatni tushunadi. *Kognitsiya* — muhit, inson o'zi yoki xulqiga doir har qanday bilim, fikr yoki e'tiqoddir.

Dissonans shaxs tomonidan diskomfort (noqulaylik) holati sigari his etiladi, shuning uchun shaxs undan qutulishga harakat qilish orqali, ichki kognitiv barqarorlik holatini tiklashga urinadi. Va aynan ushbu intilish inson xulqi va olamga bo'lgan munosabatini belgilaydigan omilga aylanadi.

Kognitsiyalar o'rtasidagi dissonans xolati bir kognitsiya natijasida inson taxmin qilgan boshqa kognitsiya namoyon bo'lmasa vujudga keladi. Odam hamisha ichki uyg'unlik, konsonansga erishishga intiladi. Masalan, semirishga moyil odam dieta saqlamoqchi bo'ldi (X kognitsiya), biroq sevimli shokoladidan voz kecholmaydi (U kognitsiya). Biroq ma'lumki, ozishga harakat qilayotgan odam shokolad yemasligi darkor – demakki, dissonans paydo bo'ladi. Uning paydo bo'lishi insonni dissonans reduktsiyasiga, uni pasaytirish, bartaraf etishga qaratilgan xulqni namoyon qilishga undaydi.

Festinger fikriga ko'ra, buning uchun, ya'ni dissonansni bartaraf etishga qaratilgan, odamda uch yo'l mavjud:

- 1) kognitsiyalar birini o'zgartirish (ayni vaziyatda — yoki shokoladni iste'mol qilishdan voz kechish yoki dieta saqlamaslik);
- 2) dissonant munosabatlarga kirishayotgan kognitsiyalar ahamiyatini pasaytirish (semizlik unchalar ham katta kamchilik emas yoki shokoladni iste'mol qilish vazn ortishiga katta ta'sir ko'rsatmasligini ta'kidlash);
- 3) yangi kognitsiyani qo'shish (masalan, shokolad vazn ortishiga ta'sir ko'rsatsada aqliy faoliyatni yaxshilaydi).

Kognitiv dissonans motivlashtiradi, ya'ni uni pasaytirishga majburlaydi, munosabatlarni o'zgartirishga undaydi pirovardda — xulqni o'zgartiradi. Kognitiv dissonans paydo bo'lishi va uning bartaraf etilishi bilan bog'liq ikki xolatni ko'zdan kechirsak.

1) odamning azaliy fikriga nomuvofiq bo'lган vaziyatdagi xulq bilan bog'liq. Agar odam ixtiyoriy (taz'yiqsiz) ravishda yetaricha tashqi oqlovga ega bo'lмаган, o'z qarashlariga unchalar ham muvofiq kelmaydigan xulqni namoyon etishni taqozo qilmaydigan biron-bir narsani bajarishga rozi bo'lsa, keyinchalar uning fikri va e'tiqodi o'sha xulqqa muvofiqlashtiriladi. Agar, masalan, o'zining axloqiy qarashlariga zid bo'lган xulqni namoyon qilishga rozi bo'lsa, oqibatda xulq va axloqiy qarashlar o'rtasidagi dissonans axloqiylik darajasi pasayishiga olib keladi.

2) mushkul qarorni qabul qilishdan keyin paydo bo'ladigan dissonans. Mushkul qaror deb tanlov zaruriyatini tug'dirayotgan muqobil variantlar yoqimliligiga ko'ra o'zaro yaqin bo'lган vaziyatga aytildi. Bunday vaziyatlarda qaror qabul qilingandan so'ng odam quyidagi ziddiyatlar natijasi bo'lган kognitiv dissonansni his etadi: tanlangan variantning salbiy jihatlari, rad etilgan variantning esa ijobjiy jihatlari mavjud bo'ladi. Qabul qilingan qaror qisman yaxshi emas, biroq u qabul

qilinib bo'lingan. Inkor etilgan variantning yaxshi tomonlari mayjud, biroq u rad etilib bo'lgan.

Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki: og'ir qaror qabul qilingandan so'ng vaqt o'tishi bilan tanlangan qarorning ijobjiy jihatlari ortib inkor etilgan qarorning ijobjiy jihatlarini subyektiv yoqimliligi pasayadi.

Odam shu yo'sinda kognitiv dissonansdan qutuladi: u qabul qilgan qarori inkor etilgan qarordan ko'ra ancha yaxshi bo'lganligiga o'zini ishontiradi. Xulosa qilish mumkinki, mushkul qarorlar tanlangan qarorga muvofiq xulqni namoyon qilish chtimolini oshiradi.

Demak, kognitiv nazariyaga binoan, shaxs – odamning shaxsiy tajribasi qayta ishlanadigan (idrok etilayotgan va talqin qilinayotgan) shaxsga doir konstruktsiyalarning maxsus uyushtirilgan tizimidir. Mazkur yondashuv nuqtai nazaridan shaxs tuzilmasi individual jihatdan betakror konstruktlarning o'ziga xos icrarxiyasi sifatida tushuniladi.

## 7- Mavzu

### I. Alisher Navoiy va “ilm al-nafs”.

1.1 Leksiyaning mashg‘ulotlar tizimida egallagan o‘rni va ahamiyati: leksiya shaxsni o‘rganishda Alisher Navoiyning “KOMIL SHAXS” konsepsiysi va mazkur konsepsiyaning shaxs to‘g‘risidagi zamonaviy qarashlardagi ma’lum darajadagi ifodasini ko‘rsatishga qaratilgan.

### 1.2 Mavzuga doir bibliografiya:

#### Asosiy manbaalar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.:Ma`naviyat,2008.-174 b.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуғ / Мұккамал асарлар түплами. Йигирма томли. Ўн тўртингчى том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул- абров: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ; масъул мухаррир В.Раҳмонов/-Т.:Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### Qo‘srimcha manbaalar:

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

### II. Leksiyani uyushtirish shakllari:

- 2.1 Auditoriya. 5111200 O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nilishi 1 kurs talabalari. Tayyorlik darjası - umumta’limiy.
- 2.2 Leksiya maqsadi. Talabalarda badiiy asarlarni ilmiy talqin qilish malakalarini shakllantirish.
- 2.3 Leksiya vazifalari. Alisher Navoiyning “komil shaxs”ga doir qarashlari mohiyati bilan tanishtirish.
- 2.4 Leksiyani uyushtirish shakli. Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

### III. Leksiya mazmuni

1. Reja va leksiya mazmunining konspekti.
2. Tizimlilik, izchillik, tushunarlilik, ko‘rgazmalilikni ta’minlaydigan o‘quv vositalari va didaktik usullar (konspektda ko‘rsatib o‘tiladi).

## **7-mavzu. Alisher Navoiy va “ilm al-nafs”**

Alisher Navoiyning “komil shaxs” to‘g‘risidagi qarashlarida bixevoiral, psixoanalitik, gumanistik, kognitiv, psixodinamik talqinlar sintezi o‘z ifodasini topganligi masalalari. “Komil shaxs” kontseptsiyasi va tasavvuf ilmi. Nafs. Nafs darajalari. Nafs bilan kurash. Alisher Navoiyning inson tabiatini to‘g‘risidagi qarashlari.

### **Alisher Navoiy va “ilm al-nafs”**

#### **REJA:**

##### **1. “Nafs” tushunchasi**

##### **2. Alisher Navoiyning nafs tabiatini to‘g‘risidagi qarashlari**

Al-nafs ko’plab mazmun va ma’noga ega bo’lgan atamadir. “Nafs” ob’ekt mohiyatini, qalbni, psixikani, tafakkurni, jonli mavjudotni, shaxsni, individuallikni, xohishni, shaxsiyatni anglatishi mumkin. Arab tilida o‘zlik olmoshi bo’lmagani bois uning o’rnini ayn va nafs (o’zim, o’zlik) so’zлari bosadi. Demakki, ilm al-nafs (qalb to‘g‘risidagi ilm) “psixologiya” tarzida tarjima qilinadi. Kundalik turmushimizda nafs xususida so’z ketganda biz al-nafs al-ammora tushunishimiz joiz. Mazkur kontekstda ushbu so’z odamning o‘z egotsentrik intilishlariga, “jasad” mayllariga ergashayotgan yaxlit ruhiy-jismiy tuzilmasini ifodalaydi. Ruh tuzilmasida ma’naviy taraqqiyotga doir yana uch daraja mavjud: al nafs al-lavvoma (ayblovchi nafs, vijdon), al-nafs al mulhama (ilhomlangan nafs), al-nafs al-mutma’in (tinchlangan, sokin nafs).

So’fiylar inson tabiatini to‘rt qismga ajratadilar: tab’ – moddiy asos, dil – yurak, ruh, Ego (Men) – nafs.

Nafs bandasi tab’ chizgilariga ega. Dil bandasida xali nafs va tab’ alomatlari mavjud. Nafsga ergashganlar dildan bexabar, dilga ergashganlar ruh neligidan bexabardir.

**Yordin ayru ko’ngul mulkedurur sulton yo’q,  
Mulkkim sulton yo’q, jismedururkim, joni yo’q.  
Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul  
Bir qora tufrog’dekdurkim, gulu rayhoni yo’q.  
Bir qora tufrog’kim, yo’qtur gulu rayhon anga,  
Ul qorong’u kechadekdurkim, mahi toboni yo’q. (g’aroyib us-sig’ar)**

Odam tug’ilishi bilan mavjud psixika tab’ – moddiy asos nomi bilan ma’lum. Boshqachasiga aytsak, moddiy asos odam tug’ilishi bilan ega bo’ladigan psixologik xususiyatlar turkumidir. U ota-onasi va ajdodlaridan nasliy o‘zlashtiradigan psixologik qiyofa sifatida tavsif etilishi mumkin. Moddiy asos nafs shakllanishiga katta ta’sir ko’rsatishini alohida ta’kidlashimiz joiz.

Moddiy asos agressiv va yovuz. Mazkur ajdodlardan meros sifatlar inson psixikasida qat’iy o’rin egallaydi.

**Nokasu nojins avlodin kishi bo’lsun debon,**

**Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami –  
Kim, kuchuk birla xo'tukka necha qilsang tarbiyat,  
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami. (navodir ush-shabob)**

Tab' taraqqiyot davomida nafsga aylanadi. U tevarak-muhit bilan o'zaro ta'sir va oila hamda mактабдаги иjтимоиy adaptatsiya jarayonida ro'y beradi. Nafsning asosiy jihatи o'z xohishlari va mayllarini odamga betakalluf qondirishga majbur etishidadir. Aql nafs ziddidir. Uni ushlab turguvchi kuchdir. Nafsga qanday harakatlarni amalga oshirish lozimligini uqtiradi.

Nafs psixologiyadagi Egoga monand, aql uni ijtimoiy normalarga rioya etishga yo'naltiradi. Har bir odamning nafsi bor va jamiyatda faoliyat yuritar ekan undan foydalanadi. Ayrim odamlar aqlga tayansa, ayrimlari nafsga ergashadi. Biroq psixika taraqqiyotining oliy darajalarida aql inson kamolotiga xizmat qiladi.

**Fosiq olim donishvaredur o'z nafsga zolim, g'aniyi baxil nodonedur, o'z ziyonig'a nadim. Bu ikki kishi umr zoe' o'tkardilar va go'rga hasrat va armon olib bordilar. Bir ulkim, ilm o'rganurga ranj torttiyu amal qilmadi, bir ulkim, mol yig'arg'a emgak chekti-yu sarf qilurin bilmadi. (Mahbub ul-qulub)**

**Olim agar qat'i amal aylasa,  
Ilmig'a shoyista amal aylasa.  
Solmasa ko'z jifai dunyo sari,  
Boqmasa tuz dunyayi foni sari..  
Oni sharaf gavharining koni bil,  
Gavharu kon, har ne desang, oni bil. (hayrat ul-abror)  
Ko'ngli uyin ilm etibon bir jahon,**

**Qatrada ul nav'ki, daryo nihon. (hayrat ul-abror)**

Nafs darajasida barcha odamlar tengdir. Biroq inson psixikasi ushbu darajadan dil darajasiga o'tishi lozim, agarki Voqelikni bilishni va komillikni istasa.

**Kamol et kasbkim, olam uyidin  
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.  
Jahondin notamom o'tmak biaynih,  
Erur hammomdan nopok chiqmoq.  
(G'aroyib us-sig'ar)**

### **Nafs sifatlari va unga qarshilik qilish.**

Nafsni bosish u boshqa bir jihatda namoyon bo'lishiga olib keladi.

**Toki nafsingdur qarin?  
Anga bor iblis shogirdi kamin.**

**Nafs oncha ko'nglunga solur g'urur,  
Yetkurur oncha zamiring'a futur-**

**Kim, oni shayton ko'rub, hayron qolur,  
Vodiyi hayratda sargardon qolur.**

**Qaysi ishdinkim yetar nafsingg'a kom,  
Topar ondin komini shayton mudom.**

**Nafs hukmi birlakim qilsang har ish,  
Irjayur ul komdin shaytong'a tish.**

**Demakim, shaytong'a bo'lmishmen zalil,  
Ul sening nafsingni aylabtur vakil.**

**Har ne ul qilmoq kerak, nafsing qilur,  
Har nekim shayton bilur, ul ham bilur.**

**Har ne dunyog'a taalluqdur umur,  
Sarbasar shaytong'a doxildur zarur.**

**Nafsing andoq haqqu mulk etmis ani-  
Kim, erur darj anda yuz shayton fani.**

**Nafsing oncha ko'rguzur talbisni-  
Kim, qilur sharmanda yuz iblisni.**

**Senki yor o'ldung bu yanglig' nafs ila,  
Ne uchun shaytondin etkaysen gila.**

Z.Freyd va A.Freyd tomonidan ilgari surilgan psixik himoya mexanizmlari yuqoridagi fikrlarga to'g'ri keladi.

**Sen o'zlugung butin avval ushatqil, ey zohid,  
Hamisha dayri fano ahlini etkuncha takfir.  
(navodir ush-shabob)**

Nafs odamni odamiylikdan mahrum etguvchidir. Nafsning ikki jihatni mavjud: biri ko'rsatmalarni buzish bilan, ikkinchisi fe'l buzuqligi – takabburlik, hasad, xasislik, jizzakilik, qahr kabilalar – bilan bog'liq.

**Nafsparvardin hunar kelmas – yemakdin o'zga va nafsparastdin naf' yetmas  
– demakdin o'zga. Ul biri bari harom taomdin va bu biri barcha ta'rifi  
kalomdin. (mahbub ul-qulub)**

**Sen o'z xulqingni tuzgil, bo'lma el axloqidin xursand,  
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmadi farzand. (G'aroyib us-sig'ar)**

**Alisher Navoiy nafsning quyidagi sifatlarini farqlaydi:**

**1) Nafs nodondir.**

**Bo'ldi o'z nodonlig'imni anglamoq donolig'im. (navodir ush-shabob)**

**2) Nafs Allohning qahri**

**Bo'lub nafsingg'a tobe', band etarsen tushsa dushmani,  
Senga yo'q nafsdek dushman – qila olsang ani qil band. (g'aroyib us-sig'ar)  
Kim so'z terib aytguvchi og'ziga bergay,  
Molik ani do'zah o'tining dudig'a tergay (mahbub ul-qulub).**

**3) Nafs – ma'buddir.**

**Kimniki, inson desang, inson emas,  
Shaklda bir, fe'lda yakson emas.**

**4) Nafs yolg'on orqali tinchlanadi.**

**Yolg'onchi – unutquvchi va taammul va ehtiyyot yo'lidan kanora tutquvchi.  
Har kimki, so'zi chin bo'limg'ay, rostlar ko'nglida ul so'z qabuloyin  
bo'limg'ay. Yolg'onchi so'zin bir-ikki qatla o'tkargay, o'zga netkay?  
Yolg'oni zohir bo'lg'ondin so'ngra anga rasvolig' yetgay va so'zi e'tibori el  
ko'nlidin ketgay. (mahbub ul-qulub)**

**Alisher Navoiy nafshi tanimoqlikni eng mushkul ish deb hisoblaydi:  
Alisher Navoiy nafsga qarshi chiqish eng og'ir ishdir deydi.**

**Hech kim o'z ko'ngliga g'am tilamas va o'z nafsiiga alam istamas (mahbub ul-qulub)**

**Nafs botinimiz hukmroni ekan Tangrini anglab bo'lmaydi:  
O'zlugining hijobidin kimki o'zin xalos etar,  
O'zga qayonki salsa ko'z, mumkin emas hijob anga.  
(navodir ush-shabob)**

**Yashirin butparastlikni amalga oshirish nafs amrining eng oqibatlari yomon  
farmonlaridandir.**

**Bordur inson zotida oncha sharaf –  
Kim, yamon axloqin etsa tartaraf,  
Bo'lmasa fira'avnlig'ning payravi,  
Qolmas ondin juz sifoti musavviy. (Lison ut-tayr)**

**O'z vujudingg'a tafakkur aylag'il,  
Har ne istarsen, o'zungdin istagil. (Lison ut-tayr)**

**Anglakim so'z o'zga, ma'ni o'zgadur,  
Ma'ni ongmos shog'il ulkim so'zgadur (Lison ut-tayr)**

## **Shahvatparast – nafsg'a zerdast. (mahbub ul-qulub)**

Kimki jahon ahlida inson erur,  
Balki nishoni anga imon erur.

Desang xilvatim anjuman bo'lmasun,  
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.  
Vatan ichra sokin bo'lub, soyir o'l,  
Safardin agar bo'lsa mehnat sanga.  
Nazarni qadamdin yiroq solmag'il,  
Bu yo'l azmi gar bo'lsa rag'bat sanga.  
Damingdin yiroq tutmag'il hushni –  
Ki, yuzlanmag'ay har dam ofat sanga.  
Bu to'rt ish bila rub'i maskun aro,  
Chalinmoq ne tong ko'si davlat sanga.  
Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband,  
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.  
(G'aroyib us-sig'ar)

---

Biravkim, bo'lur bir ayoq osh uchun qul,  
Yuziga keraktur qazonning qarosi.  
(G'aroyib us-sig'ar)

---

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.  
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.  
(g'aroyib us-sig'ar)

---

Kishiki zohiri oshuftadur, zamirig'a boq,  
Basoki ma'ni erur poku lafz nomarbut  
(navodir ush-shabob)

---

Ruhungg'a sihat o'lsa, maloyik bo'lur sipoh,  
Nafsingg'a quvvat o'lsa, shayotin bo'lur taba'. (navodir ush-shabob)

---

Malak taslimi shayton kibridekdur buki, aql o'zin  
Qilib ma'muri amr istar amorat nafsi ammora. (navodir ush-shabob)

---

Botinu zohiring ahvolini ko'rkim, qilmish  
Zoe' ul birni xavotir, bu birisin ag'roz. (Badoe' ul-vasat)

---

Ablah oni bilki, olamdin baqo qilg'ay tama',  
Ahmoq ulkim, olam ahlidin vafo qilg'ay tama'. (Favoyid ul-kibar)

---

Yo'l yomonu yaxshisidin yema g'am,  
Bismilloh, degilu qo'yg'il qadam. ()Hayrat ul-abror

---

Ganjing aro naqd farovon edi,  
Lek boridin g'araz inson edi.  
Turfa kalomingg'a dog'i komil ul,  
Sirri nihoningg'a dog'i homil ul.  
Ko'ngliga qilding chu yaqin ganji qism,  
Jismini ul ganjga qilding tilism. (hayrat ul-abror)

---

Ilmni kim vositai joh etar,  
O'ziniyu xalqni gumroh etar.  
Olim agar joh uchun o'lsa zalil,  
Ilmi aning jahlig'a bo'lg'ay dalil.

---

## **8-mavzu**

### **I. Emotsiya.**

- 1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati:** leksiya insonni harakatga keltirishdagi emotsiya o'rmini ko'rsatishga qaratilgan.
- 1.2 Mavzuga doir bibliografiya:**

#### **Asosiy manbaalar:**

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. -174 б.
2. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб / Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртинчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ: масъул мухаррир В.Раҳмонов/.-Т.:Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### **Qo'shimcha manbaalar:**

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

### **III. Leksiyani uyuştirish shakllari:**

- 3.1 Auditoriya.** 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'nilishi 1 kurs talabalari. Tayyorlik darajasi - umumta'limiylar.
- 3.2 Leksiya maqsadi.** Insonni harakatga keltiruvchi kuchlar va mazkur hodisa ro'y berishida emotsiya o'rni to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish.
- 3.3 Leksiya vazifalari.** Insonni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaalari bilan tanishtirish.
- 3.4 Leksiyani uyuştirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

### **IV. Leksiya mazmuni**

3. Reja va leksiya mazmunining konsepti.

4. Tizimlilik, izchillik, tushunarlilik, ko'rgazmalilikni ta'minlaydigan o'quv vositalari va didaktik usullar (konseptda ko'rsatib o'tiladi).

V. Leksiya o'qish jarayonidagi o'qituvchining umumiyl siymosi

## 8-mavzu. Emotsiya

*Emotsiya to‘g‘risida umumiy tasavvurlar.* Emotsiyaga berilgan ta’riflar.

*Emotsiyaning inson hayotida tutgan o‘rni.* Emotsiyaning aks ettiruvchi-baholovchi, boshqaruvchi, izdan chiqaruvchi ta’sirlari. Emotsiyaning himoyaviy, safarbar etuvchi, jazolovchi, kompensator, ogohlantiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi vazifalari.

*Emotsiyaning namoyon bo‘lishi.* Emotsiyaning fiziologik va xulqiy alomatlari. Emotsiya namoyon bo‘lishining individual xususiyatlari. Emotsiya xossalari.

*Emotsiya mexanizmlari.* Djems—Lange nazariyasi. U.Kennon nazariyasi. P. Bard izlanishlari.

*Tuyg‘u.* Emotsiya va tuyg‘u o‘rtasidagi o‘zaro munosabat. Axloqiy tuyg‘ular. Estetik tuyg‘ular.

### 6-mavzu: Emotsiya

#### REJA:

1. Hissiyot to‘g‘risida umumiy tushuncha
2. Hissiy kechinmalarning shakllari
3. Yuksak hislar

#### 1. Hissiyot to‘g‘risida umumiy tushuncha

Hissiyot borliqqa, tur mushga, shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsning subyektiv kechinmalarini aks ettirilish hodisasisidir. Shaxs tirik mavjudod bo‘lishi bilan birga jamiyat a’zosi hamdir, shuningdek, yakkahol (individual) inson sifatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlarini xolisona (ob’ektiv) aks ettiradi, in’ikos qiladi. Aks ettirish jarayoni favqulodda o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: a) shaxsning ehtiyojini qondirish imkoniyatiga egalikni; b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko‘rsatadigan ob’ektlarga subyekt sifatida qatnashishni; v) uni harakat qildiruvchi, bilishga intiltiruvchi munosabatlarini va hokazo. Subyektiv munosabatlarning inson miyasida his-tuyg‘ular, emotsiyonal holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi hissiyot va emotsiyani yuzaga keltiradi. Hissiyot -yaqqol voqelikning ehtiyojlar subyekti bo‘lmish shaxs miyasida ob’ektlarga nisbatan uning uchun qadrli, ahamiyatlil bo‘lgan munosabatlarini aks ettirilishdir. Mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, munosabat atamasi bir necha marta matnda qayd qilindi, shuning uchun unga ayrim izohlar berish maqsadga muvofiqdir. Psixologiyada hali bir talay terminlar, atamalar, tushunchalar mavjudkim, ularga mohiyat, ma’no, qo‘lam, sifat, shakl jihatidan qo‘llanilishi yuzasidan ba’zi bir tuzatishlar kiritilishi ayni muddao bo‘lar edi.

Psixologiya fanida munosabat tushunchasi ikki xil ma’noda qo‘llanilib kelinadi: 1) subyekt (shaxs) bilan ob’ekt (narsa) o‘rtasida tabiiy holda (tarzda) yuzaga keladigan o‘zaro aloqa o‘rnatisht (ob’ektiv munosabatlar); 2) o‘rnatilgan aloqalar aks ettirilishi (ularning kechinmasi), xususiy subyektning ehtiyojlari va ularning ob’ektlararo munosabati (subyektiv munosabatlar), binobarin, namoyon

bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga shay turgan narsalar bilan odam o‘rtasidagi munosabat ma’nosida ishlataladi. Hissiyot tushunchasi kundalik turmushda va ilmiy-psixologik manbalarda har xil ma’noda qo‘llaniladi. Jumladan, hissiyot o‘rnida sezgilar, anglanilmagan mayllar, anglanilmagan xohishlar, tilaklar, maqsadlar, talablar tushunchalardan foydalaniлади. Bu holatlar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslanib ishlatalishi kundalik turmush voqealari bo‘lib hisoblanadi, xolos. Ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqib tahlil qilinganda «Hissiyot» odatda tirik mavjudodlar miyasida, ya’ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi ob’ektlarga nisbatan uning (odamning) munosabatlarini aks ettirish ma’nosida qo‘llaniladi.

Jahon psixologiyasida «hissiyot» bilan «emotsiya» terminlari (ayniqsa chet mamlakatlarda) bir xil ma’noda ishlataladi, lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish mumkin emas. Bunday nuqson ommabop adabiyotlarda, chet ellarda chop etilgan darsliklarda aksariyat hollarda uchraydi. Odatda tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo‘ladigan his-tuyg‘ularni ichki kechinmalarda ifodalanishdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiq. Masalan, ranglarning o‘zgarishi, yuzlarning ta’bassumlanishi, lablarning titrashi, ko‘zlarning yarqirashi, kulgu, yig‘i, g‘amginlik, ikkilanish, sarosimalik va boshqalar emotsiyaning ifodasıdir. Lekin vatanparvarlik, javobgarlik, mas’uliyat, vijdon, mehr-oqibat, sevgi- muhabbat singari yuksak xislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g‘ayritabiyy hodisa hisoblanar edi. Ushbu hissiy kechinmalar o‘zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi, ta’sirchanligi, yo‘nalganligi bilan bir-biridan keskin farq qilishlariga qaramay, ularni emotsiya sifatida talqin qilish oddiy safsataga aylanib qolgan bo‘lar edi. Shu boisdan ularning o‘zaro eng muhim farqi shundaki, birisi ijtimoiy (hissiyot), ikkinchisi esa (emotsiya) individual, xususiy ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlab o‘tilgan mulohazalarga qaramasdan, hissiyot bilan emotsiyaning o‘zaro bir-biridan qat’iy cheklab qo‘yish ham ba’zi anglashilmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Faoliyat, xulq-atvor, muomala subyekti o‘zining shaxsi hamda jamiyatni uchun ahamiyatli hisoblangan narsalar va hodisalarni aks ettiruvchi munosabati hissiyotda mujassamlashadi. Shaxsning individual hayoti va faoliyatiga aloqador (xoh foydali, xoh zararli bo‘lishdan qat’i nazar) omillar, qo‘zg‘ovchilar, turtkilarni ifodalovchi hamda kelib chiqishi instinktlar, shartsiz reflekslar, irlsiy belgilar (ovqatlanish, jinsiy, himoyalanish, qo‘rqish va boshqalar) bilan bog‘liq sodda hissiy holatlar «emotsiya» deyiladi. Emotsiyalar nafaqat insonlarga, balki jonli rivojlangan mavjudodlarga ham taalluqli ruhiy (psixik) holatlardir. Hayvonlardagi emotsiyalar o‘zgarishi murakkab bo‘lgan tabiylik (irlsiy) alomatlarga asoslanuvchi sodda tuzilishga egadir. Odam bilan hayvon emotsiyalari o‘zlarining mohiyati, tuzilishi, ta’sirchanligi, jadalligi, sifati, shakli bilan keskin tafovutlanadi. Emotsiyalar tashqi ko‘rinishga xosligi bilan, muvaqqat xususiyatga ega ekanligi bilan hissiyotdan farqlanadi. Shuni aytib o‘tish joizki, hissiyot hayvonot olamiga xos kechinma emas, u aql-zakovat subyekti sanalmish hazrati insongagina xos, xolos, chunki empatik (hamdardlik) his-tuyg‘ular shaxsning mukammallik bosqichiga ko‘tarilishiga kafolat negizidir.

Hissiyot bilan emotsiya (uning yuksak darajalari nazarda tutiladi) inson shaxsining ijtimoiy hayotiy shart-sharoitlarida yuzaga kelgan, odamning ijtimoiy tarixiy taraqqiyotida shakllangan (evolyusion yo'sinda), muayyan ijtimoiy muhitda (jamiyatda) istiqomad qiluvchi kishilar tomonidan o'zlashtirilgan g'oyalar, me'yorlar, qonun-qoidalar, nizomlar, qadriyatlarni aks ettiruvchi anglanilgan his tuyg'ular, murakkab ichki kechinmalarni vujudga kelish jarayonidir.

## 2. Hissiy kechinmalarining shakllari

Hissiyotlar shaxs faoliyatining muhim jabhasi sifatida insonning keng emotsiyal sohasini rang-barangligi, ko'pqirraligi haqida hissiy ton (yunoncha tonos zo'riqish, urg'u berish ma'nosini bildiradi), emotsiyalar (lotincha emovere qo'zg'atish, hayajonlash demakdir), affektlar (lotincha affectus ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi), stress (inglizcha stress zo'riqish deganidir) va kayfiyat kabi tushunchalar muayyan tasavvur bir imkoniyatiga ega.

Hissiyot ton (tus). Hissiyot aksariyat hollarda faqat emotsiyal tus sifatida ruhiy jarayonning o'ziga xos sifat (sifatiy) jihatni tariqasida vujudga keladi. Hissiyot bu o'rinda o'ziga o'zi emas, balki bilishga intilayotgan, o'zgartirayotgan, egallayotgan shaxsda ma'lum munosabatni namoyon qiluvchi narsalar, hodisalar va harakatlarning alohida xossasi, xislati hamda xususiyati ma'nosida gavdalanadi. Mazkur narsalarga nisbatan inson shaxsining subyektiv munosabatlari to'g'risida mulohaza yuritilayotganini odam hamisha ham payqay olmaydi. Masalan, yoqimli muloqotdosh, kulgili hangoma, badbo'y hid, behayo kino, ishtiyyoqli mashg'ulot, iboli qiz, yaramas xulq, xushchaqchaq yigit, xotirjamlantiruvchi xabar, zahmatli mehnat va boshqalar.

Emotsional ton yoki hissiy tus (masalan, affektiv ton) ba'zi hollarda barcha shaxslarda tug'ma, nasliy xususiyat kasb etishi mumkin Jumladan, og'riq hissi va boshqa xususiyatli kuchli qo'zg'atuvchilar bir davrda aks etgan yoqimsiz (noxush) hissiy ton bilan ajralib turadi. Masalan, merkaptan (latincha merc simob, cäptäns egallovchi degan ma'no anglatadi), ya'ni simob bilan boshqa organik moddalar birikmasidan tarqalgan hidlar har qaysi ruhan sog'lom insonlar uchun yoqimsiz, jirkanch taassurot uyg'otadi. Shuningdek, ba'zi ranglar birikmasi (omixtasi), shilimshiq pardalarning qo'zg'olishi, qamishlarning ishqalanishi, egovning ovozi ham xuddi shunday iz qoldiradi. Shu bilan birga idrok obrazlari va tasavvurlarining aksariyat hissiy tonlari (tuslari) oldingi emotsiyal jarayonlaridan saqlanib qolgan izlar, turmush tajribaning saboqlari ((aks sadolari) insonlarda o'xshashligi tufayli «tug'ma» deb baholanishi mumkin. Hissiy ton shaxsning ehtiyojlarini atrofdagi narsalar va vaziyatlar qoniqtirishi yoki qoniqtimasligi, faoliyatning esa muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kechishini yaqqol namoyish etishiga xizmat qiladi. Shaxsning psixologik xislatlariga binoan hissiy ton (tus) o'ziga xos idiosinkraziya (yunoncha idios o'ziga xos synrasis qorishmoq, qorishuv ma'nosini bildiradi) xususiyatini kasb etadi, bunday ta'bli odam boshqalar uchun befarq tuyulgan narsalarga ham jirkanch munosabatini namoyish qiladi, masalan, duxobaga tegishni, baliq, yog', gul hidlarini yoqtirmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinlik, ko'rish, eshitish, hidlash, kinestetik (harakat) sezgilarga hamda idroklarga taalluqli hissiy ton muhim amaliy

ahamiyatga ega. Masalan, xonalar, ish joyi, transport vositalarining rangi (tusi) taassurotidan vujudga kelgan yoqimli va yoqimsiz hissiy ton mehnat samaradorligiga, xizmatchilarning kayfiyatiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Kimyoviy o'g'itlar, sabzavotlarning yoqimsiz hidi, ishlab chiqarishdagi shovqinlar, tovushlar hissiy ton jihatidan mehnat unumdarligini pasaytiradi. Xotirjamlik, yoqimsiz musiqa, iliq shaxslararo munosabatlar, muomala maromi, ahillik muvaffaqiyat kafolati, ijtimoiy taraqqiyot omili hisoblanadi.

Emotsivalar. Emotsional jarayonlar, holatlar yoki tor ma'noda emotsiyalar hissiy kechinmalarining o'ziga xos xususiyatlari shakllaridan bittasidir. Emotsiya - u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tasanno bildirish, undan hayajonlanish yoki asar ijrosi yoqmasa g'azabli hissiy kechinma hosil bo'lishi ijobiy, salbiy emotsiya deyiladi. qo'rqinch, dahshat hissiy kechinma sifatida ob'ektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib turlicha shaklda namoyen bo'lishi mumkin: odam dahshatdan qochadi, qo'rquvdan serrayib qoladi, o'zini idora qila olmay har tomonga uradi, hatto xavf-xatarga o'zini tashlashi ham mumkin.

Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatli hissiy holatlar stenik (yunoncha sthenos so'zidan olingen bo'lib, kuch degan ma'no anglatadi) xususiyatlari deyiladi. Bunday emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, ijobiy izlanishlarga kuch-quvvat, qanot bag'ishlaydi. Masalan, xursandchilikdan shaxs «parvoz qiladi», «yulduzni narvonsiz oladi», kimlargadir xolis yordam qilishga shoshadi, faollik, tinib tinchmaslik uning sifatiga aylanadi. Aksariyat hollarda xushxabar, muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatlari emotsiyalarini vujudga keltiradi. Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, zaifligi, nursizligi bilan tavsiflanadi, bunday hissiy holat astenik (yunoncha actenia so'zidan olgan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb ataladi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi, shu sababdan favqulodda shaxsdagi rahmdillik befoyda emotsiyal kechinmaga, uyalish vijdona azobiga, andisha esa qo'rkoqlikka aylanib qolish xavfi kuchli.

Har qanday vaziyatda ham emotsiyal xatti-harakat, faoliyat motivlari bo'lishidan tashqari, ular ba'zida faoliyatni tashkillashtiruvchi, goho uni izdan chiqaruvchi omilga ham aylanishi mumkin. Emotsional holatlar yo haddan tashqari kuchaysa yoki susaysa, xullas me'yori, maromi izdan chiqsa, u holda shaxs faoliyati maqsadga yo'nalishini yo'qotadi, buning natijasida ob'ektlar noto'g'ri aks ettiriladi, ular xolisona talqin qilinmaydi, baholashda mantiqiy nuqsonlarga yo'l qo'yiladi.

Affektlar. Haddan ziyod tez kechishi bilan miyada paydo bo'luvchi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi, jarayonlar ustidan irodaviy nazoratlarning buzilishiga etaklovchi (o'zini o'zi boshqarishni zaiflashtiruvchi), organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruchi emotsiyal jarayonlarga affektlar deb ataladi. Affektlar qisqa muddatli bo'lib, ular favquloddagi yong'inga, yarqiragan portlashga, to'satdan kelgan do'lga, to'fonga,

kutilmagan silkinishga o‘xshab ketadi. Mabodo emotsiya ruhiy to‘lqinlanish deyilsa, unda affekt holatlari turli bosqichlardan tuzilgan bo‘lib, ular o‘zaro o‘rin almashib turadi. Ma’lumki, vahimaga, tahlikaga, sarosimaga tushib qolgan, o‘ta quvongan, kulgi nashidasи bilan band bo‘lgan, umidsizlik tuzog‘iga ilingan inson turli vaziyatlarda borliqni bir tekis aks ettira olmaydi. CHunki u makur sharoitlarda o‘z kechinmalarini har xil ifodalaydi, o‘zini turli darajada ushlaydi, harakatlarini esa turlicha boshqaradi. Bunday oraliq miya va miya katta yarim sharlari po‘stlog‘idagi ma’lum markazlarning kuchli qo‘zg‘olishini va boshqa markazlarning tormozlanishi me’yordan chiqib ketishi tufayli o‘zaro almashinib qoladi. Harakatchanlikning asta-sekin ko‘tarilishidan iborat stenik holat astenik holat bilan almashinadi (kuchli holat kuchsiz bilan aralashib ketadi), lekin qayta tiklanishga ulgurmaydi. Masalan, jo‘shqin harakatda, ko‘z yaltirashida, yuz qizarishida vujudga kelayotgan kuchli jahl ko‘rinishlari ko‘zning xiranishi, yuz oqarishi, rang o‘chishi bilan bog‘lik qattiq g‘azabga aylanishi mumkin. Umidsizlik kechinmasida organizmning jo‘shqin reaksiyasi ba’zan hushidan ketib qolish holati bilan almashinadi. Ushbu vaziyat lotincha «stupos» stupor, ya’ni serrayib qolish, karaxt holati deb psixologiyada qo‘llaniladi.

Affekt holati boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarning barchasidan uzoqlashib, o‘z hissiyotining oqibati to‘g‘risida ham o‘ylamaydi, hatto tana o‘zgarishlari, ifodali harakatlar unga bo‘ysunmay boradi. Kuchli zo‘riqish natijasida mayda, kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po‘stini to‘la egallay boshlaydi, qo‘zg‘olish po‘stloqosti nerv tugunchalarida, oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga(dahshat, g‘azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o‘zida kuchli xohish sezadi.

Ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, ko‘pincha hissiyotlar affektiv shaklda o‘tishi tajribalarda sinab ko‘rilgan. Jumladan, 1) teatr tomoshabinlarida, 2) tantana nashidasini surayotgan olomonlarida, 3) es- xushini yo‘qtgan, telbanoma sevgi afsonalarida, 4) ilmiy kashfiyat lahzasida, 5) tasodifiy qizg‘in uchrashuvlarda jo‘shqin shodliklar mujassamlashadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o‘zini tutishini, o‘zini ko‘lga olishni uddalash qurbiga ega bo‘ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo‘qotiladi, irodasiz harakatlar amalga oshiriladi, yo‘lanmasdan xatti- harakat qilinadi. Affektiv holatlar mas’uliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo‘ladi, lekin shaxs har bir xatti- harakati uchun javobgardir, chunki u aql- zakovatli insondir. Affektlar o‘tib bo‘lganidan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba’zi hollarda holsizlanish, jamiki narsaga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollik barham topish, hatto uyquga moyillik yuzaga keladi. Shu bilan birga affektiv shok (fransuzcha choc zarba degan ma’no anglatadi) holati ham sodir bo‘ladi, buning oqibatida organizmning ichki a’zolari funksiyasi buziladi, hatto yurak xuruji (infarkt-latincha arctus «xavf to‘ldirg‘ich», miokard yunoncha mys tomir kardia yurak degan ma’no bildirib keladi) yuzaga keladi. Shuni ham unitmaslik kerakki, affektiv qo‘zg‘olish muayyan davrgacha davom etishi, ba’zan o‘qtin-o‘qtin kuchayishi yoki susayishi (pasayishi) sodir bo‘lib turishi mumkin.

Stress. Stress inglizcha stress so‘zidan olingan bo‘lib, jiddiylik, keskinlik, zo‘riqish degan ma’no anglatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keskin vaziyat tufayli vujudga keladigan emotsiyal holatlarni tadqiq etish psixologiya, fiziologiya, tibbiyot fanlarida keng qo‘lamda amalga oshirila boshlandi. Stress og‘ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar, ishlar me’yordan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug‘ilganida zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo‘riqishlar. Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron bir emotsiya turi ro‘yobga chiqaradi. Stress emotsiyal holatining paydo bo‘lishi hamda kechishining psixologik xususiyatlarni aniqlash nafaqat uchuvchilar, kosmonavtlar, dispatcherlar (inglizcha dispatcher ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi ma’nosini anglatadi) uchun, balki sudyalar, korxona rahbari, ta’lim tizimi xodimlari uchun alohida ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya faniga stress tushunchasini olib kirgan olim kanadalik fiziolog G. Sele (1936) sanaladi. U stressni tadqiq qilishda moslashuv alomati (adaptatsion sindrom- yunoncha syndrome belgi, alomat, ko‘rinish moslashuvi demakdir) masalasiga, uning faoliyatga ijobiy hamda salbiy ta’sir etishiga alohida ahamiyat bergen. Shuningdek, ekstremal (latincha extremus favquloddagi holat, eng oxirgi vaziyat ma’nosini anglatadi) vaziyatlardagi, murakkab jarayonlardagi stressning o‘ziga xosligi, faoliyatni qayta tashkil qilishgacha (dezorganizatsiya latincha de organisation fransuzcha tashkilot, tuzilma ma’nosini bildiradi) olib borishi, shunga o‘xshash sharoitlarda shaxs xulqini bashorat etish (prognоз yunoncha prognosis bashorat ma’nosini anglatadi) imkoniyatlari G. Sele tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqotchi U. Kennonning gomeostazis (yunoncha o‘xhashlik, stasis ma’nosini bildiradi) haqidagi ta’limotida stress holati har tomonlama o‘rganilgan. Ushbu terminni u psixologiyaga 1929 yilda olib kirgan. Gomeostazis mexanizmida moslashish xususiyatlari yaqqol o‘z ifodasini topadi. Uning mulohazasicha, faoliyat shakllarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida nerv sistemasi va miya funksiyasini oqilona ta’minlab turishda hamda saqlashda gomeotazis muhim rol o‘ynaydi.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o‘ziga xos tarzda o‘zgaradi, unda qo‘zg‘alishning umumiy reaksiyasi paydo bo‘ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o‘zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko‘zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni echishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalik stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilinsa bo‘ladi. Shaxs stress holatida telefon nomerini adashtiradi, vaqtini chamalashda yanglishadi, ong faoliyati engil tormozlanadi, idrok ko‘lami torayadi va boshqalar.

Stress holatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tarbiyasi, shakllangan malakasi muhim rol o‘ynaydi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Undagi yuksak his-tuyg‘ular (mas’uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va hokazo) stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Kayfivat. Shaxsning xatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kayfiyat deb ataladi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida shodonlik, hazilkashlik, umidsizlik, jur'atsizlik, zerikishlik, qayg'urishlik singari his-tuyg'ular uning ruhiy holatini umumiy tizimiga aylanadi. Ushbu vaziyat ba'zi emotsional taassurotlarning vujudga kelishiga qo'lay zamin hozirlaydi, boshqasi uchun esa qiyinchilik tug'diradi. Inson xafa, ma'yus hissiy holat hukmronligida bo'lsa, u holda tengdoshlarining haziliga, keksalarning o'git-nasihatlariga, maslahatlariga quvnoq kayfiyat chog'dagiga nisbatan mazmun, sifat jihatidan boshqacharoq tusda munosabat bildiradi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xalq ta'limi tizimi jamoalarida, rasmiy, real guruhlarida ishchanlik, o'zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik, iliq ruhiy muhit yaratish, samimiy muomala maromini shakllantirish ham jismoniy, ham aqliy mehnat samaradorligini oshirishning kafolatidir.

Kayfiyat nihoyatda xilma-xil, uzoq va yaqin manbalar negizidan vujudga keladi. Uni barqarorlashtirib turadigan asosiy manbalardan biri- shaxslarning ijtimoiy jamiyatda hukmronlik qilayotgan umumiy nuqtai nazarlari, hayotning turli jabhalarida aks etuvchi ta'sirlar, chunonchi mehnat muvaffaqiyati va ta'lim yutug'i, rahbar va xodim, o'qituvchi va saboq oluvchi o'rtasidagi munosabatlari, oiladagi shaxslararo muomala maromi, har xil vaziyatlarda paydo bo'lgan turmushdagi qarama-qarshiliklar, shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari va ta'blarining qondirilishidan qanoat hosil qilishlik yoki qanoat hosil qilmaslik kayfiyatning manbalari bo'lib hisoblanadi. Shaxsning ma'lum muddat ruhi tushib, noxush, zaif kayfiyatda yurishi uning turmushida muammolar yuzaga kelganligidan xalovat, tinchlik buzilganligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatlar namoyon bo'lganida shaxsga oqilona mulohaza mahsulidan kelib chiqqan holda xushtavozelik bilan ijobiy ta'sir o'tkazish, ruhini tetiklashtiruvchi vositalarni qo'llash, kayfiyatini buzib turgan omillarni batamom bartaraf etish maqsadga muvofiқ.

Inson kayfiyatining paydo bo'lishiga va o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ikkita omilni tahlillash mutlaqo shart. Ulardan bittasi ob'ektiv va subyektiv xususiyatlari vaziyatdir: a) tabiiy omillarga taalluqli bo'lgan vaziyat (havoning sovuqligi yoki issiqligi, bioritmika o'zgarishi), b) shaxslararo munosabatning noqulayligi va boshqalar. Ikkinci bir manba sifatidagi talqin qilish mumkin – bu ob'ektiv va subyektiv shart-sharoitlardir. Masalan, mehnat va o'qish faoliyatiga kerakli vositalarning mavjudligi (ish dasgohi, mehnat quroli, yorug'lik, auditoriya, partalar va boshqalar). Ikkinchidan, subyektiv munosabatlar: ilk psixologik muhit, muloqatmandlik maromi, rag'batlantirish, muloqot o'rnatish uslubi, shaxsiyatga tegmaslik, teng huquqlilik, hamkorlik, demokratiya prinsiplariga rioya qilishlik, o'zaro tushinish, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va hokazo.

Psixologiya fanida asosiy hissiyotlar atamasi ko'chma ma'noda qo'llanilib kelmoqda. Tadqiqotlar ichida K. Izartning tasnifi muayyan qiziqish uyg'otadi, lekin his-tuyg'ularning barchasini o'zida qamrab olmaydi. K. Izartning talqinicha: 1) qiziqish – malaka va ko'nikmalar shakllanishiga, o'qishga moyillik uyg'otadigan bilimlarni egallashga yordam beruvchi ijobiy hissiy holatdir; 2) quvonch - qondirilishi dargumon bo'lgan etakchi (hukmron) ehtiyojning

qondirilishi mumkinligi bilan bog'liq ijobiy hissiy holatdir; 3) hayratlanish – favqulodda ro'y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta'sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan ifoda etilmagan belgisidir; 4) iztirob chekish – hozirgacha qondirilish ehtimoli ozmi yoki ko'pmi mavjud tasavvur qilingan, muhim hayotiy chtiyorlarning qondirilishi mumkin emasligi to'g'risida ma'lumot olinishi bog'liq salbiy hissiy holatdir; 5) g'azablanish – ob'ektiv tarzida kechadigan, shaxs uchun g'oyat muhim ehtiyojni qondirish yo'lida to'siqlarni engib chiqadigan salbiy hissiy holatdir; 6) nafratlanish – ob'ektlarga yaqinlashuv subyektning ma'naviy yoki estetik ideallariga zid kelib qolishi oqibatida ro'y beradigan salbiy hissiy holatdir; 7) jirkanish – shaxslararo munosabatlarda ro'y beradigan va shaxsning hayotiy nuqtai nazarlari, qarashlari va xulq-atvoriga nomutanosibligi oqibatida hosil bo'ladigan salbiy hissiy holatdir; 8) qo'rquv – shaxs o'zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon etishi mumkinligi unga real tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mavjud xavf-xatar to'g'risidagi xabarni olish bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holatdir; 9) uyalish – o'zining ezgu maqsadlari, xatti-harakatlari va tashqi qiyofasi, nafrati katta muhit kutilmasiga mos kelmaganligi bilan emas, balki o'ziga loyiq xulq-atvor hamda tashqi siymosi shaxsiy tasavvurlarga ham mos emasligini anglashda ifodalananadigan salbiy hissiy holatdir.

### **3. Yuksak hislar**

Kishilik jamiyati bilan hayvonot olami o'rtasida psixologik tafovutlar yuksak hislarda o'z ifodasini topadi. YUksak hislar ongli harakatlarni bajarishning ob'ektiv sharoitlari, yo'naliishlari, mazmuni bilan uyg'unlashgan shaxs emotsiyal holating barqaror, murakkab tarkibida paydo bo'ladi va kechadi. Ko'plab kechirilayotgan emotsiyalarda, affektlarda, kayfiyatlarda yaqqollashgan umumlashma hislar yuksak hislar deb ataladi. Ular o'z tarkibiga sodda tuzilgan hislarni qamrab oladi, lekin oddiy hislar yig'indisidan iborat emas, chunki yuksak hislar mazmuni, sifati, shakli bilan alohidilikka ega

Shaxsda topshiriqni bajarish bilan bog'liq javobgarlik hissi har xil ma'noda kechiriladi; 1) tashvishlanish emotsiyasi (bir tomondan, xursandlik, ikkinchi tomondan esa qo'rqish hissi) sifatida; 2) o'z kuchiga, g'ayratiga, iftixoriga ishonch emotsiyasi tariqasida; 3) vazifaga jiddiy qaraydigan tengdoshlardan g'azablanish emotsiyasi sifatida; 4) shart-sharoitlarni hisobga olishga nisbatan shubhalanish sifatida va hokazo. Tahlildan ko'rinish turibdiki, javobgarlik hissining mohiyati ularning oddiy yig'indisidan iborat emas, balki jamoa a'zolarining ehtiyojiga aylangan voqelikni anglashdir. Masalan, kitob o'qib lazzatlanish bilan kitobni o'qib tugatish shodlik hissini farqlamoq lozim.

Psixologiya fanida yuksak hislar quyidagi turlarga ajratiladi: 1) mehnat faoliyatini davomida kechiriladigan hislar-praksik hislar (yunoncha-praxis so'zidan olingan bo'lib, ish, faoliyat, yumush degan ma'noni anglatadi); 2) intellektual hislar (latincha intellectusgan so'zdan olingan bo'lib, tushunish, aql degan ma'noni bildiradi); 3) axloqiy hislar (latincha moratis so'zidan olingan bo'lib, axloqiylik degan ma'noni anglatadi); 4) estetik hislar (yunoncha aistesis degan so'zdan olingan bo'lib, hissiy idrok, hissiy degan ma'noni aks ettiradi).

## GLOSSARY

**Ambivalentlik** (yunon. Ambi - tevarak, ikki tomondan, lot. valentia - kuch) - bir vaqtida qarama - qarshi hissiyotlarning namoyon bo'lishi (mas., kulgu va qayg'u, xursandlik va kulfat).

**Apatiya** (yunon. Apatheia - hissiyotsizlik) - kishining tevarak - atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishilarsiz befarq holati.

**Astenik** (yunon, astheneia - kuchsizlik, holsizlik) - shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

**Asteniya** (yunon. Astheneia - kuchsizlik, holsizlik) - kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon bo'ladigan asabiy psixik holsizlanish.

**Affekt** (lot. Affektus - ruhiy - hayajon, ehtiros) - kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emosional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat.

**Kayfiyat** - birorta emotsiyaning barqaror kechishi.

**Senzitivlik** (lot. sensus hissiyot) - turli ta'sirga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qo'zg'alishi.

**Stenik hislar** (yunon. Sthenos kuch) - shaxsning faoliyatini oshiruvchi hislar (mas., xursandchilik va x.k.)

**Stress** (ing. Stress - zo'riqish) - kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy holat.

**Emotsiya** (nor. emavere – uyg'otish, to'lqinlantrish) - odam yoki hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

**Hissiyot** - odamning yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofidagi olamga bo'lgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon.

### Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Hissiyot haqida tushuncha.
2. His-tuyg'ularning vazifalari.
3. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar.
4. Hissiy holatlarning ifodalanishi.
5. Hislarni kechirish shakllari.
6. Yuksak hislar.
7. Hissiyotning o'ziga xosligi.

### Test topshiriqlari

1. .... tashqi olamdagи narsa va hodisalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarimizning va bu munosabatlarimizdan hosil bo'ladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga aytildi.

A) kayfiyat B) ehtiros V) hissiyot G) affect D) stress

2. Unchalik kuchli bo'limgan lekin juda uzoq vaqt davom etadigan hissiy holat bu.....

A) kayfiyat B) ehtiros V) hissiyot G) affekt D) stress

**3. ....to'satdan paydo bo'lib tez orada o'tib ketadigan nihoyatda kuchli holatdir.**

A) kayfiyat B) ehtiros V) hissiyot G) affect D) stress

**4.....uzoq davom etadigan anchagina kuchli hissiy holatdir.**

A) kayfiyat B) ehtiros V) hissiyot G)affekt D)stress

**5.....bu oddiy psixik holat bo'lib u inson organizmini umumiy holatidan yuzaga keladi va ehtiyojlarni qondirish jarayonida mavjud bo'ladi.**

A) emotsiya B) kayfiyat V) stress G) hissiyot D) affekt

**6. His-tuyg'u psixik holat bo'lib u qanday xususiyatlar bilan belgilanadi?**

A) qoniqish yoki qoniqmaslik holatini mavjud bo'lishi; B) ijobiy va salbiy hislar; V) nerv keskinligini yuzaga kelishi va keskinlikni yumshatish; G) barcha javoblar to'g'ri D) to'g'ri javob berilmagan

**7.Emosional holatlarning xususiyatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A) shaxsni ob'ektga ijobiy munosabati; B) salbiy munosabati; V) ikkilamchi munosabat; G) barcha javoblar tog'ri D) to'g'ri javob berilmagan

**8. His-tuyg'uni yuzaga keltiruvchi sabab bu.....**

A) faollik B) qo'zg'atuvchi kuch V) kuchli ta'sirot G) stimul D) motivasion doira

**9.Faolligiga ko'ra hislar qanday turlarga ajratiladi?**

A)kuchli va kuchsiz, ijobiy va salbiy B) mimika va pantomimika V) apatiya va ekspressiya G) astenik va stenik D) salbiy va ijobiy

**10.Inson faolligini oshiruvchi uni umumiy energiyasiga asos soluvchi hislar bu.....**

A)astenik B)apatiya V)stenik G)ekspressiya D)mimika

**11.Shaxsdagi faollikni ortga qaytaruvchi hislar bu.....**

A)astenik B)apatiya V)stenik G)ekspressiya D)mimika

**12.Shaxsdagi befarqlik, beparvolik holati bu.....**

A)astenik B)apatiya V)stenik G)ekspressiya D)mimika

**13..... hislarning spesifik namoyon bo'lishi bo'lib, u ovozdan mimika pantomimika yig'i, kulguda namoyon bo'ladi.**

A) astenik B) apatiya V) stenik G) eksperssiya D) mimika

**14.....insonni yuz tuzilishida ifodalanishi bo'lib bunda idrok etilayotgan narsaga nisbatan munosabat aks etadi.**

A) astenik B) stenik V) mimika G) pantomimika D) eksperssiya

**15.....emosional holat bo'lib, u biror bir maqsadiga intilganda yuzaga keladi.**

A) ko'tarinkilik B) astenik V) stenik G) pantomimika D) eksperssiya

**16.Munozarada asabiylashib affektiv holatga tushgan kishini tilini og'iz bo'shliqida 10 marotaba aylantirishini tavsiya etadi. Mazkur fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?**

A) L. N. Tolstoy B) I .M. Sechenov V) I. S. Turgenov G) I. P. Pavlov D) G. Sele

**17.....ular jamiyat axloq normalariga bo'ysunishi yoki bo'ysunmaslik bilan namoyon bo'ladi.**

A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) praksik hislar G) estetik hislar

D) to'g'ri javob berilmagan

**18.....inson tomonidan bilish faoliyati jarayonini his etish holatidir.**

- A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) praksik hislar G) estetik hislar
- D) to'g'ri javob berilmagan

**19.Vatanparvarlik, milliy g'urur, tilga hurmat, milliy qadriyatlarga hurmat kabilar qaysi hislar tarkibiga kiradi?**

- A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) praksik hislar G) estetik hislar
- D) to'g'ri javob berilmagan

**20.G'ayrat, qiziqish, quvonch, g'urur, yangilikka intilish kabi hislar qanday hislar tarkibiga kiradi?**

- A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) praksik hislar G) estetik hislar
- D) to'g'ri javoblar berilmagan

**21. .... ijobiy hislar bo'lib, go'zal predmetlar ular orasidagi munosabatni aks etish bilan ifodalanadi.**

- A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) estetik hislar G) praksik xislar
- D) to'g'ri javob berilmagan

**22.....faoliyat natijasida yuzaga kelib ish jarayonida o'zgaradi ishni muvaffaqiyati qynchilikni tugallanganligiga bog'liq bo'ladi.**

- A) axloqiy hislar B) intellektual hislar V) estetik hislar G) praksik hislar
- D) to'g'ri javob berilmagan

**23.Emotsiya oraliq jarayonlari sub'ektiv aks etish bo'lib, u ixtiyoriy harakatga qodir va organizmda yuzaga keladi deb ta'kidlaydi Mazkur nazariyaning muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) A. N. Luk B) Djeyms-Lange V) Kenon-Bard G) Yorks- Dodason
- D) I. P. Pavlov

**24."Biz yig'laganimiz uchun xafa bo'lmaymiz, qaltiraganimiz uchun qo'rg'amiz, kulganimiz uchun xursand bo'lamiz" mazkur fikr asoschisi qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) A. N. Luk B) Djeyms-Lange V) Kenon-Bard G) Yorks- Dodason
- D) I. P. Pavlov

**25.Emotsiya signallarini qayta tiklash va uni organizmda aks etishidir, mazkur nazariya muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) A. N. LukB) Djeyms-Lange V) Kenon-Bard G) Yorks- DodasonD) I. P. Pavlov

**26.Emosional qo'zg'atuvchanlik bilan insonni ijobiy faoliyati orasida egri chiziqli qo'ng'iroqsimon bog'liqlik mavjud. Mazkur nazariya muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) A. N. LukB) Djeyms-Lange V) Kenon-Bard G) Yorks- Dodason D) I. P. Pavlov

**27. Steress tushunchasini fanga kiritgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) A. N. Luk B) Djeyms-Lange V) Kenon-Bard G) Yorks-Dodason
- D) Gan Sele

**28. Steress so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) jiddiylik, keskinlik, zo'riqish B) kuchli hissiy zo'riqish
- V) shiddatli jo'shqin. G) o'xshashlik. D) belgi, alomat, tuzilma

**29.Bir vaqtda qarama-qarshi hissiyotlarning namoyon bo'lishi bu.....**

- A) emotsiya B) hissiyot V) apatiya G) ekspressiya D) ambivalentlik

### **30.Hissiyotning nerv-fizialogik asosi qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

A) bosh miya po'sti qismining faoliyati B) vegetativ nerv tizimi bilan V) ko'rish tepaligi G) dinamik streotip D) javoblarning barchasi to'g'ri

#### **Mustaqil ta'lim savollari**

1. Hissiyot tushunchasining mazmunini izohlang?
2. His-tuyg'ularning vazifalari nimalarda ko'rindi?
3. Hissiy holatlarning fiziologik asoslarini nima tashkil qiladi?
4. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar o'rtasidagi farqni izohlang?
5. Hissiy holatlarning ifodalanishini qanday izohlaysiz?
6. Hislarni kechirish shakllarini qanday baholaysiz?

## **9-mavzu. Motivatsiya**

### **I. Motivatsiya**

- 1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati:**  
leksiya insonni harakatga keltirishdagi emotsiya o'mini ko'rsatishga qaratilgan.
- 1.2 Mavzuga doir bibliografiya:**

#### **Asosiy manbaalar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. -174 b.
2. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб / Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртинчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Узбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва башк: масъул мухаррир В.Раҳмонов/.-Т.: Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### **Qo'shimcha manbaalar:**

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

### **I. Leksiyani uyushtirish shakllari:**

- 1.1 Auditoriya.** 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'niliishi 1 kurs talabalari.  
Tayyorlik darajasi - umumta'limiy.
- Leksiya maqsadi.** Insonni harakatga keltiruvchi kuchlar va mazkur hodisa ro'y berishida motivatsiya o'rni to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish.
- 1.2 Leksiya vazifalari.** Insonni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaalari bilan tanishtirish.
- 1.3 Leksiyani uyushtirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

### **II. Leksiya mazmuni**

1. Reja va leksiya mazmunining konspekti.
  2. Tizimlilik, izchillik, tushunarлilik, ko'rgazmalilikni ta'minlaydigan o'quv vositalari va didaktik usullar (konspektda ko'rsatib o'tiladi).
- III.** Leksiya o'qish jarayonidagi o'qituvchining umumiy siymosi

## Motivatsiya

### Reja:

1. A.Maslouning ehtiyojlarga doir motivatsiya nazariyasi
2. Alderferning ERG nazariyasi
3. Gertsbergning ikki omilli va Vrumning orziqishlar nazariyalari. Porter-Lauler modeli
4. Boshqa motivatsiyaga doir nazariyalar mazmuni

Motivatsiya nazariyasi motivatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Tadqiqotlar predmeti ehtiyojlar va ularning motivatsiyaga tahliliga bag'ishlangan. Mazkur nazariyalar ehtiyojlar tuzilmasi, ularning mazmuni hamda ushbu ehtiyojlarni kishining faoliyatga nisbatan motivatsiyasini tavsif qiladi.

Yuqorida tilga olingan nazariyalarda insonni faoliyatga undovchi kuchlarni tushunishga harakat qilingan. Ushbu turkumga kiradigan motivatsiya nazariyaları sirasiga A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi, K.Alderfer tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiy etish va bog'liqliklarni hosil qilish nazariyasi, D.Makklellandning o'zlashtirilgan ehtiyojlar nazariyasi, F.Gertsbergning ikki omilli nazariyasi, V.Vrumning orziqishlar nazariyasi, Porter-Lauler modellari eng keng tarqalgani hisoblanadi.

### **MASLOUNING EHTIYOJLARGA DOIR MOTIVATSIYA NAZARIYASI.**

A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi kontseptsiyasi quyidagi asosiy g'oyalardan tashkil topgan:

- Inson hamisha nimagadir ehtiyoj sezadi;
- Inson guruhlashtirish imkonini beradigan yaqqol namoyon bo'ladigan ehtiyojlar girdobida bo'ladi;
- Ehtiyojlar guruhlari bir-biriga nisbatan ierarxik (tadrijiy) ko'rinishga ega;
- ehtiyojlar qonmasligi odamni harakatga undaydi; qondirilganlari motivlashtirish kuchiga ega emas;
- biron-bir ehtiyoj qondirilsa, uning o'rnini boshqasi egallaydi;
- odatda inson kompleks tarzda o'zaro ta'sirga kiradigan turli ehtiyojlarni sezishi mumkin;
- ierarxiyaning eng quyi pog'onasiga yaqin ehtiyojlar birinchilardan bo'lib qondirilishi lozim; yuqori darajada joylashgan ehtiyojlar quyi darajadagi ehtiyojlar qondirilgandan keyin insonga faol ta'sir ko'rsata boshlaydi;
- yuqori darajadagi ehtiyojlar qondirilish imkoniyati quyi darajadagi ehtiyojlar imkoniyatidan kengroq bo'ladi.
- Maslou o'zining "Voqelik psixologiyasiga doir" asarida yuqoridagi ehtiyojlarga komillika ehtiyoj deb nomlagan oliy ehtiyojlar ro'yxatini qo'shib qo'yan. Biroq Maslouning o'zi ular o'zaro mushtarak bo'lib bir-birlaridan to'liq farqlash qiyinligi bois ushbu ehtiyojlarga ta'rif berish mushkulligini e'tirof etgan. Maslouga ko'ra voqelik qadriyatlariga to'kislik, soddalik, mukammallik, go'zallik, tugallik,adolat, hayotiylik, o'ziga xoslik, samimiylilik,

halollik kabi qadriyatlar taalluqli. Veqelik qadriyatlari shaxs sifatida taraqqiy etish tuzilmasiga mansub bo'lib insoniy faoliyatning qudratli motivlariga aylanadi.

### **ALDERFERNING ERG NAZARIYASI**

Kleyton Alderfer, Maslou singari, o'z nazariyasida inson ehtiyojlari alohida guruhlarga birlashishi mumkinligi nuqtai-nazariga tayanadi. Lekin u ehtiyojlarning uch guruhi mavjudligini ta'kidlaydi: mavjudlik ehtiyojlari, 2) rishtalar bog'lashga ehtiyoj, 3) komillik ehtiyoji.

Mazkur nazariyada zikr etilgan ehtiyojlar guruhlari Maslou nazariyasidagi ehtiyojlar guruhlariga monandligi kuzatilmoqda. Mavjudlik ehtiyojlari Maslouning ehtiyojlar shajarasidagi ikki turkum ehtiyojlarni o'z ichiga qamrab oladi: xavfsizlik ehtiyoji (guruhiy xavfsizlik ehtiyojidan tashqari) va fiziologik ehtiyojlarni. Rishtalar bog'lashga bo'lган ehtiyojlar bilan mansublik va dahldorlik ehtiyojlari o'rtasida mushtaraklik kuzatiladi.

Alderfer fikriga ko'ra, rishtalar bog'lashga bo'lган ehtiyojlar insonning ijtimoiy tabiatini aks ettiradi. Mazkur ehtiyojlar guruhiga quyidagilar kiradi: oila a'zosi bo'lish ehtiyoji, do'st orttirish ehtiyoji, rahbar bo'lish va tobe'lik ehtiyojlari va h. Aynan shu sabab ushbu guruhga Maslou shajarasidagi e'tirof etilish bilan bog'liq ehtiyojlarni ham kirtska bo'ladi. Komillikka intilish ehtiyoji Maslouning shaxs sifatida takomillash ehtiyojiga monand. Biroq Maslou va Alderfer nazariyalari o'rtasida keskin farq ham mavjud: Maslou ehtiyojlar harakati quyidan yuqoriga qarab amalga oshadi deb hisoblasa, Alderfer fikriga ko'ra, harakat ikki yoqlamadir: yuqoriga agar quyi darajadagi ehtiyojlar qondirilmagan bo'lsa, va quyiga agar yuqori darajadagi ehtiyojlar qondirilmagan bo'lsa; bunda yuqori darajadagi ehtiyojlar qondirilmagan bo'lsa quyi darajadagi ehtiyojlar ta'siri kuchayib boradi, pirovardda, odam diqqati ushbu darajaga ko'cha boshlaydi.

Alderfer nazariyasiga muvofiq ehtiyojlar ierarxiyasi aniq ehtiyojlardan noaniq ehtiyojlar sari ko'tariladi va har safar ehtiyojlar qondirilmaganda diqqat soddarop ehtiyoj darajasiga ko'cha boshlaydi. Ehtiyojlar shajarasida yuqoriga harakat ehtiyojlar qondirilishi jarayoni deb, quyiga harakati – frustratsiya jarayoni deb nomlanadi. Ehtiyojlarni qondirishdagi ikki yoqlama harakatning mavjudligi insonni motivlashtirishda qo'shimcha imkoniyatlar beradi.

### **GERTSBERGNING IKKI OMILLI NAZARIYASI**

Gertsbergning ikki omilli nazariyasi mohiyati shundaki, barcha ehtiyojlar ikkiga bo'linadi: gigienik omillar va motivatsiya. Gigienik omillar mavjudligi hayot faoliyati sharoitlaridan qoniqmaslik hissi vujudga kelishining oldini oladi. Maslou va Mak-Klelland tomonidan tavsif etilgan oliv darajadagi ehtiyojlarga nisbatan o'xshash motivatsiyalar inson xulqiga farol ta'sir ko'rsatadi.

### **VRUMMING ORZIQISHLAR NAZARIYASI**

Vrumming orziqishlar nazarivasiga ko'ra faol ehtiyoj mavjudligi aniq maqsadga erishishga yo'naltiradigan inson motivatsiyasining yagona zaruriy sharti bo'la olmaydi. Inson o'zi namoyon qiladigan xulqi kutilayotgan narsasiga erishish yoki ehtiyoji qondirilishini ta'minlay olishiga ishonishi lozim. Vrum: «...xodimlar

qimmatli rag'batga (inson uchun asosiy qadriyat uning o'zidir, rag'bat – maqtov, o'ziga yoqadigan ish, mavqe, o'zni namoyon qilish imkoniyati) yetish imkonini beradigan zaruriy samaradorlikka erishishlari uchun ularga berilgan vakolatlar, ularning kasbiy malakalari qo'yilgan vazifani bajarishga yetarli bo'lishi shart», — deb ta'kidlaydi.

### **PORTER-LAULER MODELI**

Leyman Porter va Edvard Laufer adolat nazariyasi bilan orziqishlar nazariyasi elementlarini o'z ichiga olgan motivatsiyaning protsessual jarayonini ishlab chiqqan. Ularning modelida besh o'zgaruvchi mavjud: sarflangan quvvat, idrok, olingan natija, rag'bat, qoniqish darajasi.

Porter-Laufer modeliga binoan, faoliyatda erishilgan natijalar sarf etilgan quvvat, individ qobiliyatları va faoliyatdagı o'z o'mini anglash bilan bog'lanadi. Sarf etilishi lozim bo'lgan harakatlar darajasi rag'bat qiymati va mazkur urinishlar oqibatida ma'lum bir rag'batga ega bo'lishga bo'lgan ishonch darajasi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, mazkur nazariyada rag'bat va natijalar o'rtasida muvofiqlik o'rnatiladi, ya'ni odam o'z ehtiyojlarini erishilgan natijalari evaziga oladigan rahbat yordamida qondirishga harakat qiladi. Demakki, samarali mehnat qoniqish hissini beradi. Porter va Lauferlar insonning o'z ishidan qoniqishi samaradorlikning oshishiga yordam beradi deb ta'kidlaydilar. Ya'ni, yuqori samaradorlik qoniqish oqibati emas, balki sababidir.

### **GEDONIK MOTIVATSIYAGA DOIR NAZARIYA**

Gedonik motivatsiyaga doir nazariyada odam lazzatlanishni maksimal darajada oshirishga va noqulaylik, og'riq, iztirobni imkon qadar pasaytirishga intiladi deyiladi. Mazkur nazariyani ishlab chiqqanlardan biri amerikalik psixolog P.Yungdir. U xodimlar xulqini uyushtiradigan, yo'naltiradigan va faolligini ta'minlaydigan asosiy omil deb lazzatlanishni ilgari suradi. Yung nazariyasiga ko'ra xulq-atvorni undan keyin keladigan emotsiya belgilaydi. Agar ushbu emotsiya ijobjiy bo'lsa, harakat takrorlanadi, aksincha bo'lsa – to'xtatiladi. Gedonik nazariya tarafdarları emotsional kechinmalar muayyan darajagacha lazzatlanish sifatida idrok etiladi: Undan so'ng to'yinish vujudga kelib mazkur to'yinish nohushlik kabi qabul qilinadi.

So'ngi paytda gedonik nazariyani "ikki o'lchamli" deb nomlashadi. Unga ko'ra ikki muhim omil farqlanadi:

1. stimulyatsiya darajasi;
2. subyektiv lazzatlanish hissiga taalluqli gedonik ko'rinish.

### **PSIXOANALITIK MOTIVATSION NAZARIYA**

Psixoanalitik motivatsion nazariya avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd tomonidan ishlab chiqilgan. U insonning xulq-atvorini o'rganishga doir psixodinamik yondashuvga misol bo'lishi mumkin. Freyd nazariyasi inson xulq-atvorini belgilovchi va uning o'zi tomonidan hamisha ham anglanavermaydigan ma'lum bir

psixologik kuchlar mavjudligini e'tirof etishga asoslangan. Bu holatni turli stimullar ta'siriga reaktsiya sifatida tushunish mumkin. Freyd inson xulq-atvorini harakatga keltiruvchi kuchlar deb instinktlarni e'tirof etgan:

- Eros — hayotiy instinkt;
- Tanatos — agressiya, vayron etish, o'lim instinkti.

Instinkt, Freydga ko'ra, to'rt asosiy o'lchamlarga ega — manba, maqsad, ob'ekt va stimul.

Psichoanalitik nazariya insonni uch tuzilmaviy unsurlarning birligi sifatida ko'zdan kechiradi:

- «Ego» (Men) — o'zni anglash;
- «Id» (U) — instinktlar va impulslar (mayllar) "havzasi";
- «Super-ego» — shaxsni qurshab turadigan xulqning axloqiy jihatlari.

## DRAYVLAR NAZARIYASI

Drayvlar (mayllar) nazariyasi S-R bixevoiristik modelining alohida ko'rinishidir (S - stimul, R — reaktsiya). Drayvlarning motivatsion nazariyasi yaratuvchisi deb amerikalik psixolog Karl Xall e'tirof etiladi. Mazkur nazariyaga binoan, shaxs o'zining ichki holatini mustaqil ravishda mo'tadil tutib turishga qodir, ichki olamdag'i har qanday o'zgarish muayyan reaktsiyani paydo qiladi. Odam, birinchi navbatda, har qanday o'zgarishlarni bartaraf etishga intiladi. Bartaraf etishga imkon beruvchi omillar sifatida drayvlar (mayllar) ilgari suriladi. Reaktsiyadan keyin paydo bo'lувchi va mazkur reaktsiyani kuchaytiruvchi yangi xatti-harakatlar mustahkamlanish deb nomlanadi. Kimlardir tomonidan mustahkamlangan xulq-atvor inson psixikasida mustahkam joy egallaydi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda ushbu tizimdan xodimlar mehnat faoliyatini pul yordamida rag'batlantirib kuchaytirish maqsadida foydalaniladi. Biroq xodim psixikasida mukofotni kutish odati paydo bo'lib qolsa, u mukofotlarsiz mehnat qilish mumkinligi to'g'risida o'ylamay qo'yadi.

## Motiv va motivatsiya tushunchasining mazmuni

Garchand psixologik adabiyotlarda ayniqsa yosh va pedagogik psixologiyaga oid manbalarda motiv va motivatsiya masalasi ko'p bora ko'tarilgan bo'lsa-da, bat afsil yoritilmagan. Masalan, ayrim psixologlar maktabgacha yoshda ayrim tarqoq situasion mayllar ma'lum motivlar tizimlariga aylanib borishini qayd etadilar. Biroq bu fikr atroficha chuqurroq o'rganilmagan. Shunga muvofiq adabiyotlarda psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida motiv va motivatsiya tushunchasi turlicha talqin qilingan.

Eng keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra, motiv - bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir.

Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi:

A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir.

S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi.

S.L Rubinshteyn. "Motivatsiya - bu psixika orqali amalga oshuvchi determinasiyadir".

A.N.Leontev - motivni inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan voqelik deb hisoblaydi.

Motiv -ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

**Motivatsiya** keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi.

**Motivatsiya** - insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

**Motivatsiya** - murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

**Motivatsiya** - odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir.

V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlarini ancha bat afsil yoritib bergen. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: "turli motivlar bora-bora o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe bo'lib boradi hamda oxir oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi". V.S.Merlin fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonda nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash kabi shartlar bajarilishini talab etiladi. Demak, V.S.Merlin bo'yicha motivlari tizimlari o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe shaxs motivlarining bir butun yig'indisidan iborat. Ammo V.S.Merlin garchi motivlar tizimlarining ayrimlarini haqiqatdan ham muhim jihatlarini ko'rsatib o'tgan bo'lsa ham, motivlar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni motivlar tizimlari va faoliyat ko'rsatish muammosini tadqiq etmagan.

Chet el psixologlari orasida A.Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bilan mashhurdir. O'z nazariyasida A.Maslou ehtiyojlarning quyidagi ierarxik qatorini ajratadi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog'liq bo'lish ehtiyoji, hurmatga bo'lgan ehtiyoj, insonning o'z yashirin imkoniyatlarini to'laro namoyon etish va ro'yobga chiqarish ehtiyoji va boshqalarni kiritadi. A.Maslou fikricha, muayyan ehtiyojning qondirilishi uchun avval ierarxik qatorda undan oldingi ehtiyoj qondirilgan bo'lishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, A.Maslou konsepsiyasida ierarxiyada yuqori o'rinni egallovchi ehtiyojlar quiyi o'rindagi ehtiyojlarga tobedir. A.Maslou konsepsiyasida motivasion jarayonlar boshqaruvida odam ongingin ishtiroki, boshqaruvdagi roli e'tiborsiz qoldirilgan. Olim ehtiyojlar ierarxiyasidagi vertikal munosabatlarni tahlil qilib, bir darajada joylashgan ehtiyojlar orasidagi gorizontal munosabatlar esa o'rganilmagan.

Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi.

Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi.

Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomoniga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

Ierarxik, darajaviy tuzilish - bu tizimlilik xususiyatiga ega bo'lgan hodisalarning bir jihatidir. Shu tufayli shaxs motivasion sohasining ierarxiyasini samarali tadqiq etish uchun uni motivasion hodisalarning boshqa jihatlari bilan aloqadorlikda o'rganish zarur bo'ladi. Motivasion hodisalar tizimliligini tadqiq etishda asosiy e'tibor esa bu hodisalar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishga qaratilishi kerak. Bu borada R.S.Vaysmanning shaxs motivasion sohasining tizimliligi haqida bildirilgan fikri alohida e'tiborga loyiq. Uning yozishicha, "Motivasion sohaning tizimliligi - motivasion o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlik, xilma-xil munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Shunday munosabatlardan biri ierarxik munosabatdir. Yana bir turdag'i munosabatni "ro'yobga chiqarish" munosabati deb atash mumkin. Bu munosabat shuni anglatadiki, har bir ehtiyojning qondirilishida turli motivlar yig'indisining ro'yobga chiqarilishi mumkin. Uchinchi turdag'i munosabat shunda namoyon bo'ladiki, har xil ehtiyojlarning qondirilishida bir motiv ishtirok etadi yoki aksincha, bir ehtiyoj qondirilishida turli motivlar qatnashadi. Bunday munosabat "o'zaro tobelik" munosabati nomini oldi.

R.S.Vaysman shaxs motivasion sohasidan tizimli munosabatlarning juda qiziq tasnifini keltiradi. Ammo ajratilgan munosabatlar qatorini boshqaruv, tartiblashtirilganlik va shu kabi munosabatlar bilan to'ldirish mumkin bo'ladi. Qolaversa, R.S.Vaysman motivasion o'zgaruvchilar o'rtasidagi tizim hosil qiluvchi asosiy munosabatni ajratmagan, bir turdag'i va har xil turdag'i motivasion hodisalarini bir-biridan farqlamagan.

Chet el olimlarining motivatsiya sohasidagi tadqiqotlari orasida G.Olportning motivlar funksional avtonomiysi nazariyasi alohida o'r'in egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformasiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi. G.Olport o'z konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi g'oyalaridan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi g'oyadan keng foydalangan. Olimning fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat ko'rsatadi va rivojlanadi, ya'nii funksional avtonomiyaga ega. Bir tizimga kiruvchi motivlarni G.Olport reaktiv, tashqi undovga muhtojlik qonunlariga bo'ysunuvchi motivlar, deb ataydi. Ammo G.Olportning ta'kidlashicha, shaxs ochiq tizimlar kabi o'zgaruvchi va rivojlanuvchi motivlar bilan tavsiflanadi, degan fikr haqiqatga yaqinroqdir. Agar avvalgi tizim motivlarning perseverativ funksional avtonomiysi, deb atalgan bo'lsa, keyingi tizimni G.Olport propriativ funksional avtonomiya, deb ataydi. Ochiq, yopiq va yarim ochiq tizimlar haqida to'xtalar ekan u yopiq tizim modelini shaxs va uning motivatsiyasiga qo'llab bo'lmasligini ta'kidlagandi. Ochiq funksional tizim taraqqiyot uchun zamin hozirlaydi, uni esa undovchi muhtojlik doirasida tushuntirib bo'lmaydi.

G.Olport tomonidan shaxs motivlarining ochiq tizimlar sifatida tahlil etilishi, shaxs va shaxs motivlari taraqqiyoti chegarasiz jarayon ekanligini ta'kidlash uchun imkoniyat beradi.

Shunday qilib, biz shaxs motivasion sohasi haqidagi turli qarashlar, ularda tizimli yondashuv g'oyalarining aks etishi masalasini ko'rib chiqdik. Mazkur qarashlar motivatsiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarning ajralmas qismiga aylandi. Ko'rsatib o'tilganidek, psixolog olimlar tomonidan motivasion soha tizimliligiga oid turli jihatlarni qayd qilinmoqda. Ayni damda motivasion mexanizmlar haqidagi tizimli yondashuvga asoslangan tasavvurlar turli yo'naliishlarda tadqiq etilmoqda. Biroq tadqiqotlarning barchasini bir yo'naliish - motivasion hodisalar o'rtasidagi ma'no hosil qiluvchi aloqa va munosabatlarni tadqiq etish atrofida birlashtirish mumkin.

Ko'pchilik psixologlar fikricha, motivatsiya muammosi shaxs psixologiyasining markaziy muammosidir. Shaxs psixologik tuzilishining butunligi, xulq-atvor va uni harakatga keltiruvchi kuchlar o'rtasidagi aloqadorlik motivatsiya muammosini o'rganishda tizimli yondashuvni qo'llash uchun keng imkoniyat yaratib yeradi.

Xorij psixologlaridan neofreydistlar hisoblanmish **A.Adler**, **K.Yung** kabilar tomonidan ilgari surilgan motiv va motivatsiya borasidagi nazariyalarga asosiy e'tiborni qaratamiz. A.Adlerning fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi, ularga erishish yo'llari manbai hisoblanadi. **Xornining ta'kidlashicha**, inson xulqi motivatsiyasini boshqa motivlar yordamida aniqlash mumkin. Jumladan, birlamchi bezovtalanish atrof-muhitga nisbatan dushmanlik hissini tug'diradi, xavfsizlikka ehtiyoj esa insonni boshqa odamlar tomonidan baholash va o'z-o'zini baholashga nisbatan ichki intilishini vujudga keltiradi. **E.Fromm** ham o'z qarashlarida libido masalasiga katta e'tibor bermaydi, chunki uni qiziqtirgan muammo inson xulqi jabhalarida ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonidir.

Geshtalt psixologiya maktabi namoyondalari uchun motivatsiya o'ziga xos talqinga ega bo'lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o'rganishga nisbatan intilish yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. **K.Levin** (1890-1947) motivlarni eksperimental o'rganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sharoitida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtalt psixologiya maktabining namoyondalariga obraz tushunchasi qanchalik o'ta ahamiyatli bo'lsa, K.Levinning maydon nazariyasini uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz va motiv o'zaro aloqasiz hukm surishi ta'kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli ma'noviy mazmuni esa inkor qilinadi.

K.Levin motivni quyidagicha ifodalaydi: **motiv** - muayyan muvaffaqiyatli mikrointervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma'no anglatuvchi ikkita motivasion o'zgarish hukm surishi tan olinadi. Geshtalt psixologlarning asarlarida shunday qolatlar ham mavjudki, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi. Ushbu holat G.Olport konsepsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqini o'zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlar omillarini tekshirishlari ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish qiyin emas.

Rus psixologlari orasida V.G.Aseevning tadqiqotlarida motivasion tizim masalasi ancha chuqur o'rganilgan. Uning fikricha, inson motivasion sohasining ontogenetik taraqqiyoti davomida bu soha tizimli rivojlanishga nisbatan moyillikni namoyon etadi. Bu moyillik V.G.Aseev ko'rsatishicha, stixiyali shakllanuvchi, undovchi kuchlarning kattaroq motivasion birliklarni o'zaro qo'shilib hosil qilishda namoyon bo'ladi. Motivasion tizimning birligi sifatida V.G.Aseev undovchi kuchlarni qayd etadi. Bu tushuncha doirasiga u motiv, ehtiyoj, qiziqish, intilish, maqsad, ideal, mayl, motivasion ustanovka va boshqalarni kiritadi. Shunday qilib, V.G.Aseev turli motivasion hodisalar, mayl turlari o'rtasida tizimli munosabat mavjud deb hisoblaydi. Demak, bunday yondashuvda motivasion tizim komponenti mayl bo'lib hisoblanadi.

V.G.Aseev shaxs motivasion sohasining tuzilishi muammosiga ham katta e'tibor beradi. Uning qayd etishicha, inson motivasion sohasining tuzilishi quyidagi xususiyatlarga ega: situasion va impulsiv undovchilarning yonma-yon joylashganligi, shaxsiy mayllarning mazmun va dinamik sifatlariga ko'ra bir-biriga yaqinligi. Bu xususiyatlar motivatsiyaning tizimli sifatlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Ayrim tadqiqotchilar masalan, **V.E.Chudnovskiy**, **V.I.Kovalev** motivlar tizimi va shaxs yo'nalishi o'rtasida aloqadorlik mavjudligini qayd etmoqda. **P.T.Yakobson** esa xulq-atvor motivatsiyasi muayyan qadriyatlar tizimlari bilan bog'liqligini ta'kidlab, motivlarni shaxs qadriyatları orientatsiyasiga tobe birliklar sifatida o'rganishni taklif etadi. Uning fikricha, bunday izlanish ijtimoiy psixologik yo'nalishda amalga oshirilishi kerak.

Motivlar tizimi tushunchasiga berilgan ancha keng ta'riflarni adabiyotlarda uchratish mumkin. Jumladan, V.S.Morozovning qayd etishicha, "Shaxs motivlar tizimini uning sub'ektiv ehtiyojlari, maqsadlari, g'oyalari, qarashlari, tasavvurlari shuningdek, intilishlari, shakllari va boshqalar tashkil etadi". Bunday ta'rifda "tizim" tushunchasi qanday ma'noda qo'llanilayotgani ancha noma'lum. Uni aniqlashtirish talab etiladi.

Yuqorida tilga olingan muammolar bilan shaxs motivasion sohasining darajaviy tuzilishi muammosi bevosita bog'liq. Psixik hodisalarining darajaviy tuzilishi g'oyasi psixologiyada keng tarqalgan va tadbiq etib kelinmoqda va bu bejiz emas, zero darajali tuzilish haqidagi tasavvurlar turli psixik hodisalarining muayyan tizimga keltirilgan modellarini hosil qilish imkoniyatini beradi. Shaxs motivasion sohasida o'z darjasasi va murakkabligiga ko'ra turlicha bo'lган motivasion hodisalarining mavjudligi darajaviy tuzilishi haqidagi g'oyalarning bu yo'nalishda ham samarali qo'llash uchun sharoit yaratadi.

Inson motivasion sohasining ierarxik darajaviy tuzilishi masalasi motivatsiya bilan bog'liq eng o'tkir va keskin bahslarga sabab bo'luvchi muammolardan biridir. hozirgacha alohida olingan motivasion hodisalarining ierarxik tuzilishi ehtiyojlar ierarxiyasi va boshqalar tadqiq etib kelingan. Ammo barcha motivasion hodisalarining yagona ierarxik tuzilishi haqidagi masala etarlicha o'rganilmagan.

Rus psixologlari orasida motivlar ierarxiyasi masalasi **A.N.Leontev**, **L.I.Bojovich** va boshqalar tomonidan o'rganilgan. A.N.Leontev XX asrning 40-yillarda maktabgacha yosh davrida shaxs shakllana boshlashini ta'kidlar ekan, bu

jarayon bolada motivlar ierarxiyasi tarkib topishi bilan bog'liqligini uqtirgan edi. A.N.Leontev fikricha, sub'ektning tashqi olam bilan birga munosabatlari kengayib borgan sayin motivlarning o'zaro solishtirilishi yuz beradi, buning oqibatida esa ular o'rtasida ierarxik munosabatlar shakllanadi. Motivlar ierarxiyasi olimning fikriga ko'ra, motivlar funksiyalari bilan belgilanadi. Boshqacha qilib, aytganda ierarxiyada yuqori o'rinni, ma'no hosil qiluvchi funksiyani bajaradigan motivlar quyi o'rinni esa stimul motiv egallaydi. Demak, A.N.Leontev motivlar funksiyasining ikki darajasini: ma'no hosil qiluvchi va stimul darajalarini ajratadi. Ammo A.N.Leontev o'z nazariyasida motivlar ierarxiyasing shakllanish jarayonida shaxsning sub'ektiv, faol roli qanday bo'lishini ko'rib chiqmaydi.

L.I.Bojovich tadqiqotlarida, shuningdek, ayrim boshqa ilmiy izlanishlarda motivlar ierarxiyasing shakllanishi dominant motivlarning hosil bo'lishi bilan bog'lanadi. Har xil yosh bosqichlarida turli motivlar dominantlik qiladi. Ayrim motivlarning ustunlik qilishi shaxsning yo'nalishini belgilab beradi. Bunday yo'nalish shaxs motivlari o'rtasida nafaqat subordinasion, balki koordinasion munosabatlar ham hukm surishini taqozolaydi.

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'z-o'zini qanday tutishi egallagan mavqeい ham sababsiz o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada "motiv", "motivatsiya" tushunchalari ishlatiladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tushunishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihat farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni holati, harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari, ya'ni bular aynan aniq holatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Har qanday motivlarning asosida shaxsning ehtiyojlari yotadi, ya'ni maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar bo'ladi va aynan ularning tabiat va zaruriyatiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. Masalan, talabaning o'quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qizuquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida, masalan, boqcha yoshidan boshlab qondirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftар va boshqa o'quv qurollari, ma'lum ta'lim maskanida tashkil etilgan shart-sharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o'zi bola uchun motiv o'rmini bosadi.

Rus olimi R.Nemov shaxsdagi motivasion sohani quyidagicha tasavvur qiladi.

Umuman har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Biologik ehtiyojlar - fiziologik, jinsiy moslashuv ehtiyojlar.
2. Ijtimoiy ehtiyojlar - bu mehnat qilish bilan estetik va ahloqiy, ma'naviy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lgani bilan shu narsani unutmasligimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan

bo'ladi, ya'ni ular o'sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi.

## GLOSSARY

**Motiv** (lot. movere - harakatga keltirmoq) - ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

**Motivatsiya** - odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

**Motivlar kurashi** (lot. motivus - harakatchan) - qaror qabul qilish bilan bog'liq irodaviy harakatlar bosqichi.

### Mustaqil ishslash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Motiv tushunchasining mohiyati.
2. Motivatsiya tushunchasining mazmuni
3. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari.
4. Motiv muammosiga doir mulohazalar.
5. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning roli.

### Test topshiriqlari

**1.Motivatsiya** -bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinasiyadir. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) Z.Freyd B) A.G.Kovalev V) A.Adler G) K.Yung D) S.L.Rubinshteyn

**2.Motiv** - bu shaxs xulq-atvorining kognivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi sub'ektiv tarzda aks ettirish demakdir. Mazkur fikr muallifini aniqlang?

A) Z.Freyd B) A.G.Kovalev V) A.Adler G) K.Yung D) S.L.Rubinshteyn

**3.Psixolog** olim Ollport tomonidan ichki motivatsiya bilan bog'liq bo'lgan uchta motivasion tushunchalarni tahlil qilgan ular qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) funksional avtonomiya B) yetarli darajadagi harakat V) "Men" ning jalb qilinganligi G) to'g'ri javob berilmagan D) barcha javoblar to'g'ri

**4."Qiziqish-** motivatsiyaning o'ta teran darajalarida qatnashadi". Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) Z.Freyd B) A.G.Kovalev V) G.Olport G) K.Yung D) S.L.Rubinshteyn

**5.O'quv** faoliyati jarayonidagi qarama-qarshilik, motivatsiya ijod va shaxs muammolari qaysi olim tomonidan o'rGANILGAN?

A) A.A.Fayzullaev B) V.I.Ivannikova V) S.L.Rubinshteyn G) M.G.Davletshin

D) E.Usmonova

**6.O'smir** yoshidagi o'quvchilarning o'qish motivlarini va qadriyatlarni o'rGANISHGA bag'ishlangan tadqiqot ishi qaysi olim tomonidan olib borilgan?

A) A.A.Fayzullaev B) A.Saitova V) S.L.Rubinshteyn G) M.G.Davletshin

D) E.Usmonova

**7.Kichik** məktəb yoshidagi bolalarning ijtimoiy burchni shakllanishi o'quv motivlariga bog'liqligi masalasi qaysi olim tadqiqotlarida uchraydi?

A) A.A.Fayzullaev B) V.I.Ivannikova V) V.A.Tokareva G) M.G.Davletshin

D) E.Usmonova

**8.Qaysi olim tadqiqotida shaxsning motivation o'z-o'zini boshqarishning turli-tuman omillari aniqlangan va ko'rib chiqilgan?**

- A) A.A.Fayzullaev B) V.I.Ivannikova V) S.L.Rubinshteyn G) M.G.Davletshin  
D) E.Usmonova

**9.O'smir o'quvchilarining o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash haqida tadqiqot olib borgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) A.A.Fayzullaev B) V.I.Ivannikova V) E.G'oziev G) M.G.Davletshin  
D) E.Usmonova

**10.Psixologiyada motivlar qanday kategoriyalarga ajratiladi?**

- A) 3 ta tabiiy, ijtimoiy, bilish B) 3 ta keng, tor, bilish V) 2 ta ichki va tashqi  
G) 2 ta tabiiy va ma'naviy D) 2 ta ma'naviy va madaniy

**11.Qaysi qatorda motiv tushunchasiga to'liq ta'rif berilgan?**

- A) odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab B) odamni muayyan xatti-harakatga undaydigan bosh sabab V) shaxsning rivojlanishida eng ajoyib ko'rinishlaridan biri  
G) intilish maqsad ehtiyojlarni hali yuzaga chiqmagan kelajak holatlariga intilish  
D) barcha javoblar to'g'ri

**12.Motivlar orasida qaysi jarayon muhim o'rinni egallaydi?**

- A) mayl B) ishtiyooq V) qiziqish G) ehtiyoj D) maqsad

**13.Qaysi qatorda motivatsiya tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A) odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab B) motivlar yig'indisi V) intilish maqsad ehtiyojlarni hali yuzaga chiqmagan kelajak holatlarga intilish holati G) shaxsning nima uchun ma'lum vaqt boshqa fikr va harakatlarlarni emas aynan shu fikr va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishdan iborat mantiqiy jarayon D) shaxsning rivojlanishida eng ajoyib ko'rinishlardan biridir.

**14."Motivni u yoki bu mayl zarurat qiziqish inson uchun maqsad bilan munosabatda harakat motiviga aylanadi". Mazkur fikr muallif qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) L.I.Bojovich B) P.M.Yakobson V) S.L.Rubinshteyn G) A.N.Leontev  
D) N.E.Efimova

**15.Hozirgi kunda o'qish motivatsiyasi qanday yo'llar bilan diagnostika qilinmoqda?**

- A) testlar turli psixodiagnostik metodikalar B) turli labaratoriyalarda maxsus asboblar yordamida V) labaratoriya eksperimentlarini pedagogik tajribalar bilan real o'quv jarayoni sharoitida o'quvchining ijtimoiy xulqini uzoq muddat o'rganish bilan G) proektiv metodikalar va testlar asosida D) barcha javoblar to'g'ri

**16.Ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'limgan ijobiy yoki salbiy motivlarni tashqi motivlar deb ta'lim jarayoniga singdirilgan motivlarni esa ichki motivlar deb hisoblaydilar. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda keltirilgan?**

- A) L.I.Bojovich B) P.M.Yakobson V) S.L.Rubinshteyn G) A.N.Leontev  
D) N.E.Efimova

**17.Psixologiyada motivlar ierarxiyasi qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?**

- A) M.V.Matyuxina, A.K.Markova B) S.L.Rubinshteyn, P.Ya.Galperin  
V)A.N.Leontev, L.I.Bojovich G)A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn

D) L.I.Bojovich, P.Ya.Galperin

**18.Psixologiyada motivasion soha doirasida tadqiqot ishini olib borgan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

A) A.Adler B) K.Xoll V) E.Torndayk G) Dj.Uotson D) B.Skinner

**19.Motivlar mutassil shakllanadi va shaklini o'zgartiradi. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

A) Berlayn B) Ollport V) A.Maslou G) Z.Freyd D) V.Vudvors

**20.Ichki motivatsiya borasida tadqiqot ishi olib borgan olimni aniqlangan?**

A) Berlayn B) Ollport V) A.Maslou G) Z.Freyd D) V.Vudvors

**21.Qaysi olim tomonidan motivatsiya borasida olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra qiziqishlar nazariyasini ishlab chiqdi?**

A) Berlayn B) Olport V) A.Maslou G) Z.Freyd D) V.Vudvors

**22.Yangi paydo bo'ladigan motivlarni hamisha asosiy tug'ma holda berilgan biologik instinktning xatolari deb hisoblashadi. Mazkur nazariya qaysi yo'nalish namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan?**

A) Freydizm B) Bixevoiral V) Kognitiv G) Psichoanalitik D) Nofreydistlar

**23.XX asrning 20-yillarida instinktlar nazariyasini o'rniqa qanday konsepsiya yuzaga keldi?**

A) evolyusion rivojlanish B) instinkt va ehtiyojlar o'rtasidagi irrasional farqlar  
V) ekologik o'zgaishlar G) biologik ehtiyojlarga tayangan holda inson tabiatini tushuntiruvchi D) affektiv-kognitiv

**24.Xorij psixologiyasida o'quv motivlari muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar qaysi olim nomi bilan bog'liq?**

A) J.Nyutten B) K.Xoll V) E.Torndayk G) Dj.Uotson D) B.Skinner

**25.Quyida keltirilgan o'quv jarayoni borasidagi ta'rif qaysi olim tomonidan ilgari surilgan. "O'quv jarayoni u yoki bu javoblar reksiyasining ma'lum holati bilan muayyan bog'liqlikda ya'ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o'rtaida ma'lum aloqa o'rnatilishi bilan izohlanadi".**

A) J.Nyutten B) K.Xoll V) E.Torndayk G) Dj.Uotson D) B.Skinner

**26.Motivlarni eksperimental o'rghanish metodikasi qaysi olim tomonidan ishlab chiqildi?**

A) J.Nyutten B) K.Xoll V) E.Torndayk G) Dj.Uotson D) K.Levin

**27.Motiv borasidagi quyidagi fikr qaysi olim tomonidan ilgari surilgan. "Insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi ularga erishishi yo'llari hukumat va qudratga ega erkdir".**

A) A.Adler B) K.Xoll V) E.Torndayk G) Dj.Uotson D) B.Skinner

**28."Motivatsiyaning manbai instinkt, u, tur va individning saqlanish shartidir". Mazkur g'oya muallifi qaysi qatorda keltirilgan?**

A) A.Adler B) K.Xoll V) E.Torndayk G) Z.Freyd D) B.Skinner

**29.Shaxsning munosabati pozisiyaga asoslangan holda motivlar muammosi bilan shug'ullangan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

A) L.I.Bojovich B) P.M.Yakobson V) S.L.Rubinshteyn G) A.N.Leontev

D) V.N.Myasishchev

**30.Motivga shaxsning ehtiyoji bilan uyg'unlashuvi nuqtai nazaridan yondashadi va ularning o'zaro ta'siri o'rinni almasluvi tenglashuvi mumkinligi to'g'risidagi mulohaza qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?**

- A) L.I.Bojovich B) P.M.Yakobson V) S.L.Rubinshteyn G) A.N.Leontev  
D) A.G.Kovalev

#### **Mustaqil ta'lim savollari**

1. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolarini izohlang?
2. Motiv muammosi ni nazariy o'rganishga doir tadqiqotlarini bilasizmi?
3. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning rolini ko'rsating?
4. Motivatsiya tushunchasining mohiyatini asoslang?
5. Motiv tushunchasining mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
6. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning o'rmini qanday baholaysiz?

#### **10-mavzu. Alisher Navoiy va insonni harakatga keltiruvchi kuchlar**

Alisher Navoiyning “insonni harakatga keltiruvchi kuchlar” to'g'risidagi qarashlari. Alisher Navoiy va hissiytlar. Alisher Navoiyning asarlarida motivlar, motivatsiyaning tahlil etilishi.

## **11-mavzu. Bixevoiristlar ta`lim maqsadlari xususida**

### **I. Bixevoiristlar ta`lim maqsadlari xususida**

**1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati:** leksiya shaxs nazariyalarning ta`lim jarayonini uyushtirishdagi o'rmini ko'rsatishga qaratilgan.

**1.2 Mavzuga doir bibliografiya:**

#### **Asosiy manbaalar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.:Ma`naviyat,2008.- 174 b.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб / Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртинчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул- абров: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошк; масъул мухаррир В.Рахмонов/-Т.:Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### **Qo'shimcha manbaalar:**

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

### **II. Leksiyani uyushtirish shakllari:**

**2.1 Auditoriya.** 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'niliishi 1 kurs talabalari. Tayyorlik darajasi - umumta'limiylar.

**Leksiya maqsadi.** Insonni harakatga keltiruvchi kuchlar va mazkur hodisa ro'y berishida motivatsiya o'rni to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish.

**2.2 Leksiya vazifalari.** Insonni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaalari bilan tanishtirish.

**2.3 Leksiyani uyushtirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

### **III. Leksiya mazmuni**

3. Reja va leksiya mazmunining konspekti.
4. Tizimlilik, izchillik, tushunarilik, ko'rgazmalilikni ta'minlaydigan o'quv vositalari va didaktik usullar (konspektda ko'rsatib o'tiladi).

## **11- mavzu: Bixevoiristlar ta'lim maqsadlari xususida<sup>20</sup>**

- 1) Ta'lim vazifalari bixevoiristlar nuqtai nazaridan**
- 2) Torndayk qarashlari**
- 3) Gazri qarashlari**
- 4) Xall qarashlari**
- 5) Skinner qarashlari**

**Ta'lim vazifalari bixevoiristlar nuqtai nazaridan.** Hozirgi kunda barcha psixologlar ma'lum ma'noda bixevoiristlarga taalluqlidir. Ular o'rganish, xotira, unutish kabi hodisalar xususiyatlari to'g'risida xulosa chiqarish uchun o'sha hodisalarning turli jihatlaridan foydalanadilar.

Ilmiy psixologiyaning asosiy vazifalariga xulosani shakllantirishda qo'llaniladigan ma'lumotlarni olish vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish kiradi. Ta'lim tizimida maqsadlarga erishganlik to'g'risida qandaydir xulosalar chiqarish kerak bo'lgan o'lchov sohalaridan foydalanish zaruriyati mavjud. Talabalar muvaffaqiyatining aksariyati imtixon yoki kurs ishida olingen ballar bilan baholanadi. Materialning o'zlashganlik darajasi aynan shu o'lchovlardan kelib chiqadi. Agar imtixon o'zlashtirish ko'rsatkichlarining noadekvatligi aniqlangan bo'lsa o'lchov vositalarini takomillashtirish mumkin. O'qituvchi qanday maqsadlarni ko'zlamasin ushbu maqsadlarga erishilganlik talaba tomonidan qandaydir yo'l bilan namoyish etilishi kerak.

Ta'limning pirovard natijasi "shaxs to'g'risida keng qamrovli tasavvur qilish"ni shakllantirish bo'lsa, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtaida quyidagi usulda amalga oshgan suhbat ro'y berish ehtimoli kam:

**O'qituvchi: Sizda shaxs to'g'risida keng qamrovli tasavvur hosil bo'ldimi?**

**Talaba: albatta.**

**O'qituvchi: tabriklayman! Besh.**

Mager 55 yil oldin o'zining "Pedagogik maqsadlarni qo'yish" asarida o'quv maqsadlarini bixevoiristlar nuqtai nazaridan aniqlash va ilgari surishga doir qator takliflarni bergen.

So'nggi yillarda o'rta va oliy ta'lim muassasalari, na davlat, na xususiy bo'lsin, ta'lim "iste'molchilar" uchun yaqqollik kasb etgan o'quv maqsadlariga erishganlikni ifoda etadigan hisobotni talab qiladilar.

Mager ushbu holatni quyidagida ko'radi:

Tasavvur qiling, men sizning bolalaringizni mantiqiy fikrlashga o'rgatishni taklif qildim va buning uchun 1000 dollar so'radim. Agar men mazkur taklifni bersam siz rozi bo'lasiz. Biroq men sizga nima qilmoqchi bo'lganimni va ta'lim muvaffaqiyatini aniqlash imkoniyatini tushuntirmasam rozilik berarmidingiz?

O'ylashimcha, yo'q. O'qituvchi o'z talabalari bilan ma'lum ma'noda kontrakt tuzadi. O'quvchilar ma'lum malaka va ko'nikmalar evaziga muayyan miqdordagi

<sup>20</sup> B.R.Hergenhann, Matthew H.Olson An introduction to theories of learning. (p 416-440)

pulni to'lashga rozi bo'ladilar. Lekin aksariyatda ular dan na so'z bilan, na xatti-harakat bilan aniqlash imkon i bo'limgan narsa uchun to'lov talab qilinmoqda.

**Mager o'quv dasturi vazifalarini ishlab chiqishda quyidagilardan kelib chiqish zaruriyati mavjudligini ta'kidlaydi:**

1. Maqsadni qisqacha ifodalash
2. Qisqacha qilib so'z yoki iboralar bilan maqsadga erishilganlikni ko'rsatadigan xatti-arakatlarni belgilab qo'ying.
3. Qaydlarni tasniflab chiqing. Takror va ortiqcha puktlarni olib tashlang. Muhim sanalgan barcha qo'shimcha maqsadlarni ham xuddi shunday belgilab oling.
4. Siz uchun ma'qul sanalgan har bir xatti-harakatni uning mohiyati, sifati yoki hajmini tavsif etish orqali to'liq ko'rinishini yozib chiqing.
5. Savolni takrorlang. Agar boshqa biron kimsa siz qayd etgan xatti-harakatlarni namoyish qila olsa siz uni o'z maqsadiga erishgan deb hisoblarmidingiz? Agar javobingiz ijobiy bo'lsa tahlil yakunlangan sanaladi.

Mager o'quv vazifalarini belgilashda qanday so'zlardan foydalanish javobni xulqqa aylantirish mumkin ekanligini ham keltiradi:

**Turlichal talqin etiladigan so'zlar:**

Bilish

Tushunish

Haqiqatda tushunish

To'liq farqlash

Mohiyatini payqash

Rohatlanish

Ishonish

Shaksiz ishonch

**Talqin etish aniq bo'lgan so'zlar:**

Yozmoq

Yoddan aytib berish

Identifikatsiyalash

Farqlash

Yechish

Tuzish

Sanab berish

Qiyoslash

Qarama-qarshi qo'yish

## 2. Torndayk qarashlari

Ta'limga doir bixevoiristik nazariya printsiplari E.Torndayk tomonidan iste'molga kiritilgan edi. Torndayk fikriga ko'ra ta'lim jarayoni "muayyan vaziyat bilan muayyan reaktsiya o'rtasida mavjud aloqalarni o'rnatishdan va ushbu aloqalarni mustahkamlashdan" iborat. Stimul va reaktsiya o'rtasidagi aloqalarni hosil qilish va mustahkamlashning asosiy qonunlarlari sifatida u effekt qonuni, takrorlash qonuni va tayyorlik qonunini ko'rsatib o'tgan. E.Torndayk effekt

qonuniga alohida e'tibor qaratadi. U mazkur qonunni quyidagicha ta'riflaydi: "Vaziyat va javob reaktsiyasi o'rtasida aloqa o'rnatish jarayoni qoniqish holati bilan birga kechadi yoki qoniqish holatiga aylanadi, bunda aloqa mustahkamligi oshadi; agar mazkur aloqa qoniqmaslik holati bilan birga kechsa yoki qoniqmaslik holatiga aylansa, aloqa mustahkamligi pasayadi" (Thorndike, 1913, p.4). "Qoniqqanlik holati, - deb E.Torndayk fikrini davom ettiradi, - organizm uni vujudga keltirish yoki saqlab qolishga intiladigan holatga aytildi; qoniqmaslik holati deb organizm undan qochishga yoki qutulishga harakat qiladigan holatga aytildi" (Thorndike, 1913, p. 123). Bundan ko'rini turibdi-ki effekt nafaqat musbat, balki manfiy ham bo'lishi mumkin; musbat effekt muvaffaqiyat, qoniqish hissini yuzaga keltirish bilan kechadi; qoniqish effekti hosil bo'lган aloqaga bevosita ta'sir ko'rsatish orqali uni mustahkamlaydi. Hafsalasizlik, muvaffaqiyatsizlik effekti (manfiy effekt) aksincha hosil bo'lган aloqalar yo'qolishiga, ularga vayronakor ta'sir ko'rsatadi. Torndayk musbat effekt zaruriy aloqalarni, manfiy effekt zararli aloqalarni yo'q qilishidan ko'ra tezkorroq hosil qilinishiga olib kelishini alohida ta'kidlaydi.

Takroriylik qonunining mohiyati stimul va xos reaktsiyaning vaqt ichra izchil takrorlanishi aloqalar mustahkamligini oshirishidan iborat. Torndayk stimul va reaktsiyaning vaqt ichra izchil takrorlanishi qo'llab-quvvatlanmasa (musbat effekt) aloqalar hosil bo'lmasligiga, ya'ni effekt qonunisiz takroriylik qonuni samarasiz ekanligiga urg'u qo'yadi.

Tayyorlik qonuni aloqalar hosil bo'lish tezligi subyektning ayni paytdagi holatiga bog'liq ekanligiga ishora qiladi. "Har qanday psixologik aloqada – deydi Torndayk, - individual nerv tizimining spetsifik holatini izi yotadi" (Torndayk, 1935, b. 107).

E.Torndayk tomonidan ilgari surilgan ta'limga doir qonunlar zamonaviy bixevoirizmning ta'limga doir barcha nazariyalari negizida yotadi; uning barcha oqimlari namoyandalari mazkur "stimul-reaktsiya" sxemasiga binoan tahlilni amalga oshiradilar.

Torndaykka binoan, o'quv jarayoni aniq maqsadlarga ega bo'ladi, stimullarga nisbatan o'quvchi qobiliyati muvofiq bo'lishi lozim, zotan o'quvchi ijobjiy reaktsiyani bersa o'qituvchi ham o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilishi kerak.

### **3. Gazri qarashlari**

Gazri Torndayk singari o'quv jarayoni aniq maqsadlarga tayanishi kerak deb hisoblaydi: stimullarni va ushbu stimullarga kerakli reaktsiyalarni aniqlashdan. U ta'lim muhitini shunday uyushtirar ediki zaruriy reaktsiyalar o'sha stimullar mavjudligida paydo bo'lsin.

Gazri uchun motivatsiyaning umuman ahamiyati yo'q. Zaruriy xulq ko'plab stimullar tomonidan hosil bo'lishi imkoniyatini oshirish uchun amaliy mashg'ulotlar ko'p bo'lishi lozim. Har bir tajriba o'ziga xos bo'lGAN bois bir hil narsalarni muttasil ravishda "qayta va qayta" yod olishi lozim. Gazri fikriga ko'ra 2ni 2ga doska yonida qo'shish, o'quvchilar partada o'tirib 2ga 2ni qo'sha olish kafolatini bermaydi.

Formal ta'lim real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lishi kerak. Gazri qarashlariga qo'shiladigan o'qituvchilar o'quvchilarni ta'lim muassasasini bitirgandan keyin nima shug'ullanishlari ko'zda tutilgan bo'lsa shu faoliyatni ta'lim muassasasida ham bajarishga majburlaydi.

O'quvchilarning destruktiv xulqi bilan to'qnash kelganda Gazri qarashlariga qo'shiladigan o'qituvchilar jazolashga qo'l urishlari mumkin, biroq shuni yodda tutish kerakki jazo destruktiv xulq namoyon bo'lgan paytda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### 4. Xall qarashlari

Xall fikriga binoan ta'lim asosiy ehtiyoj shiddatini pasaytirish bilan uzviy bog'liq. Xavotirni pasaytirishga harakat shunday ehtiyojlar sirasiga taalluqli. Unga ko'ra o'qitishning zaruriy sharti o'quvchilarda xavotirning ma'lum darajasini vujudga keltirishdan iborat. Mazkur xavotir muvaffaqiyat ta'sirida pasayishi kerak. Xavotirning pastligi o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'ta yuqori darajasi vayronkor kuchga ega bo'ladi.

**Miller va Dollard Xall nazariyasini ta'limga joriy etishda quyidagilarga e'tibor qaratishadi:**

Ehtiyoj: o'quvchi nimanidir xohlashi loim

Signal: o'quvchi nimagadir e'tiborini qaratishi kerak

Reaktsiya: o'quvchi nimanidir bajarishi shart

Qo'llab-quvvatlash: o'quvchi xatti-harakati u istagan narsani berishi joiz.

**5. Skinner qarashlari.** B.F.Skinner, programmalashtirilgan ta'lim asoschisi, zamonaviy bixevoiristik matablar birining vakilidir; uning ta'limga doir kontseptsiyasi asosida E.Torndayk kashf etgan tamoyillar yotadi.

B.F.Skinner, ta'limga pozitivistik nuqtai-nazardan yondashar ekan, har qanday ta'lim nazariyalariga qarshi chiqib ta'lim jarayonini tajriba negiziga qurish zarurligini e'tirof etar edi. Uning fikriga ko'ra, nazariyalar vaqtini bekor sarf etilishi va yanglishishlarga olib keladi. Faktlar o'z joyida, tartibli bo'lar ekan nazariyalar yo'qqa chiqishga mahkum, - deb yozadi u. Skinner psixologik tadqiqot bevosita kuzatilar faktlarning funktional tavsifi darajasida o'tkazilishi kerak deb hisoblaydi (Skinner, 1961 a).

B.F.Skinner xulqning o'zlashtirilishi faqat ushbu xulqni bajarish orqaligina erishish mumkin degan qoidaga tayanadi. Ya'ni harakatni harakat yordamida o'rganish mumkin. Mazkur fikrga e'tiroz bildirib bo'lmaydi: zotan bu barcha tomonidan birday qabul qilinadigan ta'lim faolligi printsipining umumiy shaklidir.

B.F.Skinner tomonidan ilgari surilgan programmalashtirilgan ta'lim printsiplari ikki masala yechimi bilan bog'liq: kerakli tashqi reaktsiyaga ega bo'lish va uni mustahkamlash. Buning uchun u yaqinlashtirish metodidan foydalanadi (Skinner, 1954).

Ta'lim jarayonini qadamlashtirish – Skinner bo'yicha programmalashtirishning birinchi printsipidir. U avval boshdan programmalashtirilgan reaktsiyani to'g'ri bajarishini ta'minlashga qaratilgan. Ta'lim programmasida yo'naltirish tizimining mavjudligi (ikkinci printsip) ham mazkur vazifa yechimiga qaratilgan.

Dastlab zaruriy reaktsiya o'quvchilarga tayyor xolda beriladi (yo'naltirishning maksimal darajasi), keyin alohida elementlar birin-ketin tushirib qoldiriladi (yo'naltirishning sekin-asta yo'qolishi), amal so'ngida reaktsiyani butkul mustaqil tarzda bajarilishi talab etiladi (yo'naltirishning olib tashlanishi). Masalan, tushunchalarning o'zlashtirilishida tushuncha tavsifi dastlab to'liq taqdim etiladi, keyin tavsifdan eng oson yod olinishi mumkin bo'lgan bitta so'z tushirib qoldiriladi, so'ngra yod olinishi biroz murakkabroq so'zlar birin-ketin tushirilib qoldirilgan tartibda taklif etiladi; oxirgi qadamda o'quvchi tushuncha tavsifini mustaqil ravishda aytib berishi lozim.

Reaktsiyalarini mustahkamlash – kabi ikkinchi masala yechimi – skinner dasturlarida har bir qadam zudlik bilan qo'llab-quvvatlanishi ("effekt qonunining" ro'yobga chiqarilishi) bilan bog'liq. B.F.Skinner qo'llab-quvvatlanishlar miqdorining yetarli bo'lmasligi, ularning noadekvatligi, o'z vaqtida berilmasligi kabi holatlar zamонавиу та'lim amaliyotining asosiy nuqsonlaridan hisoblanadi. O'quvchilar ko'z-o'ngida turadigan olis maqsadlar samarali qo'llab-quvvatlanish sirasiga kirmaydi. Bevosita o'quvchilar xulq-atvoriga aylanadigan, uning zaruriy shakllarini stimullaydigan qo'llab-quvvatlanishlar tizimini ishlab chiqish lozim. Inson xulq-atvori arzimas yutuqlar ta'siri ostida ham o'zgaradi; biroz shubhadan keyin oydinlik kiritilishi, shunchaki bir muolajani o'zlashtirgandan so'ng keyingisiga o'tish, harakat imkoniyati va h. – ta'lim jarayonini ijobiy jihatdan rag'batlantirishiga B.F.Skinner ishonardi.

Shu bilan birga B.F.Skinner qo'llab-quvvatlashlarning kerakli shakllarini aniqlash ancha mushkulligini ham e'tirof etgan (Skinner, 1954, 1961 b). Skinner tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqilgan dasturlarda qo'llab-quvvatlovchilar sifatida javobning to'g'rilinga ishonch uyg'otuvchi nutqiy rag'batlardan foydalanilar edi. Materialning kichik va yengil bo'laklari o'quvchiga o'z javoblari to'g'rilinga ishonch hosil qilish imkoniyatini berish bilan birga o'z muvaffaqiyatini his qilish imkoniyatini ham ta'minlashi B.F.Skinner fikriga ko'ra, nafaqat to'g'ri javoblarni mustahkamlaydi, balki davom ettirish xohishi vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi. Ya'ni "tayyorlik qonuni" shartlari ham bajariladi.

Programmadagi (programmalashtirilgan darsliklar yordamida amalga oshirilayotgan ta'limda) kadrlarda tushirib qoldirilgan kadrlardagi elementlar javoblarni mustahkamlash maqsadida yo kadr ostiga, yo kadr yon boshiga, yoki darslikning keyingi sahifasiga joylashtiriladi. O'quvchi tushirib qoldirilgan elementni to'ldirgach o'z javobini dasturda keltirilgan javob bilan qiyoslashi lozim.

Popper ta'limni quyidagicha ifodalaydi. Sinfga muammo beriladi, o'quvchilar esa mazkur muammoning turli-tuman yechimini taklif etadilar. Har bir yechim tanqidiy tahlil etiladi, samarasiz yechimlar olib tashlanadi. Jarayon eng maqbul yechim topilguniga qadar davom etadi. Muammolar ilmiy, sotsiologik, falsafiy, axloqiy yoki shaxsiy bo'lishi mumkin. Sinfdag'i muhit yengil, norasmiy bo'lishi kerak.

## **Skinnerning ta'lif jarayonidagi jazo to'g'risidagi qarashlari:**

1. U nohush emotsional kechinmalarni paydo qiladi.
2. Jazo organizm nima qilishi kerakligiga emas, nima qilish kerak emasligini ko'rsatadi
3. U o'zgalar jonini og'ritish mumkin degan fikrni mustahkamlaydi
4. Oldin jazo muqarrar bo'lgan vaziyatdan tashqari holatlarda bo'lism xulqni oqlash imkonini yaratadi
5. Jazo jazo manbai va boshqa odamlarga nisbatan agressiyani vujudga keltiradi
6. Jazo bir nohush reaktsiyani boshqa nohush reaktsiyaga o'zgartiradi

## **12-mavzu.**

### **I. Ta'lif muammolari kognitiv mакtab vakillari nuqtayi nazaridan**

**1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati:**  
leksiya shaxs nazariyalarning ta'lif jarayonini uyushtirishdagi o'mini ko'rsatishga qaratilgan.

#### **1.2 Mavzuga doir bibliografiya:**

##### **Asosiy manbaalar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.:Ma'naviyat,2008.- 174 b.
2. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб / Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртинчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий, тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул- абров: (Насрий баёни билан)//Таҳxир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ: масъул мухаррир В.Раҳмонов/.-Т.:Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Фозиев Э.Ғ. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

##### **Qo'shimcha manbaalar:**

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

## **II. Leksiyani uyushtirish shakllari:**

### **2.1 Auditoriya. 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'nilishi 1 kurs talabalari.** **Tayyorlik darajasi - umumta'lmiy.**

**2.2 Leksiya maqsadi.** Insonni harakatga keltiruvchi kuchlar va mazkur hodisa ro'y berishida motivatsiya o'rni to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish.

**2.3 Leksiya vazifalari.** Insonni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaalari bilan tanishtirish.

**2.4 Leksiyani uyushtirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

### **III. Leksiya mazmuni**

1. Reja va leksiya mazmunining konspekti.
2. Tizimlilik, izchillik, tushunarlik, ko'rgazmalilikni ta'minlaydigan o'quv vositalari va didaktik usullar (konspektda ko'rsatib o'tiladi).

**IV. Leksiya o'qish jarayonidagi o'qituvchining umumi siyosasi**

## **12- mavzu: Ta'lim muammolari kognitiv maktab vakillari nuqtai nazaridan<sup>21</sup>**

**Reja:**

1. Asosiy nazariy qoidalar
2. Intellektual taraqqiyot bosqichlari
3. Ta'limning optimal shartlari

Psixologiyada shaxsga doir kognitivistik yondashuvni amalga oshirgan olimlardan biri Jan Pajedir. Piaje kontseptsiyasiga binoan bilishga doir faollik organizmning yashab ketish uchun optimal bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Ya'ni bilish jarayonlari organizmga tevarak-muhit bilan muvaffaqiyatli o'zaro ta'sirga kirish imkoniyatini beradi. Muhit va organizm muttasil o'zgarib turgani bois ular o'rtasidagi "intellektual" o'zaro ta'sir ham o'zgarishi lozim. Bilishga oid akt organizmni mavjud muhitda yashab ketishiga optimal shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Demakki, Piaje uchun intellekt dinamik tabiatga ega, zotan bilishga oid akt mazmuni organizmning biologik taraqqiyoti va tajriba egallashi bilan uzviy bog'liq. Piaje uchun intellekt har qanday tirik jonzotning integral qismidir, chunki har qanday jonli organizmlar yashab ketishga imkon beradigan optimal sharoitlarni qidiradi, biroq intellektning namoyon bo'lishi shart-sharoitlar o'zgargani bois vaqtning turli pallasida turlicha bo'ladi.

**Asosiy nazariy tushunchalar.**

**Sxemalar.** Go'dak so'rish, ushslash, erishish, ko'rish kabi yuqori darajada uyushgan reflekslarga ega. Piaje u yoki bu reflekslarni namoyon bo'lishidagi individual xususiyatlarini muhokama etgandan ko'ra so'rish, ushslash, erishish,

<sup>21</sup> B.R.Hergenhann, Matthew H.Olson An introduction to theories of learning. (p 416-440)

ko'rish aktlarini amalga oshirish imkoniyatini beradigan umumiy qobiliyatlar haqida mushohada yuritishni ma'qul ko'radi. Mazkur yo'sinda harakat qila olish imkoniyati *sxema* nomini olgan. Masalan, ushslash refleksi sxemasi narsalarni ushlab olishga doir umumiy qobiliyatlarga oiddir. *Sxema* – ushslash refleksi namoyon bo'l shining birdan ortiq ifodasidir. Ushslash *sxemasi* deyilganda ushslashga doir barcha aktlarni belgilaydigan kognitiv tuzilma nazarda tutiladi.

Ushslashga doir harakatning xususiy ifodasini ko'zdan kechirish paytida muayyan stimulga muayyan javob qaytarish kategoriyalaridan kelib chiqish lozim. *Sxemaning* har qanday xususiy ifodasining bunday jihatni *mazmun* deb nomlanadi. Ya'ni *sxema* muayyan xulqni namoyon etishning umumiy qobiliyatlariga doir bo'lsa, *mazmun* umumiy qobiliyatlarning xususiy ifodalarida ustivor shart-sharoitlarni tavsif etadi.

*Sxema* Piaje nazariyasining o'ta muhim atamasidir. Uni organizm kognitiv tuzilmasining alohida elementi sifatida tasavvur qilish mumkin. Organizmga xos *sxemalar* uning tevarak-muhit bilan o'zaro ta'sirga kirish uslublarini belgilaydi. Ular nafaqat tashqi xulqiy ifodalarda aks etishlari, balki yashirin tarzda ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Yashirin tarzda ta'sir ko'rsatuvchi *sxema* sifatida tafakkurni olsa bo'ladi.

Aniqki, bolaning olam bilan o'zaro munosabatga kirish usullari uning ulg'ayishi bilan o'zgarib boradi. Organizmning muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishning yangicha uslublarini ishlab chiqish uchun bolaga xos *sxemalar* qayta uyushuvi (reorganizatsiya) zarur.

**Assimilyatsiya va akkomodatsiya.** Vaqtning ma'lum davrida organizm tasarrufidagi sxemalar miqdori uning kognitiv tuzilmasini tashkil etadi. Organizmning muhit bilan o'zaro ta'sirga kirish sifati uning kognitiv tuzilmasi ko'rinishi bilan bog'liq. Muhitdan kelayotgan axborotning idrok hajmi va hattoki, organizm javob berayotgan uning qismi, organizmda mavjud turli sxemalar tomonidan belgilanadi. Boshqachasiga aytadigan bo'lsak, kognitiv tuzilma muhitning qaysi jihatlari organizm uchun "mavjud" ekanini belgilaydi.

Tashqi stimullarga kognitiv tuzilma chig'irig'i orqali berilayotgan reaksiya *assimilyatsiya* deb nomlanadi, u tevarak muhit bilan kognitiv tuzilmalar o'rtasidagi muvofiqliklarni o'rnatishdan iborat. Vaqtning muayyan pallasida ishga tushadigan kognitiv tuzilmalar organizm assimilyatsiya qilish mumkin bo'lgan narsalarga cheklov qo'yadi. Masalan, mabodo bolada so'rish, ko'rish, erishuv va ushslash sxemalari mavjud bo'lsa uning barcha tajribasi mazkur sxemalar tomonidan assimilyatsiya qilinadi. Kognitiv tuzilma o'zgarar ekan bolada tevarak olamning turli jihatlarini assimilyatsiya qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Aniqki, assimilyatsiya intellektual taraqqiyotni belgilaydigan yagona kognitiv jarayon emas, chunki organizm o'z tajribasini shunchaki mavjud kognitiv

tuzilmaga assimilyatsiya qilib borgan bo'lardi. Nima bo'lgan taqdirda ham intellektual taraqqiyotni ta'minlaydigan boshqa yana bir muhim jarayon **akkomodatsiyadir**; mazkur jarayon yordamida kognitiv tuzilma modifikatsiyasi amalga oshadi.


Insonning yangi vaziyat bilan har bir to'qnashuvi o'z ichiga assimilyatsiya va akkomodatsiyani qamrab oladi. Organizmda javob sxemalar mavjud hodisalar assimilyatsiya qilinadi, biroq bunday tayyor sxemalar mavjud bo'limgan taqdirda akkomodatsiyaga ehtiyoj tug'iladi. Demakki, har qanday o'zlashtirilishi lozim tajriba ahamiyatlilik darajasi bir xil bo'lgan ikki jarayonni qamrab oladi; assimilyatsiya jarayoniga nisbat qilinadigan tanimoq (yoki bilim), va pirovardda kognitiv tuzilma modifikatsiyasi amalga oshadigan, akkomodatsiya jarayonlari. Bunday o'zgarishlar natijalarini shartli ravishda o'rganish deb nomlash mumkin. Agar vaziyatga boshqa tomondan qaralsa, biz olam bilan o'zaro ta'sirga o'tmish tajribaga (assimilyatsiya) muvofiq ravishda kirishamiz, lekin har bir yangi kechinma biz oldin to'qnash kelmagan jihatlarni o'zida jo etgan bo'ladi. Mazkur tajribaning unikal qismi kognitiv tuzilmalarda (akkomodatsiya) o'zgarishlarni hosil qiladi. Akkomodatsiya intellektual taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy vositadir. Assimilyatsiya va akkomodatsiyani funktsional konstantalarga nisbat qilishadi, zotan ular intellektual taraqqiyotning barcha bosqichlarida ishtirok etishadi.

**Muvozanatlashtirish.** Intellektual taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch nima? Degan tabiiy savol tug'iladi. Piaje kontseptsiyasida bu savolga javobni muvozanatlashtirish to'g'risidagi qarash beradi. Piaje fikriga ko'ra, har qanday organizm tevarak muhit bilan uyg'un munosabatlarni yaratishga tabiiy moyillikka ega. Boshqachasiga aytsak, organizm optimal darajadagi adaptatsiyaga yo'naltirilgan. Muvozanatlashtirish – organizmning maksimal adaptatsiyaga erishishga qaratilgan tajribani uyushtirishga bo'lgan tug'ma moyilligidir. Qo'polroq qilib aytsak, mazkur jarayonni uyg'unlik va muvozanatga muttasil intilish jarayoni sifatida tushunish mumkin.

Piaje uchun muvozanatlashtirish tushunchasi Freydning gedonizmi yoki Maslou va Yungning autoaktualizatsiyasi singaridir. U motivatsiyani tushuntirishga qaratilgan asosiy g'oya bo'lib xizmat qiladi va assimilyatsiya hamda akkomodatsiya jarayonlari bilan birga bolalarda kuzatiladigan muttasil intellektual taraqqiyotni tushuntirishda qo'llaniladi.

Avval aytganimizday, assimilyatsiya organizmni joriy vaziyatga o'tmish tajribaga muvofiq tarzda javob qaytarish imkoniyatini beradi. Vaziyatning unikal jihatlariga shu paytgacha to'plangan bilimlarga tayanib javob berish imkoniyati bo'limgani bois, stimulning notanish jihatlari kognitiv dissonansni hosil qiladi. Uyg'unlikning tug'ma ehtiyoji borligi sabab organizmning mental tuzilmalari yangi tajribani qabul qilish uchun o'zgaradi shuning bilan zaruriy muvozanatni o'rnatadi. Muvozanatni o'rnatish organizm muhit bilan turlicha o'zaro ta'sirga

kirish yo'llarini ochadi. Akkomodatsiya mental tuzilmalar o'zgarish sabablarini tushuntiradi, va agar muhitning azaldan notanish bo'lgan jihatlariga to'qnash kelinadigan bo'lsa endi ular disbalansni paydo qilmaydi; organizm ularni mavjud kognitiv tuzilmalarga assimilyatsiya qilishga tayyor bo'ladi. Mazkur bilishning yangi mexanizmi qo'shimcha ravishda navbatdagi o'zgarishlar negizini yaratadi, zotan akkomodatsiya hamisha disbalans natijasi bo'lgani bois, disbalansni paydo qilgan narsa doimo organizmning mavjud kognitiv tuzilmasiga taalluqli bo'ladi. Sekin-asta adaptatsiya jarayonida avvaldan assimilyatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'lмаган axborot "hazm" qilina boshlanadi. Assimilyatsiya va akkomodatsiyaning egiz jarayonlari muvozanatlashtirishning harakatga undovchi kuchi bilan birgalikda intellektual taraqqiyotni astalik bilan amalga oshishini ta'minlaydi. Ushbu mexanizm ta'siri quyidagicha o'z ifodasini topadi.



**Interiorizatsiya.** Bolalarning muhit bilan dastlabki o'zaro ta'sirga kirishi qat'iy sensomotordir; bu ular muhitning bevosita stimuliga reflektor motor reaksiyalari bilan javob qaytarishadi degani. Bolaning olam bilan ilk aloqalarida ushslash, so'rish, ko'rish va erishish kabi tug'ma sxemalar ishtirot etadi. Ilk tajriba natijalari kognitiv tuzilmalarda qayd etiladi va ularni sekin-asta o'zgartiradi. Tajriba o'zlashtirilishi bilan bolaning kognitiv tuzilmalari kengayadi, shuning bilan miqdoran ko'payayotgan hodisalarga moslashish imkoniyati oshib boradi.

Bolalar kognitiv tuzilmasi takomillashuvi muhitning murakkab stimullariga javob bera olish qobiliyatini ham kuchaytiradi. Shu bilan birga ular "hozir va ayni

damda” vaziyatiga tobelikdan qutulishadi. Masalan, ular ayni damda ularning ko’z o’ngida bo’limgan ob’ekt haqida “o’ylash” imkoniyatiga ega bo’lishadi. Endi ularning tajribasi tevarak muhit va dastlabki tajribani aks ettiradigan kognitiv tuzilmalar ta’siri ostida shakllanadi. Tevarak muhit ta’sirining pasayishi va kognitiv tuzilmalardan foydalanish imkoniyatining oshishi interiorizatsiya deb nomlanadi.

Kognitiv tuzilmalar taraqqiyoti ularning adaptatsiya jarayonidagi rolini oshiradi. Masalan, kognitiv tuzilmalar takomillashuvi murakkab muammo yechimini topish imkoniyatini oshiradi. Tajribaning interiorizatsiyalashuvi natijasida tafakkur muhitga moslashtirish vositasiga aylanadi. Taraqqiyotning dastlabki bosqichida bolaning moslashuv reaktsiyalari sodda va o’ylanmagan bo’ladi. Biroq interiorizatsiya jarayoni davom etadi, va bolaning adaptiv reaktsiyalari yashirin tus ola boshlaydi; ular tashqi emas, balki ichki faoliyat bilan bog’lanadi. Piaje mazkur yashirin harakatlarni **operatsiya** deb nomlagan; demakki, “operatsiya” tushunchasi “tafakkur” tushunchasi bilan aynanlashadi. Endi muhit predmetlari bilan bevosita manipulyatsiya qilib o’tirmasdan bola ushbu xatti-harakatlarni operatsiyadan foydalangan xolda tafakkurda amalga oshira boshlaydi.

Har qanday operatsiyaning asosiy xususiyati – ortga qaytarilishidir. Ortga qaytarilish deganda bir marta amalga oshirilgan tafakkuriy xulosa dastlabki holatga qaytarish mumkinligini nazarda tutadi. Masalan, 3 ga 5 ni qo’shib 8 javobini olgandan keyin undan 3ni olib tashlab 5 ni hosil qilish mumkin.

Ko’rib turganimizdek, bolaning muhitga moslashuvi tafakkur ishtirokisiz bevosita amalga oshadi. Keyingi bosqichda bolada murakkab kognitiv tuzilma shakllangach tafakkur yetakchi o’ringa ko’tariladi. Operatsiyalardan dastlabki foydalanish bolaning pertseptiv maydonida mavjud narsalarga bog’liq bo’ladi; u o’zi ko’rib turgan predmetlar to’g’risidagina fikr yurita oladi. Piaje ularni konkret operatsiyalar deb nomlagan, zotan ular muhitning konkret ifodalariga qaratilgan. Keyinchalar operatsiyalar jismoniy stimulyatsiyaga bog’liq bo’lmay boradi, shuning bilan ular bolaga gipotetik massalalarni yechish imkoniyatini beradi. Piaje ularni formal operatsiya deb nomlagan.

Shunday qilib, interiorizatsiya – bu adaptiv faoliyatni ichki loyiharga o’tkazish imkoniyatini beradigan jarayondir.

Piaje ta’lim o’quvchining kognitiv tuzilmasi doirasidagi tajriba yordamida amalga oshirilishi kerak deydi. Bola shaxsining kognitiv tuzilmalariga kiritish imkoni yo’q o’quv materiali uning uchun hech qanday mazmunga ega bo’lmaydi. O’quv materialini to’liq assimilyatsiya qilgani bilan ta’lim olgani savol ostida qoladi. Ta’lim amalga oshishi uchun material qisman tanish, qisman – notanish bo’lmog’i kerak. Tanish qismi assimilyatsiya qilinib, notanish qismi bolaning kognitiv tuzilmasini biroz o’zgarishiga olib keladi. Bunday kognitiv tuzilma modifikatsiyasini Piaje akkomodatsiya deb nomlaydi.

Piaje nuqtai nazaridan optimal ta’lim o’quvchi uchun zaruriy darajada murakkablikka ega tajriba bo’lishi joiz, shu bois assimilyatsiya va

akkomodatsiyaning ta'siri ostida tafakkurda o'sish hosil bo'ladi. Buning uchun esa ta'lim jarayoni individuallashtirilishi lozim.

## **13-mavzu. Psixologiya maktabi vakillarining tarbiyaga doir qarashlari**

### **I. Psixologiya faniga kirish.**

**1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati:** leksiya fanga talabalar tomonidan butun predmetni o'zlashtirilishiga ko'rsatadigan uning ta'sir mazmunini ochib berish lozim bo'ladi.

**1.2 Mavzuga doir bibliografiya:**

#### **Asosiy manbaalar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma`naviyat, 2008.-174 b.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб / Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртинчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошк: масъул мухаррир В.Раҳмонов/.-Т.:Нашироёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### **Qo'shimcha manbaalar:**

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

### **II. Leksiyani uyushtirish shakllari:**

- 2.1 Auditoriya.** 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'niliishi 1 kursining Psixologiya fani to'g'risida ilmiy tasavvurga ega bo'limgan talabalari.
- 2.2 Leksiya maqsadi.** Psixonaliz maktabi vakillarining tarbiyaga doir qarashlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni hosil qilishdan iborat.
- 2.3 Leksiya vazifalari.** Fanga nisbatan qiziqishni uyg'otish, uni o'zlashtirishga bo'lgan ichki motivatsiyani paydo qilish.
- 2.4 Leksiyani uyushtirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

## **13- mavzu: Psixonaliz maktabi vakillarining tarbiyaga doir qarashlari**

**Reja:**

1. **Psixoanalitik maktablarda odam tabiatiga doir qarashlar mazmuni**
2. **Taraqqiyot bosqichlari xususidagi ta'limotlar mohiyati**
3. **Shaxs taraqqiyoti va uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar**

### **1. Mavllar psixologivasi / libido (shaxvat) nazarivasi (Frejd bo'vicha)**

**Inson:**

- anglangan va g'ayrishuuriy xayollarda (fantaziyalarda) ro'yobga chiqadigan, ilk tajriba doirasida shakllangan ehtiyojlar va xohishlar, - nuqtai nazariga binoan, hamda;
  - xohishlarning aksariyati noma'quldir, - degan nuqtai nazarga binoan ko'zdan kechiriladi;
- ixtiloflar mavjudligi va ularning yechimlari:

- qo'rquv,
- aybdorlik hissi,
- uyat,
- bosim,
- alomatlarni paydo qilish,
- xarakterning patologik chizgilarida - namoyon bo'ladi.

### **2. MYeN (EGO) psixologivasi**

**Inson:**

- adaptatsiyaga qodirligi;
  - voqelikni to'g'ri baholashi;
  - himoyalarga doir jarayonlar;
  - affektlar, tashqi olam, voq'elik talablari, ehtiyojlarning ichki olamiga murojaat qilish - nuqtai nazarlariga binoan ko'zdan kechiriladi.
- Adaptatsiya sohasi taraqqiyotiga doir buzilishlar = «Men (Ego) nuqsonlari»dir

### **3. O'zni tahlil qilish.**

**Inson:**

- uning o'zni subyektiv darajada qanday xis qilishi, uzviylik, baholovchi mulohazalari, subyektiv xolatlarning o'zgarishiga bo'lgan javoblari (reaktsiyalari);
- refleksiya;
- o'zlikning ustivor pozitsiyasi;
- uning differentsiatsiya darajasi (onadan ayrilish);

- uning yaxlitligi / fragmentarligi (parchalanganligi), uzlusizligi / uzuq-yuluqligi darjasи, baholovchi mushohadalari - nuqtai nazariga binoan ko'zdan kechiriladi

#### **4. Ob'ektlarga doir munosabatlar psixologivasi**

**Inson:**

- ob'ektlarga doir munosabatlar nuqtai nazariga binoan (bola tomonidan ushbu munosabatlar qay tarzda his etilgan/his etilmoqda, nimalar xotirada saqlanib qolmoqda-yu, nimalar takrorlanmoqda);
- oiladagi fojealarning takrorlanishi (muhabbatga, ustivorlikka intilish) - nuqtai nazariga binoan ko'zdan kechiriladi.

#### **Taraqqiyot bosqichlari xususidagi ta'lilot**

**Freyd:**

- oral,
- anal-sadistik,
- fallik,
- latent davr,
- genital.

**Abraxam:**

- oral:
  - retseptiv,
  - kannibalistik;
- anal-sadistik:
  - salbiy-buzg'un ko'rinishi,
  - ijobiy-ustuvor ko'rinishi;
- fallik:
- latent bosqich;
- genital.

**Shults-Xenke:**

- intenitsional,
- oral-kaptativ,
- anal-retentiv,
- harakatli-agressiv,
- uretral,
- fallik,
- latent bosqich,
- genital.

**Alohidа bosqichlar analogiyasi (qiyosi)**

- «Ochil, dasturxon» (xalq ertagi ko'zda tutilmoqda) (oral bosqichdagi ehtiyojlarni qondirish uchun dasturxon zarur: anal bosqichidagi egalik qilish, tasarruf etish timsoli sifatida - qaynar xumcha: to'qmoq - harakatli-agressiv – fallik bosqich)

- bosqichlar qatma-qat joylashadi.
- mabodo biron-bir bosqichda buzilishlar yoki og'ishlar ro'y bergan bo'lsa, keyingi bosqichlarning mutanosib o'tishi gumon bo'ladi.

### **3.Shaxs taraqqiyoti va uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar**

#### **Intentsional bosqich**

##### **(bola hayotining ilk kunlari va oylari)**

1. Chaqaloq atrof-muhitni tub sezgirligi orqali idrok qiladi (avtonom nerv tizimi) (sensopatik holat):
  - muvozanat, marom, temp, harakatlar davomiyligi,
  - gavda holati,
  - tebranishlar, mushaklar tarangligi,
  - teri-tana teginishlari,
  - gapirish chog'idagi ovozning tembri va ohangi.
2. Chaqaloq:
  - bir tekis tinchlikka,
  - teri-tana teginishlariga,
  - o'ziga erk berilishiga muhtoj.
3. Chaqaloqda:
  - birlamchi ishonch,
  - rohatlanish hissi,
  - atrof-muhitdan zavqlana olish hissi,
  - olamga yaqinlik hissi,
  - ko'ngil tafti, sevishga qodirlik rivojlanadi.

#### **Ehtimolli buzilishlar sabablari:**

- og'ir xastalik, ona o'limi («ob'ektni yo'qotish»),
- ona tomonidan bo'ladigan adovatli, g'ayr munosabat,
- turar joyini tez-tez almashtirilishi,
- ilk yoshlarini kasalxonalarda o'tkazishi (bolalar uyida, bolalar bog'chasida, yaslilarda).

#### **(Kechki) oqibatlar;**

- hayot mazmunini yo'qotganligidan shikoyat qilishlar,
- suiqasdga moyillik,
- Amaliy masalalarni yecha bilmaslik,
- qotillik qilib qo'yishga moyilligi namoyon bo'lishidan qo'rquv,
- sevolmaslik,
- depersonalizatsiya holatlari (ong parchalanishi, ikkilanishi),
- xususiy Menidan begonalashuv,
- munosabatlar buzilishi,
- somatik alomatlar: teri kasalliklari, birinchi navbatda, surunkali ekzema, sezgi a'zolarining buzilishlari, bronxial astma.

#### **Shizoid tuzilma:**

- birlamchi gumon,
- mustaqillikka o'ta kuchli ehtiyoj,
- samimiylilik yetishmasligi,

- o'zini-o'zi xursand qilishga, qondirishga moyillik,
- o'zini masofada saqlashi, sovuqligi,
- arazchilik.

### **Bundan tashqari;**

- suveren mustaqillik,
- sovuqqon, xolis xulosalar berishi,
- sinchkovlik,
- shaxsiy fikrining mavjudligi,
- sentimentallikning yo'qligi.

### **himoya mexanizmlari;**

- proektsiya,
- izolyatsiya,
- ratsionalizatsiya,
- regressiya,
- parchalanish,
- inkor.

### **Oral bosqich (1,5 yoshga qadar)**

Onaga bo'lган mehrli munosabat asosan ovqatning ahamiyati bilan belgilanadi (ushbu munosabat avvaliga passiv-retseptiv-qabul qiluvchi, keyin esa – kaptativ-faol-ushlab qoluvchi xarakterga ega):

- rohat bag'ishlovchi ob'ekt, libido bilan quvvatlanadi,
- og'iz bilan bog'liq muhabbat («muhabbat oshqozon orqali o'tadi»),
- ushslash hokimiyatga intilishning kuchayishini bildiradi,
- nutq taraqqiyotining davomi,
- diakritik bosqich ibtidosi (begonalardan qo'rqish, sakkiz oylik bolada yuzaga chiqadigan qo'rquv),
- o'zi va boshqalar xususidagi tasavvurlarning farqlana boshlanishi (mehribon/zolim ona – qoniqish/siqilish)

### **Ehtimolli buzilishlar sabablari:**

- ona o'z onalik vazifalarini burchi ekanligi uchungina, nomiga amalga oshirayotganda bola frustratsiyaga uchraydi (siqilib qoladi),
- ko'krakdan kutilmaganda uzilishi,
- uzoq muddat och qolishi,
- bola ona tomonidan rad etilsa,
- bolalar uyida, bolalar bog'chasida, yaslilarda katta bo'lsa,
- ona o'limi,
- o'ta erkalatilganlik («oralnoe iznasilovanie», ya'ni ona hadeb, bo'lar-bo'lmasga ko'kragini bolaning og'ziga solaversa)
- g'alatilik darajasiga boruvchi onaning g'amxo'rliqi.

### **(Kechki) oqibatlar:**

1. Psixik;

- tushkunlik va umidsizlik,
- o'zni ayblastish,
- ojizlik, bo'shashganlik (ertalabki charchoq! Ertalablari avzoi badanining qaqshashi)
- hayotning mazmunsizligi,
- suitsidal xohishlar (odatda, yashirin)

**2. Jismoniy;**

- hayotiy impulslarining pastligi,
- uyqu buzilishi,
- ishtahasizlik yoki yeb-to'ymaslik,
- ertalabki charchoq,
- shaxvoniy loqaydlik (impotentsiyaga qadar),
- angina,
- gastritlar, o'n ikki barmoqli ichak yarasi,
- semirishga yoki ozishga moyillik.

**Depressiv tuzilma;**

- mayllarning chegaralanganligi,
- o'ta kamtarlik,
- ijodiy hayollarning mavjud emasligi,
- olam kulrang tusga kiradi, yashashga undamaydi,
- o'z o'y-hayollariga berilish, hayotdan xayollar olamiga qochish,
- yolg'izlikka intilish («g'alatilar»),
- «podadan oldin chang chiqaradi» ganlar,
- ikkilamchi asabiylik darajasida qulaylikka intilish,
- fidoiylik,
- mazlumlar, tarki-dunyochilar, xayolparastlar,
- o'z kuchiga yetarlicha ishonmaslik,
- sevgi ob'ektini yo'qotishdan o'lguday qo'rqlish.

**Bundan tashqari:**

- jonfidolik, yordamga va g'amxo'rlik ko'rsatishga hamisha tayyorlik,
- toqat qilishni biladigan, sadoqatli insonlar,
- kerak bo'lsa nafsiyi tiya oladigan,
- turmush qiyinchiliklariga oson ko'nadigan.

**Himoya mexanizmlari;**

- identifikatsiya,
- introektsiya,
- siqib chiqarish,
- regressiya,
- proektsiya.

**Anal bosqich (1,5 bilan 3 yoshlar orasida)**

1. Berish zaruriyat mavjudligi bilan rad etish zaruriyat o'rtasidagi, o'zni tuta bilish bilan o'ziga erk berish o'rtasidagi ziddiyatlarga urg'u berilishi.
2. Agressiv impulslerning ilk nishonalar (kimlargadir baqirib berish), o'zboshimchalik va o'zni e'tirof ettirish nimaligini anglash.

3. Tartib, vaqt, tozalik kategoriyalari.
4. Insonda mavjud, «ifoda etsa bo'ladigan», yaratsa bo'ladigan narsalarga ishonch.
5. Xususiy shaxvoniylikni o'rganish tajribasi.

### **Ehtimolli buzilishlar sabablari;**

Tarbiya (tozalikka yo'naltirish) – juda erta, juda jiddiy, o'ta bo'rttirib yuborish darajasida beriladi.

### **(Kechki) oqibatlar:**

#### **1. Psixik:**

- jinsiy buzilishlar,
- duduqlanish,
- sekin harakat qilish,
- aql o'rgatishga moyillik,
- hasislik,
- asabiy qaysarlik (anal fe'l-atvor),
- tortishishni yoqtirish,
- ma'suliyatli amaldor,
- bankir,
- olim

#### **2. Jismoniy:**

- surunkali ich qotish, diareya (ich ketish),
- yarali kolit,
- vaginizm, impotentsiya,
- migren,
- qon bosimi,
- tayanch-harakat apparatining buzilishlari.

### **Yopishqoq tuzilma;**

- hamma narsani oldindan o'ylab qilishi,
- sabab-oqibatlarni bilishga intilish,
- emotsiyonal qashshoqlashuv,
- yangiliklardan, o'zgartirish kiritishdan qo'rquv,
- o'limdan qo'rqish - o'limga g'ayrishuuriy tarzda intilish,
- hamisha shubha bilan yashash, qisman – sohta kamtarlik,
- mutlaqqa moyillik,
- tiriklikni inkor etish,
- shaxsiy xavfsizligini ta'minlashga intilish,
- «daydi» Oliy-Men.

### Bundan tashqari:

- ishonchlilik, ma'suliyatlilik, puxtalik.

### **Himoya mexanizmlari:**

- qilingan ishni bekor qilish,
- reaktiv hosilalar,
- izolyatsiya,
- ko'chirish (diqqatini ahamiyatsiz narsalarga ko'chirish),

- ratsionalizatsiya (mafkurabozlik),
- sublimatsiya (juda erta),
- regressiya (psixoseksual taraqqiyotning bosib o'tilgan bosqichlariga qaytib tushish).

Barcha instinkтив va hayvoniy narsalar vahima uyg'otadi (bakteriofobiya).

**Agressiya:** munozara yuritib o'tirmasdan aytganidan qaytmay turib olish.

Jonli impulslar to'xtatiladi atrofdagilarga ishonchszilik paydo bo'ladi (shaxsiy xavfsizligini ta'minlashga ehtiyoj uyg'onadi) vijdon toza emasday tuyula boshlaydi, aybdorlik hissi aksariyati dingga berilishga olib keladi. **Genetik omillar:** ota yoki ona tomonidan his etiladigan o'limdan qo'rqish, kastratsiya (bichilish) qilinishdan qo'rqish, Oliy-Men vahimasi va vijdon qutqusi.

### Fallik (edipal) bosqich (4-6 yoshlar o'rtasida)

Mazkur bosqichda hal etilishi lozim bo'lgan uchta asosiy masala:

#### 1. Edip kompleksining qayd etilishi;

- bola jinsiga qarama-qarshi jinsdag'i ota-onaning e'tiborini qozonishga intilish,
- voqelik bilan to'qnashuv qo'rquv bilan bog'liq (kastratsiyadan),
- qizlarda – kastratsiya allaqachon amalga oshirilganligi xususidagi tasavvurlar bilan,
- yechim: ota/ona bilan identifikatsiyalashish (Edip komplekini yengib o'tilishi).

#### 2. Jinsiy tafovutlarni ongli his etilishi:

- **Men**-ning sog'lom funktiyasi sifatidagi «doktor-doktor» o'yini,
- pirovardida; o'z taqdiriga tan berish (Freyd: «Anatomiya - bizning qismatimiz»),
- o'z vujudidan g'ururlanish, uyalmaslik.

#### 3. Infantil (bolalarga xos) seksual tadqiqotlar:

- bola qaerdan olinishi xususidagi, tug'ilishlar xususidagi savollar.

### Ehtimolli buzilishlar sabablari:

- oldingi taraqqiyot bosqichlarida buzilishlar o'rinni olgan,
- turmush o'rtog'idan qoniqmagan ota yoki ona uning o'rnini bosuvchi vosita sifatida bolani o'ziga bog'lab olishga harakat qiladi,
- «ko'ngildagi bahoriy iqlim» - bola ikki o't – Ota bilan ona- o'rtasida kuyadi, tarbiya xususida yagona bir tizim mavjud emas,
- bola jinsiga xos ota-onan bolani inkor etadi,
- ota-onan ibrat olsa arziyidigan odam emas, zero o'zlarini ham xali o'z jinsiga xos rolni o'zlashtirmaganlar.

### (Kechki) oqibatlar;

#### 1. Psixik:

- masofa xissining mavjud emasligi,
- hamisha bola (xoh o'g'il bo'lsin, xoh qiz)
- erkaksifat ayol, yalmog'iz ayol, fohisha,

- gomoseksuallik rivoji,
- aka-uka yoki opa-singillariga qattiq bog'lanib qolish,
- xotinboz erkaklar,
- «erkin qalquvchi» xavotir,
- fobiyalar,
- seksual nevrozlar, perversiyalar,
- shaxslararo munosabatlardagi, ishdagi, nikohdagi muammolar.

## **2. Jismoniy;**

- konversiya alomatlari (paralichlar),
- sezgi organlari kasalliklari,
- qo'rquv somatizatsiyasi (ko'ptersh, taxikardiya, nafas olishning qiyinlashuvi, dami qaytishi).

### **Isterik (gistrionik) tuzilma:**

- diqqatning yetishmasligi,
- subyektivlik,
- e'tirof etilish ehtiyojining yorqin namunasi,
- atrofdagilar e'tiborini qozonishga yo'nalganlik (o'ziga bergan bahosi tashqi e'tirof bilan bog'liq, mazkur e'tirof, e'tibor o'zni namoyishkorona tutish bilan qozoniladi),
- voqelikni tan olmaslik (punktuallikka rioya qilmaslik),
- tuyg'ular, kechinmalar sayozligi,
- konversiyaga moyillik,
- rol o'yashga moyillik.

### **Himoya mexanizmlari:**

- Aksariyati ongdan siqib chiqarish,
- konversiya,
- o'zining aybdorlik xissini boshqa birovga proektsiya qilish,
- jiddiy qabul qilmaslik.

### **Genetik omillar:**

Voqelikka nisbatan bo'lgan qiziqish, o'zining xususiy rolini aniqlash chog'idagi kabi omadsizlikka uchragan, pirovardida, Edip kompleksi yengib o'tilmagan.

### **Latent davr (6-10 yosh)**

Libido taraqqiyoti joyida turadi.

Men funktsiyalari taraqqiy etadi.

Bolada maktabda ta'lif olish qobiliyati paydo bo'ladi.

Voqelikni bilishga bo'lgan intilishni qondirish.

Fallik bosqichda shakllangan o'zgalar bilan munosabatlar o'matish qobiliyatidan foydalanish.

Bola ijtimoiy yetuklikka erishadi.  
Maktabda guruhlarga uyushish qobiliyatları vujudga keladi.  
Oliy-Men o'qituvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'ladi.  
Oila davrasidan sinfdoshlar davrasiga o'tish.  
Komil-Men hokimligi.  
Mayllar sublimatsiyaga uchrashi mumkin (yuqoriroq ijtimoiy darajada)  
Jinsiy motivlar ortga chekinadi.  
Bola qanchalar sog'lom bo'lsa, latent davr shunchalar yorqin namoyon bo'ladi.  
Buzilishlar:  
Ovqat xazm qilish buzilishi,  
Siydik tutolmaslik (tungi)

### **Pubertat davr (12-15 yosh)**

Yorqin shaxvoniy siljish,  
Pubertatdan oldingi davr (10 yoshdan):  
Libidoni sezilarli kuchayishi,  
«It»lar qudratini oshishi,  
siqib chiqarilgan mayllar ilgari suriladi.  
Ayrim mayllar dolzarblashuvi (oral ko'rinishlar: ochko'zlik bosqichi, anal ko'rinishlar: isqirtlik bosqichi, aggressiv ko'rinishlar: qaxri qattiqlik)  
Menning siqilib qolishi.  
Ilk suiqasdlarga moyillik, suiqasddan vaximaga tushish.  
Pubertat davr chet og'ishlari: xuliganlar, zoxidlar.  
Xavf: nafs yoki Oliy-men xukmronligi,  
Muhimi: mayllarni qondiruvchi boshqa faoliyat turlari (sport, musiqa, raqs, do'stlik)  
Edip kompleksi dolzarblashuvi:  
Erotik mayl ota-onal o'rmini bosguvchi shaxslarga ko'chiriladi bu o'qituvchi yoki artistlar bo'lishi mumkin.  
Onanizm xamkorona munosabatlarga ko'chmay, nartsissik ko'rinishni saqlab qolsagina patologiya sanaladi.  
Buzilishlar  
Perversiyalar paydo bo'lishi mumkin,  
Psixozlarning birlamchi ko'rinishlarini namoyon bo'lishi,  
Nartsissizm quyidagi shaklda bo'lishi mumkin:  
Yolg'izlik, o'zni inkor etish.

Bola o'rganishi joiz:  
Ota-onalari bilan bo'lgan psixik aloqani uzishni,  
Barcha funktsiyalar yetilib, mustaqillikka erishish,  
Seva olish qobiliyatidan tortib kimgadir yetuk muhabbatni namoyon qilish.

Oliy-menning eng yuqori ko'rinishlari:

Pubertat davri asketizmi: instinktiv qo'rquvni yengib o'tishga qaratilgan himoyaviy jarayon (barcha mayllarni qondirishdan voz kechish, bosh tortish) Intellektualizatsiya: mayllar bilan bog'liq muammolarni hayolan yengib o'tish (iztirobli faylasuqlik orqali hayot mazmunini tushunish)

«It»lar xukmronligi  
ya'ni «it»lar ojiz «men» tomonidan idora qilinmaydi.  
Qattiyatsizlik, oilada emotsional yaqinlik yo'qligi natijasi:  
Bevoshlik,  
Dabdurstdan o'ylamay harakat qiladi,  
Jinoyatchilikka moyillik,  
Narkomaniya.

## 14-mavzu. Psixologik himoya mexanizmlari va xulq-atvor

### I. Psixologiya faniga kirish.

- 1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati: psixologik himoya mexanizmlarining shaxs taraqqiyotiga ko'rsatuvchi ijobiy va salbiy jihatlarini ochib beradi.
- 1.2 Mavzuga doir bibliografiya:

#### Asosiy manbaalar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. -174 b.
2. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб / Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртингчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр: (Насрий баёни билан)//Таҳxир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ; масъул муҳаррир В.Раҳмонов/.-Т.:Нашриёт матбаа бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### Qo'shimcha manbaalar:

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

### II. Leksiyani uyushtirish shakllari:

- 2.1 Auditoriya. 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'nilishi 1 kursining

Psixologiya fani to‘g‘risida ilmiy tasavvurga ega bo‘lmagan talabalari.

- 2.2 **Leksiya maqsadi.** Talabalarda maishiy va ilmiy psixologik bilimlar mavjudligini tushuntirib, ularni bir-birlaridan farqlash mezonlari bilan tanishtirish; psixologik bilimlar tayanadigan prinsiplar mohiyati va mazkur prinsiplarning fanni tushunishdagi o‘rnini ko‘rsatish; fan vazifalari va tadqiqiy metodlari to‘g‘risida ilmiy tasavvurlarni hosil qilishdan iborat.
- 2.3 **Leksiya vazifalari.** Fanga nisbatan qiziqishni uyg‘otish, uni o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki motivatsiyani paydo qilish.
- 2.4 **Leksiyani uyushtirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

### III. Leksiya mazmuni

5. Reja va leksiya mazmunining konspekti.
6. Tizimlilik, izchillik, tushunarllilik, ko‘rgazmalilikni ta’minlaydigan o‘quv vositalari va didaktik usullar (konspektda ko‘rsatib o‘tiladi).

## 14- mavzu: PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI VA XULQ-ATVOR

### REJA:

1. **Himoya mexanizmlari to‘g‘risida umumiylashtirish**
2. **Himoya mexanizmlari ko‘rinishlari**

**ID (ko‘chma ma’noda «it» desa ham bo‘ladi) tomonidan tabdidlarga uchraganda MeN o‘zini qanday tutadi?**

#### Himoya mexanizmlari

(Id qo‘rquvni susaytirmoqchi, qo‘rquvni bartaraf etmoqchi yoki uni yengib o‘tishga harakat qilmoqchi bo‘lgan Menning funktsiyalari):

ID dan mayllar bosh ko‘tara boshlaydi

EGO qo‘rquvdan va noqulaylikdan hamisha himoyalanadi  
motiv (mayl, affekt) frustratsiyasi ro‘y beradi

qo‘rquv paydo bo‘ladi

qo‘rquv himoyaviy javob reaktsiyasini uyg‘otadi

himoya mexanizmlari ishga tushadi

- himoya mexanizmlari mayl uyg‘otuvchi motivlarga qarshi ta’sir ko‘rsatadi.
- himoya mexanizmlari normal hodisadir, biroq ular:
  - voqelikdan uzilishga olib keladi,
  - kuch-quvvatni yo‘qotishga,
  - fe’l-atvordagi noxush o‘zgarishlarga,
  - somatik buzilishlarga.
- Himoya mexanizmlari qo‘rquvdan ozod etadi-yu, insonni erkidan jonliligidan mahrum qiladi.

**Misol.** Bola shkafga berkitib qo‘yilgan pecheneni yemoqchi.

**«It»:** «Men pechene yemoqchiman», - deydi. Shkaf berk. Bolaning ko'ngli bezovtalana boshlaydi va agressiya bilan javob qaytaradi:

- Jahl qilib shkafning eshigini mushtlaydi,
- ota-onasi bu paytda pechene yeishni ta'qiqlaganliklari to'Qrisida o'ylaydi (ular nima deyishadi?),
- o'z diqqatini boshqa narsalarga ko'chiradi.

Mazkur vaziyatda eng yetuk reaktsiya: shkafning kalitini topib uning eshigini ochish yoki ota-onasidan ruhsat so'rashdir.

### **Siqib chiqarish (ongdan)**

- izolyatsiya va inkor etish.
- ko'rishni ham, bilishni ham istamaslik («ko'rmayin ham, kuymayin ham») – pirovardida o'zini ham olamni ham anglashda kamchiliklar (oq dog'lar) yuzaga tashlanadi; natijada:
  - yanglish mulohazalarda,
  - yanglish intiqliklarda,
- siqib chiqarilgan impulslarga betizgin tashqari chiqish imkonini beradigan nevrotik simptomlarda namoyon bo'ladi – reallikni idrok qilishdagi cheklovlar vujudga keladi («qisman emotsional to'porilik»).

### **anglash maqsadi:**

- impulslarni idrok qildirish,
- ular bilan o'zaro munosabatlarga kirishtirish,
- asl inkor yoki asl xatti-harakatga nisbatan qaror qabul qildirish.

**Misol;** bola pechene umuman mayjud emasday o'zini tutadi, u voqelikni «o'chirib» qo'yadi, qisman inkor etadi, pecheneni uni yeish xohishidan alohidalashtiradi (izolyatsiyalaydi).

### **Identifikatsiya:**

- tashqi motivlar interiorizatsiyasi, xususan o'zinikiday ko'zdan kechirila boshlanadi,
- motivlarning asl sohibi bilan identifikatsiyalashadi,
- identifikatsiya qanchalar erta ro'y bersa u shunchalar barqaror va individual ko'rinishga ega bo'ladi.

**Normal holat:** rolli o'yinlar orqali amalga oshadigan identifikatsiya, ya'ni kattalar olami bilan tanishishda. Nevrotik identifikatsiyadan farqli o'laroq bunday jarayon xohlagan mahalda to'xtatilishi mumkin.

- qisman identifikatsiya: kechki (isterik ko'rinishdagi), unchalar ham qat'iy belgilanmagan bo'ladi.
- total identifikatsiya: intentsional, oral bosqichlarda ro'y bergen bo'lib anchalar barqaror va mustahkam.
- sintez va assimilyatsiya yordamida Men o'zini chetlashtirish imkonini bo'Imagan narsadan himoyalanadi.

**Ijobiy tomoni;** identifikatsiya himoya mexanizmlaridan foydalanimagan xolda, muhabbat natijasida ro'y beradi.

Misol; bola, hozirda ishda bo'lgani sababli, pechene yeish imkoniyatidan mahrum onasi bilan o'zini identifikatsiya qilib o'z xohishidan voz kechadi. Bola onaning faoliyatiga taqlid qilgan holda, uning rolini o'ynay boshlaydi.

### **Proektsiya**

- bezovtalik tug'dirayotgan impuls tashqi olamga ko'chiriladi; inson o'zining xohish va mayllarini birovlarda ko'ra boshlaydi.
- Oliy Men va Id impulsleri Mendan emas atrofdan kelayotganday idrok etiladi.
- Oliy Men impulsalarini proektsiyasi ro'y berayotganda boshqa birov o'zidagi aybdorlik xissi orqali idrok qilinadi.
- Idlar impulsalarining proektsiyasi toqatsizlikda va fanatizmida o'z aksini topadi (individ o'zi qilishni istagan harakatlarga nisbatan)

**Ta'siri.** Men ta'qiqlangan impulsdan himoyalanadi - haqiqatga mos qaror topilmay qoladi – voqelik buzib idrok etila boshlaydi (tashqi olam yovuzlashadi, bu xol, o'z navbatida, yana qo'rquvni yuzaga keltiradi, natijada nevroz alomatlari paydo bo'ladi, u esa vasvasaga olib kelishi mumkin).

- Oral impulslar proektsiya qilinganda; olam g'am-tashvishlar manbaiga aylanadi, odamni bosib qo'yayotganday bo'ladi (depressiv idrok).
- seksual impulslar proektsiya qilinganda; ishqiy alahlash, munosabatlar vasvasasiga muftalo bo'lishi mumkin.
- aggressiv impulslar proektsiya qilinganda; olam tajovuzkor tuyuladi.
- Intentsional xohishlar vaziyatida; olam odamni inkor etayotganday, sig'dirmayotganday idrok etiladi.

### **Proektsiya evaziga to'lanadigan badal**

- voqelikni idroki buziladi (odam haqiqatda mavjud bo'limgan narsalarni o'ylab topadi).
- olam yovuzlashadi (qurquv uyg'otadi).
- odam jamiyatdan qocha boshlaydi (o'zi bilan o'zi andarmon bo'lib qolish natijasida **Men** yemirilishi mumkin)

**Misol.** Bola pechenega qaratilgan o'z impulsalarini his qilmaydi, u qo'g'irchoq pechene yemoqchi deydi va o'z impulsalarini qo'g'irchog'i yordamida qondiradi. U qo'g'irchoq bilan «mehmon-mehmon» o'ynaydi yoki «Senga hozir pechene yeish mumkin emas, tishlaringni qurt yeyishi mumkin» deb qo'yadi (Oliy Men impulsalarining proektsiyasi)

### **Regressiya.**

Mayllar noqulaylik, yoqimsiz hislar tug'dirgan paytda taraqqiyotning ilk bosqichlariga qaytish ro'y beradi.

Regressiya yuzaga chiqishi uchun oldingi bosqichlarda fiksatsiya amalga oshgan bo'lishi lozim.

### **Fiksatsiya qanday paydo bo'ladi:**

Taraqqiyotning muayyan bosqichida turg'unlik bo'lib bu hol birdaniga uzilib qoladi.

Taraqqiyotning muhim bosqichi chinakamiga amalga oshmagan (qolib ketganlarini o'zlashtirish zaruriyati mavjud).

Regressiya asosan siqib chiqarish bilan birga yuzaga chiqadi (ayniqsa seksual sohaga doir, chunki ayrim impulslar perversiya (buzilish) sifatida ko'zdan kechirilgan bo'ladi)

Regressiya simptomlari: tirnoq g'ajish, uyquda bavl qilib qo'yish, onanizm.

Regressiya qachon ro'y beradi

Transfer (ko'chirish)da.

Hayollarda.

Orzularda.

Regressiv fantaziyalar haqiqatni yo'qqa chiqaradi

Mushkulotlarni inkor etish imkonini beradi.

Kundalik turmushdan qochish imkonini beradi.

Analiz paytida juda kech aniqlanadi, chunki individ ulardan uyaladi/ ulardan voz kechishni istamaydi.

Regressiya obsessiv nevroz ga uchragan bemorlarda eng ko'p kuzatiladi.

Normal regressiya

San'at va dinda

Hazil-mutoyibalarda.

Xordiqda.

Tushlarda.

Diniy kechinmalarda:

Regressiya butkul "Men"ni qamrab olmaydi.

"Men" regressiya qurboni emas.

Kundalik hayot buzib idrok etilmaydi, balki ma'noga to'ladi.

Misol

Pechene olmayotgan bola chekinadi, barmog'ini so'ra boshlaydi, allaqachon unutilgan o'yinchog'larini o'ynay boshlaydi.

Bilvositalanish

Ijtimoiy doiralarda ixtilof tug'dirayotgan impulslar (odatda, agressiv), unga haqiqatan taalluqli kishidan uning o'rmini bosuvchi (ramziy ma'noda, shuningdek, kam tahdid tug'diruvchi sifatida idrok etiluvchi) boshqa bir insonga ko'chiriladi.

Faqatgina "Men" uning nimaligini belgilaydi: haqiqiy ob'ektmi yoki uning o'rmini bosuvchi; Id va Super-Ego impuls qondirilishiga intiladilar xolos.

Alamini kimdandir olish.

Kimnidir ayblastash.

Fobiylar.

Obsessiv nevrozda maydalashmoq.

Anglanmas aybdorlik hissi ahamiyatsiz narsalarga ko'chiriladi.

Aksariyatda shizoid shaxslarda kuzatiladi.

Misol

Pechene yeya olmayotgan bola alamini qo'g'irchoqlaridan oladi.

**Reaktiv hosila.**

Yoqimsiz hislarni uyg'otayotgan impulslar qarama-qarshisiga aylanadi.

Super-Ego juda ham kuchli bo'lishini taqozo qiladi.

Idlarning ta'qiqlangan impulslarini nazorati natijasida Super-Ego jazolash motivini ishga tushiradi, o'z navbatida, "Men" jazolanmaslik uchun qarama-qarshi reaktsiyani paydo qiladi (muhabbat izhori nafrat oqibati sifatida, qo'rquv o'rniga jasorat, agressivlik o'miga )

Yoqimsiz hislarni uyg'otayotgan impulslar qarama-qarshisiga aylanadi.

Super-Ego juda ham kuchli bo'lishini taqozo qiladi.

Idlarning ta'qiqlangan impulslarini nazorati natijasida Super-Ego jazolash motivini ishga tushiradi, o'z navbatida, "Men" jazolanmaslik uchun qarama-qarshi reaktsiyani paydo qiladi (muhabbat izhori nafrat oqibati sifatida, qo'rquv o'rniga jasorat, agressivlik o'miga )

Giperkompensatsiya mexanizmini eslatadi.

Obsessiv nevroz va isteriya bilan og'riyidan bemorlarda ko'p uchraydi.

Pecheneni yeya olmayotgan bola "mening pechene yegim kelmayapti", deydi va qo'g'irchog'iga: "Sening pechene yeging kelyaptimi", deydi. (reakтив hosila va bilvositalash)

### Konversiya

Mijoz ro'yobga chiqara olmaydigan "Id" yoki "Super-Ego" xohishi somatik simptomga aylanadi

Mazkur simptom xohishni ramziy ma'noda aks ettiradi. "Men" izolyatsiya orqali himoyalananadi.

Somatik psixik hodisaga yo'ldosh bo'lish o'rniga uning o'rmini egallaydi.

Isteriyada ko'p uchraydi.

### Misollar

"Isterik yoy": seksual xohishlar.

Xolsizlik va paralich: yashashga haqqi bo'limgan fidoiylikka intilish.

Psixogen so'qirlig: poylash xohishidan himoya (seksual, agressiv, kaptativ)

Qo'l mushaklarining paralichi: "Id"ning anglanmagan xohishlariga qarshi kurash, Super-Ego ta'qiqi.

Tomoqqa nimadir tiqilishi: oral-agressiv xohishlardan himoya.

### Ratsionalizatsiya

Asl motivlar anglanmagan haqiqiy bo'limgan motivlarga aylanadi, intellektual oqlash.

Ekzistensial o'z-o'zini himoya qilish maqsadida yuzaga keladi

Mafkura ratsionalizatsiya asosiga quriladi.

Har qaysi nevrotik xolatning o'z mafkurasi mavjud:

Depressiya: kamtarlik, zuxd, sabr.

Isteriya: jonlilik, o'zgarishlarga moyillik.

Obsessiya: tozagirlik, mulozamat.

Mafkura aqidalar negiziga quriladi (o'ziga bino qo'yish imkonini beruvchi).

### Nevrotik dindorlik

Yomon xatti-harakatlardan Allohdan mukofot kutish evaziga tiyilish.

Savol berish kabi tabiiy xohishlarga ta'qiq qo'yish: dinga xavf tug'diriradi.

Seksual hayot reglamentatsiyasi.

### Nevrotik falsafa

Subyektiv kechinmalar mutlaq haqiqat sifatida ilgari suriladi.

**Reallikni kuzatmaydi.**

Hokimiyat va e'tirof etilish xohishlarini noadekvat his qiladi.

Pechene yeishni istayotgan bola uni bemaza, shuningdek, tishlarga zarar yetkazuvchi deydi.

### **Sublimatsiya**

Ijtimoiy noma'qul impulslar ijtimoiy ma'qul ko'rinishga o'tkaziladi.

Bilvositalashga monand.

Bosqichlarga boqliq impulslar:

Oral: gapirish.

Kaptativ: eshitish, o'qish, taassurotlar yig'ish.

Anal: rasm chizish, kasb-korlik, xunarmandlik.

Agressiv: sport.

Seksual: homiylik, pedagogika.

Patologik ko'rinishlar

Hayotdan qochishga moyillik.

"Avliyosifatlik", o'xshatish.

Chidamsizlik, kasalmandlik.

Egotsentrizm, nartsissizm.

Pechene yeishni istayotgan bola o'z xohishlarini bekorchilar mamlakati to'g'risidagi ertak bilan, kitoch o'qish bilan, musiqa eshitish bilan chiroyli qilib bezaydi.

### **Parchalash**

Noma'qul sanalgan xohishlarni alohidalaydi. Keyinchalik siqib chiqarish bilan almashinadi.

Parchalanish "Men" zaifligi natijasida yuzaga keladi.

### **Alomatlari**

Mijozlar qarama-qarshi xatti-harakatidan azob chekishadi.

Impulslar turib-turib namoyon bo'ladi.

Tashqi ob'ektlarni mutlaq yaxshi va mutlaq yomonlarga ajratadi.

U hamisha boshqa himoya mexanizmlari bilan birga namoyon bo'ladi.

### **Inkor etish**

Mavjud voqelikni inkor etish orqali namoyon bo'ladi.

## **15-mavzu. Alisher Navoiy va ta`lim-tarbiya**

### **Reja:**

- 1. Alisher Navoiy shaxsi xususida**
- 2. Alisher Navoiy ta`lim va tarbiya xususida**

### **Alisher Navoiy shaxsi xususida**

Necha asrlardirki, buyuk shoir va ulug' mutafakkir Alisher Navoiy hazratlarining mo''tabar nomlari butun dunyo taraqqiyatiga kishilarining tilidan tushmaydi. Ko'hna tariximiz ulug' zotlarni ko'p ko'rgan. Millatimiz uchun Alisher Navoiy buyuklarning buyugi, millatimiz timsolidir.

Alisher Navoiyning tarjimai hollarini o'qir ekanmiz, butun umrlari davomida yetim-esir, beva-bechora, nogiron va muhtojlarga muruvvat ko'rsatib kelgan, el-yurt uchun o'z hisobidan maktab-madrasalar, shifoxona va hammomlar, yo'l va ko'priklar, bog'-rog'lar bunyod etgan, ilm-fan va madaniyat ahlining chinakam homisi bo'lgan bu benazir zotning ezgu ishlariga guvoh bo'lamiz.

Navoiy o'z jamg'armasi hisobiga Hirotda va butun mamlakatda juda ko'p binolar, madrasa, shifoxona, karvonsaroy, ariq, ko'prik, yo'llar barpo etdi. Hirotdagi "Ixlosiya" madrasasi, uning qarshisidagi "Xalosiya" xonaqohi, Injil arig'i bo'yidagi "Masjidi jome'", tib ilmi o'qitiladigan "Shifoziya" madrasasi, "Nizomiya" madrasasi, Marvdagi "Xisraviya" madrasasi, Hirotdan tashqarida "Raboti ishq", "Raboti Sang", shoir Faridindin Attor qabridagi maqbara, Nishopur atrofidagi joylardan biridagi "Raboti yazdboz", Gulast bulog'idan Mashhadga tortilgan ariq (uzunligi 70-80 km) va boshqa juda ko'p inshootlarni Navoiy bino qildirgan. Tarixchi Xondamir shulardan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik, 3 hammom, ko'pgina to'g'on va masjidlarni nomma-nom keltiradi. Bunday inshootlarning soni 300 dan ortiqroqdir. 1500 yili Hirotda shahri va uning atrofidagi aholidan 100 ming kepakiy soliq yig'iladigan bo'ldi. 50 ming kepakiysini Hirotda aholidan undirib olish kerak edi. Bu maslahat Navoiyga xabar qilinganda u hozirgi fursatda xalqqa o'rinsiz soliq solish Sulton Husayn Boyqaro davlatiga munosib bo'lmash, elda norzilik uyg'otar, deb shuncha pulni o'zi to'lab yubordi. Xalq bundan minnatdor bo'lib, uni duo qildi.

Alisher Navoiyning butun yer-suvi, mol-mulkidan har kuni 18 ming shohruhiy dinor miqdorida daromad kelar, bu pullar yuqoridagi kabi xayrli ishlarga sarf etilar edi.

Bundan tashqari Alisher Navoiy yuzlab shoir, olim, shifokor, hattot va ziylolarga o'z hisobidan maosh to'lab, kerakli ilmiy-ijodiy maslahatlar va zaruriy sharoitlar yaratib bergen. Masalan: Navoiy o'zining Sulton Husayn Bayqaro saroyidagi amaldor (muhrdor, amir, vazir) bo'lgan davrida ilm ahliga ko'p homiylik qildi. Shu jumladan, XV asrning ikki buyuk tarixchisi – Mirxon (1433-

1498) va Xondamir (1475-1535)ga ham moddiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatdi. Masalan, o'zining huzur-halovati uchun mo'ljallangan "Xalosiya" xonaqohidagi maxsus xonani mavjud shart-sharoiti va kitoblari bilan Mirxondga ajratib beradi. O'rta Osiyo xalqlari tarixi uchun g'oyat muhim manba bo'lib xizmat qiladigan "Ravzat us-safo" asarini Mirxond Navoiyning ham moddiy, ham ma'naviy ko'magi bilan yozgan.

"Shunday bir tarix kitobi tartib qilinsinki, - deb nasihat beradi ulug' shoир tarixchiga, – uning iboralari majoz, istiora, kinoya va boshqa murakkabliklarga o'ralmagan bo'lsin, sodda, har kim ham tushuna oladigan, qisqa va mo'jaz bo'lsin. Kitob bir muqaddima 7 qism va bir xotimani o'z ichiga olsin, har bir qism mustaqil bir kitob shaklida bo'lsin, o'quvchi u qismlardan birini o'qiganda boshqa qismlarni varaqlab ko'rishga majbur bo'lmasin..."

Xondamir ma'naviy kamolotida ham Alisher Navoiy hazratlarining hissasi naqadar ulkan ekanligini Xondamirning "Makorim ul-axloq" asari muqaddimasidagi quyidagi fikrlardan bilib olsak bo'ladi: "...O'tkir ko'z egalarining huzurida maxfiy yashirin qolmasinki, sharaf va ulug'lik osmonining quyoshi, dunyo buyuklarining peshvosi yaxshi xulqlar manbai... ilm va irfon egalarining namoyandasi, tahqiq va ishonch ahllarining qiblasi, xoqon davlatining tayanchi va hazrati sultonning yaqini, faqirlikka boyu, himmatga botir, oliy hazrat nizomulxaq valhaqiqat vad-dunyo vaddin amir Aisherning... uzluksiz mehribonchiliklari shu'lasi, iltifot va g'amxo'rliklari ostobi Xondamir deb shuhrat qozongan faqir banda va haqir zarra G'iyosiddin ibn Humomiddin boshiga toblandi, balki vujudining niholi yosh chog'idan to yigitlik davrining oxiriga qadar ul hazratning lutfu ehson ariqlari yoqasida o'sib undi".

Xondamir o'zining "Makorim ul-axloq" asarida Mirxondning "Ravzat us-safo" hamda o'zining "Maosir ul-muluk", "Xulosat ul-axbor" asarlari Navoiyning iltifoti soyasida yuzaga chiqqanini ta'kidlab o'tadi. Olim buyuk shoирning tapshirig'iga asosan "Xulosat ul-axbor", "Dastur al-vuzaro" "Maosir ul-muluk", asarlarini yozadi. Bu asarlarda O'rta Osiyo xalqlari tarixi, ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotiga bog'liq ko'plab qimmatli tarixiy ma'lumotlar mavjud.

Alisher Navoiy ijodlarini o'rganar ekanmiz, saxiylik, ehson, karam, muruvvat umumiylar qilib aytganda ijtimoiy himoya masalalariga ko'p bora duch kelamiz. Saxiylik – hammaga ma'lumki, xasislikning aksi, aniqrog'i, kishining o'zida borini birovdan ayamasligiga asoslangan fazilat. Ehson avvalo o'ziga to'q kishidan kutiladi. Bu haqda Hazratning "Mahbub ul-qulub" asarida o'qiymiz: "Har bir davlatmand tirikligida xayr-ehson qilib odamlarni xursand qilmagan ekan, o'lganidan keyin uni hech kim duo bilan yod etmaydi. Ehson – tiriklikda yaxshi nom qoldirmoqdir".

Alisher Navoiyning fikricha, ehson – yomonliklarni tusib turuvchi qurg'on. Xuddi shoh Iskandar kishilarni odamxo'r maxluqlar – ya'juj-ma'jujlardan saqlash maqsadida baland va mustahkam devor qurbanidek: "Ehson degan sifatni abadiy saodat deb, uni fitna va ofat ya'jujini daf qilish uchun qurilgan bir to'siq deb bil. Insoniyat bog'ining eng go'zal daraxti ehsondir. Va odamiylik xazinasining eng bebahohi gavhari ham ehsondir. Barcha yoqimli sifatlar va tahsinga loyiq ahvollar

ehson natijasidir va ehson tufayli yuzaga kelgandir. Barcha yaxshiliklarning jami ehsondir va barcha yaxshiliklar haqiqatdan undandir” (Mahbub ul-qulub).

### Alisher Navoiy ta’lim va tarbiya xususida

Alisher Navoiy ma’naviyati insonning ma’naviy kamoloti uchun xizmat qiladi. Navoiy qahramonlari orasida komil inson darajasiga yetganlari ham talaygina. Komillikdagi eng birinchi belgi halollik va poklikdir. Shoir o’z asarlarida inson kim bo’lishidan qat’iy nazar, halol va pok bo’lishi kerak, deydi. Alisher Navoiy orzu qilgan halol va pok inson nafaqat tashqi qiyofa, balki ichki ma’naviy qiyofaga ega bo’lgan insonlardir. Masalan, Farhod, Iskandar, Majnun, Suhayl, Navfal, Shirin, Layli, Dilorom va boshqalar halollikning timsollaridir. Alisher Navoiyning insonparvarlik, halollik, to’g’rilik, muhabbat, sadoqat, mardlik, oljanoblik, saxiylik va bag’rikenglik to’g’risidagi axloqiy qarashlari yuqorida ta’kidlangan qahramonlar hayotining mazmunidir. Alisher Navoiy umuman inson ma’naviy kamolotini axloqiy qarashlarsiz tasavvur ham eta olmaydi. Uning ijodida ma’naviy kamolotga erishgan komil inson obrazlaridan biri Farhoddir. Farhodning fe’l-atvori, yurish-turishi, faoliyati, tashqi va ichki dunyosida mukammal insonga nimaiki xos bo’lsa barchasi mavjud. Ilmga chanqoqlik, mehnatsevarlik, insof, halollik, poklik, kamtarlik, himmat va fidoyilik, ota-onaga hurmat, toju taxt, davlat va boylikka ruju qo’ymaslik singari fazilatlarning barchasi barkamol insonga xosdir. Farhodning pokligi haqida shoirning o’zi shunday deydi:

Demonkim, ko’ngli pok ham ko’zi pok,  
Tili poku, so’zi poku, o’zi pok.  
Aningdek, tiynati pokiga loyiq,  
Duosin aylabon pokи xaloyiq.

Inson komillikka intilar ekan, tinimsiz mashaqqatli mehnat qilishi kerak. Farhod ana shunday mashaqqatli yo’lni bosib o’tadi. O’zi sevgan Shirinni izlab Armaniyaga boradi. Suv olib o’tish uchun naqadar og’ir mehnat qilayotgan kishilarni ko’radi. Faqatgina Shirin uchun emas, balki xalq uchun suv g’oyatda zarur ekanligin anglagan Farhod o’zining butun hunarini ishga soladi. Tog’ni kesib suv olib keladi. Juda ko’p hunarlarning egasi bo’lgan Farhod:

Hunarni asrabon netgumdir oxir,  
Olib tuproqqami ketgumdir oxir? – deydi.

Farhod o’zida ma’naviy komillik bilan birga jismoniy barkamollikni ham ifoda etgan. Xalq bilan hamnafasligi, hamisha elu yurt xizmatiga kamarbastaligi, o’z ilmu hunarini odamlarning og’irini yengil qilish, ularning farovonligi, baxtu-saodatini ta’min etishga sarflashi buning dalilidir.

Inson komillikka intilar ekan, zinhor bu intilishning oxiriga yeta olmaydi. Shu bois men komilman, kamolotga erishdim degan odam xato qiladi. Inson faoliyat yuritar ekan, shubhasiz, nuqson va kamchiliklar ham sodir etadi. Ammo shu nuqsonu kamchiliklarni tushunib, tuzatib, ularni takrorlamaslikka harakat qiladigan kishilar komildir. Bu haqda Alisher Navoiy shunday degan:

Noqis uldirkim, o’zin komil degay,

## Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.

Inson kamolotiga chek-chevara yo'q. Muttasil kamolot sari intilmoq taraqqiyot boisidir. Xo'sh, bugun inson komillikka intilib yashashi mumkinmi? Albatta, mumkin. Ayniqsa, endi mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlar insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, to'g'rilik, muhabbat, sadoqat, kattaga hurmat, kichikka izzat, ota-onani e'zozlamoq, bilimga intilmoq, ozodalik, shukronalik kabi fazilatlarni o'zlarida mujassam etsalar yoki o'z hayotlari davomida ana shu yuksak insoniy fazilatlarga qarab intilsalar, albatta, ma'naviy kamolotga erishadilar. O'quvchi va talaba-yoshlar Alisher Navoiyning barcha asarlari, shu jumladan, "Xamsa" asaridagi besh doston qahramonlari hayoti va faoliyatini o'rgansalar juda katta ma'naviy komillik nizomini anglab yetgan bo'lur edilar.

Alisher Navoiy she'riyati mumtoz, betakror she'riyatdir. Allomaning mumtoz g'azallari, ruboilyari besh asrdan buyon insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qilib kelmoqda. Insonlarni, shu jumladan, o'quvchi talaba-yoshlarni insonparvarlikka, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, to'g'rilik, muhabbat va sadoqat, ota-onani e'zozlamoq, bilimga intilmoq kabi fazilatlarga yetaklashga xizmat qilib kelmoqda. Zero, Alisher Navoiy ijodi bebahohuyuk merosdir. Bu "Ma'nolar xazinasi"ning barchasini bir vaqtning o'zida mukammal o'rganishning iloji yo'q. Shuning uchun kishilarni ma'naviy kamolotga chorlaydigan Alisher Navoiyning hikmatlaridan ba'zi bir namunalarini keltiramiz:

### O'quvchi va talaba yoshlar o'qish, yod olish, anglash va amal qilishlari uchun Navoiy hikmatlaridan namunalar

Naf' ing agar xalqqa beshakdurur  
Bilki, bu naf' o'zungga ko'prakdurur.  
\*\*\*

Ilmni kim vositayi joh etar,  
O'ziniyu xalqni gumroh etar.  
\*\*\*

O'z vujudingga tafakkur aylagil,  
Har ne istarsen, o'zungdin istagil.  
\*\*\*

Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,  
O'zingga ravo ko'rmaganni ravo.  
\*\*\*

Odami ersang demagil odami,  
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.  
\*\*\*

Menga ne ishqqu, ne oshiq havasdur,  
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur.  
\*\*\*

Yuz jafo qilsa manga bir qatla faryod aylamon,  
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

\* \* \*

Kimki kishi o'lmaidan shod erur,  
Go'rkanu g'osilu jallod erur.

\* \* \*

Bordur inson zotida oncha sharaf, —  
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.

\* \* \*

Xush durur bog'u koinot guli,  
Barchadin yaxshiroq hayot guli.

\* \* \*

Bu gulshan ichraki, yo'qdur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot.

\* \* \*

So'zda, Navoiy, ne desang chin degil,  
Rost navo nag'maga tahsin degil.

\* \* \*

Kimniki inson desang, inson emas —  
Shaklda — bir, fe'lida — yakson emas.

\* \* \*

Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon,  
Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon.

\* \* \*

Kimki jahon ahlida inson erur,  
Bilki, nishona anga iyomon erur.

\* \* \*

Navoiy, chu g'urbatda sen shod bo'l!  
Vatan yodi ranjidan ozod bo'l!

\* \* \*

Gar oshiq esang, zebu takallufni unut,  
Yaxshiyu yamon ishda taxallufni unut.  
O'tgan gar erur yamon — taassufni unut,  
Kelgan gar erur yaxshi — tasarrufni unut.

\* \* \*

El qochsa birovdin, el yamoni bil oni,  
Ahvolida idbor nishoni bil oni.  
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,  
Olam elining yamon-yamoni bil oni.

\* \* \*

Kamol et kasbkim, olam uyidin,  
Sango farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.  
Jahondin notamom o'tmak biayni,  
Erur hammomin nopok chiqmoq.

\* \* \*

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

\* \* \*

Onalar oyog'i ostidadur  
Ravzayi jannatu jinon bog'i.  
Ravza bog'i visolin istar esang,  
Bo'l onaning oyog'in tuprog'i.

### MAHBUB UL-QULUBDAN TAVOZYe VA ODOB TO'G'RISIDA

Tavoze — kishiga xalqning muhabbatini jalb qiladi, odamlarni u, bilan do'tslashtiradi. Tavoze — do'tslik gulshanida toza gullar ochadi va gulshanda oshnalik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochadi. Tavoze — takabbur muxolifga muloyimlik va kamtarlik yo'lini ko'rsatadi; gerdaygan dushman ko'nglida insoniylik zavqini qo'zg'atadi. qayta-qayta ko'rsatilgan tavoz—hayosiz takabburni uyat chegarasiga tomon yo'llaydi va haddan tashqari insofsiz dushmanni yomonlik qilishdan qaytaradi.

Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdar kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o'z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq, hech qanday ehson bermay, kattadan-kichik, hammani shod qiladi; hech qanaqa hadya qilmay, kishilarning g'amini tarqatadi,

Odob—kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladir. Odob—ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvori odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq uitug'verlik ko'radi.

Odob—kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni hazil-mazahdan, kansitilishdan saqlaydi. Odob—odam tabiatiga insoniylik baxsh etadi va kishi mijoziga odamiylik manzilida orom beradi.

Odobdan kichiklarga shunchaiikfoyda yetadigan bo'lsa, kattalarga nechog'liq ekanini tasavvur qiling. Odob va tavoze—mehr-muhabbatning zebziynatidir; odobsizlik — do'tslikka putur yetkazadi. Odob va tavoze do'tslik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug'lik bag'ishlaydi.

Tayoze va odob egalariga hamma ta'zim qiladi va hurmat bildiradi. Odob urug'ini ekkan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'tsligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatni borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob va tavoze kabi yaxshi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi. Do'tslar orasida shu kabi suhbat va shu yo'sinda hamjihatlik bo'lsa, qanday yaxshi! Bunday ahil, ittifoq, muhabbatli, odobli bo'lish—do'tslar uchun baxtiyorlikdir.

H ikoyat:

Rivoyat qiluvchi roviylar shunday hikoya qiladilariki, bir ov paytida yeldek ot choptirish davrida Xusrav Parvezning shohlik tojidan porloq gavhar yo'qoladi. Hammaning xayoli ov mojarosi bilan band bo'lgani tufayli, buni hech kim sezmay qoldi. Ovdan keyin Madoyinga qaytadilar. Shundan so'ng, toj gavhari tushib qolganini biladilar. Xaloyiqqa jar soladilar, u noyob gavharni qidira boshladilar. Chunki, podshoh tojining u ziynati mamlakat xirojiga teng edi. Shuning uchun uni topib keltirgan kimsaga juda katta in'om va mukofot va'da qilindi.

Xalq u biyobonda gavharni topish va in'omga ega boiiish orzusi bilan ovora edi. Ittifoqo, biri g'ofil va biri ogoh ikki hamrohga uchraydilar. G'ofil—johilligi sababli gerdaygan, ogoh esa, tavoze va odob tufayli ulug'vor edi. Bulardan birining oti jahongashta Mudbir, ikkinchisining oti yigitlar mardi Muqbil edi. Ular shu biyobonni kechib o'tib, shaharga borish niyatida dashtda kezar edilar. Bular, nihoyat, haligi inju axtarib yurgan odamlarga yoiqdilar va ularni boshlab chiqqan boshliq bilan uchrashdilar. Mudbir takabburlik qilib, u odam bilan salom-alik qilmay, gerdayib o'tib ketdi. Muqbil esa insoniylik yuzasidan u odamga odob va tavoze bilan engashib salom berdi va shu onda oyog'i otsida tushib yotgan gavharni ko'rди va darhol olib, o'pib, hurmat bilan boshliqqa taqdim etdi. U esa, va'da qilingan mukofotning mutasaddisi edi. U Muqbilni o'zi bilan olib sha-harga qaytdi va bo'lib o'tgan voqeani Xusrav qoshida bayon etdi. Xusrav Parvez xushhol va shod bo'ldi. Muqbilga tashakkurlar izhor qilgani holda, haddan ziyoda ehson bilan uni mukofotladi.

Mudbir takabburligi tufayli shahar hammomiga go'loh bo'ldi. Muqbil esa odob va tavoze sharofatidan maqsad gavharini topdi, shoh gulzeridan o'r'in oldi.

#### SAXOVAT VA HIMMAT TO'G'RISIDA

Saxovat— insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to'lqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u o'tin ham bir;» yog'insiz bulut ham bir-u tutun ham bir. Saxovatsiz odamdan ichida gavhari bo'lмаган sadafning farqi yo'q; dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog'ining farqi yo'q... Saxiy bulutdir, xirmon-xirmon don hosili, balki xazina beradi; baxil chumolidir, don-dun, mashoq teradi. Himmat ahlining ixtisosi saxovatdir; bu ulug'sifat pokiza kishilarga xosdir. Odam bir badan bo'lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi er sonida emas; jonsiz badanni hech kim tirik demas. Olihimmat odam baland-parvoz lochindir; behimmat kishi sichqon ovlovchi kalxatdir. Shunqorning maskani shohning bilagidir; kalxatning joyi oiimtikning sassiq badani va so'ngagidir.

Arslonning maqsadi ov qilib, och yirtqichlarni to'yg'azmoq; sichqonning harakati — don o'g'irlab, tugun axtarmoq. Himmat egasi qashshoq boischa ham tubanlik qilmas; himmatsiz odam xazina topsa ham buyuklarga teng bo'lmas. Chinor daraxti bo'sh qoili boisada, uning yuksakligiga nuqson yetmaydi; yer tagida yashirinib yotgan xazinaning tuproqqa foydasi tegmaydi. Himmatl

kishilarning darajasi yuksakdir; ammo saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksakdir.

Isrof qilish saxiylik emas; o'rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas,, Halol molni kuydirganni devona, deydilar; yorug' joyda sham yoqqanni aqldan begona deydirilan Maqtanish uchun mol bermoq—o'zini ko'z-ko'z qilmoq va shunday qilib o'zini «saxiy» demoq — behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko'rsatib ehson bersa, u patskash, saxiy emas. Tilagandan so'ng berishlik ham saxovatdan yiroqdir, qitsash natijasida bergandan bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikki boiib, yarmini och odamga berganni saxiy do'ts, deb bil.

### SAXOVAT QANDAY QILINADI

Yaxshiliklarni topmoq yedirmoqdir; ayblarni yashirmoq kiydirmoqdir. Zarur vaqtida berilgan eski chopon va bo'z to'n—saxovat; bemahal hadya qilingan zarbof chopon yaramaslikdir. Ovqatim uvol boimasin, desang— yedir; libosim eskirmasin, desang — kiydir.

Saxovat qilish yo'lini shu aytilgan gaplardan angla; ammo oljanoblik va mardlik rasmlari bundan boshqachadir.

### HILM TO'G'RISIDA

Hilm inson vujudining xushmanzara bog' idir va odamiylik olamining javohirga boy tog' idir. Yumshoq ko'ngillilik hodisalar to'la dengizdag'i kishilik kema-sining langari, desa bo'ldi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi.

Hilm axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi.

Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o'zi shuncha obro'siz va barchkana tuyuladi; yoshlari ham kattalarga nisbatan hazil va engiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e'tiborsiz bo'ladi.

Bu davr bog'inining xas-xashak singari odamlari shamoldek betayin, yengiltak kishilar oldida hilm ahli go'yo og'ir tabiatli va yomon fe'lli, deb kamsitiladi. Ularning o'zları esa, quyundek tup-roqni havoga to'zitadilar va yengiltabiatililar bilan boshlarini go'yo ko'kka yetkazadilar. Tog' jussasini oyoq otsi qilmoq — odatlari; dala-dashtlardagi zarralarni havoga sovurmoq—bularning salobatlari. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi; o'tdek otashdonni qizdirishdan o'zga ishni bilmaydi. Yel—garchi lolaning tojini uchiradi, ammo tog' qoyalari kamariga qanday ta'sir qila oladi? o't tog' etagidagi xas-xashaklarni kuydirishi mumkin, lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi?...

Yel, agaf ko'kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz; tog' agar tuproqqa botsa ham, salobatlidir. Yelning orasida o'tga yoqiladigan xas-xashaklar bor; hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho'g' kabi qizil la'l bor.

### TIL TO'G'RISIDA

Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz. Ko'p bemaza so'zlaydigan ezma kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshaydi. Tili yomon odam xalq

ko'nglini jarohatlaydi, o'z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodonning vahshiyarcha baqirmog'i—eshakning bemahal hangramog'i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'tsona so'z aytadi; ko'ngilga tushishi mumkin bo'lgan g'am uning so'zi bilan daf bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikning imkonи bor, shuning uchun ham aytadilarki, «nafasning joni bor...»

O'zi xunuk, gapi bema'ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o'xshaydi. Baxt bag'ishlovchi toza ruh manbai ham til; yomonliklar keltiruvchi nahn yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam — donishmand, oqil; so'zga erk bergan odam — beandisha va patskash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi; til bilan dil bir bo'lsa, yana yaxshi. Til bilan dil insondagi eng yaxshi a'zolardir. Bo'tsonda gulsafsar, gulg'uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Odam tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa, tilning ofatidir.

Til shirinligi ko'ngilga yoqimlidir; muloyimligi esa foydalidir. Chuchuk til achchiqqa aylansa, ko'pchilikka zarari tegadi; qanddan may tayyorlansa, harom bo'ladi. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir; bolalar uchun muloyim tabiatli odam halvofurush kabi sevimlidir.

## **16-mavzu. Ijod psixologiyasi**

### **I. Psixologiya faniga kirish.**

**1.1 Leksiyaning mashg'ulotlar tizimida egallagan o'rni va ahamiyati:** leksiya fanga kirish bo'lgani bois talabalar tomonidan butun predmetni o'zlashtirilishiga ko'rsatadigan uning ta'sir mazmunini ochib berish lozim bo'ladi.

### **1.2 Mavzuga doir bibliografiya:**

#### **Asosiy manbaalar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma`naviyat, 2008. -174 б.
2. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб / Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн тўртинчи том. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар/Алишер Навоий; тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.- Т.: Ўзбекистон, 2011.-408 б.
4. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр: (Насрий баёни билан)//Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ: масъул мухаррир В.Рахмонов/-Т.:Нашириёт матбаба бирлашмаси, 1989.- 352 б
5. Каримова В.М. Психология. -Т.: Шарқ, 2014. - 345 б.
6. Фозиев Э.Ф. Умумий психология. -Т.: Ўқитувчи. 2010 й. 452 б.
7. Baddeley A. D., & Hitch, G. J. (2014). Working memory. In G. H. Bower (Ed.). The psychology of learning and motivation (Vol. 8). New York: Academic Press.
8. Clark H. H., & Clark E. V. (2000). Psychology and language: an introduction to psycholinguistics. New York: Harcourt Brace.

#### **Qo'shimcha manbaalar:**

1. Абрамова М. Практическая психология М.: Мысль, 2003.
2. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления. М.: Прогресс, 1998.
3. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Т., 2006
4. Lundin. Theories and Systems of Psychology (3rd ed., 2005).

### **II. Leksiyani uyuştirish shakllari:**

- 2.1 Auditoriya.** 5111200 O'zbek tili va adabiyoti yo'nilishi 1 kursining Psixologiya fani to'g'risida ilmiy tasavvurga ega bo'lmagan talabalari.
- 2.2 Leksiya maqsadi.** Talabalarda maishiy va ilmiy psixologik bilimlar mavjudligini tushuntirib, ularni bir-birlaridan farqlash mezonlari bilan tanishtirish; psixologik bilimlar tayanadigan prinsiplar mohiyati va mazkur prinsiplarning fanni tushunishdagi o'rnini ko'rsatish; fan vazifalari va tadqiqiy metodlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni hosil qilishdan iborat.
- 2.3 Leksiya vazifalari.** Fanga nisbatan qiziqishni uyg'otish, uni o'zlashtirishga bo'lgan ichki motivatsiyani paydo qilish.
- 2.4 Leksiyani uyuştirish shakli.** Audiovizual vositalarga tayangan holda amalga oshiriladigan evristik suhbat.

## 16-MAVZU: IJOD PSIXOLOGIYASI

**Ijod psixik jarayon sifatida.** Turli davrlarda ijodga munosabat. Ijodiy qobiliyat muammosi. Ijodiy jarayonda ongsizlik o'rni. Ijodiylik konsepsiyalari.

**Kreativlik konsepsiyalari.** Ijodni intellekt darajasida talqin etilishi. Dj.Gilford va E.P.Torrenslarning kreativlik konsepsiyalari. M.Vollax va N.Kogan konsepsiysi. S.Mednik konsepsiysi.

**Ijodiy shaxs va uning hayot yo'li.** Chezare Lombrozo: talant va geniallik to'g'risida. Ijodkor shaxs motivatsiyasi. Ijodkor shaxslar. Kreativ xulq modellari. Ijodning yosh davri dinamikasi.

### REJA:

1. Ijod psixik jarayon sifatida
2. Kreativlik konseptiyalari

#### 1. Ijod psixik jarayon sifatida

Ko'plab faylasuf va psixologlar xulq-atvorning ikki ko'rinishini: adaptiv (insonda mavjud resurslar bilan bog'liq) va "yaratuvchan vayronakorlik" deb nomlanadigan kreativ xulqni farqlashadi. Ijod davomida odam boshqa odamlar tomonidan anglanishi va foydalanishi mumkin bo'lgan yangi voqelikni yaratadi.

Ijod, ijodkor shaxsiga qiziqish odamning olamdan butkul uzilishi, begonalashuvi bilan bog'liq global inqiroz sabab bo'lishi mumkin. Maqsadga muvofiq faoliyat odamning olamdag'i o'rmini aniqlash bilan bog'liq muammoni yechish o'rniga uni borgan sari ko'proq muammolar girdobiga tortib ketayotganday go'yo.

Ijodiy akt belgilarini farqlar ekanlar barcha tadqiqotchilar uning anglanmasligini, tafakkur va iroda nazoratidan tashqari ekanini, ongning o'zgargan xolati mavjudligini e'tirof etadilar.

Masalan, A. de Vini («Men o'z kitobimni yaratmayman, u o'zidan-o'zi bitadi. U mening boshimda buyuk meva kabi pishib yetiladi»), V. Gyugo («Tangri aytib turgan, men esa yozganman»), Avgustin («Men o'ylamayman, ular mening o'mimga o'ylaydilar») va h.

Ongsizlikning yetakchi o'rni, uning ijodiy akt jarayonidagi ustivorlik qilishi ijodning boshqa qator xususiyatlari bilan bog'liq, aynan ilhom paytidagi "irodaning ojizligi" fenomeni bilan. Ijod paytida odam o'zining hayollar oqimini nazorat qila olmaydi, kechinma va obrazlarni ixtiyoriy ravishda yaratishga qodir bo'lmaydi. Ijodkor ijodiy fantaziyasidagi bo'shlqlarni to'ldirishga ojizdir. Tasavvurlar o'zidan-o'zi vujudga kelib o'zidan-o'zi yo'qolib ketadi, ijodkorning dastlabki niyatiga muxoliflik qiladi (asarning tafakkuriy loyihasiga qarshi), yorqin va dinamik obrazlar unchalar ham yorqin bo'lмаган obrazlarni ongdan siqib chiqaradi. Ong inson g'ayrishuuriysi o'zini ifoda etayotgan "passiv" ko'zguga aylanadi.

Ijodkor o'z fantaziyalari manbasini, sababini tushuntirishga harakat qilayotgan paytda o'zini yo'qotib qo'yadi. S.O.Gruzenberg (1923) ijodkorlar o'z ijodiy jazbasini tushuntirishga uringan bir necha sabablarni ko'rsatib o'tadi: ilohiy va shaytoniy. Masalan, Bayron odam ichiga shayton kirib oladi deb ishongan bo'lsa, Mikelanjelo – uning qo'li Tangri qo'li – deb e'tirof etgan: «Yaxshi tasvir Tangriga

yaqinlashadi va uning bilan uyg'unlashib ketadi».

Ijodiy jarayondagi ongsizlik faolligi ongning alohida holati bilan bog'liq bo'lgani bois ijodiy akt ayrim xollarda tushlarda, mastlik va narkoz xolatida ro'y beradi. Tashqi vositalar yordamida shunday xolatlarni paydo qilish uchun ko'pehilik sun'iy stimulyatsiyaga murojaat etgan. R. Rollan «Kola Bryunon» romanini yozish paytida vino ichgan; Shiller oyoqlarini muzday suvgaga solishni yoqtirgan; Bayron giyohvand modda iste'mol qilgan; Russo oftob tig'ida yalangbosh turgan; Milton va Pushkin supachada yastanib she'r yozganlar. Kofeparastlar: Balzak, Bax, Shiller; narkomanlar — Edgar Po, Djon Lennon va Djim Morrison.

Ijodiy aktning favquloddaligi, dabdurstligi va tashqi sabablarga nisbatan muhtoriyligi — uning asosiy ikkinchi belgisidir. Ijodga ehtiyoj u nomaqbul bo'lgan paytda ham tug'ilishi mumkin. Ijodiy akt qo'zg'olish va nerv tarangligi bilan birga kuzatiladi.

Psixologiyada ijodiy qobiliyatlar muammosiga doir uch yondashuv farqlanadi:

1. ijodiy qobiliyat aslida yo'q narsadir. Intellektual salohiyat shaxsning ijodiy faollikning zaruriy omili bo'lsa-da, uning uchun yetarli shart emas. Ijodiy xulqning namoyon bo'lishida motivatsiya, qadriyatlar, shaxs chizgilari asosiy o'rinnegallaydi (A. Tannenbaum, A. Olox, D. B. Bogoyavlenskaya, A. Maslou va h.). Ijodiy shaxsning asosiy chizgilariga kognitiv iqtidor, muammolariga sezgirlik, mavhum va murakkab vaziyatlarda mustaqil tafakkurga egalik taalluqlidir.

2. ijodiy qobiliyat (kreativlik) intellekt bilan bog'liq bo'lмаган mustaqil omildir (Dj. Gilford, K. Teylor, G. Gruber, Ya. A. Ponomarev). E.P.Torrensnings "intellektual ostona nazariyasi" eng mukammal nazariyalardan biridir: unga ko'ra, agar IQ 115-120 dan past bo'lsa intellekt va kreativlik yagona faktorda birlashadi, agar IQ 120 dan oshsa ijodiy qobiliyat mustaqil o'lchamga aylanadi, ya'ni intellekti past bo'lgan ijodiy shaxslar bo'lmaydi, biroq kreativligi past intellektuallar bo'lishi mumkin (Torrance Ye. R., 1964, 1965).

3. Intellektning yuqori darajasi ijodiy qobiliyatlarni taqozo etadi va aksincha. Psixik faollikning alohida shakli sifatidagi ijodiy jarayon mavjud emas. Mazkur qarashni intellekt sohasida faoliyat yuritayotgan barcha olimlar qo'llab-quvvatlashadi (D. Veksler, R. Uaysberg, G. Ayzenk, L. Termen, R. Sternberg i dr.).

## 2. Kreativlik kontseptsiyaları

**Ijodni intellekt darajasida soddalashtirib talqin qiluvchi kontseptsiyalar.**

Ayzenk (1995), IQ va Gilfordning divergent tafakkurni aniqlashga doir testlari o'rtasidagi ahamiyatli korrelyatsiyalarga tayangan xolda kreativlik umumiy iqtidorlilik komponenti bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi fikrni ilgari surgan.

**Ijodni intellekt darajasida soddalashtirib talqin qiluvchi kontseptsiyalar** tarafdarları L.Termenning (Terman L. M., 1937) mumtoz tadqiqotlariga monand empirik izlanishlar natijalariga tayanishadi. 1926 L.Termen K.Koks bilan hamkorlikda 282 nafar g'arbiy yevropalik mashhurlar biografiyasini tahlil qilishib ularning IQ darajasini 17 dan 26 yoshgacha bo'lgan yutuqlari asosida baholashga

urinib ko'rgan. Bundan tashqari u Stenford-Bine shkalasi bo'yicha ularning bolalikdagi intellekti darajasini o'lchashga urinib ko'rgan. Muvaffaqiyatlarni baholash paytida nafaqat ularning intellektual, balki ijodiy yutuqlari ham inobatga olinishi xulosalar muqarrarligini shubha ostiga oladi. Agar metodika IQ ning nainki intellektual, balki ijodiy ko'rsatkichlarini ham inobatga olar ekan unda IQ va ijodiy qobiliyatlar o'rtasidagi aloqalar o'rtasidagi xulosalar metodning artefakti sanaladi. Nima bo'lgan taqdirda ham ushbu tadqiqot natijalari ommaviylashib ko'plab psixologik adabiyotlardan o'rinni oldi (Bogoyavlenskaya D. B., 1983).

Mashhur odamlarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirilishining yoshga doir ko'rsatkichlari oddiy bolalar tanlanmasining aynan shunday ko'rsatkichlari bilan qiyoslash amalga oshirilgan. Mashhurlar IQ sining o'rtacha ko'rsatkichi nazorat guruhi bo'lgan oddiy bolalar tanlanmasining o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqoriqoq ekani aniqlangan (158,9). Termen xulosa qiladi: daholar-bu testlash natijalariga ko'ra ilk bolalik davridanoq yuqori darajadagi iqtidorlilar toifasiga mansublash mumkin bo'lgan odamlardir.

**Dj.Gilford va E.P.Torrensning kreativlik kontseptsiyasi.** Kreativlik kontseptsiyasi Dj.Gilfordning mazkur sohaga oid ilmiy asari nashr etilgandan keyin universal bilishga doir ijodiy qobiliyat sifatida ommalashdi. (Guilford J. P., 1967).

Gilford tafakkuriy ikki jarayon: konvergentsiya va divergentsiya – o'rtasida printsipial tafovutlarga ishora qilgan. Konvergent tafakkur (bir javobga olib boradigan tafakkur) masala yechmoqchi bo'lgan odamga ko'plab shart-sharoitlardan yagona to'g'ri yechimni topish zaruriyati tug'ilganda aktuallashadi. Bundoq olib qaralganda, konkret yechim bir nechta ham bo'lishi mumkin, biroq ushbu ko'plikning chegarasi hamisha mavjud bo'ladi.

Divergent tafakkur "turli yo'naliislarda yechim izlab ketuvchi tafakkur ko'rinishi" sifatida izohlanadi (Dj. Gilford). Tafakkurning bunday ko'rinishi yechim yo'llarining turfa bo'lishi mumkinligini taqozo etadi, kutilmagan xulosa va natijalarga olib keladi.

Gilford divergentsiya kabi tafakkurga oid operatsiyani qayta uyuştirish va implikatsiya operatsiyalari bilan bir qatorda umumiy ijodiy qobiliyat negizi deb hisoblagan.

Intellekt tadqiqotchilari ijodiy qobiliyat bilan ta'lim olish va intellekt o'rtasidagi aloqalar sust ekani to'g'risidagi xulosaga kelganlar. Intellekt bilan ijodiy qobiliyat o'rtasidagi tafovutlarga birinchilardan bo'lib Terstoun e'tibor qaratgan. U ijodiy faollikda temperament xususiyatlari, yangi g'oyalarni tez o'zlashtirish va vujudga keltirish (ularga tanqidiy munosabatni bildirish emas) kabi omillar katta o'rinni tutishini, ijodiy yechimlar relaksatsiya paytida, diqqat sust bo'lgan holatda paydo bo'lishini alohida qayd etdi.

Gilford kreativlikning 4 asosiy o'lchamini farqlagan:

1. Originallik (perifirik assotsiatsiyalarni hosil qila olish)
2. Semantik sezgirlik (ob'ektning asosiy xossasini aniqlab, undan foydalanishning yangi ususlini taklif etish)
3. Obrazli adaptivlik (stimul shaklini shunday o'zgartirishga erishishki, unda

qo'llanishga yaroqli yangi imkoniyatlarni kashf etish qobiliyati)

4. Spontan semantik hosildorlik (tartiblashtirilmagan vaziyatda turli-tuman g'oyalarni ishlab chiqishga qodirlik)

Umumiy intellekt kreativlik tuzilmasiga kiritilmaydi. Gilford o'zining nazariy qarashlariga muvofiq tarzda divergent mahsuldarlikni testdan o'tkazuvchi qobiliyatlarni tadqiq etishga xizmat qiladigan test dasturlarini ishlab chiqqan.

Masalan:

1. So'z iste'moli tezligini o'rganadigan test: "quyida berilgan xarfni o'z ichiga qamrab oladigan so'zlarni yozing"
2. Biron-bir buyumdan foydalanish imkoniyatlarini o'rganadigan test: berilgan har bir predmetdan foydalanish imkoniyatlarini sanab bering
3. Tasvirlash: berilgan ob'ektlarni doira, to'rtburchak, uchburchak, trapetsiya kabi turkum shakllardan foydalangan xolda chizib bering. Har bir shaklni ko'pkarra o'lchamini o'zgartirgan xolda ishlatish mumkin. Faqatgina boshqa shakllarni qo'shish mumkin emas.

**M. Vollax va N. Kogan kontseptsiyasi.** M.Vollax va N. Kogan Gilford, Torrenslar tomonidan intellektning testli modellarini kreativlikni o'lchashga ko'chirishlari kreativlik testlari shunchaki boshqa intellektga doir testlar singari IQ ni diagnoz qilishgagina xizmat qilayotganligini ta'kid etishadi. Mazkur mualliflar vaqtin keskin cheklash, raqobat muhitiga qarshi chiqishib javob to'g'rilingining yagona bo'lish mezonini inkor etishadi (aniqlik mezioni). Vollax va Koganlar, shuningdek, P.Vernon i D.Xargravs (Vernon R. Ye., 1967)lar fikriga ko'ra ijod namoyon bo'lishi uchun erkin muhit zarur. Ijodiy qobiliyatlarni tadqiq etish odatiy hayotiy vaziyatlarda, sinaluvchi berilayotgan vazifaga doir qo'shimcha axborot manbaiga ega bo'lgan paytda o'tkazilgani ma'qul.

Ko'plab tadqiqotlar muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi, musobaqa, ijtimoiy ma'qullanish shart-sharoitlari shaxs autoaktualizatsiyasiga to'sqinlik qilishi mumkinligini ko'rsatgan.

Vollax va Koganlar o'z tadqiqotlarida kreativlik testlarini o'tkazish tizimini o'zgartirishdi. Birinchidan, ular sinaluvchilarga qo'yilgan masalani yechishga qancha vaqt zarur bo'lsa shuncha vaqt berishdi. Testlash ishtirokchilar o'rtasidagi raqobat minimal darajada ifodasini topadigan o'yin sharoitida o'tkazilgan. Eksperimentator sinaluvchining har qanday javobini qabul qilgan. Agar ushbu shartlar inobatga olinsa kreativlik bilan intellekt o'rtasidagi aloqalar yo'qqa chiqadi.

Vollax va Kogan yondashuvi kreativlik bilan intellekt o'rtasidagi aloqalarga doir muammoga yangicha nigoh tashlash imkoniyatini berdi. Olimlar 11-12 yoshli o'quvchilar intellekt va kreativligini tadqiq etishar ekan intellekt va kreativlikning turli darajalariga ega bolalarning to'rt guruhini ajratishga muvaffaq bo'lishgan. Turli guruhlarga mansub bolalar tashqi muhitga moslashuv va hayotiy muammolar yechimini topishga doir turli usullarga ega ekanligi bilan farqlanishadi.

**Yuqori intellekt va yuqori kreativlikka ega bolalar:** o'z kuchiga ishonishadi, o'ziga bergan bahosi adekvat; ichki jihatdan erkin va o'zini-o'zi yuqori darajada nazorat qila oladi; goho yosh boladay tuyulishsada vaziyat taqozo etganda o'zlarini

katta odamday tutishlari mumkin; har qanday yangi va g' alati narsalarga qiziqish namoyon etishadi, tashabbuskor; ijtimoiy muhit talablariga tez moslashishadi, biroq mushohada va xatti-harakatlari mustaqilligini saqlab qolishadi.

**Yuqori intellekt va kreativlik darajasi past bo'lgan bolalar guruhi:** a'lo bahoga intilishadi, muvaffaqiyatsizlikdan cho'chishadi, tavakkalchilikdan qochishadi, o'z fikrlarini omma oldida ifodalashga qo'rqishadi. Og'ir, sinfdoshlaridan masofada yurishadi, do'stlari kam, o'zlari bilan o'zlari qolishdan qo'rqishadi, doimo o'z xatti-harakatlari, faoliyat natijalari tashqaridan baholanishiga muhtoj.

**Intellekt darajasi past, biroq kreativlik yuqori bo'lgan bolalar guruhi:** "quvg'indilar", ular mushkulliklar bilan maktab talablariga moslashishadi, to'garaklarda shug'ullanishadi, g'ayritabiyy qiziqishlarga ega, ular faqat erkin vaziyatdagina o'zlarini namoyon eta olishadi, serxavotir, o'zlariga ishonishmaydi, nomukammallik kompleksi mavjud; o'qituvchilar bunday o'quvchilarni dovdir, diqqatsiz deb hisoblaydilar, zotan ular kundalik vazifalarni og'ir bajaradilar.

**Ham intellekt, ham kreativlik darajasi past o'quvchilar guruhi:** tashqaridan qaraganda tez moslashuvchan, "o'rtacha"lar doirasida yurishadi, o'z mavqeidan rozi. O'ziga bergen bahosi adekvat. Predmetli qobiliyatlar darajalarining pastligi ijtimoiy intellekti yuqoriligi bilan kompensatsiya qilinadi.

**A. Mednik kontseptsiysi.** A. Mednik tomonidan ishlab chiqilgan RAT (bir-biridan uzoq assotsiatsiyalar testi) negizida o'zgacha kontseptsiya yotadi (Mednick S. A., 1969).

Tushuntirish uchun bir necha sxemalarni keltirib o'tamiz.

Divergent tafakkur jarayoni quyidagicha amalga oshadi: muammo mavjud, va tafakkuriy izlanish muammo mazmunidan kelib chiqqan holda, semantik makonning turli yo'naliishlari bo'yicha borishi lozim. Divergent tafakkur – periferik, "muammo atrofidagi" tafakkurdir.




Рис. 35-2. Схема процесса дивергентного мышления

Konvergent tafakkur muammoga taalluqli semantik makonning barcha elementlarini o'zaro bog'laydi va ushbu elementlarning barchasiga muvofiq keladigan yagona yechimni topadi.

Mednik ijodiy jarayonda ham konvergent, ham divergent tarkibiy jihatlar mavjud deb hisoblaydi. Mednik fikriga ko'ra, muammo elementlari semantik makonning qancha chetrotq hududidan olingan bo'lsa, uni yechish jarayoni shunchalar kreativdir. Shuning bilan divergentsiya mazmuniy makonning chet hudulari aktuallashuvi bilan almashinadi. Shu bilan birga elementlar sintezi nevrotik va stereotipik bo'lishi mumkin, masalan, ot va inson chizgilarining uyg'unlashtirilishi otning kallasi mavjud odam obrazini emas, kentavr obrazini

aktuallashtiradi,

Ijodiy yechim stereotip yechimdan farqlanadi: ijod mohiyati, Mednik fikriga ko'ra, muolajalar xususiyatlarda emas, tafakkuriy sintezning yakuniy bosqichida qoliplarni yengib o'tish va assotsatsiyalar maydonining kengligidadir.



Рис. 35-4. Схема процесса творческого мышления (по С. Меднику)

Ushbu modelga binoan sinaluvchilarga assotsiativ bog'lanishlar bir-biridan uzoq so'zlar taklif etiladi. Sinaluvchi shu uch so'zdni mazmuniy bog'laydigan topishi lozim.

RAT testi asosida Mednikning quyidagi taxminlari yotadi:

1. til sohiblari bo'lgan odamlar so'zlarini muayyan assotsiativ bog'lanishlarga ko'ra iste'mol qilishga odatlanganlar. Har bir madaniyat va davrning o'z unikal odatlari mavjud.
2. Kreativ tafakkuriy jarayon mazmunan yangi assotsiativ bog'lanishlarni hosil qilishdan iborat.
3. sinaluvchi assotsatsiyalarining stereotiplardan olislik darajasi uning kreativligini belgilaydi.
4. har bir madaniyatning o'z qoliplari mavjud, shuning uchun odatiy va original javoblar har bir tanlanma uchun alohida aniqlanadi.
5. RAT testining unikalligini assotsiativ turfalik (stimulga berilgan assotsatsiyalar miqdori), individual assotsatsiyalar uyushuvi (assotsiativ javoblar miqdori), selektiv jarayon xususiyatlari (aloqalarning umumiyligi miqdoridan original assotsatsiyalarni saralab olinishi) belgilaydi.
6. RAT testi yechimi boshqa tafakkuriy masalalar yechimiga monand.

**R. Sternbergning "investitsiyalash nazariyasi"** (Sternberg R., 1985). Sternberg kreativ deb "g'oyalarni arzon narhda sotib olib qimmat narhda sota oladigan" odamni ataydi. «Arzon narhda sotib olmoq» — demak noma'lum, e'tirof etilmagan yoki ommaga yoqmaydigan g'oyalalar bilan shug'ullanishdir. Muammo ularning ehtimolli imkoniyati va taraqqiyotini to'g'ri baholashdan iborat. Ijodiy shaxs muhit qarshiligi, tushunmasligi va qabul qilmasligiga qaramasdan ma'lum g'oyalarni ilgari suradi va "yuqori narhlarda pullaydi". Bozorda muvaffaqiyatga erishgandan so'ng yangi g'oyaga diqqatini qaratadi. Ikkinci muammo mazkur g'oyalarni qaydan kelishidadir.

Sternberg inson o'z ijodiy imkoniyatini ikki holatda ro'yobga chiqarolmasligi mumkin: 1) u g'oyalarni muddatidan avval ilgari sursa; 2) agar u g'oyalarni muhokamasini cho'zib yuborsa, natijada g'oyalarni "eskiradi".

Sternberg fikriga ko'ra ijod olti asosiy omil bilan bog'liq: 1) qobiliyat sifatidagi intellekt; 2) bilim; 3) tafakkur tarzi; 4) individual xususiyatlar; 5) motivatsiya; 6) tashqi muhit.

Intellektual qobiliyat asosiy sanaladi. Ijod uchun intellektning quyidagi tarkibiy qismlari muhim: 1) sintetik qobiliyat — muammoni yangicha anglash, maishiy ong doirasidan chiqish; 2) analitik qobiliyat — ishlab chiqish mumkin bo'lgan g'oyalarni aniqlash; 3) amaliy qobiliyatlar — g'oyaning qimmatliligini boshqalarga uqtira olish («sotish»). Agar individda analitik qobiliyatlar sintetik va amaliy qobiliyatlardan ustunlik qilsa odam zo'r tanqidchi bo'lishi mumkin, biroq ijodkor emas. Sintetik qobiliyat ustunligi asossiz va befoyda g'oyalarni ko'plab ishlab chiqilishiga olib keladi. Amaliy qobiliyatlar ustivorligi "sifatsiz" g'oyalarni sotishga ko'plab sotilishiga olib keladi.

## **SEMINAR MASHG'ULOTLARI**

### **1. Psixologiyani o‘rganishda evolyutsion nazariyaning o‘rni**

- ✓ Psixika haqida umumiy tushuncha
- ✓ Psixikaning vujudga kelishi va uning evolyutsiyasi
- ✓ Til va ongning shakllanishi
- ✓ Nutq va oliy psixik funksiyalarning shakllanishi

### **2. Shaxs psixologiyasi**

- ✓ Inson, individ, shaxs
- ✓ Shaxsni o‘rganishdagi asosiy zamonaviy yondashuvlar
- ✓ Xorijiy psixologiyada shaxs nazariyalari
- ✓ Shaxsni o‘rganishga doir bixevoiristik va neobixevoiristik yondashuvlar
- ✓ Shaxsni psichoanaliz va neopsichoanalizda o‘rganilishi
- ✓ Shaxsni o‘rganishda kognitiv yo‘nalish o‘rni
- ✓ Shaxsning gumanistik nazariyasi
- ✓ Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari
- ✓ Sharq mutafakkirlarining “komil shaxs” to‘g‘risidagi qarashlari

### **3. Ichki regulyatsiya**

- ✓ Motivatsiya jarayonlari psixologiyasining hozirgi zamondagi holati
- ✓ Shaxsning motivatsiya sohasi taraqqiyoti
- ✓ Alohida faoliyat turlari motivatsiyalari
- ✓ Ustanovka va qadriyatlar
- ✓ Emotsional hodisalarning xilma-xilligi va funksiyalari
- ✓ Psixologiya tarixida emotsiya to‘grisidagi tasavvurlar
- ✓ Emotsiya psixologiyasining asosiy muammolari
- ✓ Emotsiya klassifikatsiyasi

### **4. Psixologik nazariyalar va ta’lim muammolari**

- ✓ E.Torndayk, E.Gazri, K.Xall: ta'limgarayoni xususida
- ✓ B.Skinnerning pedagogik jarayonni tashkil etishga doir qarashlari.
- ✓ Geshtalt-psixologlar va muammoli ta'limgarayoni
- ✓ J.Piaje: kognitiv taraqqiyot bosqichlari xususida
- ✓ E.Tolmen va K.Popper: kognitiv xarita va kognitiv tashnalik
- ✓ A.Bandura: kuzatuv orqali o'zlashtirish muammosi
- ✓ Alisher Navoiyning ta'limgarayoni doir qarashlari

## 5. Psixoanaliz maktabi vakillarining tarbiyaga doir qarashlari

- ✓ Taraqqiyot bosqichlari to'g'risidagi ta'limgarayoni
- ✓ Ego-psixologiya: Himoya mexanizmlari
- ✓ "O'qituvchi-o'quvchi" munosabatlari: ziddiyatlar negizini diagnostika qilishda psichoanalitik bilimlar o'rni
- ✓ Alisher Navoiyning tarbiyaga doir qarashlari

## 6. Ijod psixologiyasi

- ✓ Ijod psixik jarayon sifatida
- ✓ Kreativlik konseptsiyalari
- ✓ Ijodkor shaxs va uning hayot yo'li

## GLOSSARIY

1.	Frustratsiya	Фрустрация	Frustration
2.	Tolerantlik	Толерантность	Toleration
3.	Talaba	Студент	Student
4.	Nizo	Конфликт	Conflict
5.	Frustratsion xolat	Фрустрированное состояние	Frustration condition
6.	Ehtiyoj	Потребность	Necessity
7.	Tarbiya	Воспитание	Education
8.	Qiynchilik	Трудность	Difficulty
9.	Maqsad	Цель	Aim
10.	To'siq	Препятствие	Barrier
11.	Agressiya	Агрессия	Aggression
12.	Depressiv xolatlar	Депрессивные состояния	Depressive conditions
13.	Javob reaksiyasi	Ответная реакция	Answer reaction
14.	Mahrumlik	Лишние	Loss
15.	Yo'qotish	Потеря	Destruction
16.	Ekzistensial frustratsiya	Экзистенциальная фрустрация	Existential frustration
17.	Deprivatsiya	Депривация	Deprivation
18.	Kechinma	Переживание	Cark
19.	Zo'riqish	Напряжение	Stress
20.	Aybdorlik hissi	Чувство вины	To bear guilt for
21.	Ekstraversiya	Экстраверсия	Extraversion
22.	Introversiya	Интроверсия	Introversion
23.	Neyrotizm	Нейротизм	Neurotism
24.	Psixik xolat	Психическое состояние	Physiologic condition
25.	SHaxs xususiyati	Личностные качества	Personal quality
26.	Inqiroz	Кризис	Crisis
27.	Bazal frustratsiya	Первичная фрустрация	First frustration
28.	Ikkilamchi frustratsiya	Вторичная фрустрация	Second frustration
29.	Adekvat baho	Адекватная оценка	Adequate valuation
30.	Toqatlilik	Терпеливость	Patience
31.	Mutaxassis	Специалист	Specialist
32.	Moslashuv	Адаптация	Coordination
33.	Faoliyat	Деятельность	Activity
34.	Emotsional ta'sir	Эмоциональное	Emotional reaction

		реагирование	
35.	Fiksatsiya	Фиксация	Fixation
36.	Regressiya	Регрессия	Regression
37.	Muammo	Проблема	Problem
38.	Prinsipiallik	Принципиальность	Principles
39.	Tashkilotchilik	Организаторство	Organizing
40.	Ijtimoiy-siyosiy tafakkur	Социально-политическое мышление	Sociopolitical thinking
41.	Dunyoqarash	Кругозор	World outlook
42.	O‘zini-o‘zi baholash	Самооценка	Self-appraisal
43.	Refleksiya	Рефлексия	Reflection
44.	Shaxslararo munosabat	Межличностные отношения	Interpersonal relationship
45.	O‘zini-o‘zi tarbiyalash	Самовоспитание	Self-education
46.	Qadriyatlar	Ценности	Values
47.	Psixologik trening	Психологический тренинг	Psychological training
48.	Psixologik qo‘llab-quvvatlash	Психологическая поддержка	Psychological support
49.	Rivojlantirish	Развивать	Developing
50.	Psixologik omil	Психологический фактор	Psychological factor

